



## I Bob Noma'lum kishi

Noma'lum kishi fevral oyining dastlabki kunlarida paydo bo'ldi; bu ayoz kunda uv tortib izg'irin shamol esmoqda edi. Shunga qaramay, u Bremblxerst temir yo'l stansiyasidan piyoda keldi; bu odamning qalin qo'lqopli qo'lida chog'roq sakvoyaj bor edi. U boshidan oyog'igacha kiyimiga burkanib olgandi; fetr shlyapasining keng soyaboni basharasini butunlay yashirib, faqat burnining yiltirab turgan uchigina ko'zga chalinardi, sakvoyajiga o'xshab uning kifti bilan ko'ksi ham qor bilan qoplangandi. U sovqotgan va juda charchagan bo'lsa kerak, oyog'ini arang sudrab «Aravakash» deb atalgan qovoqxonaga kirishi bilanoq sakvoyajini polga tashladi.

— Issiq xona!—xitob qildi u,— Insonparvarlik Haqqi-hurkati! Menga issiqroq bir xona beringlar!

U egniga qo'ngan qorni qoqib tashlagach, shart-sharoit haqida kelishib olish uchun missis Xollga ergashib qabulxonaga kirdi. Ular tezda kelishib olishdi. Noma'lum kishi missis Xollning stoli ustiga ikki soveren tashlab, qovoqxonaga joylashdi.

Missis Xoll kaminga o't yoqdi-da, qo'lbola qilib ovqat hozirlab kelish uchun noma'lum kishini xonada qoldirib chiqib ketdi. Aynigda qish faslida ijarachi topish, buning ustiga, talashib-tortishmasdan, aytgan baxoyingga kunadigan ijarachini topish katta omad hisoblanardi,

shuning uchun missis Xoll o'ziga nasib bo'lmish shunday baxtli tasodifga munosib ayol ekanini namoyish etmokchi bo'ldi.

Vetchina qizarib-pishib, hamisha mudrab yuradigan oqsoch qiz Milli, kishining u yoq-bu yog'idan o'tib ketadigan necha tanbeh eshitgach (chamasi, bu tanbehlar sal bo'lsa-da, uni g'ayratga kiritisa kerak), missis Xoll musofirning xonasiga idish-tovoq va stakanlar olib kirib zo'r shinavandalik bilan dasturxon tuzay boshladi. Kaminda olov lang'illab yonib ketgan bo'lsa-da, uning xali ham shlyapa va paltosini yechmaganini ko'rib missis Xoll nihoyatda ajablandi; musofir missis Xollga orqasini o'girib, derazaga tikilganicha tashqarida yog'ayotgan qorga qarab turardi. U hali ham qo'lqopi echilmagan qo'llarini orqasiga qilib, go'yo nima haqdadir chuqur xayolga cho'mgandek edi. Qovoqxona bekasi musofirning kiftidagi qorlar erib, gilamga tomayotganini ko'rib qoldi.

— Mister, paltongiz bilan shlyapangizni olishga ijozat etsangiz,—murojaat qildi missis Xoll unga — men ularni quritgani o'choq yoniga ilib qo'yaman.

— Hojati yo'q,— javob qildi noma'lum kishi unga o'g'irilib ham qaramay.

Missis Xoll javobni yanglish eshitdim chog'i deb o'ylab, savolini takrorlashga og'iz rosladi.

Biroq shu mahal noma'lum kishi boshini burib, unga kifti osha qaradi-da:

— Men kiyimlarni yechmaslikni ma'qul ko'raman,— deb javob qildi.

Shunda missis Xoll uning katta zangori ko'zoynak taqqani, uzun qilib bakenbar qo'ygani va bu bakenbard uning yuzini yashirib turganini payqab qoldi.

— Juda soz, mister,— dedi u,— ixtiyoringiz. Uy hozir isiydi.

Noma'lum kishi miq etmay, yana unga orqa o'girib oldi. Suhbat yurishib ketmaganini ko'rib, missis Xoll jadallik bilan stol tuzadi-da, xonadan chiqib ketdi. U qaytib kirgan mahalda musofir hanuz qaddini bukchaytirib, yoqalarini ko'targan, basharasi va yuzini yashirgan keng soyabonli shlyapasini bostirib kiyganicha bamisoli tosh haykalday deraza oldida qaqqayib turardi. Ayol quymoqli vetchinani stol ustiga qo'yib baqirgudek bo'lib, dedi:

— Nonushtani keltirdim, mister!

— Tashakkur,— dedi notanish kishi, lekin to missis Xoll chiqib, ortidan eshik yopilmaguncha joyidan jilmadi. Ayol chiqib ketgach, u darhol stol yoniga keldi.

— Voy, qurib ketgur noshud!— dedi missis Xoll o'ziga o'zi,— men uni mutlaqo unutibman! O'lgiday yalqovda, yashamagur,— gorchisani maydalashga kirishar ekan, missis Xoll imillashi uchun Millini o'zicha bir necha bor chalpidi. O'zi quymoq bilan vetchinani qovurib, stol yasatib, kerakli hamma ishlarni bajarib qo'yibdi-yu, Milli bo'lsa-bunaqa yordamchidan o'rgildimu-mehmonni gorchisasiz qoldiribdi,— Axir mehman yo'l yurib charchagan va chamasi bu yerda uzoq istiqomat qilmoqchiga o'xshaydi. Missis Xoll ming'illab-ming'illab gorchisadonni to'latdida, uni zarhalli qora patnisga qo'yib, tantanavor qadam tashlab xona tomon yo'l oldi.

— U eshikni taqillatdi-yu, darhol ichkari kirdi. Notanish kishi shartta pastga engashdi stol ostida milt etib ko'ringan allaqanday bir oq buyumni missis Xollning ko'zi zo'r-bazo'r ilg'ab qoldi. Aftidan, u poldan nimanidir olmoqchi edi. Missis Xoll gorchisani stolga qo'yar ekan mehmonning paltosi bilan shlyapasi kamin oldidagi stolda yotgani, pulat panjarada esa, bir juft boshmoq turganini ko'rdi. Axir, panjara zanglab qoladi-ku. Missis Xoll zabt bilan kamin oldiga borib, hech qanday e'tirozga o'rin qoldirmaydigan ohangda dedi:

— Endi kiyimlaringizni olib quritish mumkindir deb o'ylayman.

— Shlyapani qoldirib keting,—dedi musofir bo'g'i'q tovush bilan. Missis Xoll o'girilib qaragan edi, uning qaddini g'oz tutib, o'ziga qarab o'tirganini ko'rdi.

— Ayol hayratdan bir minut chamasi tili lol bo'lib musofirga baqrayib qarab qoldi.

— Musofir og'zi bilan engagini allaqanday oq narsa, aftidan, o'zi olib kelgan sochiq bilan yopib o'tirardi. Shuning uchun ham ovozi shunaqa bo'g'i'q eshitilgani bo'lsa kerak. Lekin missis Xollni hayratga solgan narsa bu emasdi noma'lum kishi zangori ko'zoynakning zehidan boshlab butun peshanasini oq bint bilan o'rab olgan edi, boshqa bint esa uning qulog'ini yashirib turardi.

Faqat uzun qirra burnigina ochiq qolgan edi, xolos. Burni esa o'sha- o'sha — notanish kishi dastlab eshikdan kirib kelgan chog'idagi singari pushti rang edi. Noma'lum kishining egnidagi jigar rang baxmal kurtka uning oq surp qo'yib tikilgan serbar qora yoqasi ko'tarib qo'yilgandi.

Matashtirib o'ralgan bintlar orasidan tartibsiz ravishda chiqib turgan qalin qora sochlari tutam-tutam bo'lib dikkayib notanish kishiga favqulodda bir g'alati holat baxsh etgan edi. Uning bint bilan o'rab-chirmab tashlangan kallasi missis Xollni shu qadar hangu mang qilib qo'ydi, boyaqish ayol kutilmagan manzaradan serrayib qotib qoldi.

Noma'lum kishi sochiqni basharasidan olmay, avvalgi holicha uni jigar rang qo'lqopli qo'li bilan tutib, to'q zangori ko'zoynagi ostidan qovoqxona bekasiga tikilib turardi.

— Shlyapani qoldirib keting,— po'ng'illadi u yana qo'l sochiq ostidan.

Bir oz o'ziga kelgan missis Xoll shlyapani qaytarib stolga qo'ydi.

— Men bilmabman, afandim...— deb gap boshladi u,— siz...

— Ayol xijolat chekib jim qoldi.

Noma'lum kishi eshikka ma'nodor boqar ekan:

— Tashakkur,— dedi quruqqina qilib.

— Men hoziroq hammasini quritaman,— deb missis Xoll mehmonning kiyimlarini olib chiqib ketdi. Ostonaga etgach, u noma'lum kishining bint bilan tang'ib tashlangan boshi va zangori ko'zoynagiga yana bir marta nazar tashladi; musofir hali ham og'zini sochiq bilan yashirib o'tirardi. Missis Xoll eshikni yopib chiqar ekan, a'zoyi badani qaltirar, chehrasidan hali ham hayrat arimagan edi.

— Umrim bino bo'lib...— pichirladi u.

—Dahshat-ku!— U ohista oshxonaga qaytdi va imillagani uchun hatto Millini koyimadi ham.

Noma'lum kishi bo'lsa, shu mahal uy bekasining uzoqlashib borayotgan oyoq tovushiga quloq solardi. Sochiqni bir chetga qo'yib, yana tanovvul qilishga kirishmasdan avval u hadiksirab derazaga nazar tashladi. U bir luqma ovqat yutib, yana shubha bilan derazaga qaradi-da, keyin sochiqni qo'lida tutganicha o'rnidan turib, deraza oldiga bordi va darpardani tushirib qo'ydi. Xonani g'ira-shira qorong'ilik qopladi. Shundan so'ng ko'ngli bir qadar o'rniga tushib, stol yoniga keldi-da, yana nonushta qilishga kirishdi.

— Bechora yo mayib bo'lgan yoki uni operatsiya qilishgan; har qalay biron falokatga uchragani aniq,— dedi missis Xoll.

— Hamma yog'i bog'lab tashlangan, hatto qarashga ham qo'rqasan kishi.

Ayol pechkaga ko'mir tashlab, kiyim-kechak quritadigan tag kursini yaqinroq surdi-da, ustiga musofirning paltosini yoyib qo'ydi.

— Ko'zoynagini aytmaysizmi! Odam emas, naq g'ovvosning o'ziya.

— U kursiga sharfni ilib qo'ydi.

— Aftini bo'lsa, sochiq bilan berkitib olibdi! O'sha sochiq ostidan gapiradi!.. Ehtimol, og'zi ham og'riyotgandir? Shu mahal u daftardan bir narsani esladi shekilli, orqasiga o'girildi.

— Voy o'lmasam!—xitob qildi u.

— Nahotki blinchiklar hali tayyor bo'lmagan bo'lsa!

Missis Xoll stol ustini yig'ishtirib olmoq uchun xonaga qayta kirganida noma'lum kishining og'zi yorilgan yoki biror falokat natijasida abjag'i chiqqan bo'lsa kerak, degan tusmoliga yangi dalil topdi. Noma'lum kishi trubka chekib o'tirgan ekan. Missis Xoll xonadan chiqib ketgunicha u og'ziga tutilgan shoh ro'molchasini biror marta bo'lsin olmadi va trubkasini chekmadi. Biroq trubkasi yodidan ko'tarildi deb bo'lmasdi. Missis Xoll uning bekorga tutab yotgan tamakiga qarab-qarab qo'yayotganini payqab qoldi. U burchakda tushirib qo'yilgan darpardaga orqa o'girib o'tirardi, aftidan, u qornini to'yg'azib, isinib olgach, o'zini ancha durust his qilar va avvalgidek uzuq- yuluq gapirmas va zarda qilmas edi. Olovning qizg'ish shu'lasida uning ulkan ko'zoynagiga bamisoli jon bitganga o'xshardi.

— Bremblxerst stansiyasida,— dedi u,— ba'zi bir narsalarim qolgandi.

O'shalarni olib kelishga odam yuborishning iloji yo'qmi?

—Ayolning javobini eshitgach, bint bilan o'ralgan boshini nazokat bilan egib qo'ydi.

— Faqat ertaga odam yuborish mumkin deysizmi? Nahotki, undan ilgariroq borib kelishning iloji bo'lmasa?— Missis Xoll buning iloji yo'qligini aytganda, noma'lum kishi juda xafa bo'ldi.

— Sira iloji yo'qmi, a? — takror so'radi u.

— Balki aravada stansiyaga borib keladigan biror kishi topilib qolar?

Missis Xoll shu yo'sinda gapga solmoqchi bo'lib, uning barcha savollariga bajonidil javob berardi.

— Stansiyaga boriladigan yo'l juda qiyalab ketgan,— dedi missis Xoll va fursatdan foydalanib ilova qildi:

—O'tgan yili o'sha yo'lda bir arava ag'darilib tushgandi. Yo'lovchi ham, izvoshchi ham til tortmay o'ldi. Falokat oyog'ingning ostidan chiqadi, deb shuni aytadilar-da!

Falokat bossa, ko'z ochib yumguncha asfalasofilin bo'lish mumkin, shunday emasmi, mister?

Biroq mehmonni gapga solish uncha oson emasdi.

— Ha, shunday,— dedi u, qalin ko'zoynagi ostidan missis Xollga bamaylixotir boqib.

— Tirik qolgan taqdirda ham, shifo topib ketguncha bo'ladigan ovora sarsongarchilikni aytmaymizmi? Mana, masalan, mening Tom degan jiyanim o'tgan yili qo'lini o'roq bilan kesib olgan edi, pichan o'rib turganida qoqilib ketibdi-da, qo'lini kesib olibdi, ha, ishonasizmi, uch oycha qo'lini bog'lab yurdi. Shundan beri men o'roqdan o'lgiday qo'rqadigan bo'lib qoldim.

— Buning sira ajablanarli joyi yo'q,—dedi musofir.

— Ahvoli juda og'irlashib ketgan mahalda uni hatto operatsiya qilish kerakka o'xshaydi deb ham o'yladik.

Musofir xuddi itning akillashiga o'xshash tovush chiqarib kuldi.

— Ahvoli shunchalik yomonlashganmide?— qayta so'radi u.

— Ha, shunday mister. Bu hol uni parvarish qilayotgan odamlar uchun sira kulgili emasdi. Mana meni misolga oling, mister, chunki opam nuqul yosh bolalari bilan band bo'lardi. Uning qo'lini bog'lash va echish mening zimmamga tushgandi, agar bilsangiz edi...

— Marhamat qilib, menga gugurt topib bering,— deb birdan uning so'zini bo'ldi musofir.— Trubkam o'chib qoldi.

Missis Xoll jim bo'lib qoldi. Shunchalik qo'pollik bilan so'zini kesishi odobsizlik, albatta. Ayol bir daqiqa unga achchiqlanib qarab turdi, lekin to'lagan ikki soveren pulini eslagach, indamay gugurt keltirgani jo'nadi.

Missis Xoll gugurt keltirib stol ustiga qo'ygach, musofir unga qarab:

— Rahmat!— dedi-da, keyin orqasini o'girib yana derazaga qarab oldi. Chamasi, bint va operatsiya haqidagi gaplar unga yoqmasdi. Missis Xoll bu mavzudan qayta og'iz ochmaslikka qaror qildi. Notanish kishining iltifotsizligi uni ranjitdi va missis Xoll butun alamini boyaqish Millidan oldi.

Musofir hech kimni chaqirmay, soat to'rtlargacha mehmonxonada yolgiz o'zi o'tirdi. Shu vaqt ichida u yerdan hech qanday tovush eshitilmadi, aftidan, u o'tin yonib tugayotgan kamin oldida trubka chekib o'tirgan, ehtimolki, mizg'ib olgan bo'lsa kerak.

Biroq, basharti biror kishi diqqat bilan quloq solganda edi, uning kamindagi ko'mirlarni titkilagani, keyin xonada besh minutcha u yoqdan-bu yoqqa yurib, o'z-o'zi bilan gaplashganini eshitgan bo'lardi. Keyin u qaytib borib joyiga o'tirdi, shunda kreslo sal-pal g'ijirlab ketdi.

## II Bob

### Mister Teddi Xenfrining dastlabki taassuroti

Soat to'rtida, deyarli qosh qorayib, nihoyat missis Xoll botinib musofir o'tirgan xonaga kirmoqchi va choy ichishga xohishingiz bormi, deb so'ramoqchi bo'lib turganida qovoqxonaga soatsoz Teddi Xenfri kirib keldi.

— Havoning rasvoligini qarang, missis Xoll!— dedi u.

— Men esam, yupqa yozgi boshmoq kiyib yuribman.

Tashqarida gupillab qor yog'moqda edi.

Missis Xoll havoning rasvoligi to'g'risidagi fikrga qo'shildi va daf'atan soatsozning asbob-uskuna joylangan chamadonchasi ko'zi tushib quvonib ketdi.

— Bilasizmi, mister Xenfri, shu yerda ekaningizda, lutfan, mehmonxonadagi soatni bir qarab bering-a. O'zi yaxshi yuradi, zang urishi ham joyida, lekin strelkasi oltida to'xtaganicha sira o'rnidan siljigisi kelmaydi.

Missis Xoll soatsozni mehmonxona eshigiga boshlab bordi-da, eshikni taqillatib, ichkari kirdi.

Missis Xoll ostona hatlab ichkari kirganida musofir kamin oldidagi kresloda bint bilan o'ralgan boshini quyi solib mudrab o'tirardi. Xonani kamindagi o't alangasining yolqini yoritib turardi; noma'lum kishining ko'zoynagi temir yo'lning signal chiroqlari kabi yaltirab turar, basharasi esa soyada qolgani tufayli ko'zga uncha chalinmasdi; qiya ochiq eshikdan xonaga qish kunining so'nggi g'ira- shira yorug'i tushib turardi. Vino quyib sotiladigan peshtaxta tepasida hozirgina yoqilgan chiroq shu'lasida ko'zi qamashgani sababli missis Xollga xonadagi hamma narsa qizg'ish, g'alati va noaniq bo'lib ko'rindi. Bir lahzagina unga noma'lum kishining og'zi kishini vahimaga soladigan darajada keng bo'lib, butun basharasini kesib o'tgan o'raday bo'lib tuyuldi.

Lekin bu — oppoq bint bilan o'ralgan kalla, ulkan ko'zoynak va uning ostida go'yo esnayotganga o'xshash keng ochilgan og'iz — bir ongina ko'rindi, xolos. Biroq shu payt mudrayotgan kishi qimirladi-da, qaddini rostlab, qo'lini ko'tardi.

Missis Xoll eshikni lang ochib yuborgan edi, xona ancha yorishib ketdi: endi u musofirning yuzini durustroq ko'rdi, uning basharasi avval sochiq bilan o'ralganiday, hozir ham sharf bilan o'rog'liq edi. Shunda missis Xoll bu narsalarning hammasi shunchaki ko'zimga ko'rindi, aslida esa soya tushib turgani uchun shunday tuyulgan bo'lsa kerak degan fikrga keldi.

— Bu kishiga soatni tekshirib ko'rishga ijozat bermaysizmi, mister?—so'radi missis Xoll, o'ziga kelib.

— Soatni tekshirish?—qayta so'radi musofir mudraganicha atrofga alanglab. Keyin go'yo birdan o'ziga kelganday ilova sildi:

— Marhamat!

Missis Xoll chiroq keltirgani chiqib ketdi, noma'lum kishi esa, o'rnidan turib kerishdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay uy bekasi chiroq ko'tarib keldi. Mister Teddi Xenfri uni qo'lga olib, xonaga qadam qo'ydi-yu, bint bilan o'rab chirmalgan kishiga ro'para keldi va keyinchalik o'zi iqror bo'lganidek «kapalagi uchib ketdi».

— Salom,— dedi noma'lum kishi, Teddining iborasi bilan aytganda, unga «dengiz qisqichbaqasi» kabi nazar tashlab,— uning bunday taqqoslashiga zangori ko'zoynak sabab bo'lgan bo'lsa kerak.

— Sizni bezovta qilmaymanmi, ishqilib?— dedi mister Xenfri.

— Aslo,— javob qildi musofir.

— Biroq men,— deb qo'shimcha qildi u, miss Xollga yuzlanib,— bu xona mening shaxsiy tasarrufimga o'tdi deb o'ylagandim.

— Basharti soatni tuzatishsa,— dedi uy bekasi,— siz bunga qarshi bo'lmassiz deb...

U «o'ylagandim» deb qo'shimcha qilmoqchi edi-yu, biroq jim qoldi.

— Albatta,— shartta uning so'zini bo'ldi musofir.

— Sirasini aytganda, men yolg'iz o'tirishni yaxshi ko'raman, bezovta qilishlarini yoqtirmayman. Lekin soatning tuzatilishidan xursandman,— deb so'zini davom ettirdi u, mister Xenfrining taraddudlanib to'xtaganini ko'rgach. Soatsoz uzr so'rab qaytib ketmoqchi edi-yu lekin musofirning gapini eshitib ko'ngli o'rniga tushdi.

Noma'lum kishi o'girilib, qo'llarini orqaga qildi.

— Soat tuzatilgandan keyin, choy ichaman,— dedi u.

— Lekin undan oldin emas.

Missis Xoll xonadan chiqib ketmoqchi bo'lganda, (bu safar u musofir mister Xenfrining oldida qo'rslik bilan so'zini bo'lib qo'yishini istamay, uni gapga solishga urinmadi) noma'lum kishi qo'qqisidan, yukni keltirish masalasi nima bo'ldi deb so'rab qoldi. Missis Xoll shu haqda pochta bilan gaplashgani va yuk ertaga ertalab keltirilajagini aytdi.

— Uni ertaroq keltirish mumkin emasligiga aminmisiz?—deb so'radi musofir.

— Aminman,— sovuqqina javob qildi missis Xoll.

— Men kelishim bilanoq, o'zimni sizga tanitishim kerak edi, lekin shu qadar sovuqotgan va charchagan edimkn, tilim zo'rg'a gapga kelardi. Bilasizmi, men tadqiqotchiman...

— E, shunday deng,— dedi missis Xoll, uning gapidan qattiq ta'sirlanib.

— Yukim turli-tuman asbob-uskuna va apparatlardan iborat.

— Juda foydali narsalar,— deb gap qistirdi missis Xoll.

— Men tadqiqotlarimni davom ettirish imkoniyati tug'ilishini zoriqib kutmoqdaman.

— Bu tushunarli hol, mister.

— Aypingga kelishimga,— salmoqlanib gapida davom etdi musofir, diqqat bilan so'z tanlab,— sabab bo'lgan rosa... hm-m... tinchlik sokinlikka intilishimdir. Tadqiqot bilan band bo'lgan mahalimda tinchimni buzishlarini istamayman. Bundan tashqari, baxtsiz hodisa...

«O'zimam shundaydir deb o'ylagandim-a»,— xayolidan o'tkazdi missis Xoll.

—Tanho yashashga majbur etadi. Gap shundaki, gohida ko'zlarim shu qadar zaiflashib, toqat qilib bo'lmaydigan darajada og'riy boshlaydi, shunda bir necha soatlab qorong'i xonada ichkaridan qulflab o'tirishga majbur bo'laman. Vaqti-vaqti bilan shunday bo'lib turadi. Hozir unday bo'layotgani yo'q, albatta. Ammo o'sha dardim qo'zib qolgan mahalda, andak bo'lsin notinchlik, begona odamning kelishi menga qattiq azob beradi...

Bu haqda sizni oldindan og'ohlantirib qo'yganim yaxshi deb o'ylayman.

— Albatta, mister,— dedi missis Xoll.

— Sizdan yana shuni so'ramoqchi edimki...

— Aytmoqchi bo'lgan gaplarimning hammasi shu,— deb uning so'zini kesdi musofir, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan ohangda.

Missis Xoll jim bo'ldi va so'rog'u savol hamda taassuf izhor etishini qulayroq bir fursatga qoldirishga jazm qildi.

Uy bekasi chiqib ketdi, musofir esa, soat tuzatayotgan mister Xenfriga g'azab bilan tikilganicha (har qalan, keyinchalik mister Xenfrining o'zi shunday degan edi) kamin oldida qoldi. Soatsoz chiroqni o'ziga yaqin yerga qo'ydi, yashil abajur xonaning hamma yog'iga soya solib, uning qo'lini va soat mexanizmlarinigina yoritib turardi. Soatsoz ishdan bosh ko'targan mahalda, ko'z o'ngida rango-rang halqachalar suzardi.

Tabiatan sinchkov bo'lgan mister Xenfri ishni paysalga solish uchunmi yoxud notanish kishini gapga solmoqchi bo'libmi, kim bilsin, hech qanday zarurat yo'qligiga qaramay, soat mexanizmini butunlay chiqarib oldi. Biroq musofir churq etib og'iz ochmas va qimir etmay turardi. Musofirning bunday g'o'dayib miq etmay turishi mister Xenfrining asabiga tegdi. Unga go'yo xonada o'zidan bo'lak hech kimsa yo'qday tuyuldi. Lekin u boshini ko'tarib qarashi bilanoq ko'z oldida yashil halqachalar paydo bo'lib, yana nim qorong'ilikda boshini bint bilan o'rab, ulkan zangori ko'zoynagini yiltiratganicha indamay turgan o'sha gavdani ko'rdi. Bu manzara shu qadar vahimali ediki, mister Xenfri musofirga baqrayib qaraganicha bir lahza tirrakday qotib qoldi. Keyin yerga boqdi. Juda lapashang-da, o'ziyam! Biror narsa haqda gap ochish kerak edi. Bu yil sovuq ertaroq tushdi desa bo'lmasmikini?

Mister Xenfri bir narsani mo'ljalga olganday yana boshini ko'tardi.

— Havo...— deb gap boshladi u.

— Tezroq tugatib jo'nab qolasizmi, yo'qmi?—dedi go'dayib turgan noma'lum kishi, g'azabini zo'r-bazo'r bosib.

— Soat strelkasini o'qqa o'rnatib qo'yishingiz kerak edi xolos, siz bo'lsangiz, qachondan beri behuda urinib yotibsiz.

— Hozir, mister... bir minutgina... Men unutibmanki...

— Mister Xenfri hash-pash deguncha ishini tugatdi-yu, xonadan chiqib ketdi. Lekin uning ancha ta'bi tirriq bo'lgan edi.

— Obbo!—deb no'ng'illardi o'z-o'zicha Xenfri, gupillab yog'ayotgan ho'l qor oralab borarkan.

— Vaqti-vaqti bilan soatni ham tekshirib ko'rish kerak-ku, axir...

Buni qarangi, u kishiga qarash ham mumkin emasmish. Bu qanaqasi bo'ldi!.. Demak, qarash mumkin emas ekan-da. Hamma yog'iga bint boylab shu qadar o'ralib-chirmanib olibdiki, go'yo polisiya ta'qibidan qochib yurganday.

U muyulishga etganda, yaqinda noma'lum kishi qo'ngan «Aravakash» qovoqxonasining bekasiga uylangan Xollni ko'rib qoldi. Xoll tasodifiy yo'lovchilarni Ayping Sidderbrij stansiyasiga tashlab qaytmoqda edi. Omnyabusni boshqarishidan uning Sidderbrijda qittay «otib olgani yaqqol sezilib turardi.

— Ahvollar qalay, Teddi?—so'radi u Xenfriga yaqin kelganida.

— Qovoqxonalaringga allaqanday shubhali odam qo'nibdi,— dedi Teddi.

Xoll gap sotishga xona topilganiga quvonib otning jilovini tortdi.

— Nima deding?— so'radi u.

— Qovoqxonalaringga allaqanday shubhali odam qo'nibdi,— gapini takrorladi Teddi.

— Xudo haqi...— U to'lib-toshib Xollga g'alati mehmonni tavsiflab bera boshladi.

— Tashqi ko'rinishidan niqoblangan odamning ayni o'zi. Qovoqxonang meniki bo'lganida kelgan mehmonning basharasini yaxshilab tanib olishga harakat qilgan bo'lardim, albatta,— dedi u.

— Lekin ayollar noma'lum erkakni ko'rganlarida, hamisha ishonaveradilar. U sizlarning qovoqxonangizga joylashayotganda hatto familiyasini ham aytmabdi.

— Rostdan-a?— so'radi, fahm-farosati zaifroq bo'lgan Xoll.

— Ha,— javob qildi Teddi.

— U bir haftalik ijara pulini oldindan to'lapti. Demak, kimligidan qat'iy nazar, bir haftasiz undan qutula olmaysizlar. Buning ustiga ustak, bir talay yukim bor deydi, uni ertaga olib kelisharmish. Ishqilib, yuki tosh to'latilgan yashiklar bo'lmasinda.

Shundan so'ng Xenfri bo'sh chamadon bilan kelgan allaqanday musofir Xastingsda yashaydigan ammasiga qanday firib berib ketganini aytib berdi. Xullasi kalom, Teddi bilan bo'lgan suhbat Xollning ko'nglida andak shubha uyg'otdi.

— Qani, cho', kampir!—deb hayqirdi u otiga.

— Uyda tartib o'rnatish kerakka o'xshab qoldi.

Geddi bo'lsa, ko'nglidagi gapni aytib olgandan so'ng, kayfi ancha ochilgan holda o'z yo'lga jo'nadi.

Biroq Xoll uyiga qaytgandan keyin tartib o'rnatish o'rniga, Sidderbrijda shuncha uzoq qolib ketgani uchun talay ta'namalomatlar eshitdi, yangi ijarachi haqida qo'rqa-pisa bergan savollariga esa qo'rs, lekin mujmal javoblar oldi. Ammo har qalay soatsoz tomonidan Xollning ko'ngliga solingan shubha butunlay yo'q bo'lib ketmadi.

— Siz, xotinlar, hech baloning farqiga bormaysizlar,— dedi mister Xoll, qulay fursat kelishi bilanoq musofirning kimligini batafsil bilib olishga jazm qilib.

Ijarachi o'z yotoqxonasiga kirib ketganidan keyin (soat to'qqiz yarimlar chamasi edi), mister Xoll kishining jig'iga tegadigan bir qiyofada g'o'dayib mehmonxonaga kirdi- da, go'yo bu yerda musofir emas, balki o'zi xo'jayin ekanini namoyish qilmoqchi bo'lgandek, jihozlarni diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi; so'ng u noma'lum kishi qoldirib ketgan matematik xulosalar chiqarilgan qog'ozga jirkanish bilan nazar tashladi-da, xonadan chiqib ketdi. Uxlashga yotar ekan mister Xoll xotiniga ijarachining ertaga keltirishlari lozim bo'lgan yuklari nimalardan iborat ekanini diqqat bilan tekshirib ko'r deb maslahat berdi.

— O'zingga daxli bo'lmagan ishga tumshug'ingni tiqma,— deb uning so'zini cho'rt kesdi missis Xoll.

—Sen o'zingni bil, ishni esa sensiz ham o'zim eplayveraman.

Musofir chindan ham g'alati kishi bo'lib, missis Xollning o'zi ham birmuncha bezovta edi, shu sababdan u yeridan yanada qattiqroq ranjidi. Missis Xoll kechasi tushida katta-katta ko'zli, ulkan sholg'omsimon boshlar uzun bo'yinlarini cho'zib o'zi tomon kelayotganini ko'rib cho'chib uyg'onib ketdi. Lekin, u idrokli ayol bo'lganidan qo'rquvini bosib, ikkinchi yonboshiga ag'darildi-da, yana uyquga ketdi.

### III Bob

#### Ming bir shisha

Shunday qilib, to'qqizinchi fevral kuni, endigina eruvgarchilik boshlangan mahalda Aypingda g'alati qiyofali noma'lum kishi paydo bo'ldi. Ertasi kuni pilch-pilch loygarchilikda uning yukini qovoqxonaga keltirishdi. Bu unchalik ham oddiy yuk emas ekan. To'g'ri, har ikkala chamadonning ham odatda sayohatchilarda bo'ladigan chamadonlardan hech qanday farqi yo'q edi; ammo, chamadonlardan tashqari, ichiga kitob joylangan yana bir quti ham bo'lib — undagi kitoblar katta-katta, qalin-qalin edi, ammo u kitoblarning ba'zilari nashr etilmay, balki juda badxat qilib qo'lda yozilgandi — shuningdek, ichiga poxolga o'rog'liq allaqanday buyumlar joylangan anchagina savatlar, yashiklar, qutilar ham bor edi. Poxollarni titib ko'rishni unutmagan Xoll ularni shishalar deb o'yladi. U yuklarni uyga olib kirishga yordamlashmoqchi bo'lib, aravakash Firensayd bilan chaqchaqlashayotgan mahalda, shlyapasini bostirib olgan, egniga palto, qo'lga qo'lqop kiyib, bo'yniga sharf o'ragan noma'lum kishi eshikdan chiqib keldi.

Noma'lum kishi uydan chiqarkan, Firensaydning erinchoqlik bilan Xollning oyog'ini iskab turgan itiga hatto qayrilib ham qaramadi.

— Yashiklarni xonaga olib kiringlar,— dedi u.

— Axir yukni kutaverib ko'zim to'rt bo'lib ketdi-ku.

Shunday deb u zinapoyadan tushdi-da, chog'roq bir savatni olmoqchi bo'lib aravaning ortiga o'tdi.

Uni ko'rib Firensaydning iti g'azab bilan irillab, junlarini hurpaytirdi; musofir zinapoyadan tushib aravaning orqasiga o'tganda esa it yugurib borib uning qo'lga yopishdi.

Itni ko'rsa kapalagi uchadigan Xoll bir cho'chib tushdi-da, keyin:

— Et!—deb qichqirdi. Firensayd esa:

— Jim bo'!— deb baqirdi-da, qamchisiga yopishdi.

Ular it noma'lum kishining qo'lini tishlaganini ko'rdilar, tepki tovushini eshitdilar, it bir sapchib musofirning oyog'iga yopishdi, shundan so'ng shimning «tirr» etib yirtilgani eshitildi. Shu payt Firensayd qo'lidagi qamchisi bilan itning tumshug'iga solgan edi, it alam va og'riqdan angillab aravaning ostiga yashirindi. Bu hodisa yarim minut ichida sodir bo'ldi. Hech kim gapirmas, hamma baqirardi. Noma'lum kishi darhol yirtilgan qo'lqopiga va shimiga qaradiyu egilmoqchi bo'lganday bir harakat qildi, keyin shartta orqasiga o'girilib yugurganicha zinapoyaga chiqib ketdi. Atrofdagilar uning shoshilinch ravishda o'tib borgani va xonasiga ko'tariladigan taxta zinapoyadan taraq-turuq qilib chiqqanini eshitdilar.

— Eh, iflos maxluq!— so'kindi Firensayd qo'lidagi qamchi bilan aravadan tushar ekan, shu mahal it g'ildirak ostidan uning harakatini diqqat bilan kuzatib turar edi.

— Beri kel!— deb qichqirdi Firensayd.

— Beri kel deyaqman senga, bo'lmasa bundan battar savalayman.

— Xoll avvaliga nima qilarini bilmay, bir oz anqayib turdi.

— It uni qopdi,— deb gap boshladi u keyin.

— Kirib ko'raychi, ahvoli nechuk ekan.

— Shunday deb Xoll noma'lum kishining ortidan ketdi. U koridorda xotiniga duch kelib unga:— «Firensaydning iti ijarachini qopdi»,— dedi.

— U zinapoyadan yuqori ko'tarildi-da, noma'lum kishining eshigi oldida to'xtadi. Eshik qiya ochiq ekan. Xoll uni lang ochib, mehmonga o'zining taassufini izhor etish niyatida, hech qanday takallufsiz xonaga kirib bordi.

— Darparda tushirilgan bo'lib, xonani g'ira-shira qorong'ilik bosgan edi. Xollning ko'zi g'oyatda antiqa bir manzarani ilg'ab qoldi: bu boshi ustida turgan panjasiz qo'l hamda oq doka oldida tussiz kapalak gulga juda ham o'xshab ketadigan uchta katta noaniq dog'dan iborat bo'lgan bashara edi. Kyoyin ko'kragiga tekkan qattiq bir zarba uni koridorga uloqtirib yubordi, u eshikning qars etib yopilgani va shiqirlab qulflanganini eshitdi. Bularning hammasi shu qadar tez yuz berdiki, Xoll hech narsani idrok etishga ulgura olmadi. Allaqanday g'ira-shira



ko'lankalarning ko'zga elas-elas chalinishi, zarba, ko'krakdagi og'riq esda qoldi, xolos. Mana hozir u, bu qanaqasi bo'ldi, a, deb bosh qotirganicha eshik oldidagi qorong'i yo'lakchada serrayib turibdi.

— Saldan keyin Xoll ko'chada, qovoqxona oldida yig'ilgan bir to'da odamlarga borib qo'shildi. Bu yerda o'z hikoyasini boshidan boshlab ikkinchi marotaba aytib berayotgan Firensayd ham, nuqul «itingiz mening ijarachimni qopishga hech qanday haqqi yo'q» deb ta'kidlayotgan missis Xoll ham, voqeaga juda qiziqib qolgan ro'paradagi do'konning xo'jayini Xaksters ham, Firensaydning hikoyasini qovog'ini solib, donishmandlarga xos bir qiyofada tinglayotgan temirchi Sendi Uojers ham bor edi. Voqea sodir bo'lgan joyga birpasda xotinlar va bolalar yugurib kelishdi, ularning har biri: «Meni qopib ko'rsin edi», «Bunaqangi itni boqish mumkin emas» kabi biron bema'ni gapni aytardi.

Mister Xoll zinapoyada bir oz turib, ularning gaplariga quloq soldi, shunda unga yuqorida hech qanaqangi favqulodda bir narsa ko'rgan bo'lishi mumkin emasday tuyula boshladi. Agar gapirmoqchi bo'lganida ham, baribir, u o'z taassurotini tasvirlash uchun so'z topa olmagan bo'lardi.

— U menga hech nimaning keragi yo'q dedi,—javob berdi mister Xoll xotining savoliga.— Endi yuklarni ichkariga olib kiraversak ham bo'lar deyman.

— Yaxshisi darhol kuydirish kerak edi,— dedi mister Xaksters,— ayniqsa, yara yallig'lagan paytda buning foydasi katta bo'ladi.

— Men bu itni otib o'ldirardim,— dedi bir xotin.

It birdan yana irillab qoldi.

— Qani, yukni tushiringlar,— degan zardali ovoz eshitildi va ostonada shlyapasini bostirib kiyan, yoqasini ko'tarib, paltosiga o'ralib olgan noma'lum kishi paydo bo'ldi,— uni ichkariga qancha jadal olib kirsangiz, shuncha yaxshi,— deb so'zini davom ettirdi u. O'sha yerdagilardan birining gapiga qaraganda, musofir qo'lqopi bilan shimini almashtirib olgan ekan.

— Yomon qopdimi, taqsir?—so'radi Firensayd.

— Kelib-kelib sizni xuddi mening itim qopganidan juda o'ng'aysizlanyapman...

— Arzimaydi,— deb javob berdi noma'lum kishi.

— Hatto tishining izi ham qolgani yo'q.

Yaxshisi yuklarni tezroq olib kitishga shoshiling!

Mister Xollning gapiga qaraganda, shundan so'ng musofir sekingina so'kinib qo'yibdi. Birinchi savati mehmonxonadagi o'zi ko'rsatgan joyga olib kirishlari bilanoq, musofir hech uyalmay-netmay, missis Xollning gilamiga poxollarni to'kib-sochib, sabrsizlik bilan uni ocha boshladi. U savatdan har xil hajm va har xil shakldagi shishalarni olishga kirishdi. Bularning orasida poroshok solingan qorindorlari ham, xilma-xil rangga bo'yalgan yoki shaffof suyuqlik bilan to'latilgan ingichka-ixchamlari ham, ustiga «zahar» degan so'z yozig'liq egri-bugrilari ham, tor bo'g'izli yumaloqlari ham, yashil va oq rangli kattalari ham, sirtiga o'yib xat yozilgan, oyna probkalilari ham, mahkam yopiladigan burma tiqinlilari ham, po'kak tiqinli vino hamda zaytun moyidan bo'shagan shishalar ham bor edi. Ana shu shishalarning hammasini u jovonga, kaminning peshtaxtasiga, stolga, deraza tokchasiga, polga, etajerkaga — xullasi kalom, hamma yoqqa qator-qator qilib terib qo'ydi. Bremblxerst dorixonasida shu shishalarning yarmisi ham yo'q edi. Salobatli bir manzara hosil bo'ldi. Musofir savat ortidan savat bo'shatardi, ular esa hammasi shisha bilan to'la edi. Nihoyat, barcha quti va savatlar bo'shaldi, stolning ustida bir g'aram poxol uyulib qoldi; savatlarda shishalardan tashqari, bir talay probirka va juda avaylab o'rab-chirmalgan tarozi ham bor edi.

Savatlarni bo'shatgach, noma'lum kishi derazaga yaqin bordi-da, uyulib yotgan poxol, o'chib qolgan kamin, ko'chada qolib ketgan kitob to'la quti, chamadonlar va yuqoriga olib chiqilgan boshqa yuklarga qayrilib ham qaramay, ishga kirishib ketdi.

Missis Xoll tushki ovqatni olib kirganida, musofir ishga qattiq berilib ketgandi, u shishalardan probirkalarga tomchi-tomchi suyuqlik quyishi bilan band bo'lganidan, missis Xollning xonaga kirganini payqamadi ham. Missis Xoll poxolni yig'ishtirib olgach, gilamning ayanch ahvolini ko'rib ranjigani uchunmi, har qalay, patnisni stolga odatdagidan ko'ra

tarahlatibroq qo'ygan edi, musofir unga yarq etib bir qaradi-yu darhol yuzini teskari o'girdi. Missis Xoll musofirning ko'zoynaksiz ekanini so'rib qolishga ulgurdi: ko'zoynak shundoq yonginasida, stol ustida yotardi. Shunda ayolga uning ko'z kosasi haddan ziyoda chuqur bo'lib ko'ringanday bo'ldi. Musofir ko'zoynagini taqib o'girildi-da, missis Xollning basharasiga tikildi. Missis Xoll poxollar polga sochilib yotganidan xafa ekanini aytmoqchi edi, biroq musofirning o'zi oldinroq gap ochdi:

—Men sizdan xonaga eshikni taqillatib kirishingizni so'rardim,— dedi u nihoyatda zarda bilan, aftidan, bular-bo'lmas gapga ham uning darrov jahli chiqaverardi.

— Men eshikni taqillatdim, lekin siz, balki...

— Balki taqillatgandirsiz. Ammo men tadqiqot bilan mashg'ul paytimda—bu tadqiqotlar favqulodda muhim va zarur — qandak notinchlik, eshikning g'ijirlashi ham... Men sizdan so'rar edimki...

— Albatta, mister. Basharti sizga zarur bo'lsa, eshikni qulflab qo'yishingiz mumkin. Istagan vaqtinizda...

— Juda o'rinli fikr!—dedi noma'lum kishi.

— Lekin manovi poxollar, afandim... Sizga aytishga botina...

— Kerak emas! Agar poxollar g'ashingizga tegayotgan bo'lsa, ularni ham mening hisobimga yozib qo'ya qoling.

— Keyin u o'zicha so'kinishga o'xshash allanima balolar deb do'ng'illab qo'ydi.

Noma'lum kishi mehmonxona bekasi oldida bir qo'lida shisha, ikkinchisida probirka tutgan holda jangari va darg'azab qiyofada turar, uning va johati kishini shu qadar taajjubga soladigan ediki, missis Xoll o'zini noqulay his eta boshladi. Lekin u cho'rtkesar shaddod ayol edi.

U holda,— dedi ayol,— qancha to'lamoqchi ekanligingizni bilsam bo'ladimi...

— Bir shilling. O'sha hisobga yana bir shilling qo'shib qo'ying. Etarli bo'lsa kerak, deb o'ylayman?

— Yaxshi, siz aytganday bo'la qolsin,— dedi missis Xoll dasturxon tuzashga kirishar ekan.

— Albatta, basharti siz shunga rozi bo'lsangiz...

Noma'lum kishi teskari qarab, missis Xollga orqasini o'girib o'tirdi.

U eshikni ichidan qulflab olib, missis Xollning ishontirishicha, miq etgan tovush chiqarmay, kechgacha ishladi. Faqat bir marotabagina «taraq» etgan tovush va shishaning jaranglagani eshitildi, go'yo kimdir stolni itarib, shishani polga uloqtirib yuborganday bo'ldi, keyin esa, uning gilam ustida tez-tez qadam tashlab, u yoqdan-bu yoqqa yurgani eshitildi. Biror falokat yuz berib qoldimi-kin deb xavfsiragan missis Xoll eshik oldiga kelib, quloq sola boshladi.

— Hech nima chiqmaydi!—deb qichqirardi musofir xunob bo'lib.

— Hech nima chiqmaydi, vassalom! Uch yuz ming, to'rt yuz ming! Axir, buning poyoni yo'q-ku! Aldandim! Butun umrim shunga sarf bo'lib ketadi! Sabr, sabr qilish kerak! Aytishga oson! Ahmoq, ahmoq!

Shu mahal allakim qovoqxonaga kirdi, salmoqlanib bosilgan qadam tovushi eshitildi va missis Xoll gapni oxirigacha eshitmay, chor-nochor eshikdan uzoqlashishga majbur bo'ldi.

Missis Xoll qaytib kelganida, kresloning sal-pal g'ijillagani va goho shishalarning bir-biriga tegib ohista jaranglaganini hisobga olmaganda, xona yana suv quyganday jimib qolgan edi. Chamasi, noma'lum kishi qaytadan ishga kirishgan edi.

Missis Xoll choy keltirgan mahalida, xonaning burchagidagi ko'zguning ostida singan shishalarni va beparvolik bilan artib olingan sariq dog'ni ko'rди. Missis Xoll uni musofirga ko'rsatdi.

Shularning hammasini mening hisobimga yozib qo'ying,— dedi noma'lum kishi g'ijinib.

— Undan keyin, xudo haqi, menga xalal beravermang. Mabodo sizga biror zararim tegsa, mening hisobimga yozib qo'yavering.

— Shundan so'ng u oldidagi daftarga turli belgilar qo'yishga boshladi...

— Bilasizmi, men sizga nima demoqchiman?— deb sirli ravishda gap boshladi Firensayd. Bu suhbat o'sha kuni kechqurun pivoxonada bo'lmoqda edi.

— Xo'sh?—so'radi Teddi Xenfri.

— Itim qopib olgan o'sha odam... Xullas, gapning lo'ndasini aytsam: u qora tanli. Har qalay, uning oyoqlari qora. Itim shimi bilan qo'lqopini yirtib yuborgan vaqtda ko'rib qoldim. Yirtilgan joydan pushti rang badan ko'rinishi kerak edi-a, shundaymi? Ammo, men sizga, sira unaqa bo'lgani yo'q. Faqat qop-qora narsa ko'rindi, xolos. Sizga rost gapni aytyapman: uning badani qop-qora, manovi shlyapamdan farqi yo'q.

— Xudoyo tavba!— xitob qildi Xenfri.

— Buning gapini qara-ya! Axir, uning burni pushti rangda-ku.

— Shundaylikka shunday,— dedi Firensayd.

— Bu gaping to'g'ri. Lekin men, bu odam olachipor, desamchi, sen unda nima deysan, Teddi? Uning ba'zi joyi qora, ba'zi joyi oq, chovkar. U ana shundan xijolatda. Allaqanday duragay, ikki rang aralashib ketish o'rniga, xol-xol, chovkar bo'lib qolgan, bildingmi! Men shunaqangi hodisalar bo'lishini ilgari eshitgandim. Otlarda bunaqa narsa juda ko'p uchraydi. Buni xohlagan odamingdan so'rashing mumkin.

#### IV Bob

##### Mister Kass noma'lum kishi bilan suxbatlashadi

— Noma'lum kishi Aypingga kelganidan keyingi barcha voqealarni batafsil tasvirlashdan maqsadim, nima sababdan hamma unga qiziqib qolganini kitobxonga tushuntirishdir. Uning mashhur klub kuni bayrami vaqtigacha Aypingda qanday yashagani masalasiga kelganda, shuni aytish kerakki, ikkita g'alati voqeani hisobga olmaganda, bu to'g'rida to'xtalmasa ham bo'laveradi. Ba'zan missis Xoll u bilan xo'jalik masalasida tortishib qolardi, biroq bunda hamisha musofir g'olib chiqardi, ya'ni u shu zahotiy oq qo'shimcha haq ola qolishni taklif etardi. Bu holat aprelning oxirlarigacha, musofirda pulsizlikning dastlabki ishonarlari sezilib qolgunga qadar davom etdi.

— Xoll uni yoqtirmasdi va qachon qarasa, bu ro'daponing dumini tugib yuborish kerak deb yurardi, biroq o'zining qo'lidan hech nima kelmasdi. Shuning uchun ham u iloji boricha musofir bilan uchrashmaslikka harakat qilardi.

— Yozgacha sabr qil,— deb unga nasihat qilardi missis Xoll.

— Rassomlar yig'ila boshlasin, ana o'shanda ko'ramiz. Uning surbetligi rost, bu haqda sen bilan bahslashmayman, lekin u o'z vaqtida haqimizni to'lab turibdi, nima deganingda ham, uning bu fazilatidan ko'z yumish mumkin emas.

Ijarachi cherkovga bormasdi, yakshanba kuni bilan hech qanday farq qilmasdi, hatto hamisha bir xilda kiyinardi. Missis Xollning fikricha, u uncha muntazam ishlamasdi ham. Ba'zi kunlarda ertalab barvaqt mehmonxonaga tushib, uzoq vaqt ishlardi. Boshqa kunlarda— bo'lsa, o'rnidan kech turar, ovozini barala qo'yib g'o'ng'illar, trubkasini tutatar yoki bo'lmasa, kamin yonidagi kresloda mudrab o'tirardi. Hech kim bilan aloqa qilmasdi. Kayfiyati ham o'sha-o'sha — juda betayin edi, ko'pincha u o'zini o'ta serzarda odamday tutardi. Bir necha bor g'azabidan hatto quturib ketdi, shunday vaqtlarda u duch kelgan narsani uloqtirib yuborar, yirtib tashlar, yerga urib chilparchin qilardi. U hamisha haddan ziyoda iztirob chekadigan odamga o'xshardi. U tez-tez ming'illab o'zi bilan o'zi so'zlashardi; biroq missis Xoll qanchalik urinmasin uning gaplaridan hech narsa anglay olmasdi.

— Kunduzi u xonasini kamdan-kam tark etardi, lekin qosh qoraydi deguncha, basharasini ko'rinmaydigan qilib o'rab olib, tashqarining issiq yoki sovuqligiga qaramay, sayr qilgani chiqardi. U sayrgoh uchun daraxtlar bilan qoplangan yoki ko'tarma bilan to'silgan eng xilvat so'qmoqlarni tanlardi. Uning ulkan qora ko'zoynagi va keng soyabonli shlyapa ostidagi bint bilan o'rab tashlangan qo'rqinchli basharasi qorong'i kechada uyiga qaytayotgan ishchilarni vahimaga solardi; bir kuni kechqurun soat to'qqiz yarimlarda «Qizil kamzul» qovoqxonasidan gindiraklab chiqqan Teddi Xenfri noma'lum kishining bosh suyagiga o'xshash kallasini ko'rib (u shlyapasini qo'lga olib bosh yalang aylanib yurgan ekan), qo'rqqanidan yuragi yorilib o'layozibdi. Qosh qoraygan mahalda uni ko'rib qolgan bolalar kechasi alang-jalang tushlar ko'rib alahlab chiqishardi. Bolalar uni yomon ko'rishar, u ham bolalarni yoqtirmas edi. Kim kimni ortiqroq

yomon ko'rishini aniqlab bo'lmasdi, chunki ikkala tomonning bir-biriga qarshi adovati juda kuchli edi.

— Kishini hayratga soladigan shunaqangi qiyofa va shunday g'alati tabiatli odam Ayping aholisining bitmas- tunganmas mish-mishlar to'qib chiqarishiga sabab bo'lganining hech qanday ajablanarli eri yo'q. Uning mashg'uloti — borasida odamlarning fikrlari xilma-xil edi. Bu masalada missis Xoll bilan sira hazillashib bo'lmasdi. «U nima ish qiladi, o'zi?» degan savolga missis Xoll juda dabdaba bilan: «Eksperimental tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadi»,— deb javob berardi. Bu so'zlarni u go'yo yanglishib ketishdan qo'rqqanday juda salmoqlanib, ehtiyotkorlik bilan talaffuz etardi. «Buning ma'nosi nima?» deb so'rashganida esa u o'zini katta olib, «bu har bir ilmli odam uchun ma'lum gap» derdi-da, keyin: «U har turli kashfiyotlar qiladi»—deb tushuntirardi. «Bizning ijarachimiz falokatga uchragan,— deb hikoya qilardi missis Xoll,— natijada qo'li bilan yuzi olachipor bo'lib qolgan. U juda ham izzat-nafsi zo'r kishi bo'lganidan shu holatda odamlarga ko'rinishdan o'zini olib qochadi».

— Biroq orqavoratdan, ularning ijarachisi odil suddan yashirib yurgan jinoyatchi bo'lib, o'zining antiqa libosi bilan polisiyani chalg'itishga urinib yurgan bo'lsa kerak, degan ovoza tarqaldi. Dastlab bu fikr Teddi Xenfrining miyasida paydo bo'ldi. Biroq keyingi haftalar mobaynida birorta kattaroq jinoyat sodir bo'lgani ma'lum emasdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, maktab muallimi mister Gould bu tusmolni sal-pal o'zgartirdi: uning fikricha, missis Xollning ijarachisi portlovchi moddalar yasaydigan anarxist emish. Gould ishdan bo'sh vaqtini noma'lum kishini ta'qib etishga bag'ishlamoqchi bo'ldi. Uning ta'qibi asosan noma'lum kishi bilan uchrashib qolganida, unga tikilib qarash va hech mahal uni ko'rmagan odamlardan uning kimligini surishtirishdan iborat edi. Shunga qaramay, mister Gould hech narsani aniqlay olmadi. — Firensayd to'qib chiqargani—«u odam chovkar yoki shunga o'xshash allanima balo» degan uydurmaning tarafdorlari ham ko'p edi. Masalan, Saylas Dergan «agarda noma'lum kishi yarmarkada o'zini ko'rsatishga jur'at etganida, katta mablag' orttirgan bo'lardi», derdi va hatto bu gapning isboti uchun «Tavrot»da yozilgan, o'z talantini yerga ko'mgan odam voqeasini misol qilib keltirardi. Boshqalar esa noma'lum kishi telbakezik bo'lsa kerak, deb yurishardi. Bu taxminning fazilati shunda ediki, hamma narsani birdaniga ochiq-oydin qilib qo'ya qolardi.

— Ayping jamoat fikridagi bu asosiy oqimlarning ogishmas tarafdorlaridan bo'lak, ikkilanuvchi va yon bosishga tayyor kishilar ham bor edi.

— Susseks grafligi aholisi xurofotga uncha ishonmaydigan odamlar edi. Noma'lum kishining mu'jizaviy tabiati haqidagi gumonlar esa aprel voqealaridan keyin paydo bo'ldi, lekin bunga ham faqat xotinlargina ishonidilar.

— Biroq bu odam haqida Aypingdagi kishilarning fikri qanchalik har xil bo'lmasin, uni hamma birday yomon ko'rardi. Uning aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan shaharlik odamga tushunarli bo'lgan jizzakiligi og'ir-vazmin Susseks aholisining jig'iga tegardi. Uning achchig'lanib qo'l silkishi, shiddat bilan yurishi, tunda sayr qilib, eng xilvat joylarda qorong'ilik quchog'idan kutilmaganda chiqib qolishi, gapga solmoqchi bo'lganlarning so'zini beodoblik bilan shartta bo'lib ketib qolishi, eshiklarni qulflashi, darpardani tushirib yurishi, sham va chiroqni o'chirib qo'yishga, ya'ni qorong'iga ishqibozligi bilan kim ham chiqisha olardi, deysiz. Noma'lum kishi o'tib borayotganda duch kelgan odamlar undan o'zlarini olib qochishardi. Aypinglik hazilkashlar esa paltolarining yoqasini ko'tarib, shlyapalarini bostirib kiyishar va uning asabiylashib yurishiga hamda sirli xatti-harakatiga taqlid qilib orqasidan mazax qilib qolishardi.

O'sha mahalda «Arvoh odam» degan qo'shiq xalq orasida juda keng tarqalgan edi. Miss Stetchel mazkur qo'shiqni cherkovga chiroq olish maqsadida mablag' to'plash uchun maktabda uyushtirilgan konsertda ijro etgan edi. Shundan so'ng noma'lum kishi ko'chada ko'rindi deguncha, biror kimsa o'sha qo'shiq kuyini hushtak qilib chala boshlardi. Hattoki kechikib qolgan bolalar Ham kechqurun uylariga shoshilib borar ekanlar, uning orqasidan: «Arvoh odam!»—deb qichqirishar, so'ng qo'rquv va quvonchdan yuraklari ichlariga sig'may ura qochishardi.

— Aypinglik vrach Kass bu sirdan voqif bo'lishga urinib, o'zini qo'yarga joy topolmay yurardi. Bint bilan o'rab tashlangan bosh uning professional qiziquvini uyg'otardi; ming bir

shisha haqidagi ovozarlar esa, unda hasadomuz ehtirom uyg'otardi. Butun aprel va may oylari davomida Kass noma'lum kishi bilan suhbatlashish uchun vaj axtardi. Nihoyat sabr xosasi to'ldiyu, troisa bayrami arafasida shu yerdagi kasalxonada kasal boquvchi bo'lib ishlaydigan kambag'al ayol foydasiga pul to'plash varaqasini to'ldirish bahonasi bilan noma'lum kishi huzuriga borishga jazm qildi. U, missis Xoll o'z ijarachisining ismini bilmasligini eshitib hayron bo'lib qoldi.

— U ismini aytgan edi,— dedi missis Xoll (bu gap tamomila asossiz edi),— biroq men yaxshi eshita olmadim.

— Ijarachisi o'z nomini atashni xayoliga ham keltirmaganini e'tirof etish missis Xoll uchun juda o'ng'aysiz edi.

— Kass mehmonxonaning eshigini taqillatdi-da, ichkari kirdi. U yerdan g'uldirab so'kingan ovoz eshitildi.

— Bunday bostirib kirganim uchun afv etishingizni so'rayman,— dedi Kass, shundan so'ng eshik yopildi, missis Xoll keyingi gaplarni eshitolmay qoldi.

— O'n minutlar chamasi missis Xollning qulog'iga g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozarlar chalinib turdi; keyin ajablanib xitob qilgan kishining tovushi, oyoqlarning tapir-tupuri, uloqtirib yuborilgan stulning taraqlagani, uzuq-yuluq kulgi eshitildi va ostonada ranggi o'chgan, qoni qochgan, ko'zlari olaygan holda Kass paydo bo'ldi. U eshikni ochiq qoldirib, missis Xollga qayrilib ham qaramay, zinapoyadan pastga tushdi va zing'illaganicha ko'cha bo'ylab yurib ketdi.

U shlyapasini qo'lga ko'tarib olgan edi. Missis Xoll ochiq qolgan eshikdan ijarachining xonasiga mo'ralamoqchi bo'lib peshtaxtaning orqasiga o'tdi. U elas-elas quloqqa chalinadigan kulgi ovozini, keyin esa, qadam tovushini eshitdi. Ayol turgan eridan ijarachining basharasini ko'ra olmasdi. Keyin mehmonxonaning eshigi taraqqatib yopildi-yu, hamma yoqni jimlik bosdi. Kass to'g'ri vikariy Bantingning uyiga bordi.

— Aytinch, men aqldan ozganmanmi?—so'radi u hansirab vikariyning oddiygina kabinetiga kirishi bilanoq.— Telba bo'lgan odamga o'xshaymanmi?

— Nima bo'ldi?— so'radi vikariy qo'lidagi bosma qog'oz vazifasini o'taydigan chig'anoqni navbatdagi va'z nasihatlarini yozilgan qog'ozlar ustiga bosib.

— Anovi nusxa, Xollarning ijarachisi...

Xo'sh?

— Ichishga biror narsa bering, nafasimni rostlab olay,— dedi Kass stulga o'tirar ekan.

Kass arzon xeresdan ichib olgach (ko'ngilchan vikariyda shundan bo'lak ichkilik bo'lmasdi), bir oz o'ziga kelib, noma'lum kishi bilan uchrashuvi haqida hikoya qila boshladi. Mehmonxonaga kirdimu,— entika-entika gap boshladi u,— kasal boqadigan ayol uchun bir oz pul berish to'g'risida imzo chekishni so'radim. Men kirishim bilan u qo'llarini cho'ntagiga tiqib, gurs etib o'zini kresloga tashladi. «Eshitishimcha, siz ilm-fan bilan qiziqar ekansiz?»—deb gap boshladim men. «Ha»,— deb javob berdi u va tomoq qirib qo'ydi. U hadeganda tomoq qirardi. Shamollab qolgan bo'lsa kerak. Shunday o'ranib-chirmanib yurganidan keyin, shamollaydi-da, albatta. Men kasalxonada bemorlarga qarab turadigan xotin haqida gapirdimu, o'zim nuqul atrofga razm soldim. Hamma yoqda shishalar va kimyoviy preparatlar qalashib yotibdi. Tarozi va probirkalar ham bor, xonadan esa tungi binafsha hidi keladi. «Lutfan imzo chekib bermaysizmi?» desam, «O'ylab ko'raman», deydi. Shunda men to'g'ridan-to'g'ri «Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanasizmi?»—deb so'radim. «Ha»,— javob qildi u. «Uzoq davom etadigan ilmiy tadqiqotmi?»— so'radim men. Uning g'azabi qaynab ketdi. «Ha, o'lgiday uzoq davom etadigan»,— deb javob berdi u zarda bilan. «Shundaymi?»—dedim. Ana shundan boshlanib ketdi. Oldindanoq g'azabi qaynab turgandi, so'nggi savolim sabr kosasini to'ldirib yubordi. U allakimdan resept olgan ekan, juda muhim resept emish: qanday maqsadda ishlatilishini ayta olmas ekan. «Medisinaga doirmi?» so'radim men «Obbo! Xo'sh, sizning nima ishingiz bor?»— yana qo'pollik qildi u. Men uzr so'radim. U takabburlik bilan tomoq qirdi-da, so'ng yana so'zini davom ettirdi. U reseptni o'qib berdi. Besh ingredientli resept ekan. Qog'ozni stolga qo'yib, orqasiga qaradi. Birdan qog'ozning shildirashi eshitildi: reseptni elvizak uchirib ketdi. Kaminning trubasi ochiq ekan. Birdan alanga ko'tarildi. Ko'z ochib yumguncha resept kuyib, kuli

trubadan chiqib ketdi. U kamin tomonga tashlandi — fursat o'tgan edi. Ana shunaqa! Shunda u umidsizlik bilan qo'l siltadi.

— Xo'sh?

Qo'li yo'q ekan — engi bo'm-bo'sh edi. «Yo rabbiy,— deb o'yladim men,— nogiron ekanu. Ehtimol qo'li yog'ochdan bo'lsa keragu, boyaqish uni yechib qo'ygandir. Har holda,— deb o'yladim men,— bu yerda bir sir bor. Agarda ichida bir nima bo'lmasa, nega engi shalvirab qolmaydi?» Sizni ishontirib aytamaiki, engining ichida hech narsa yo'q edi. To tirsakkacha tamoman bo'm-bo'sh. Men buni o'z ko'zim bilan ko'rdim, undan tashqari engning ichi chiroq nurida yorishib turardi. «Yo parvardigori olam», deb xitob qildim men. Shunda u jim bo'ldi va zangori ko'zoynagi bilan avval menga, keyin o'zining engiga tikilib qaradi.

— Xo'sh?

— gap shu. Churq etib og'iz ochmadi, faqat menga bir qarab qo'ydi-yu, tezlik bilan engini cho'ntagiga suqdi. Men resept qanday yonib ketganida to'xtabmidim? U savol so'rayotganday yo'talib qo'ydi. «Qiziq, siz qanday qilib bo'sh engingizni qimirlata olasiz?»—deb so'radim. «Bo'sh en- gimni?» «Ha,— dedim men,— bo'sh engingizni».

«Sizningcha, bu bo'sh engmi? Uning bo'sh ekanini o'z ko'zingiz bilan ko'rdingizmi?» U kreslodan turdi. Men ham o'rnimdan turdim. Shunda u oldinga qarab ohista uch qadam bosdi. Menga yaqin kelib, naq yonginamda turib oldi-da, istehzo bilan tomoq qirdi. Boshi bint bilan o'rab tashlangan yumaloq ko'zoynakli bu qo'rqinchli odamning vajohati har bir kimsani ham vahimaga solishi mumkin bo'lsa-da, xudo haqi, men xotirjam turdim.

«Shunday qilib siz engimni bo'sh deyapsizmi?»—deb so'radi u.

«Albatta»,— javob berdim men. Shunda u bezbet yana o'zining ulkan ko'zoynaklari bilan menga tikildi. Keyin esa, xuddi qaytadan ko'rsatmoqchi bo'lganday, bamaylixotir engini cho'ntagidan chiqarib men tomonga uzatdi. Bu ishni u juda ohista — shoshilmasdan qildi. Men uning engiga tikilib qarardim. Oradan uzoq vaqt o'tib ketganday tuyuldi. «Xo'sh, mana qarang,— dedi u, yo'talib olib,—bunda hech narsa yo'q». Bir nima deyish lozim edi. Yuragim orqamga torgib ketdi. Men engining ichini yaqqol ko'rib turardim. U engini ohista — mana shunday, eng qaytarmasi basharamga tegishiga ikki ellik qolguncha cho'zdi. Bo'm-bo'sh engning yaqinlashib kelishini ko'rish juda qo'rqinchli bo'ch larkan... Keyin...

— Xo'sh?

— Keyin allanima bilandir (menga boshmaldog'i va ko'rsatkich barmog'i bilan chimchilagandek tuyuldi) burnimdan tortdi.

Banting kulib yubordi.

— Biroq u yerda hech nima yo'q edi!—dedi Kass, «hech nima» so'zini chiyillab aytarkan.— Mana siz maza qilib kulyapsiz, men esam shunday dovdirab qolgan edimki, eng qaytarmasiga bir tushirib, orqamga o'girildimu xonadan ura qochib chiqdim... Kass jim bo'ldi. Uning rostdan ham o'takasi yorilayozganiga shubha yo'q edi. U zo'r-bazo'r o'girilib ko'ngilchan vikariy quyib berayotgan rasvo xeresdan yana bir stakan ichdi.

— Men uning engiga urgan mahalimda,— dedi u,— o'lay agar, qo'lga urgandek bo'ldim. Yengning ichida esa hech vaqo yo'q edi.

Qo'l degan narsalarning nomu nishoni ham sezilmasdi.

Mister Banting o'ylab qoldi. Keyin Kassning basharasiga shubhali nazar tashladi.

— Bu haddan ziyoda ajoyib hodisa,— dedi u donis mandlarga xos jiddiy bir qiyofada,— shak-shubhasiz, haddan ziyoda ajoyib hodisa,— deb takrorladi u, yanada vazminroq qilib.

## V Bob

### Vikariyking uyini o'g'ri urdi

Vikariyning uyini o'g'ri urgani haqida biz asosan vikariyning o'zi va uning xotinidan eshitdik. Bu voqea arvoh kuni tong qorong'isida yuz berdi; har yili shu kuni Ayping klubi bayram qiladi. Missis Banting tong qorong'isidagi sukunatda yotoqxonaning eshigi taraqlab yopilganini aniq sezib, daf'atan uyg'onib ketdi. Avvaliga u erini uyg'otgisi kelmay, karavotda

o'tirib quloq sola boshladi. Ayol yalang oyoqlarning shapillab yurganini aniq eshitdi, go'yo birov hojatxonadan chiqib, koridordan zinapoya tomon o'tganday bo'ldi. Shunda u iloji boricha ehtiyotlik bilan mister Bantingni uyg'otdi. Mister Banting uyg'onib, voqeani tushungach, chiroqni yoqib o'tirmay, ko'zoynagini taqdi-da, xotining kapoti va yengil shippagini kiyib yo'lakka chiqdi. U pastdagi o'z kabinetida kimdir ivirsiyotganini aniq eshitdi, keyin allakim qattiq aksirdi.

Shunda mister Banting yotoqxonaga qaitdi, uida topilgan eng e'timodli aslaha bo'lmish kosovni qo'lga oldi-da, tiq etgan tovush chiqarmaslikka harakat qilib, zinapoyadan ohista pastga tushdi. Missis Banting ham erining ketidan yo'lakka chiqdi.

Soat to'rtlar chamasi edi, qorong'ilik siiraklashib borardi. Dahliz yorishib qolgan, lekin kabinetning eshigi raxnaga o'xshab ko'rinardi. Sukunatni mister Bantingning ostidagi zinapoyalarning sezilar-sezilmas g'ijiolagani-yu, kabinetdan eshitilayotgan ohista shitirlash buzardi, xolos. Keyin bir narsa «sharaq» etdi, stol tortmasi ochilgani eshitilib, qog'ozlar shitirladi. Kimdir so'kindi-da, gugurt chaqdi, kabinetga sarg'ish nur taraldi. Bu vaqtda mister Banting dahlizga tushgan bo'lib, qiya ochiq turgan eshikdan tortmasi chiqarib qo'yilgan yozuv stoli va uing ustidagi yonib turgan shamni ko'rib qoldi. Biroq o'g'ri ko'rinmasdi. Mister Banting yo'lakda nima qilishini bilmay turardi, orqasidan esa qo'rqib ketganidan rangi quv o'chgan missis Banting zinapoyadan asta-sekin tushib kelardi. O'g'ri aholidan bo'lishi kerak degan ishonch mister Bantingning yuragiga birmuncha dalda berdi.

Keyin ular pulning jiringlashini eshitishdi va o'g'ri ro'zg'or uchun olib qo'yilgan mablag' — yarim soverenlik ikki funtu, o'n shilling pulni topib olganini anglashdi. Bu hol mister Bantingning kuchiga kuch, yuragiga yurak qo'shib yubordi. U kosovni mahkam ushlaganicha kabinetga bostirib kirdi. Missis Banting ham erining ketidan qolmay, xonaga kirdi.

— Taslim bo'!—g'azab bilan qichqirdi mister Banting va hayron bo'lib to'xtab qoldi: xonada hech zog' yo'q edi.

Biroq bundan bir minutcha oldin, shak-shubhasiz, bu yerda kimdir yurgandi. Eru xotin yarim minutcha dong qotib turdilar, keyin missis Banting darpardani ochib ko'rdi, mister Banting bo'lsa, engashib stolning ostiga qaradi-da, keyin kaminning ichiga nazar tashlab, kosov bilan uning trubasini titib ko'rdi. Ular qog'oz solinadigan korzinani ham, ko'mir solingan yashikni ham tekshirib chiqishdi. Shundan so'ng ular hayron bo'lishib bir-birlariga baqrayganlaricha qarab qolishdi.

— Ulay agar...— dedi mister Banting.— Ha, aytmoqchi, shamchi!—deb xitob qildi u,— shamni kim yoqdi?

— Yashik-chi!— dedi missis Banting.

— Pullar qayoqqa ketdi?

Missis Banting shoshilib eshikka tomon yo'naldi.

— Umrin bino bo'lib bunaqangi...

Koridorda allakim qattiq aksirdi. Ular kabinetdan yugurib chiqishdi, shu payt oshxonaning eshigi taraq etib yopilgani eshitildi.

Shamni keltir-chi,— dedi mister Banting va oldinga qarab yurdi. Ular kimdir shoshapisha eshikning tambasini olib tashlayotganini aniq eshitishdi.

Oshxonaning eshigini ocha turib mister Banting ko'cha eshikning ochilayotgani va tongning g'ira-shira yorug'ida bog'dagi ko'katlar qorayib ko'aga chalinganini ko'rdi. Biroq keyinchalik u eshikdan hech kim chiqqani yo'q, buni o'z ko'zim bilan ko'rdim, deb yurdi. Eshik ochildi-yu, keyin taraqlab yopildi. Missis Banting olib kelayotgan sham lipillab, ravshanroq yondi. Ular oshxonaga kirishguncha oradan bir necha minut vaqt o'tdi.

U erda ham hech kim yo'q edi. Ular eshikni qaytadan tambalashdi, oshxonani, qaznoqni va idish-tovoq saqlanadigan xonani diqqat bilan ko'zdan kechirishdi, nihoyat erto'laga tushishdi. Biroq qanchalik sinchiklab axtarishmasin, hech kimni topisha olmadi.

Tong otganida vikariy bilan xotini juda antiqa libosda edilar ular hamon uylarining pastki qavatida, tamom bo'layotgan shamning oldida o'ylayverib boshlari qotgan holda

o'tirishardi.

— Umrim bino bo'lib bunaqangi...— yigirmanchi marta derdi vikariy.

Azizim,— deb uning gapini bo'ldi missis Banting,— o'sha Syuzi kelyapti. U oshxonaga o'tib ketsin, keyin biz kirib kiyinaylik.

## **VI B Bob** **Quturgan mebel**

O'sha kuni ertalab, arvohlar kuni tong qorong'isida, xatto oqsoch qiz Milli ham uxlab yotarkan, mister va missis Loll o'rinlaridan turib, sezdirmasdan yerto'laga tushishdi. Yerto'lada ularning pivoni kuchli qilishga andak aloqador bo'lgan ishlari bor edi.

Pastga tushishga ulgurmasidanoq missis Xoll yotoqxonalarida turgan sarsaparelli shishani unutganini esladi. Qilinajak ishning ustasi missis Xoll bo'lganidan, shishani olib kelish uchun tepaga eri chiqdi.

Mister Xoll zinapoyaga chiqqach, ijarachi turadigan xonaning eshigi qiya ochyuqligini ko'rib hayron bo'ldi. Yotoqxonaga kirib shishani xotini aytgan joydan topdi.

Biroq erto'laga qaytib tushayotganda, ko'cha eshigining tambalari ochib qo'yilgani, eshik lo'kidon bilangina berkitilganini payqab qoldi. Mister Xollning xayoliga bir gap keldiyu, buni u darhol ijarachining qiya ochiq eshigi hamda Teddi Xenfrining shubhalari bilan taqqosladi. Chunki kechasi missis Xoll eshikni tambalayotganida, o'zi sham ushlab turganini aniq eslardi. U hangu mang bo'lib to'xtab qoldi, keyin, qo'lidagi shishasi bilan yuqoriga qaytib chiqdi-da, ijarachining eshigini taqillatdi. Ichkaridan javob bo'lmadi. U yana bir bor taqillatdi-da, so'ng, eshikni lang ochib ichkariga kirdi.

Haqiqatan ham o'zi o'ylaganday bo'lib chiqdi. Xonada hech zog' yo'q bo'lib, o'rin taxi buzilmay turardi. Noma'lum kishining engil-boshi kresloda, karavot panjarasida palapartish osilib yotardi, uning bintlari va keng soyabonli shlyapasi ham karavotda osig'liq turardi. Ijarachining boshqa kiyimi bo'lmagani uchun bu hol hatto zehni uncha o'tkir bo'lmagan Xollga ham nihoyatda taajjub ko'rindi.

U xona o'rtasida dovdirab turarkan, pastdan, yerto'ladan xotining G'arbiy Susseks aholisiga xos bo'lgan chiyildoq ovozini eshitdi. Missis Xollning labi labiga tegmay bobillab gapirishi uning juda ham toqati toq bo'lib ketganidan darak berardi.

— Jorj!— deb baqirardi ayol.— Kerakli narsani topdingmi?

U burilib xotini yoniga shoshildi.

— Jenni!— deb qichqirdi u, erto'laga tushiladigan zinapoya panjarasi ustidan engashib.

— Xenfrining gapi to'g'ri chiqib qoldi-ku. Ijarachimiz uyida yo'q. Ko'cha eshikning ham tambasi ochilib yotibdi.

Avvaliga missis Xoll gap nimada ekanini tushunmadi, keyin voqeaning fahmiga etgach, bo'sh yotgan xonani o'zi borib ko'rmoqchi bo'ldi. Hali ham shishani qo'lidan qo'ymagan mister Xoll oldinga tushib yo'l boshladi.

— Uning o'zi yo'q, kiyimlari esa, shu yerda,— dedi Xoll.

— Qipyalang'och bo'livolib qayerda sanqib yurganikin? Taajjub.

Ular yerto'laning zinapoyasidan chiqayotganlarida, keyinchalik ma'lum bo'lishicha, xuddi birov ko'cha eshikni ochganday, so'ng qaytadan yopib qo'yganday tuyuldi, lekin eshikning yopiq turganini ko'rib eru xotin o'sha daqiqada bir-birlariga hech nima demadilar. Koridorda missis Xoll erining oldiga o'tdi-da, zinapoyaga birinchi bo'lib chiqdi. Shu payt ularning yonida allakim aksirib yubordi. Olti pog'ona pastda bo'lgan Xoll xotini aksirdi deb o'yladi, xotini esa eri aksirganiga amin edi. Missis Xoll yuqoriga chiqib, eshikni lang ochdi-da, musofirning xonasini ko'z- dan kechira boshladi.

— Umrim bino bo'lib bunaqasini ko'rmaganman!— dedi u.

Shu mahal, uning shundoq yonginasida allakim tomoq qirib qo'ydi, missis Xoll orqasiga o'girildi-yu, hang-mang bo'lib qoldi, chunki eri yigirma qadam chamasi narida, zinapoyaning



yuqori pog'onasida turgan edi. Buni ko'rib, mister Xoll darrov xotining yoniga keldi. Xotini esa engashib, yostiq va ko'rpaning jildini paypaslab ushlab ko'rdi.

— Sovuq,— dedi u.— Uning bu yerdan chiqib ketganiga bir soatdan ko'proq bo'libdi. Missis Xoll shu so'zlarni aytib ulgurmasidanoq aqlga sira to'g'ri kelmaydigan qiziq bir hodisa yuz berdi, ko'rpaning jildi o'zidan-o'zi g'ijimlanib, karavotning panjarasi ustidan uchib o'tdi. Allakimning qo'li odeyal bilan choyshabni g'ijimlab erga olib tashlaganday bo'ldi. Shundan so'ng noma'lum kishining shlyapasi osig'liq turgaya joyidan sakrab ko'tarildi-da, havoda yarim doira yasab borib missis Xollning basharasiga urildi. Undan keyin o'shanday tezlik bilan umivalnik oldidagi gubka ham havoda g'izillab uchdi; shundan so'ng kreslo noma'lum kishining kostyumi bilan shimini silkib tushirdi-da, ijarachining o'ziga o'xshab qiqirlab kulganicha yonboshladi va to'rttala oyog'ini missis Xoll tomonga o'girib, unga hamla qildi. Missis Xoll dod solib eshik tomonga o'girildi, kresloning oyoqlari esa uning elkasiga ohista tiralib, mister Xoll bilan ikkalasini xonadan itarib chiqardi. Eshik yopilib, qulflning sharaqlagani eshitildi. Kreslo bilan karavot, go'yo g'alabani nishonlagandek, yana bir oz raqs tushib turdi-da, keyin hamma yoq jimidi.

Missis Xoll deyarli hushsiz holda erining qo'lga osilib qoldi. Mister Xoll, baqiriq-chaqiriq va shovqin- surondan uyg'onib ketgan Millining yordamida xotininn zo'r-bazo'r pastga olib tushib, unga dori ichirdi.

— Bu ins-jinslarning ishi,— dedi missis Xoll, nihoyat, o'ziga kelib.

— Bilaman, bu ins-jinslarning ishi. Men ular to'g'risida gazetada o'qigan edim. G'azetada yozishlaricha, stollar va stullar irg'ishlab raqs tusha boshlarkan...

— Yana ozroq ich,— uning so'zini bo'ldi Xoll.

— Sal o'zingga kelasan.

— Eshikni qulfla,— dedi missis Xoll.

— Hushyor bo'l, endi uni uyga kiritma.

Men hamisha undan shubhalanardim... Nega g'aflatda qoldim-a! Ko'zi ko'rinmasdi, boshi bint bilan chirmab tashlangan edi, yakshanba kuni bo'lsayu, cherkovga sira bormasdi. Shishalarining son-sanogi yo'q!.. Kiroyi odam uchun shuncha shishaning nima keragi bor! U mebelga ins-jinslarni kiritibdi... Aziz ko'hna mebellarim! Men jajjigina qizaloq vaqtimda onajonim ana shu kresloda o'tirishni yaxshi ko'rardi. Endi kelib-kelib uni menga qarshi qo'zg'alganiga hayron qolasan kishi...

— Doridan yana bir tomchi ich, Jenni,— dedi Xoll,—asabing juda buzilib ketibdi. Soat besh bo'ldi, tong yorishib ko'chalarga quyosh nur socha boshladi. Eru xotin Millini ro'paralarida yashaydigan temirchi mister Sendi Uojersni aytib chiqish uchun yuborishdi.

— Xo'jayinim sizga salom aytdilar,— dedi Milli temirchiga.

— Bizning uydagi mebellarga bir balo bo'ldi. Kirib bir ko'rib chiqasizmi-a?

Mister Uojers juda bilimdon va zehni o'tkir odam edi. 3 Millining hikoyasini jiddiy qabul qildi.

— O'lay agar, bu sehr-jodud u.

— Bunday ijarachiga faqztgina tuyuq kamlilik qiladi, xolos.

U Xollarnikiga tashvishli bir qiyofada chiqdi. Mister va missis Xoll u bilan yuqori qavatga chiqmoqchi bo'lishdi, biroq temirchi bunday qilishga shoshilmadi. U suhbatni koridorda davom ettirishni afzal ko'rdi. Xakstersning do'konidan gumashta chiqib, do'konning deraza eshiklarini ocha boshladi. Uni yuz bergan voqeaning muhokamasiga ishtirok qilishga taklif etishdi. Oradan bir necha minut o'tgach, mister Xakstersning o'zi ham etib keldi. Anglosaksonlar parlamentiga xos bo'lgan ruh bu yerda ham o'zini yaqqol namolish qildi, ya'ni ko'p gapyarildi-yu, lekin amalni ishga kirishilmadi.

— Azval faktlarga oydinlik kiritaylik,— deb o'z fikrini o'tkazishga harakat qilardi mister Sendi Uojers.

— Xonaning eshigini buzib kirishimiz to'g'ri bo'larmikin, yo'qmi, ana shu masalani muhokama qilaylik. Qulflangan eshikni har mahal ham buzish mumkin, biroq eshik buzilgandan keyin, uni buzilmagan deb isbot qilib bo'lmaydi-da.

Lekin qo'qqisdan, hammani ajablantirib, ijarachining eshigi o'z-o'zidan ochildi. Shunda ular yuqoriga qarab, o'ranib-chirmanib olgan noma'lum kishining o'zi vahimali ko'zoynagini yaltiratib zinapoyadan tushib kelayotganini ko'rdilar. U qaqqayib qadam tashlaganicha, zinapoyadan asta tushib keldi-da, koridordan o'tib to'xtadi.

— Anovini qaranglar,— dedi u qo'lqopli barmog'ini bigiz qilib.

Odamlar u ko'rsatgan tomonga qarab, yerto'la eshigi oldida turgan sarsaparel to'la shishani ko'rdilar. Noma'lum kishi esa, mehmonxonaga kirdiyu, qo'qqisdan zarda bilan eshikni taraqlatib yopib oldi.

Bir minutcha hech kim churq etib og'iz ochmadi. Hamma sukut saqlab bir-biriga boqardi.

— Ochig'ini aytsam, bezbetlik ham evi bilan,— deb gap boshlagan Uojers, jumlani tugatolmay qoldi.

— Sizning o'rningizda men bo'lganimda, oldiga borib «bu nima qiliq o'zi?» deb surishtirgan bo'lardim,— dedi Xakaters Xollga.

— Men bu qilgiligini izohlab berishini talab qilardim.

Shunday qilish zarurligini mister Xollga tushuntirish uchun ancha-muncha vaqt sarf bo'ldi. Nihoyat Xoll eshikni taqillatib ochdi-da, gap boshladi:

— Kechirasiz...

— Tuyog'ingizni shiqillatib qoling!— deb baqirdi noma'lum kishi darg'azab bo'lib.

— Eshikni yoping!

Gap ham shu bilan tugadi.

## VII Bob

### Noma'lum kishining fosh qilinishi

Noma'lum kishi mehmonxonaga ertalab soat besh yarimlarda kirib, u yerda taxminan peshingacha ishladi. Mehmonxonaning darpardalari tushirilgan, eshik ichkarisidan qulflangan edi. Xollning ishi o'ngidan kelmagach, ortiq hech kim yurak yutib u erga kirishga jur'at etmadi. Shu vaqt mobaynida noma'lum kishi hech nima emagan bo'lsa kerak, uch marta qo'ng'iroq chaldi, uchinchi safarida esa u jahl bilan uzoq chaldi, biroq hech kim unga javob bermadi.

— Qarab tursin hali, men unga «tuyog'ingizni shiqillatib qoling»ni ko'rsatib qo'yaman,— po'ng'illardi qo'ng'iroqlarga javoban missis Xoll.

Vikariynikg uyida kechasi yuz bergan mojaro haqidagi ovoza tarqalib bo'lgandi va odamlar har ikkala voqea orasida allaqanday aloqadorlik bor deb hisoblashardi. Xoll Uol ers bilan birga maslahatlashib kelish uchun sudya mister Sheklforsnknng uyiga jo'nadi. Yuqoriga chiqishga hech kimning yuragi dov bermasdi. Shu vaqt mobaynida musofir nima ish bilan mashg'ul bo'lgani ma'lum emas. Goho u xonaning u burchidan bu burchiga yurardi, uning xonasidan ikki marotaba so'kinish, qog'ozlarning sharillab yirtilgani va shishaning singani eshitildi.

Vahimaga tushgan, lekin sinchkovligi ichiga sig'mayotgan odamlar to'dasi tobora ko'payib borardi. Missis Xaksters ham to'daga kelib qo'shildi. Oradan bir oz o'tgach, bayram munosabati bilan qora kostyum va oq pikedan galstuk taqib, yasanib olgan bir talay o'ktam yigitchalar etib kelishdi-da, bema'ni savollar bera boshlashdi. Archi Xarker xammadan ko'ra dovyurakroq chiqib qoldi: u hovliga kirib, tushirib qo'yilgai darparda ostidan ichkariga mo'ralashga urindi. U hech narsa ko'ra olmadi, lekin ko'ryapman deb ishora qildi. Aypinglik yosh-yalanglardan yana ba'zi birlari uning yoniga borishdi.

Bayram kuni havo iliq va ochiq keldi. Qishloq ko'chasida o'nlarcha do'konchalar va otish mashq qiladigan «tir»lar paydo bo'ldi, temirchilik ustaxonasi oldidagi o'tloqda sarg'ish-jigar rang bilan ola-bula qilib bo'yalgan arava turardi, ularning yonida galati kiyingan allaqanday odamlar norjil yong'og'i otish musobaqasini o'tkazish uchun asbob hozirlashardi. Erkaklar zangori sviter kiygan, ayollar esa, oq peshband taqib, o'sha vaqtda keng rasm bo'lgan katta jig'a sanchilgan shlyapa kiyib olgan edilar. «Qizil bug'u» qovoqxonasining xo'jayini Uojer va minilgan velosipedlarni olib-sotish bilan ham shug'ullanadigan etikdo'z mister Jeggeres ko'chazra milliy

bayroq hamda qirol bayroqchalaridan yasalgan (ular qirolicha Viktoriyaning yubileyi bayramidan qolgan edi) chambarlarni ko'ndalang qilib tortishmoqda edi.

Derazalarning pardalari tushirilgan, g'ira-shira mehmonxonada, aftidan, och qolib, zardasi qaynagan musofir o'rab-chirmab olgan bintlari ichida issiqda hansirab, irkit shishalarni jiringlatar va zangori ko'zoynagi ostidan bir varaq qog'ozga qaragani holda derazasi oldiga yig'ilgan ko'zga ko'rinmas bolalarni bo'ralab so'kar edi. Burchakdagi kaminning yonida besh-oltita singan shishaning parchalari yotar, havoni esa dimog'ni chatnatib yuboradigan xlor hidi tutib ketgan edi. Buni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilarning hikoyasidan bizga ma'lum bo'lgan narsalar ana shular, chunki ular kirishgan mahalda xona shu ahvolda ekan.

Peshinga yaqin musofir mehmonxonaning eshigini daf'atan ochdi-da, ichkilik sotiladigan peshtaxta oldida uymalashib turgan uch-to'rt odamga tikilganicha ostonada to'xtadi.

— Missis Xoll!— deb qichqirdi u.

Allakim missis Xollni chaqirib kelish uchun istaristamas o'rnidan turdi.

Ko'p o'tmay yuzida qat'iy ifoda bilan bir oz entikkan missis Xoll etib keldi. Mister Xoll hali qaytmagan edi. Missis Xoll hamma narsani yaxshilab o'ylab ko'rgan bo'lib, qo'lida kichkinagina patnis ko'tarib keldi. Patnisda to'lanmagan qarzlarning ro'yxati bor edi.

— Qarzlarni to'lamoqchimisiz?— deb so'radi qovoqxona bekasi.

— Nima uchun menga notushta bermadingiz? Nega menga ovqat tayyorlamadingiz va qo'ng'iroqlarimga javob bermadingiz? Nima, meni ovqatsiz ham yashayveradi deb o'ylaysizmi?

— Xo'sh, nega o'zingiz qarzni to'lamadingiz?— deb e'tiroz bildirdi missis Xoll.

— Men mana shuni bilmoq chiman.

— Bundan to'rt kun burun aytdim-ku, sizga, pul yuborishlarini kutyapman deb...

— Men bo'lsam, kechagina sizga hech qanaqangi pul yuborishlarini kutmoqchi emasligimni aytgan edim. Besh kundan beri haq to'lamaganingizdan keyin nonushta kechik yapti deb do'ng'illashga hech qanday o'rin yo'q.

Ijarachi boloxonador qilib so'kinib qo'ydi.

— Hoy, og'zingizga qarab gapiring!— dedi peshtaxta yonida turganlardan biri.

— Mumkin bo'lsa, mister, so'kinishlarini o'zlari uchun asrab qo'ysalar,— dedi missis Xoll.

Ijarachi jim bo'lib, ostonada turib qoldi. U shu turishida achchig'i qistagan g'ovvosga o'xshab ketardi. Qovohxonadagilarning hammasi missis Xollning qo'li baland kelganini sezib turishardi. Noma'lum kishining keyingi gaplari bu fikrning to'g'riligini tasdiqladi.

— Mana qarang, jonginam...— deb gap boshladi u.

— Men sizning jonginangiz emasman,— javob qildi missis Xoll.

— Aytyapman-ku, menga hali pul yuborishgani yo'q...

— E qanaqasiga pul yuborishardi!—dedi missis Xoll.

— Lekin hozir cho'ntagimda bir oz...

— Uch kun avval bir soverenim ham yo'q degan edingiz-ku.

— Hozir undan ko'ra ko'proq topdim.

— Oho!— degan tovush eshitildi peshtaxta oldidan.

— Qayerdan pul topganingizni bilsak bo'ladimi,— dedi missis Xoll.

Bu gap musofirga yoqmadi chogi, u depsindi.

— Bu bilan nima demoqchisiz?— so'radi u.

— Bu pul sizga qayoqdan kelib qolganini bilmoqchimam, xolos,— dedi missis Xoll.

— Sizga berishdan, notushta tayyorlashdan, umuman, siz uchun biron narsa qilishdan avval, men anglamaydigan, hech kim ham anglamaydigan, lekin xammamiz ham anglashni istaydigan ba'zi bir narsalarni tushuntirib berishingizni so'rardim. Men yuqoridagi kresloga sima qilganingizni, nega xonangiz bo'm-bo'sh bo'lib qolganiyu, keyin qanday qilib qaytadan u yerga kirib olganingizni bilmoqchimam. Ijarachilarimning hammasi eshikdan kirib, eshikdan chiqishadi: uyimda shunday tartib o'rnatilgan; siz bo'lsangiz, boshqacha yo'l tutyapsiz, men esam xonaga qanday kirib-chiqishingizni bilgim keladi. Yana...

Noma'lum kishi birdaniga qo'lqopli qo'lini ko'tarib, mushtini tugdi-da, yer tepinib «to'xtang!»—deb baqirdi, baqirganda ham shunday jazavaga tushib baqirdiki, missis Xoll shu ondayoq jim bo'lib qoldi.

Mening kim va nima ish bilan shug'ullanayotganligimni tushunmaysiz,— dedi u.

— Hozir sizga ko'rsataman. Xudo haqi, ko'rsataman!—Shu so'zlarni aytarkan, u qo'lini basharasiga olib borib shu zahoti tortib oldi. Yuzining o'rtasida qop-qora bo'lib chuqurlik ochilib qoldi.

— Mana, ushlang,— shunday deb musofir missis Xollga tomon qadam tashladi-da, uning qo'lga allanimani tutqizdi. Uning o'zgarib ketgan basharasidan ko'z uza olmagan missis Xoll u tutqizgan narsani beixtiyor qo'lga oldi. Keyin olgan narsasining nima ekanini ko'rgach, dod deb yubordi-da, uni yerga uloqtirib, orqasiga tisarila boshladi. Polda burun — noma'lum kishining pushti rang, yaltiroq burni yumalab ketdi.

Keyin musofir ko'zoynagini olgan edi, yig'ilganlarning hammasi hayratdan baqrayib qolishdi. U shartta shlyapasini yechdi-da, g'azab bilan bakenbardi hamda bintlarni yulqib tashlay boshladi. Bakenbardi bilan bintlar darrov ko'chib qo'ya qolmadi. Kishilar dahshatdan tirrakday qotib qolishdi.

— Yo alhazar!— deb yubordi allakim.

Nihoyat bintlar uzilib tushdi.

Shu mahal yig'ilganlarning ko'z o'ngida namoyon bo'lgan manzara kutilgandan ham ko'ra dahshatliroq edi. Ajablanib og'zini ochib turgan missis Xoll o'takasi yorilib baqirib yubordiyu, eshikka tomon yugurdi. Hamma irg'ib o'rnidan turib ketdi. Odamlar jarohat, mayib-majruhlikni, ya'ni ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan dahshatli manzarani kutishgandi, biroq bunday qaralar, hech nima yo'q. Bintlar bilan parik o'sha yerda turgan odamlarning yuziga tegay deb qovoqxona peshtaxtga kelib tushdi. Hamma bir-birini bosib-yanchib zinapoya oldidan ura qochdi, chunki mehmonxonaning ostonasida tuturuqsiz gaplar gapirib paltosining yoqasigacha odam shaklida bo'lgan bir ko'laga turardi, undan yuqorida esa hech nima yo'q edi. Ha, ha, hech nima yo'q edi! Ayping aholisi «Aravakash» qovoqxonasidan kelayotgan qiy-chuv, shovqin-suronni eshitdi va u erda o'tirgan odamlarning zing'illab qochib chisishayotganini ko'rdi. Xaloyiq missis Xollning yiqilgani va mister Teddi Xenfri unga qoqilib ketmay deb irg'ib o'tganini ko'rdi. Keyin ular shovqin-suronni eshitib oshxonadan yugurib chiqqanida birdaniga boshsiz musofirga duch kelgan Millining dahshatli chinqirig'ini eshitdilar.

So'ng oqsoch qiz birdan jim bo'lib qoldi.

Shundan keyin ko'chadagilarning hammasi — qandolat- furush, merganbozlik do'konining egasi va uning yordamchisi, arg'imchoqlarning xo'jayini, bolalar va qizchalar, qishloq oliftalari, mahalliy oyimchalar, bluza kiygan chollar va fartuk tutgan lo'lilar qovoqxona tomon yopirilishdi. Oradan bir minutcha o'tmay, missis Xollning qovoqxonasi oldida qirqqa yaqin kishi to'plandi, olomon tobora ko'payib borar, hamma shovqin-suron qilar, bir-birlarini qisib- ezishar, ovozlarini barala qo'yib baqirar, chinqirar, savol so'rashar, undog' emasmikan, mundog' emasmikan, deb «fol» ochishardi. Hech kim birovning gapiga quloq sol-mas, hamma baravariga gapirardi — haqiqiy «qiyomat-qoyim»ning o'zginasi edi. Bir necha kishi deyarli behush yotgan missis Xollni o'rnidan turg'izib, uni suyab turishardi. Qiy-chuv orasida shohidlardan biri boshqalardan ko'ra qattiqroq baqirishga urinib, aqlga to'g'ri kelmaydmgai narsalarni gapirardi.

— Jodugar!

— U nima qilib qo'ydi o'zi?

— Oqsochni yarador qildi.

— Ularga pichoq olib yugurdi, chog'i

— Quruq so'z emas, haqiqatan ham boshsiz ekan.

— Boshsiz deyapmiz-ku, axir!

— Bo'lmagan gap, biror fokus-mokus bo'lsa kerak.

— Bintlarni echgan zahoti...

Ochiq turgan eshikdan mo'ralamoqchi bo'lgan olomondan jonli pona hosil bo'lgandi. «Pona»ning qovoqxona tomondagi «qirra»sida eng dovyurak kishilar turardi.

— U ostonada turuvdi. Birdan qiz chinqirib yubordi, u o'girilib qaradi, qiz bo'lsa, ura qochib qoldi. U qizning ketidan quvib ketdi. Bir minutda hamma ish saranjom bo'ldi. Shundan so'ng u bir qo'lida pichoq, ikkinchisida bir bo'lak non bilan orqasiga qaytdi-da, xuddi bir narsaga qarab turgandek to'xtab qoldi. Hozirgina bo'ldi shu ish. U anovi eshikka kirib ketdi. Sizga aytyapman-ku: unda bosh degan narsadan nomu nishon yo'q. Bir minutcha oldinroq kelganingizda, o'zingiz...

Orqa qatorda harakat boshlandi. Hikoyachi jim bo'ldi-da, jangovar qiyofada uyga tomon kelayotgan kichkinagina to'daga yo'l berib, chetga chiqdi. To'daning boshida qip-qizarib ketgan mister Xoll shaxdam qadam tashlardi, keyin konstabl Bobbi Jeffers va nihoyat, ehtiyot yuzasidan eng orqaga o'tib olgan Uojers kelardi. Ularning qo'lida noma'lum kishini qamoqqa olish haqida buyruq bor edi.

Odamlar bir-birlariga gal bermay, ularni so'nggi yangiliklardan xabardor qilardilar, biri bir narsa deb qichqirsa, ikkinchisi tamoman boshqa narsani aytardi.

— Boshi bormi, yoki yo'qmi ekanidan qat'iy nazar,— dedi Jeffers,— menga uni qamoqqa olish to'grisida buyruq berishdi, men ana shu buyruqni ado etaman.

Mister Xoll zinapoyadan chiqib to'g'ri mehmonxonaga bordi-da, eshikni ochdi.

— Konstabl,— dedi u,— qani o'z burchingizni ado eting.

Mehmonxonaga avval Jeffers, uning orqasidan Xoll va oxirida Uojers kirdi. Nim qorong'ilikda ular bir qo'lida eb tugatilmagan non, ikkinchi qo'lida pishloq tutgan boshsiz musofirni kurdilar; uning ikkala qo'lida ham qo'lqop bor edi.

— Mana, u,— dedi Xoll.

— Yana bu qanaqasi bo'ldi?—degan zardali ovoz eshitildi yoqa ustidagi bo'shlikdan.

— Men to shu kungacha sizga o'xshagan odamni ko'rmagan edim, afandim,— dedi Jeffers.— Lekin boshingiz bormi yoki yo'qmi, baribir, buyruqda «tutib kelinsin!» deyilgan, xizmat burchi esa men uchun...

— Yaqinlashmang!— bir qadam orqaga chekinib qichqirdi musofir.

U shu zahoti non bilan pishloqni polga uloqtirdi. Mister Xoll stol ustidagi pichoqni o'z vaqtida olishga zo'rg'a ulgurdi. Noma'lum kishi chap qo'lqopini echib, u bilan Jeffersning basharasiga bir urdi. Jeffers buyruq haqidagi gaplarni darhol to'xtatib, bir qo'li bilan ko'rinmas qo'lning panjasidan tutib, ikkinchi qo'li bilan ko'rinmaydigan bo'yniga chang soldi. Shu mahal u oyog'iga qattiq bir tepki edi-yu, og'riqdan voy-voylab yubordi, lekin o'ljasini qo'yib yubormadi. Xoll darvozabon rolini bajarayotgan Uojersga stol ustidan pichoq uzatib, o'zi Jeffersga yordam bermoqchi bo'ldi. Shiddatli olishuv mahalida muxoliflar stulga borib urilishdi, stul taraqlab bir tarafga surilib ketdi va har ikkalasi polga yiqildi.

— Oyog'idan ushlang uni,— deb pishilladi Jeffers, tishlarini g'ijirlatib.

Uning amrini bajarmoqchi bo'lgan mister Xoll ko'kragiga qattiq bir tepki yeb, bir minut chamasi o'ziga kelolmay turdi, mister Uojers esa boshsiz kishining Jeffersdan ustun kela boshlaganini ko'rib, qo'lida pichoq bilan eshik tomonga chekindi va u erda mister Xaksters hamda qonun va tartib qo'riqchisiga yordamga shoshilayotgan sidderbrijlik izvoshchiga to'qnash keldi. Shu daqiqada tokchadagi shishalar polga to'kilib chil-chil sindi-yu, uy qo'lansa hidga to'ldi.

— Taslim bo'ldim!—deb qichqirdi noma'lum kishi, Jeffersni ostiga olib ezib yotgan bo'lishiga qaramay. U xalloslab, boshsiz va qo'lsiz holda (chunki Jeffers bilan olishayotgan mahalida qo'lqoplarini echib tashlagan edi) o'rnidan turdi.

— Baribir hech qanday natija chiqmaydi,— dedi u nafasini zo'r-bazo'r rostlab olib. Go'yo oddiy bo'shliqdan chiqayotgan tovushni eshitish juda g'alati edi, ammo Susseksning aholisi olamda eng serfahm xalq bo'lsa kerak. Jeffers ham o'rnidan turib cho'ntagidan bir juft qo'l kishaninn oldi. Olishga oldi-yu, biroq shu lahzada tamoman hayron bo'lib turib qoldi.

— Ana xolos!— dedi u bo'lib o'tayotgan voqealarning aqlga to'g'ri kelmaydigan bir holat ekanini elas-elas fahmlab.

— Obbo! Buning zarurati yo'qqa o'xshaydi-ku.

Noma'lum kishi bo'sh engini kostyumiga tegizgan edi, tugmalar bamisoli sehr bilan bo'lganday o'z-o'zidan echilib keta boshladi. Keyin musofir o'z oyog'i to'g'risida allanimalar dedida, engashdi. U boshmoqlari bilan paypoqlariga qo'l urgan bo'lsa kerak.

— To'xtanglar,— deb kichqirdi Xaksters.

— Axir, bu xech qanaqa odam emas-ku! Bu yerda quruq kiyimning o'zi. Mana, yoqaning ichiga qarash mumkin, kostyumning astari xam yaqqol ko'rinib turibdi. Men qo'limni suqishim mumkin...

U, shunday deb qo'lini uzatdi. Biroq qo'li bo'shliqda nimagadir tegib ketgan bo'lsa kerak, shu zahoti baqirib uni tortib oldi. Shunda bo'shliqdan:

Barmoqlaringizni ko'zimdan nariroqqa tortishingizni so'rar edim,— degan g'azabli so'zlar eshitildi.

— Gap shundaki, mening boshim ham, qo'lim ham, oyog'im ham bor, barcha a'zolarim ham o'z o'rnida. Biroq ko'rinmas odamman, xolos. Bu juda ham noqulay, biroq boshqa hech qanday iloj yo'q. Lekin bu aypinglik har bir ahmoq meni turtaverishi mumkin degani emas.

Xakstersning oldida ikki engini biqiniga tiragan kostyum barcha tugmalari yechilib, ko'zga ko'rinmas gavgaga osilgan holda turardi.

Shu payt ko'chadan yana bir necha kishi kirdi, xona gavjum bo'lib qoldi...

— Nima? Ko'rinmas odam?— dedi Xaksters, noma'lum kishining gaplaridagi tahqiroimiz ohangga e'tibor bermay.

— Unaqangi odam bo'lmaydi-ku.

— Bu g'alati tuyulishi mumkin, lekin buning hech qanaqa jinoyatli joyi yo'q. Xo'sh, konstebel nimaga asoslanib menga hujum qilyapti?

— Mana bu tamoman boshqa masala — dedi Jeffers.

— To'g'ri, bu er qorong'iroq, sizni ko'rishga odam qiynalyapti, lekin mening qo'limda sizni qamoqqa olish to'g'risida buyruq, buyruq bo'lganda ham barcha rasmiy qoidalar asosida yozilgan buyruq bor. Siz ko'rinmas odam bo'lganingiz uchun zmas, balki birovning uyiga o'g'irlikka tushgansiz, degan gumon bilan qamoqqa olinyapsiz. Bu yerdan uncha olis bo'lmagan uyni talab, pullarini o'g'irlab ketishibdi.

— Xo'sh, nima bo'пти?

— Ba'zi bir vaziyatlarning ko'rsatishicha...

— Bo'lmagan gap!— xitob qildi Ko'rinmas odam.

— Ishqilib, shunday bo'lib chiqsin, taqsir. Biroq mening qo'limda buyruq bor.

— Yaxshi,— dedi noma'lum kishi,— men siz bilan birga boraman. Ha, boraman. Lekin kishanlamasdan.

— Kishanlab olib borishim kerak,— dedi Jeffers.

— Kishanlamasdan,— deb oyoq tirab oldi notanish kishi.

— Yo'q, kechirasiz,— dedi Jeffers.

Birdan Ko'rinmas odam polga o'tirib oldi, yig'ilganlarning birortasi ham nima voqea bo'layotganini anglashga ulgurmay turib, boshmoq, shim va paypoqlar stol ostiga uloqtirildi.

Keyin Ko'rinmas odam sakrab o'rnidan turdi-da, kostyumini yechib tashladi.

— To'xta, to'xta!— deb baqirdi Jeffers, daf'atan masalaning mohiyatini anglab. U jiletka yopishdi. Jiletka qarshilik ko'rsata boshladi, keyin Jeffersning qo'lida jiletka qolib, ko'ylak chiqib ketdi,— ushlanglar uni!— baqirdi Jeffers.

— U yechinsa tamom!

— Ushlanglar uni!— qichqirdi hamma birdan va noma'lum kishidagi birdan-bir ko'zga ko'rinadigan narsa muallaq ketayotgan ko'ylak tomon tashlanishdi.

Ko'ylakning engi Xollning basharasiga boplab bir musht tushirdi, bu zarba uning qat'iyat bilan qilgan hujumini to'xtatib, orqaga, prichetnik Tutsomga qarab uloqtirdi, shu lahzada ko'ylak yuqori ko'tarilib, barcha echilib tashlanayotgan ko'ylak singari harakat qila boshladi. Jeffers ko'ylakning engidan tutdi, lekin bu harakati bilan uni echishga yordam berdi, xolos. Nimadir havodan kelib Jeffersning jag'iga bir tushirdi; u bo'lsa, shu zahoti tayog'ini oldi-da, kuchining boricha aylantirib Teddi Xenfrining kallasiga soldi:

— Ehtiyot bo'linglar!— qichqirishardi hammaligi bilan havoni mushtlab.

— Ushla uni! Eshikni yopinglar! Uni chiqarib yubormanglar. Men nimanidir ushlab oldim! Mana u!

Haqiqiy qiyomat-qoyim bo'lib ketdi. Mushtlar hammaga barobar yog'ilayotganga o'xshardi, og'zi-burnini dabdala qilgan zarbadan aql-idroki ancha o'tkirlashib qolgan donishmand Sendi Uojers eshikni lang ochdi-yu, hammadan burun juftakni rostladi. Hamma darhol uning ortidan yugurdi. Eshikning oldi tirband bo'lib ketdi. Mushtlar tushishi davom etardi. Sektant Fipsning oldingi tishini urib sindirishdi, Genrining esa quloq suprasini yorib yuborishdi. Jeffersning dahaniga qattiq bir musht tushdi va o'girilib, ur-yiqitda o'zi bilan Xaksters orasiga suqilgan ko'zga ko'rinmas bir narsani ushlab oldi. U muskuldor ko'krakni paypasladi, shu lahzada qizishib mushtlashayotgan odamlar koridorga otilib chiqishdi.

— Tutdim,— deb baqirdi Jeffers hansirab. Tomirlari o'ynab, basharasi qip-qizarib ketgan, halloslab qolgan Jeffers bu g'aroyib olishuvni ko'rib davra olib chetlangan odamlar o'rtasida ko'zga ko'rinmaydigan dushmanini qo'yib yubormay gir-gir aylanardi. Nihoyat ularning hammasi zinapoyadan pastga quladi.

Jeffers xali ham ko'zga ko'rinmas bir narsani quchoqlab olib, tizzasini bilan tepkilaganicha bo'g'iq tovush bilan qichqirardi, keyin u chayqalib ketdi-da, boshi bilan toshga urilib qancha yiqildi. Shundan keyingina u barmoqlarini yozdi.

«Ushla uni!» «Ko'rinmas odam!»—degan hayqiriqlar eshitildi. Aypingga allaqayerdan kelib qolgan, nomini hech kim bilmaydigan bir yigit yugurib borib bir narsani ushladi-yu, lekin shu zahoti qo'yib yuborib cho'zilib yotgan konstebning ustiga ag» darildi. Ko'chaning o'rgasida allakimning turtkisidan yiqilib gushayotgan xotin dodlab yubordi; it qattiq tepki egan bo'lsa kerak, angillaganicha dumini xoda qilib Xakstersning hovlisiga qarab qochdi. Shu bilan Ko'rinmas odamning qochishi ham anjomiga etdi. Olomon bir minutchka hayron bo'lib hayajon ichida turib qoldi-yu, keyin bamisoli kuzgi xazon tevarak-atrofga to'zg'ib ketdi.

Yolg'iz Jeffersgina tizzasini bukkanicha qimir etmay chalqancha yotardi.

## **VIII Bob** **Yo'l-yo'llakay**

Sakkizinchi bob haddan ziyoda qisqa. Bunda, mahalliy havaskor — tabiatshunos Jibbins kam deganda ikki milyacha tevarak-atrofdan hech zog' yo'q ekaniga qattiq ishongani holda tepacha ustida mudrab yotarkan, birdaniga juda yaqin erdan allaqanday odamning qadam tovushini eshitgann hikoya qilinadi.

U odam yo'talar, aksirar va bo'ralab so'kinardi; Jibbins o'girilib qarab hech kimni ko'rmadi. Shunday bo'lsa-da, tovush juda aniq eshitilmoqda edi. Ko'rinmas yo'lovchi tobiga olib boloxonador qilib so'kinardi, bunday so'kinishni esa o'qimishli odamlarning og'zidagina eshitish mumkin edi. Ovoz juda ham barala eshitildi, keyin asta-sekin pasaydi, nihoyat Jibbinsning aytishicha, Edderdin tomoniga borib tamoman tindi. So'nggi daf'a bir martaba qattiq aksirgan tovush eshitildi-yu, so'ng hamma yo'q jimib qoldi.

Ertalabki voqeadan Jibbinsning hech qanday xabari yo'q edi, lekin bu hodisa uni shu qadar hayratga solib, xijolat qildiki, uning faytasuflarga xos loqayd vazminligidan asar ham qolmadi. U irg'ib o'rnidan turib, chopganicha tepadan tushdi-yu, oyog'ini qo'lga olib qishloqqa tomon yugurdi.

## **IX B O B** **Mister Tomas Marvel**

Mister Marvel haqida tasavvur hosil qilmoqchi bo'lsangiz, kepchikday basharasi qurushgan, tanqaygan burni katta, og'zidan doim so'lagi oqib yuradigan va patak soqoli har tomonga tarvaqaylab o'sgan bir odamni ko'z oldingizga keltirmogingiz kerak. Uning semizlikka moyilligi kalta baqay, girdig'umligidan yaqqol sezilib turardi. U tirtig'i o'ynab ketgan shoyi

silindr kiyib olgandi, yengil- boshining eng nozik joylarida tugmachalar o'rniga kanop va botinka iplari o'z «husni»ni namoyish qilib turishi mister Marvelning bo'ydoqligidan darak berardi.

Mister Tomas Marvel Edderinga olib boradigan yo'l yoqasida, Aypingdan bir yarim milyacha naridagi ariqqa oyog'ini osiltirib o'tirardi. Uning oyog'ida dalvay-dalvay bo'lib ketgan paypoqdan bo'lak hech narsa yo'q edi; paypoqning yirtig'idan chiqib, yuqori ko'tarilib turgan boshmaldoqlari hushyor turgan itning quloqlarini eslatardi. Tomas Marvel oyog'iga o'lchab ko'rmoqchi bo'lgan boshmoqni shoshilmasdan — uning hamma ishni shoshilmasdan qilish odati bor edi — ko'zdan kechirardi. Bu ko'pdan beri uning qo'lga tushmagan juda ham pishiq boshmoq edi-yu, biroq uning oyog'iga anchayin kattalik qilardi. Havo ochiq paytda yurishga mos bo'lgan eski boshmog'i esa yog'ingarchilikda kiyishga yaramasdi, chunki uning tag charmi juda ham yupqa edi. Mister Marvel keng poyafzalni o'lgiday yomon ko'rardi, shu bilan birga, namgarchilikka ham tobi yo'q edi. Sirasini aytganda, u qaysi birini — keng poyafzalini yoxud namgarchilikni — ko'proq yoqtirmasligini hali aniqlab olgani yo'q edi, — lekin havo ochiq, boshqa qiladigan ishi yo'q edi, shuning uchun ham u puxta o'ylab ko'rmoqchi bo'ldi. U to'rttala boshmoqni tartib bilan qatorlashtirib qo'ydi-da, ularga tikilib qaray boshladi. Boshmoqlarning qarqara bo'lib o'sib yotgan qariqizlar orasida turishlarini ko'rib, u qo'qqisidan har ikkala jufti ham tasqara ekan degan qarorga keldi. Shunda u orqasidan kelgan allakimning ovozini eshitib sira ajablanmadi.

— Har qalay poyafzal-ku,— dedi Ovoz.

— Bu sadaqa qilingan poyafzal,— dedi mister Tomas Marvel, boshini bir tomonga qiyshaytirib ta'bi tirriq bo'lgan holda boshmoqlarga tikilarkan.

— Qurib ketsin, men bo'lsam, bularning qaysi jufti rasvoroq ekanini aniqlayolmay xunobman.

— Hm...— dedi Ovoz.

— Men bulardan beshbattarpoyafzallarni ham kiyganman. Rostini aytsam, yalang oyoq ham yuraverganman. Ammo, bularga o'xshagan ta'viyayu taraqqos poyafzalni sira kiygan emasman. Ko'pdan beri poyafzal axtarib yuraman, chunki o'zimmiki juda jonimga tekkan. Boshmog'im pishiqligiga shubha yo'q. Lekin odam hamisha tik oyoqda turganidan keyin doimo boshmog'ini ko'rarkan. Xoh ishonang, xoh ishonmang, butun okrugni axtarib, shulardan bo'lak boshmoq topa olmadim. Bularga bir qarang-a! Umuman, to'g'risini aytsam, bu okrugda poyafzalni yaxshi tikishadi. Faqat mening toleim qurg'ur shunaqa. Un yildan buyon shu yerning poyafzalini kiyaman. Mana endi menga shunaqangi yaramas boshmoqni tiqishtirishibdi.

— Bu rasvo okrug,— dedi Ovoz,— odamlari ham juda yaramas.

— Rostdanam shunday!— dedi Tomas Marvel.

— Zap poyafzal ekan-da! Poyafzal bo'lmay o'lsin!

Shunday degach, u suhbatdoshining poyafzaliga qarab o'ziniki bilan taqqoslamoq uchun kifti osha o'ng tomonga qing'ayib boqdi, lekin uni nihoyatda zo'r taajjubga solgan narsa shu bo'ldiki, bir juft boshmoqni ko'rarman degan joyida na boshmoq bor ediyu va na oyoq. U chap kifti ustidan qaradi, biroq u yerda ham ia boshmoqni-yu, na oyoqni ko'rdi. Bu hol uni juda dovdiratib qo'ydi.

— Qayerdasiz axir!— so'radi Tomas Marvel, emaklab ailanarkan. Uning ko'z o'ngida bo'm-bo'sh pastu baland yalanglik yastanib etardi, faqat olis-olislardagi archagul butalarigina shamolda chayqalib turardi.

— Nima balo, kayfim oshganmi o'zi?—dedi Tomas

Marvel. E shunchaki xayolimda shunday eshitildimikin. O'z-o'zim bilan gaplashdimmi? Bu nimasch axir...

— Qo'rqmang,— dedi Ovoz.

— Hazilingizni qo'ying!—xitob qildi Tomas Marvel,

— Qayerdasiz? Gapini qarangu, «ko'rqmang» emish-a!

— Qo'rqmang,— deb takrorladi Ovoz.

Hozir o'zing qo'rqasan, kallavaram!—dedi Tomas Marvel. Qayerdasan? Qarab tur, seni bir adabingni berib qo'yay.



Churq etgan tovush eshitilmadi.

— Bu deyman, yerning tagidamisan o'zi?— so'radi Tomas Marvel.

Yana javob bo'lmadi. Tomas Marvel kostyumining tugmalari echiq holda, hayratdan og'zini ochib, paypoqchan serrayib turardi.

Olisdan «fyu-it» degan hushtak tovushi eshitildi.

Endi «fyu-it»i kamlik qilayotgandi. Nega maynabozchilik qilasiz-a?— dedi Tomas Marvel.

Bu yer kimsasiz xilvat joy edi. Qayoqqa boqmang, hech zog' ko'rinmasdi. Ikki chetidagi chuqur ariqlarda suv oqayotgan, oq ustunlar bilan o'ralgan kaftday tekis xilvat shimol va janub tomonga cho'zilib ketgandi, musaffo osmonda ham jajji sayroqi qushdan bo'lak hech nima ko'zga chalinmasdi.

— O'z panohingda saqlagin, parvardigor!— xitob qildi, Marvel, kostyumining tugmalarini qadar ekan,— Hammasiga la'nati aroq sababchi. Shunday bo'lishini biluvdim-a.

— Bu aroqdan emas,— dedi Ovoz.

— Qo'rqmang!

— Uh! — ingrab yubordi Marvel, ranggi quv o'chib.

— Hammasiga aroq sababchi,— deb unsiz takrorladi uning lablari. Mister Marvel bir nuqtaga tikilganicha bir oz qotib turdi-da, so'ng orqasiga o'girila boshladi.

— O'lay agar, ovoz eshitganim rost,— deb pichirladi u.

— Albatta eshitdingiz.

— Ana tag'in eshitiyapti,— dedi Marvel, ko'zlarini chirt yumib, dahshat bilan boshini changallar ekan. Lekin shu daqiqada kimdir uning giribonidan tutib, shunday silkitdiki, boyaqishning miyasi batamom gangib qoldi.

— Ahmoqlik qilma,— dedi Ovoz.

— Aqldan ozibman...— dedi Marvel.

— Ahvolimga voy endi. Hammasi la'nati boshmoqlarning kasofatidan. Ha-ha, rostdanam aqldan ozganga o'xshayman! Yoki bu insjinslarmikin-a?..

— Unday ham emas, bunday ham emas,— dedi Ovoz.

— Menga qara...

— Aqldan ozdim!— takrorladi Marvel.

— Hoy, quloq solsang-chi, axir!— dedi Ovoz, g'azabini zo'rg'a bosib.

— Xo'sh?— dedi Marvel, go'yo allakim ko'kragiga barmog'ini tegizganday bo'lganidan taajjublanib.

— Senga mening tovushim go'yo xayolingdagina eshitilganday bo'ldimi, a?

— Ha, bo'lmasa, qanday?— javob berdi Tomas Marvel boshini qashib.

— Juda soz,— dedi Ovoz,— u holda men, to voqea o'ylaganingning aksicha ekaniga ishonch hosil qilguningga qadar seni toshbo'ron qilaman.

— Hoy, qaerdasan o'zing axir?

Ovoz javob bermadi. Hushtak ovozi eshitildi, go'yo havoning o'zidan otilgandek bir tosh mister Marvelning elkasi enginasidan uchib o'tdi. Ugirilib qarab, mister Marvel ikkinchi toshning yarim doira yasab yuqoriga ko'tarilgani va bir zum havoda muallaq turib, keyin vizillab uning oegi tomon uchganini ko'rdi. U Shu qadar dovdirab qolgan ediki, hatto toshga chap berishga ham urinmadi. Tosh mister Marvelning boshmaldog'iga tegdi-da, qapchib yumaladi.

Tomas Marvel sakrab tushdi va og'riqning alamidan voivoilab yubordi. Keyin o'rnidan turib ura qochdi, lekin allanimaga qoqilib, o'mbaloq oshib tushdi-da, o'tirib qoldi.

— Xo'sh, endi nima deysan?—so'radi Ovoz, uchinchi tosh yarim doira chizib yuqori ko'tarildi-yu, daydining boshi ustida muallaq turib qoldi,— Men nimaman? Xayoling ekanmanmi?

Marvel javob berish o'rniga o'rnidan turdi, lekin shu lahzada qaytadan erga uloqtirildi. U bir minutcha harakatsiz yotdi.

— Qimir etmay o'tir,—dedi Ovoz,—aks holda, shu tosh bilan urib miyangni po'la qilaman.

— Ana xolos!— dedi mister Marvel, o'tirgan joyida toshdan ko'z uzmay, lat egan oyog'ini silar ekan,— Hech baloga aqlim etmay qoldi. Toshlar o'zidan-o'zi uchyapti. Toshlar gapiryapti.

Menga otilma. Daf' bo'l. Adoyi tamom bo'libman endi.

Tosh yerga tushdi.

— Hayron qoladigan hech narsa yo'q,— dedi Ovoz.

Men ko'rinmas odamman.

— Sal bo'ladigan gapdan gapirsangiz-chi,— dedi mister Marvel, og'riqdan to'lg'anib voyvoylarkan,— Qayerda yashirib turibsiz, qanday qilib bekinyapsiz? O'ylab-o'ylab, uyimga etolmayapman. Taslim bo'ldim.

Men ko'rinmas odamman, bor gap shu. Tushunsang-chi, axir...— dedi Ovoz.

— Judayam tushunyapman. Jahlingiz chiqmay qo'ya qolsin, mister. Yaxshisi, menga qanday yashirinayotganingizni aytib bering.

— Men ko'rinmas odamman, hamma gap shunda.

— Lekin o'zingiz qaerdasiz?— uning so'zini bo'ldi mister Marvel.

— Shu yerda, sening oldingda, besh qadamcha naridaman.

— Yolg'onniyam do'ndirarkansan! Ko'r emasman-ku. Hali men havoman ham dersan-a.

Men allaqanday avomlardan emasman...

— Ha, men havoman. Sen mening badanim orqali qarayapsan.

— Nima? Demak sening badaningda mahmadona ovozingdan bo'lak hech narsa yo'qmi-a?

— Men ham boshqalar singari vujudga ega insonman, men ham eyishim, ichishim va kiyinishim kerak. Biroq men ko'rinmas odamman. Tushundingmi? Ko'rinmas odam. Bu juda ham oson narsa. Ko'zga ko'rinmaydigan odamman.

— Rostakam odamman?

— Ha.

— Xo'sh, basharti shunday bo'lsa,— dedi Marvel,— menga qo'lingizni bering-chi, ana unda har qalay odam salpal ishonadi... Voy!— deb qichqirib yubordi u birdan.

— Meni juda ham qo'rqitib yubordingiz-ku! Odam degan ham shunday yopishadimi!

Marvel avval barmog'ini siqib ushlab turgan qo'lni, keyin qo'rqa-pisa kiftni, mushakdor qabariq ko'krakni va soqolni paypaslab ko'rdi. Uning basharasidan nihoyatda hayratlangani sezilib turardi.

— Qoyil!— dedi u.

— Bu xo'roz urishtirishdan ham zo'rroq ekan. Aql tang qoladi-ya. Men sizning badaningiz orasida yarim milya naridagi quyonna ko'ra olaman. O'zingizni bo'lsa, sira-sira ko'rib bo'lmaydi... Lekin...

Shunda mister Marvel xoliday bo'lib tuyulgan bo'shliqni diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi.

— Ayting-chi, pishloq bilan non eganmidingiz?— deb so'radi Marvel ko'rinmas qo'lni qo'yib yubormay.

— Ha, egandim. Hali ular hazm bo'lgani yo'q.

— A-a,— dedi mister Marvel.— Har qalay bu taajjub hol.

— yo'q, buning siz o'ylaganchalik taajjubli joyi yo'q.

— Mening jindakkina aql-idrokim uchun bu kifoya qilarli darajada taajjub,— dedi Tomas Marvel.— Lekin siz buning uddasidan qanday chiqdingiz? Xudoyo tavba, qanday qilib bunday bo'la oldingiz-a?

— Bu juda ham uzun qissa. Innaykeyin...

— Men hali ham o'zimga kelolmayapman,— dedi Marvel.

— Senga aytmoqchi bo'lgan gapim shunday. Men yordamga muhtojman — meni shunday holatga solib qo'yishdi.— Tasodifan senga duch kelib qoldim. Men tinka-madorim qurib, yalang'och holda g'azabim qaynab kelmoqda edim. Birovni o'ldirishdan ham toymasdim...

Shunda seni ko'rib qoldim...

— Yo rabbiy!— deb yubordi Marvel.

— Men orqa tomondan tepangga keldim... o'ylab ko'rdim-da, o'tib ketdim...

Mister Marvelning basharasi ko'nglidagi his-tuyg'ularini yaqqol ifodalab turardi.

— Keyin to'xtadim. «Mana, xuddi menga o'xshab eldan quvg'indi bo'lgan kishi,— o'yladim men.— Mana menga kerak bo'lgan odam». Orqamga qaytib, sening oldingga keldim. Endi...

— Yo rabbiy,— dedi mister Marvel.

— Boshim gangib ketyapti. So'rashga izn bering: bu qanaqasi-a? Uzingiz ko'rinmas odam bo'lsangiz! Yana sizga qanday yordam kerak?

Sen menga kiyim-kechak, boshpana va boshqa ba'zi bir narsalarni topishda yordam berishingni istardim... Bu narsalardan men ko'pdan beri mahrumman! Mabodo istamasang... Lekin sen menga yordam berasan, yordam berishing lozim!

— Shoshmang,— dedi Marvel.

— Avval aqlimni boshimga yig'ib olay! Tomdan tarasha tushganday, to'satdan mumkin emas-ku, axir. Menga qo'lingizni tegizmang! Uzinga kelib olay.

Axir, oyog'imdagi barmoqni majaqlab yuboray dedingiz-ku. Hammasi ham aql bovar qilmaydigan narsalar: bo'm-bo'sh tepaliklar, bo'm-bo'sh osmon. Ko'p milyalarga cho'zilgan tevarak atrofda tabiat manzaralaridan bo'lak hech narsa ko'rinmaydi. Birdaniga xuddi osmondan kelgandek ovoz eshitilsa! Toshlar o'zidan-o'zi otilsa. Gardaningga bo'shliqdan musht kelib tushsa. Yo, qudratingdan.

— Bo'ldi, etar shuncha obi diyda qilganing,— dedi Ovoz.

— Yaxshisi, men buyuradigan ishni bajar.

Marvel lunjini shishirdi-yu, ko'zlari yum-yumaloq bo'lib ketdi.

— Men seni tanladim,— dedi Ovoz,— bir necha qishloqi ahmoqlarni hisobga olmaganda, sen olamda Ko'rinmas odam mavjud ekanini biladigan birdan-bir kishisan. Sen menga yordgim berishing lozim. Menga yordam bergin, shunda men ham sen uchun ko'p narsalar qilib beraman. Ko'rinmas odam juda ham zo'r qudratga ega.

— U so'zdan to'xtab, qattiq aksirdi.

— Ammo meni tutib bermoqchi bo'lsang,— deb so'zini davom ettirdi u,— basharti men buyurgan ishni bajarmasang...

U jim bo'lib, Marvelning elkasini qattiq qisdi. Marvel, o'takasi yorilib, chinqirib yubordi. — Men sizni tutib bermaqchi emasman,— dedi u Ko'rinmas odamning qo'lidan chiqishga urinib.— Bu xususda gap ham bo'lishi mumkin emas. Bajonu dil sizga yordam beraman. Nima qilishim kerakligini aytsangiz bas. (Ey xudo-ey) Siz xohlagan hamma ishni jon-jon deb bajaraman.

## **X Bob**

### **Mister Marvel Aypingda**

Vahima sal-pal bosilgandan keyin Ayping aholisi sekin-asta aql-hushini yig'ib ola boshladi. Birdaniga shubhaomuz hissiyot bosh ko'tardi — to'g'ri, u ancha beqaror, dud- mol, lekin har qalay shubhaomuz hissiyot edi. Axir, Ko'rinmas odamning yo'qligiga ishonish osonroq edi, uning kiyimlarini yechib ko'rinmay qolganining shohidi bo'lgan yoki mushti kuchini totib ko'rgan kishilar barmoq bilan sanarli darajada oz edi. Buning ustiga ustak, bu ishning guvohi bo'lganlardan mister Uojers orada yo'q edi, u uyiga kirib eshiklarini qulflab olgan va hech kimni «iritmay qo'ygandi. Jeffers bo'lsa, «Aravakash» qovoqxonasida behush cho'zilib yotardi. Tajriba doirasidan tashqari chiqib ketadigan buyuk, favqulodda g'oyalar ko'pincha oddiy, lekin osongina tasavvur etish mumkin bo'lgan g'oyalardan ko'ra kishilarni kamroq asir etadi. Aypiyag bayroqchalar bilan bezatilgan, kishilar esa yasanib-tusanib olishgan edi. Axir, bayramga bir oydan beri tayyorgarlik ko'rishar va uning zavqini oldindan surishardi-da. Ana shuning uchun ham oradan bir necha soat o'tgandan keyin, hatto Ko'rinmas odamning mavjudligiga ishongan kishilar ham u mangu g'oiib bo'ldi degan fikr bilan o'zlarini yupatib, o'yin- kulgiga berilib ketdilar; badgumon kishilar masalasiga kelganda, shuni aytish kerakki, Ko'rinmas odam ular

uchun bir ermakka aylanib qoldi. Har qalay, har ikki toifa orasida ham haddan ziyoda shodu xurramlik hukmron edi.

Xaysmen o'tlog'iga kapa tikdilar, bu erda missis Banting va boshqa xonimlar choy hozirlashdi, atrofida esa yakshanbalik maktabning bolalari yugurishar, vikariy, missis Kass hamda miss Sekbatning rahbarligida shovqin-suron bilan har turli o'yinlar o'ynashardi. To'g'ri, qandaydir mavhum bir bezovtalik sezilardi, lekin hammalari qo'rquvlarini oshkora qilib qo'ymaslik darajada aql-hushlarini yig'ib olishgandi. Qiya qilib tortilgan arqon yoshlarga juda ham ma'qul bo'ldi. Bu arqonga blok o'rnatilgan bo'lib, yoshlar ana shu blokka osilganlaricha pastga — pichan to'ldirilgan qoplar ustiga g'izillab uchib tushardilar. Arg'imchoqlar, kokos yong'og'i irg'itish, qo'lansa hid chiqaradigan va quloqni batang keltirib muzika chaladigan bug' organli ot o'yini ham katta muvaffaqiyat qozondi. Klubning ertalab cherkovga borib kelgan a'zolari rango-rang znachoklarini ko'z-ko'z qilardilar, ko'pchilik yoshlar esa, shlyapalariga rangin lentalar taqib olgan edilar. Bayram hordig'i haqida ancha jiddiy tasavvurga ega bo'lgan keksa Fletcher esa ikki stul ustiga o'rnatilgan taxta ustida turib, oshxonasining shiftini oqlardi, buni deraza tokchasiga qo'yilgan yosuman guli orasidan yoki eshikdan yaqqol ko'rish mumkin edi.

Soat to'rtlar chamasida Aypingda notanish kishi paydo bo'ldi; u tepaliklar tomonidan keldi. Pakana, semiz, boshiga titig'i o'ynab ketgan shlyapa kiyib olgan bu kishi harsillab nafas olardi. U goh lunjini ichiga tortib, goh katta qilib shishirardi. Uning parcha-parcha qizil dog' qoplagan basharasida vahima alomati ko'zga tashlanar, o'zi tez yurayotgan bo'lsada, istar-istamas kelayotgani aniq sezilib turardi. U cherkov yonida burilib, to'g'ri «Aravakash» qovoqxonasi tomon keldi. Boshqalar qatori keksa Fletcher ham unga diqqat bilan tikildi. U kelgindining hayajonli qiyofasidan hayratga tushib, to cho'tkasidagi ohak engiga oqib tushmaguncha uning orqasidan ko'z uzmay qarab turdi.

«Tir» xo'jayinining guvohlik berishiga qaraganda, notanish odam o'zidan-o'zi allanimalarni gapirib kelarkan. Buni mister Xaksters ham sezibdi. Uning aytishiga qaraganda, notanish odam ichkariga kirishga jazm qilgunicha mehmonxona zinapoyasi oldida uzoq vaqt ikkilaiib turibdi. Nihoyat u zinapoya pog'onalaridan ko'tarilib, mister Xaksters payqaganidek, chapga burilibdi-da, mehmonxona ashigini ochibdi. Mister Xaksters ichkaridan chisayotgan ovozlarni, shuningdek qovoqxonaning ichkilik sotiladigan peshtaxtasi tomondan noma'lum odamga uning yanglishganini aytib baqirishganini eshitibdi.

— U yoqqa emas!— dedi Xoll.

Shunda noma'lum odam eshikni yopib, qovoqxona peshtaxtasi tomon bordi.

Bir necha minutdan keyin u yana xotirjam bir qiyofada ko'chada paydo bo'ldi, biroq uning bu qiyofasi mister Xakstersga soxta ko'rindi. Noma'lum odam u erda bir oz turib, atrofiga alangladi, keyin mister Xaksters uning o'g'rincha qadamlar bilan mehmonxona hovlisining darvozasi tomon yurganini ko'rdi. Bir lahza taraddudlanib turgach, notanish odam darvozaning bir tavaqasiga suyandi-da, yonidan kaltagina sopol trubkasini chiqarib, unga tamaki bosa boshladi. Uning qo'llari qaltirardi. Keyin u bir amallab trubkasini tutatdi-da, qo'llarini qovushtirib o'zini zerikib ketgan kishi qiyofasida tutishga tirishdi, lekin har lahzada alanglab hovliga qarab qo'yishi, uning bu qiyofasiga sira mos kelmasdi.

Mister Xaksters shularning barini tamaki do'konining derazasi oldida qo'yilgan tunuka qutichalar orqasidan ko'rdi-yu, notanish odamning bunday g'alati xatti-harakatidan shubhaga tushib kuzatuvni davom ettirishga axd qildi.

Daf'atan notanish odam shartta qaddini rostladi-yu, trubkasini cho'ntagiga solib, o'zini ichkariga urdi. Shunda mister Xaksters, ko'z oldimda o'g'irlik qilinyapti, deb o'ylab, peshtaxta ustidan sakrab ko'chaga tushdi-da, o'g'rini tutmoqchi bo'lib yugurdi. Shu mahal notanish odam shlyapasini chakkasiga qo'ndirib, bir qo'lida zangori dasturxonga o'ralgan katta tugun, ikkinchi qo'lida esa, bog'langan uchta kitob ko'tarib olgandi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha bu kitoblar vikariyning podtyajkasi bilan bog'langan ekan. Xakstersni ko'rib u «vah» deb yubordi-da, shartta chapga burilib ura qochdi

— Ushla o'g'rini!— deb qichqirdi Xaksters va uni quva ketdi.

Mister Xakstersning keyingi taassurotlari juda kuchli va lekin bir lahzalik edi. Mister Xaksters o'g'rining cherkov tomonga yugurayotganini ko'rdi. Uning ko'ziga yalt-yult bayroqchalar va sayr qiluvchi olomon chalindi, lekin uning qichqirig'iga ikki yoki uch kishigina o'girilib qaradi, xolos.

— Ushla o'g'rini!— deb baqirdi mister Xaksters ovozi avvalgidan ko'ra yana balandroq qo'yib.

Biroq mister Xaksters o'n qadamcha ham chopib bormay turib, oyog'iga allanima ilashdi-yu, yugurish o'rniga o'qday uchdi! Ko'z ochib yumguncha u, yer parchin bo'lib yotib qoldi. Shunda b)ton olam uning ko'zida million-million uchqunlarga aylandi va keyingi voqealar uni qiziqirmay qo'ydi.

## **XI Bob** **«Aravakash» qovoqxonasida**

Qovoqxonada qanday voqealar yuz berganini aniq tushunib olmoq uchun orqaga, mister Marvel mister Xakstersning derazasi oldida dastlab paydo bo'lgan paytga qaytish lozim. Xuddi shu vaqtda mehmonxonada mister Kass bilan mister Banting bor edn. Ular jiddim qiyofada ertalabki voqeani muhokama qilishar va mister Xollning ijozati bilan, Ko'rinmas odamga tegishli bo'lgan buyumlarni disqat bilan tekshirishardi. Jeffers ancha o'ziga kelib, mehribon do'stlarining hamrohligida uyiga jo'nagandi. Ko'rinmas odamning polda ivirsib yotgan kiyimlarini missis Xoll bir yerga to'plab xonani yig'ishtirib qo'ydi. Kelgindi odatda ishlab o'tiradigan joyda, deraza oldidagi stol yonida Kass birdan «Kundalik daftar» deb ataladigan uchta qo'lyozma kitobni ko'rib qoldi.

— Kundalik daftar!— deb xitob qildi Kass, har uchala kitobni stolga qo'yib.

— Endi bizlar har qalay ba'zi bir narsalarni bilib olamiz.

Vikariy Kassning oldiga borib, tirsagi bilan stolga suyandi.

— Kundalik daftar!— deb takrorladi Kass stulga o'tirayotib, u har uchala kitobni ustma-ust taxlab, eng ustidagisini olib ochdi,

— Hm... Bosh sahifaga hech narsa yozilmagan. Voajabo!.. Raqamlar. Chertyojlar.

Vikariy stolni aylanib o'tib, Kassning elkasi ustidan kitobga qaradi.

Kass sahifa ortidan sahifa ochar va uning yuzidan hafsalasi. juda ham pir bo'layotgani sezilib turardi.

— Eh! Bu yerda faqat raqamlar yozilgan-«u, Banting!

— Unda diagramma yo'q ekanmi?—so'radi Banting.

— Yoki bu yozuvlar nima ekanini aniqlashga yordam beradigan rasmlar...

— O'zingiz qarang,— deb javob berdi Kass.

— Bu yerda matematika va rus tili, (harflariga qaraganda) tag'in boshqa bir tilda yozilgan, ayrim narsalar esa grekcha ham yozilgan ekan. O'ylaymanki, grekchasini siz bemalol tushunasiz...

Albatta,— dedi mister Banting, cho'ntagidan ko'zoy- naganini olib artar ekan. U juda ham mulzam bo'lib ketdi, chunki grekchadan juda kamdan-kam narsa xotirasida saqlanib qolgandi.— Ha, grekcha, albatta, bularni tushunib olishga vosita bo'lishi mumkin...

— Men hozir sizga o'sha joyini ko'rsataman...

— Yo'q, yaxshisi o'zim boshdan-oyoq qarab chiqaman,— dedi mister Banting, ko'zoynagini artishda davom etib.

— Avvalo, Kass, umumiy tasavvur hosil qilib olish kerak, keyin esa, tushunib olish uchun yo'l axtarish mumkin bo'ladi.

U yo'taldi, shoshilmasdan ko'zoynagini taqdi va dilida ishqilib biror voqea yuz bersinu, meni sharmanda bo'lishdan saqlab qolsin, deb oreu qildi. Keyin u mister Kass uzatgan kitobni oldi.

Shundan eo'ng haqiqatan ham bir vokea yuz berdi.

Eshik birdaniga taraqlab ochildi.

Kass bilan vikariy cho'chib tushishdi, lekin boshlarini ko'tarib, titilib ketgan shlyapa ostidagi qip-qizil basharani ko'rib, engil tortishdi.

— Mayxona shu yerdami?—xirillab so'radi qip-qizil basharali kishi ko'zini lo'q qilib.

— Yo'q,— deb javob berishdi har ikkala jentelmen bir og'izdan.

— Siz so'ragan joy ro'parada, taqsim,— dedi mister Banting.

— Marhamat qilib eshikni berkitib keting,— deb qo'shimcha qildi zardasi qaynagan mister Kass.

— Xo'p,— dedi haligi odam ohistagina.

— Xo'p bo'ladi!— deb xirilladi u.

— Orqaga hayda!— deb komanda berdi u o'z-o'ziga, ko'zdan g'oyib bo'lib, eshikni yoparkan.

— Dengizchi bo'lsa kerak,— dedi mister Banting.

— Juda g'alati odamlar bo'ladi-da, dengizchilar: «Orqaga hayda»— deganini eshitdingizmi? Bu dengizchilarning xonadan chiqib ketishini ifoda etadigan terminlari bo'lsa kerak.

— Ehtimol shundaydir,— dedi Kass.

— Lekin meniig asabim juda ham ishdan chiqib qolgan-da. Eshik qo'edisdan ochilganida, cho'chib tushdim.

Mister Banting go'yo o'zi ham cho'chib ketmaganday takabburlik bilan iljayyb qo'ydi.

— Endi,— dedi u xo'rsinib,— kitoblar bilan shug'ullanamiz.

— Andak sabr qiling,— dedi Kass, o'rnidan turib eshikni qulflarkan.

— Endi bizga hech kimsa xalal bermaydi.

Shu onda allakim tomoq qirdi.

— Shunisi shubhasizki,— dedi mister Banting, o'zi o'tirgan kresloni mister Kassning kreslosi tomon surib,— keyingi kunlarda Aypingda hayratangez voqealar yuz berdi. Men, albatta, Ko'rinmas odam haqidagi aql bovar qilmaydigan safsataga ishonmayman...

— Bunga ishonish qiyin,— dedi Kass,—sira aql ishonmaydi.

Lekin shunisi aniqki, men ko'rdim... Ha, ha, men engining ichiga qaradim...

— Lekin imoningiz komilmi...

Rostdanam ko'rdingiz- mi? Balki engida oyna bordir...

Axir, ko'zni chalgitish oppa-oston-ku. Siz haqiqiy fokuschini ko'rganmisiz, yoki yo'qmi...

— Bahslashib o'tirmaymiz,— dedi Kass.

— Biz hamma narsa to'g'risida gaplashib oldik-ku, axir. Kitoblarii tekshiramiz... Eha, agar yanglishmasam, mana bu grekcha yozilgan. Ha, albatta, bular grek harflari.

U sahifaning o'rtasini ko'rsatdi. Mister Banting sezilar-sezilmas qizarib, kitob o'stiga engashdi: aftidan, ko'zoynagiga yana bir gap bo'ldi. Grek tili sohasidagi uning bilimi juda zaif edi, lekin u barcha qavmlarim meni grek va qadimiy yahudiy tilining bilimdoni deb hisoblashadi deb o'ylardi. Mana endi... Nahotki bu sohada o'zining g'irt savodsiz ekanini e'tirof etishga to'g'ri kelsa? Yoki biror narsa o'ylab chiqarish kerakmi-a? Birdaniga u gardaniga bir narsa tegib ketganini payqadi, boshini ko'tarishga urindi, lekin nimadir uni gardanidan qattiq bosib turardi. U anglab bo'lmaydigan og'irlikni his etar, bamisoli birovning baquvvat qo'li pastga bosayotganga o'xshardi, chunki engahi stolga borib tiralgan edi.

— Qimirlamang, taqsirlar,— deb pichirlagan tovush eshitildi

— Aks holda boshingizni urib yoraman.

Mister Banting Kassning o'ziga yaqin kelib qolgan basharasiga qaradi va uning chehrasida ham zo'r hayrat ifodasini ko'rdi.

— Afsuski, shunday keskin chora-tadbirlar ko'rishga to'g'ri kelyapti,— dedi Ovoz

— Boshqa iloj yo'q.

— Qachondan beri sizlar tadqiqotchilarning xususiy yozuvlarini ochib o'qishni o'rgandinglar?—dedi Ovoz, shunda ikki engah baravariga stolga taraqlab tegdi-yu, ikki juft jag' baravariga shiqillab ketdi.

— Qachondan beri falokatga uchragan odamning xonasiga bostirib kiradigan bo'lib qoldinglar,— yana stolga urilib, tishlar bir-biriga tegib shaqilladi.

— Mening kiyimlarimni qayoqqa tiqdinglar?

— Endi gapimga qulbq solinglar,— dedi Ovoz.— Derazalar berk, eshikni qulflab, kalitni oldim. Men juda kuchli odamman, o'zim ko'zga ko'rinmas bo'lishim ustiga, yana qo'limda temir kosov ham bor. Basharti xohlasam har ikkalangizni osongina o'ldirib, bemalol chiqib keta olishim mumkinligiga hech qanaqangi shak-shubha bo'lishi mumkin emas. Tushunarlimi? Gap bunday: agarda sizlarga apikast etkazmasam, ahmoqchilik qilmaslikka va nima buyursam hammasini bajarishga va'da berasizlarmi?

Vikariy bilan doktor bir-birlariga qarashdi-yu, doktor basharasini burishtirdi.

— Va'da beramiz,— dedi vikariy.

— Va'da beramiz,— dedi doktor.

Shunda Ko'rinmas odam ularni bo'shatdi va ular qadlarini rostlashdi. Har ikkalasining ham afti qip-sizarib ketgan bo'lib, ular zo'r berib boshlarini sarak-sarak qilishardi.

— Sizlardan o'rinlaringizdan qimirlamasliklaringizni so'rayman,— dedi Ko'rinmas odam.— Ko'rdinglarmi, manovi kosovni. Men bu xonaga kirgan vaqtimda,— deb so'zini davom ettirdi u, suhbatdoshlarning tumshug'iga navbatma-navbat kosovni yaqinlashtirib,— bu yerda odamlarni uchrataman deb o'ylamagandim. Bundan tashqari, bu yerdan kitoblarim bilan birga kiyim-kechagimni ham toparman deb umid qilgan edim. Qani ular?.. Urinlaringdan jilmanglar. Ko'rib turibmanki, ularni bu erdan olib chiqib ketishibdi. Hozir Ko'rinmas odam yalang'och yursa ham bo'laveradi, havo ancha isib qolgan. Lekin kechalari har holda ancha salqin. Shuning uchun men kiyim-kechak va boshqa ba'zi bir narsalarga muhtojman. Ulardan tashqari, menga ana shu uchta qo'l yozma kitob ham kerak.

## XII Bob

### Ko'rinmas odamning g'azabi

Hozir juda ham og'ir vaziyat haqida gap boshlanishi lozim bo'lgani sababli, shu yerda yana hikoyamizni uzib qo'yishga to'g'ri keladi. Mehmonxonada, haligi voqealar bo'la- yotgan va mister Xaksters darvoza oldida turib trubka chekayotgan Marvelni kuzatayotgan mahalda undan yyagirna yardcha narida ichkilik ichiladigan peshtaxta oldida mister Xoll bilan mister Xenfri turishardi, ular bosh qotirishib, Aypingda bo'lgan favqulodda voqeani muhokama qilishardi. Qo'qqisdan mehmonxona eshigi qattiq zarbadan taraqlab ketdi, ichkaridan byrovning chinqirgani eshitildi, so'ngra hamma yoq yana jimjit bo'lib qoldi.

— Ey!—deb xitob qildi Teddi Xenfri.

— Ey!— dedi peshtaxta yonida turganlardan yana biri.

Mister Xoll bo'layotgan voqealarni asta-sekin, lekik to'g'ri tushuna boshladi.

— U yerda bir balo bo'lyapti,— dedi u, peshtaxta orqasidan chiqib, mehmonxona eshigi tomon borarkan.

Mister Xoll bilan Teddi Xenfri diqqat bilan quloq solib mehmonxona eshigiga yaqinlashdilar.

— Bir gap bo'lganga o'xshaydi,— dedi Xoll, Xenfri uning fikriga qo'shilib bosh qimirlatib qo'ydi.

Ularning dimog'iga kimyoviy moddalarning qulansa hidi urildi, xonadan esa, pichirlab tez-tez yoz gaplashayotgan odamlarning bo'g'iq tovushlari quloqqa chalindi.

— Hoy, nima gap bo'ldi?— deb shoshqish so'radi Xoll eshikni taqillatib.

Ivir-shivir tovushlar eshitilmay qoldi, bir minut chamasi hamma yoqni sukunat bosdi, keyin xonadagilar yana qattiqroq pichillasha boshlashdi, uning ketidan esa: «Mo'q, yo'q, bo'lmaydi!»—deb qichqirgan tovush eshitildi. So'ng stul taraqlab, qisqa muddatli olishuv tovushlari eshitildi. Yana jimlik cho'kdi.

— Obbo, bu nimasi-ya!— xitob qildi Xenfri pichirlab.

— Hoy, u yerda nima gap?— deb yana shoshilinch ravishda so'radi mister Xoll.

Vikariy allaqanday g'alati, uzoq-yuluq tovush bilan javob berdi:

— Hamma narsa joyida. Bizga xalal bermang.

— Qiziq!— dedi Xenfri.

— Ajab!— dedi Xoll.

— Xalal bermasligimizni so'rashyapti,— dedi Xenfri.

— Eshitdim,— dedi Xoll.

— Yana allakim tomoq ham qirdi,—deb qo'shimcha qildi Xenfri.

Ular ichkariga quloq solib, eshik oldida turaverdilar. Mehmonxonadagilar yana avvalgiday shivirlashib tez- tez gaplasha boshladilar.

— Yo'q, yo'q, bo'lmaydi,— dedi mister Banting.

— Istamayman deb aytyapman-ku sizga.

— Nima gap?— so'radi Xenfri.

— «Istamayman», deyapti,— dedi Xoll.

— Kinga aytyapti o'zi bizga emasmikin?

Mister Bantingning:

— Bu qabihlik, axir!— degan tovushi eshitildi.

— Bu qabihlik,— takrorladi mister Xenfri,— shunday deganini aniq eshitdim.

— Hozir kim gapiryapti?

— Mister Kass bo'lsa kerak,— dedi Xoll.

— Siz hech nima tushunyapsizmi?

Ular jim bo'lishdi. Ichkaridagi suhbat tobora tushunib bo'lmaydigan, sirli tus ola boshladi.

— Stolning ustidagi dasturxonni tortib olishayotganday bo'ldi,— dedi Xoll.

Ichkilik sotiladigan peshtaxta ortida missis Xoll paydo bo'ldi. Xoll unga shovqin solmay beri kel deb, ishora qildi. Bu ishora xotinni shubhaga solib qo'ydi.

— U yerda qaqqayib nimaga quloq solyapsan?—so'radi missis Xoll.

— Bayram kuni boshqa qiladigan ishing yo'qmi?

Xoll qo'l harakati va imo-ishora bilan voqeani tu-shuntirishga urindi, lekin missis Xoll tushunishni istamadi. Ayol o'jarlik bilan tobora ovozini baland ko'tarardi. Shunda qattiq tashvishga tushgan Xoll bilan Xenfri oyoq uchida yurib, uning yoniga kelishdi-da, voqeani tushuntirishdi.

Avvaliga missis Xoll «Buving hech qanaqa ajablanadigan joyi yo'q», deb parvo qilmadi. Keyin Xoll jim turib, yolg'iz Xenfrining o'zi gapirsin deb talab qildi. Missis Xoll bularning hammasi e'tibor berishga arzimaydigan narsalar, balki ular shunchaki mebellarni o'rnidan surishgandir, deb o'ylashga moyil edi.

— Men uning «bu qabihlik» deganini o'z qulog'im bilan eshitdim,— deb ta'kidlardi Xoll.

— Men ham eshitdim, missis Xoll,— dedi Xenfri.

— Shundaymi yoki yo'qmi...— deb gap boshladi qovoqxona bekasi.

— Jim!—deb uning so'zini kesdi Xenfri.— Eshityapsizlarmi — deraza taraqlaganday bo'ldi.

— Qaysi deraza?— so'radi missis Xoll.

— Mehmonxonaning derazasi,— javob berdi Xenfri.

Hammalari diqqat bilan ichkariga quloq solib jim bo'lishdi. Missis Xollning xira ko'zlari yorishib turgan qovoqxona eshigi, oppoq yo'l va Xakstersning iyun quyoshining nurlariga cho'mgan do'konining old tomoniga tikilgan edi. Birdan do'kon eshigi lang ochilib, qo'llarini salang-latganicha hayajondan ko'zlarining paxtasi o'ynab ketgan Xakstersning o'zi paydo bo'ldi.

— Ushla o'g'rini!— deb baqirdi u va qovoqxona derazasi tomon yugurib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shu lahzada mehmonxonadan qattiq shovqin-suron hamda yopilayotgan derazalarning taraqlashi eshitildi.

Xoll, Xenfri va peshtaxta yonida turgan kishilarning barisi to'dalanishib ko'chaga yuguryb chiqdilar. Ular bir odamning muyulishdan lip etib o'tib, qishloq yo'liga qarab qochgani va mister Xaksters havoda g'alati irg'ishlab, keyin yer parchin bo'lib yiqilganini ko'rdilar. Sayr



qilib yurgan olomon hayratdan qotib qoldi, bir necha kishi mister Xakstersning tepasiga yugurib bordi.

Tepasiga engashgan Xenfrining aniqlashicha, mister Xaksters behush bo'lib yotardi. Xoll esa, qovoqxonaning ikki xodimi bilan birga muyulishgacha yugurib bordiyu, Marvelning cherkov ihotasi orqasiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'lganini ko'rdi. Ular, aftidan, uning birdaniga ko'rinadigan bo'lib qolgan Ko'rinmas odam bo'lsa kerak, deb o'ylashdi chog'i, ketidan -quvib ketishdi. Biroq Xoll o'n qadamcha yugurishga ulgurmasidanoq, hayratidan qattiq qichqirib yuborib bir tomonga otilib tushdi va qovoqxona xodimlaridan birini quchoqlab olib, u bilan birga gursillab yerga quladi. U futbol maydonida qulagan o'yinchidek ag'darilib tushdi. Ikkinchi xodim orqasiga o'girilib qaradi-da, Xollning o'zi qoqilib yiqilgan bo'lsa kerak degan xayolga borib, yolg'iz o'zi ta'qibni davom ettirdi; lekin shu zahoti u ham xuddi Xakstersga o'xshab o'mbaloq oshib tushdi. Shu mahal o'rnidan turishga ulgurgan xodimning yonboshiga shunday bir zarba tegdiki, bunday zarba bilan bemalol buqani qulatsa bo'lardi.

U yiqilib yer tishladi-yu, shu lahzada muyulishda sayr bo'layotgan o'tloqdan yugurib kelayotgan odamlar ko'rindi. Hammadan oldinda egniga havo rang fufayka kiygan, barvasta kishi — «tir»ning xo'jayini qolardi. U erda yumaloq-yastiq bo'lib yotgan uch kishidan bo'lak hech kimsa yo'qligini ko'rib juda hayron bo'ldi. Shu daqiqada uning oyog'iga bir gap bo'ldi-yu tirning xo'jayinn chalpakday bo'lib iiqildi va bir tarafga yumalab ketdi. Izma-iz chopib kelayotgan ukasi ham akasiga qoqilib uzala tushib yiqildi. Yugurib kelayotgan odamlarning hammasi ularga qoqilib, usti-ustiga o'mbaloq oshib agdarilishar va bo'ralab so'kishardi. Xoll, mister Xenfri hamda qovoqxona xodimlari yugurib chiqib ketishgandan keyin, tajribakor missis Xoll kassa yonida qoldi. Qo'qqisdan mehmonxona eshigi taraqlab ochilib, u yerdan mister Kass o'qday otilib chiqdi va missis Xollga qayrilib ham qaramay, zinapoyadan chopib tushdi-da, uying orqasiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

— Ushlanglar uni!— deb ayyuhavnos solardi mister Kass.

— Tugunni tashlagani qo'ymang! Tugun qo'lida ekan, uni ko'rsa bo'ladi!

Bu ishga Marvelning aralashgani to'g'risida hech kim bilmasdi, chunki Ko'rinmas odam tugun va kitoblarni unga hovlida bergan edi. Mister Kassning vajohati juda darg'azab edi, biroq uning kiyimida ba'zi narsalar etishmasdi, to'g'rirog'i, uning egnida engilgina oq yubkachadan bo'lak hech narsa yo'q edi. Buni esa, chamasi, faqat Gresiyadagina kiyim deb atasa bo'lardi.

— Ushlanglar uni!— bo'kirardi Kass.

— U mening shimimni olib ketdi. Vikariyni esa, hamma kiyimini shilib oldi!

— Men hozir uni quvib etaman!— qichqirdi u Xenfriga, keyin yerda cho'zilib yotgan Xakstersning yonidan aylanib o'tib, Ko'rinmas odamni ta'qib etayotgan odamlarga qo'shilmochi bo'ldi, lekin shu lahzada bir zarba bilan yerga qulab, sharmanda sharmisor holda cho'zilib qoldi. Allakim uning qo'lini qattiq bosdi. U og'riqning alamidani chinqirib yuborib, o'rnidan turishga urindi, lekin yana qattiq bir zarbadan mukkasiga yiqildi va ta'qibda emas, balki qochishda ishtirok etayotganiga ishonch hosil qildi. Hamma orqaga qarab tiraqaylab qochmoqda edi. U yana o'rnidan turdi, lekin yana quloq-chakkasiga qattiq bir musht tegdi. U gandraklab yo'lga tushdi va endigina o'ziga kelgan, hamma tomonidan unutilib yo'lning o'rtasida o'tirgan Xakstersning ustidan sakrab o'tib, qovoqxona tomon juftakni rostladi.

Qovoqxona zinapoyasidan yuqoriga ko'tarilgan mister Kass orqasida qattiq urilgan shapaloq tovushi va hamma shovqin-suronni bosib ketadigan darajada dahshat bilan baqirgan ovozni eshitdi. Mister Kass Ko'rinmas odamning ovozini tanidi. U bamisoli chidab bo'lmaydigan qattiq og'riq g'azabini qaynatib yuborganday baqirardi, Mister Kass mehmonxonaga o'qday otilib kirdi.

— Banting, u qaytib kelyapti!— dedi u mehmonxonaga bostirib kirarkan.

— Qoching! U aqlidan ozibdi!

Mister Banting deraza oldida turib, kamin ustiga yopiladigan gilamcha va «G'arbiy Surrey gazetasi»dan o'ziga kiyim bichmoqda edi.

— Kim qaytib kelyapti?—so'radi u va shu qadar qaltirab ketdiki, tayyorlayotgan kiyimidan batamom ayrilib qolayozdi.

— Ko'rinmas odam!— javob berdi mister Kass va chopganicha deraza oldiga bordi.

— Bu yerdan qochib qolish kerak.

U jinni odamday mushtlashyapti. Jinnidan bir tuki kam emas!

Bir sekunddan keyin u hovliga chiqib ketdi.

— Xudoyo xudovondo, o'zingning rahming kelsin!— deb xitob qildi Banting, nima qilarini bilmay boshi qotib.

Ammo shu mahal qovoqxonaning yo'lagidan mushtlashayotgan odamlarning g'ovur-g'uvuri eshitildi, bu hol mister Bantingning ikkilanishiga chek qo'ydi. U derazadan oshib tushdida, bir nafas «kiyimi»ni tuzatgan bo'ldi, so'ng kalta va yo'g'on oyoqlarining darmoni etgani qadar juftakni rostlab qoldi.

Ko'rinmas odamning g'azab bilan baqirishi eshilib, mister Banting juftakni rostlab qolganidan keyingi Aypingda bo'lgan voqealarni izchillik bilan hikoya qilishdan ojizmiz. Ehtimol dastavval Ko'rinmas odam kiyim-kechak va kitoblarini olib ketayotgan Marvelni ta'qibdan qutqarmoqchi bo'lgandir. Lekin umuman uning o'zi unchalik yuvosh odam bo'lmagani va buning ustiga-ustak. tasodifan tushib qolgan zarbadan g'azabi jo'sh urib ketgani sababli, u o'ngu so'lga musht solaverdi va duch kelgan odamlarning hammasini do'pposlay boshladi. Qochib ketayotgan odamlar to'la ko'cha, paydarpay ochilib-yopilayotgan eshiklar hamda yashirinish mumkin bo'lgan ovloq joylarda bo'layotgan mushtlashish manzarasini tasavvur qiling. Ana shu bo'ronning keksa Fletcher oshxonasidagi ikki stul ustiga omonat qo'yilgan taxta muvozanatiga qanday ta'sir etgani va natijada qanday falokat yuz berganini ko'z oldingizga keltiring. Arg'imchoq uchishayotganda shu falokatga duchor bo'lib, vahimaga tushib ketgan oshiq-ma'shuqlarning ahvolini o'ylab ko'ring. Keyin esa, bu bo'ron o'tib ketdi-da, bayroqchalar va gulchambarlar bilan bezatilgan Ayping ko'chalari huvillab qoldi; yer bilan bitta bo'lib yotgan kokos yong'oqlari, ag'darilib tushgan parusina kapalar va qandolatfurusning aravachasidan to'kilgan qand-qurslar orasida Ko'rinmas odamning bir o'zi olamni boshiga ko'tarib hamma yoqni to's- to'polon qilib yurardi. Har tomonda berkilayotgan do'konlarning sharaq-shuruqi, tortib qo'yilayotgan tambalarning taraqturuqi eshitilardi, faqat onda-sondagina eshik va deraza tirqishlaridan qo'rquvdan kapalagi uchib, olazarak bo'lib mo'ralab turgan ko'zlargina odamlar borligidan darak berardi.

Ko'rinmas odam bir qancha vaqt ermak uchun «Aravakash» qovoqxonasining oynasini sindirish bilan mashg'ul bo'ldi, keyin ko'cha fonarini olib missis Grogremning mehmonxonasi derazasidan ichkariga suqdi. Xigginsning uyi ortidagi Edderdin yo'lida bo'lgan telegraf simini ham o'shaning o'zi uzgan bo'lsa kerak. Keyin u o'zining favqulodda xususiyatidan foydalanib izziz g'oyib bo'ldi va shundan so'ng Aypingda undan nomu nishon ham qolmadi. U, domu darakayz yo'qolib ketdi.

Lekin huvillab yotgan Ayping ko'chasiga dastlabki dovyuraklar chiqishgunicha oradan rosa ikki soat vaqt o'tdi.

### **XIII Bob**

#### **Mister Marvel yaste'foga chisish harakatiga tushadi**

Qosh qorayib, Ayping aholisi bayram kunida bo'lib o'tgan mushtlashuvning ayanchli nishonalariga boqib, uylardan qo'rqa-pisa chiqa boshlagan mahalda, qoraqayin chakalagi ortidagi Bremblxerst yo'lida titig'i o'ynab ketgan shlyapa kiygan, miqtidan kelgan kishi og'ir-og'ir qadam tashlab borardi. U elastik lentaga o'xshash narsa bilan bog'langan uchta kitob va havo rang dasturxonga tugilgan yana allanimalarni ko'tarib ketmoqda edi. Uning sholg'omga o'xshash qip-qizil basharasida ma'yuslik, horg'inlik, yurishida esa, allaqanday talmovsirash alomati sezilardi. Bu odamni allakimning ovozi haydab borar va u hadeganda ko'zga ko'rinmas qo'lning turtkisidan egilib-bukilib ketardi.

— Agarda sen yana qochadigan bo'lsang,— dedi Ovoz,— mabodo sen yana qochish xayoliga tushsang...

— Ey xudo-ey!—deb ingradi Marvel.

— Shunday ham elkamning sog' joyi qolmadi.  
— Men seni o'ldiraman, chin so'zim,— deb gapini davom ettirdi Ovoz.  
— Men qochish haqida o'ylaganim ham yo'q,—dedi Marvel yig'lamsirab.  
— Qasamyod etaman sizga. Faqat qaerda burilish kerakligini bilmay qoldim, bor gap shu.  
Men qayerdan ham bilay buni? Men shunday ham bekordan-bekorga azob chekyapman.

— Basharti gapimga quloq solmaydigan bo'lsang, bundan ko'ra beshbattaroq azob chekasan,— dedi Ovoz, shunda Marvel darhol jim bo'lib qoldi. U lunjini shishirdi, boyaqishning ko'zlari umidsizlik bilan pirpirab turardi.

Bu eshaklar sirimdan voqif bo'lishganining o'zi ham men uchun kifoya edi, buning ustiga, sen ham kitoblarimni olib juftakni rostlamochi bo'lding. Ular baxtlariga, vaqtda yashirinishdi. Aks holda... Mening ko'zga ko'rinmasligimni hech kim bilmasdi. Xo'sh, endi men nima qilishim kerak?

— Men-chi, men nima qilishim kerak?—deb ming'iladi Marvel.

— Endi hamma narsa ma'lum. Gazetaga ham tushadi! Endi barcha meni qidirib hushyor bo'lib turadi...

— Ovoz boloxonador qilib so'kindi-da, jim bo'ldi.

Marvelning basharasidagi umidsizlik yanada kuchaydi va u qadamini sekinlatdi.

— Qani, ildamroq yur,— dedi Ovoz.

Marvelning yuzidagi qizil dog'lar oralig'i kul rang tus, kirdi.

— Kitoblarni tushirib yuborma, ahmoq,— dedi Ovoz jahl bilan.

— Xullasi kalom,—deb so'zini davom ettirdi u,— men sendan foydalanishim kerak...

To'g'ri, judayam yaroqli qurol emassanu, lekin boshqa choram yo'q.

— Men yaramas qurolman,— dedi Marvel.

— Bu gaping to'g'ri,— dedi Ovoz.

— Men siz tanlashingiz mumkin bo'lgan qurollar orasida eng rasvosiman,— dedi arvel,— menda mador degan narsaning o'zi yo'q,— deb so'zini davom ettirdi u,— juda ham zaifman,— deb takrorladi suhbatdoshidan javob bo'lmagach.

— Rostdan-a?

— Yuragimning ham mazasi yo'q. Topshirig'ingizni bajardim. Lekin sizni ishontirib aytamanki, ana yiqilib qolaman, mana yiqilib qolaman deb o'ylab o'takam yorilayozdi.

— Shunaqa degin?

— Menda sizning koringizga yaraydigan darajada baquvvat yuragu kuch-quvvat yo'q.

— Meya senga dalda berib turaman.

— Keragi yo'q! Ishlaringizning pachavasini chiqarishni istamayman, lekin bunday bo'lishi mumkin. Birdan qo'rqib ketsam, yoki dovdirab qolsam...

— Yaxshisi dovdiramalikka harakat qil,—dedi Ovoz bamaylixotir, lekin qat'iy ohangda.

— Bundan ko'ra o'lganim yaxshi,— dedi Marvel.

— Axir bu insofsizlik-ku,— deb so'zida davom etdi u.

— O'zingiz o'ylab ko'ring...

Axir mening ham huquqim borki...

— Olg'a!— dedi Ovoz.

Marvel qadamini jadallashtirdiyu, ular bir qancha vaqt indamay bordilar.

— Juda ham og'ir ish ekan,— dedi Marvel.

Bu so'z Ko'rinmas odamga hech qanday ta'sir etmadi. Shundan Marvel masalaning ikkinchi tomonidan yondoshmoqchi bo'ldi.

— Bu ishdan men nima foyda topaman?— deb gap boshladi u qattiq ranjigan ohangda.

— Bas!— deb bo'kirdi Ovoz.

— Men seni ta'minlab qo'yaman. Faqat aytganimni qilsang bo'ldi. Sen bu ishni do'ndirasan. Ahmoq bo'lsang-da, do'ndirasan...

— Sizga aytyapman-ku, mister, men bu ishga yaroqsiz odamman deb. Gapingizni qaytarmoqchi emasmanu, lekin bu shunchaki...

— Ovozingni o'chir, bo'lmasa, yana qo'lingni qayiraman,— dedi Ko'rinmas odam.

— Uylashga xalal beryapsan.

Oldinda, daraxtlar orasida ikkita sariq dog'simon yorug'lik ko'rindi va g'ira-shira qorong'ilikda chor burchak qo'ng'iroqxona ko'zga chalindi.

— Qishloqdan o'tib olgunimizcha qo'limni elkangga qo'yib boraman,— dedi Ovoz.

— Qani, to'g'ri yuru ahmoqchilik qilishni o'ylay ko'rma. Aks holda ishing pachava bo'ladi.

— Bilaman,— xo'rsinib javob berdi Marvel,— buni men yaxshi bilaman.

Titig'i o'ynab ketgan shlyapali bu odam tugunini ko'tarib yorug' derazalar oldidan o'tida, qishloq ihotasi ortida qorong'ilik quchog'iga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

#### **XIV Bob** **Port-Stouda**

Ertasi kuni ertalab soat o'nlar chamasida sochlari paxmaygan, irkit, soqol-mo'ylovi o'sib ketgan Marvel Port- Stou qasabasidagi qovoqxonacha oldiga qo'yilgan skameykada o'tirardi; u qo'llarini cho'ntagiga tiqib olgan bo'lib, qiyofasi juda horg'in, parishon va tashvishli edi. Uning yonida endi chizimcha bilan bog'langan kitoblar yotardi. Ko'rinmas odamning rejasi o'zgarganligi sababli tugun Bremlxerst ortidagi o'rmonda qoldirib kelingandi. Marvel skameykada o'tirar va hech kimsa unga sal bo'lsa-da, e'tibor bermayotgan bo'lishiga qaramay, tobora hayajoni ortib borardi. Uning qo'llari hadeganda son-sanoqsiz cho'ntaklarini titkilardi. Shu alpozda rosa bir soatcha o'tirgach, qovoqxonadan gazeta ko'targan keksa bir matros chiqib Marvelning yoniga kelib o'tirdi.

— Yaxshi ku,n bo'lyapti-a, nima deysiz?— dedi matros.

Marvel quti o'chib atrofga alanglay boshladi.

— Juda ham yaxshi,— deb matrosning so'zini tasdiqladi keyin u.

— Havo mavsumga mos,— so'zini davom ettirdi matros hech qanday e'tirozga o'rin qoldirmaydigan ohangda.

— Ha, xuddi shunday, — uning fikriga qo'shildi Marvel.

Matros tish kovlagichini chiqaryb, bir necha minut yakkash o'sha bilan mashg'ul bo'ldi. Biroq uning ko'zlari suhbatdoshiga tikilgan bo'lib, Marvelning changga botgan gavdasi va yonida yotgan kitobini diqqat bilan tekshirardi. Matros yaqinlashib kelayotganda Marvelning cho'ntagida pul jiringlaganday bo'ldi. Marvelning tashqi qiyofasi bilan yonida jiringlayotgan pul orasidagi uyg'unsizlik matrosni ajablantirdi. Shu boisdan ham matros o'z xayolini band etgan masala haqida gap ochdi.

— Kitoblarmi?—deb so'radi u daf'atan, hafsala bilan tishini kovlarkan.

Marvel cho'chib tushdi va yonida yotgan kitoblar boylamiga qaradi.

— Ha,— dedi u,— ha-ha, bu kitoblar.

— Kitoblardan juda antiqa narsalarni topish mumkin,— deb davom etdi matros.

— Fikringizga tamoman qo'shilaman,— dedi Marvel.

— Faqat kitoblardagina emas,— qo'shimcha qildi matros.

— To'g'ri,— uning fikrini tasdiqladi Marvel.

U suhbatdoshiga qarab qo'ydi-da, keyin chor atrofga alangladi.

— Mana, masalaya, ba'zan gazetalarda ham juda g'alati narsalarni yozishadi,— deb yana gap boshladi matros.

— Ha, ha, shunaqa ham bo'ladi.

— Mana bu gazetada ham,— dedi matros.

— A!— dedi mister Marvel.

— Mana bu erda,— davom etdi matros, Marvelga qattiq tikilib,

— Ko'rinmas odam haqida maqola bosishibdi.

Marvel og'zini qiyshaytirdi, quloqlari qizarib ketganini sezib, boshini qashidi.

— Nimalarni o'ylab chiaqarishmaydi!— dedi zaif tovush bilan u.

— Qayerda ekan u, Avstraliyadami yoki Amerikadami?

— Hechda,— deb e'tiroz bildirdi matros,— shu yerda.

— Yo parvardigor!— deb xitob qildi Marvel, cho'chib tushib.

— Ya'ni masalan, juda ham shu yerning o'zginasida emas,— deb tushuntirdi matros. Bu gapdan mister Marvel ancha yengil tortdi.— Shu yerda, hozir siz bilan men o'tirgan yerimizda emas, lekin shu erga yaqin joyda.

— Ko'rinmas odam-a!—dedi Marvel.

—Xo'sh, u nima ish qilarkan?

— Har qanday ishdan ham qaytmas ekan,— dedi matros. Marvelni diqqat bilan ko'zdan kechirib.

— Ko'ngliga kelganini qilarkan,— deb ilova qildi u.

— Men to'rt kundan beri gazeta ko'rganim yo'q,— deb qo'ydi mister Marvel.

— Dastavval u Aypingda paydo bo'libdi,— dedi matros.

— Shunaqa deng?— so'radi Marvel.

— U birinchi marta o'sha yerda paydo bo'libdi,— deb davom etdi matros,— qayerdan paydo bo'lganini esa, chamasi hech kim bilmaydi. Mana: «Aypingda favqulodda hodisa». Gazetada bu gaplarning hammasini aniq va bo'lgan voqea deb yozishgan.

— Yo qudratingdan!— xitob qildi Marvel.

— Ha, haqiqatan ham ajoyib voqea. Vikariy ham, doktor uni ko'rdik deb ta'kidlashibdi... To'g'rirog'i, ko'rishmabdi. «Aravakash» qovoqxonasida yasharkan, aftidan, avvalda uning falokatga uchraganidan hech kimning xabari yo'q ekan, keyin esa qovoqxonada mushtlashish bo'libdi va uning boshidagi bintlarni yulqib olishibdi. Shunda uning boshi ko'rinmaydigan ekanini payqab qolishibdi. Bu erda yozishlaricha, uni darhol tutishmoqchi bo'lishganekan, u egnidagi boshqa kiyim-kecha.klarini echib tashlab, yashirinishga ulguribdi. To'g'ri, u qattiq mushtlashishga majbur bo'libdi, bu mushtlashish, mu'tabar konstabl mister Jeffersni jiddiy yarador qilibdi. Ana shunday deb yozilgan. Hammasi aniqravshan-a! Nomlar ham to'la yozilgan va hokazo.

— Yo parvardigor!— dedi Marvel, bezovtalik bilan atrofga alanglab, cho'ntagidagi pullarni paypaslab sanab ko'rishga urinarkan, shu mahal uning xayoliga g'alati, g'oyatda qiziq bir fikr keldi.

— Juda ham taajjub-a!— dedi u.

— To'g'riyamasmu? Juda g'alati-a. Umrim bino bo'lib ko'rinmas odamlar haqida biron narsa eshitmagandim. Bizning zamonamizda goho bundan ko'ra ham g'alatiroq narsalar to'g'risida...

— Qilgan ishining hammasi shugina ekanmi?— so'radi Marvel, iloji boricha xotirjamlik bilan.

— Ie, hali bu qilgan ishi kammi?—dedi matros.

— U Aypingga qaytib bormabdimi?—so'radi Marvel.

— O'sha ketganicha boshqa paydo bo'lmabdimi?

— Ha,— dedi matros.

— Bu sizga kamlik qilyaptimi?

— Yo'g'-e, keragidan ortiqroq kifoya qiladi,— deb qo'ydi Marvel.

— Kifoya qilmay ham ko'rsin-chi,— dedi matros,— bo'lmasam-chi...

— Uning sheriklari yo'q ekanmi? Bu to'g'rida hech nima yozishmabdimi?—xavotirlanib so'radi Marvel.

— Nahotki, sizga shunaqa ko'rinmas odamning bittasi yetarli bo'lmasa?—so'radi matros.— Yo'q, xudoga shukur, u yolg'iz ekan.

Matros qovog'ini solib bosh chayqadi, shu yaqin orada o'ralashib yurganini o'ylashning o'zi kishini vahimaga solib yuboradi! U ozodlikda emish, gazetada yozishlaricha, ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda, uning Port-Stou tomon kelyapti deb faraz qilish mumkin ekan. Biz bo'lsak, Port-Stouning xuddi o'zginasidamiz Bu sizga allaqanday Amerika mo'jizasi emas. Uning bu erda qanday ishlar qilishi mumkinligini bir o'ylab ko'ring-a! Birdaniga me'yorida ortiqroq ichib qo'yadi-da, sizga hujum qilish fikriga tushadi, xo'sh, unda nima bo'ladi? Bordi-yu, u bironni

to'namoqchi bo'lsa-chi, kim uning yo'lini to'sa oladi? U odamlarni talashi, o'ldirishi, o'g'rilik qilishi mumkin, siz bilan biz ko'r odamdan sanday qochib qutulsak, u ham polisiya zastavasidan shunday onosonlikcha o'tib ketaverishi mumkin. Balki undan ham osonroq! Ko'rlar nihoyatda ziyrak bo'ladilar, yaxshi eshitadilar deyishadi. Bordi-yu, u didiga yoqadigan vinoni ko'rib qolguday bo'lsa...

— Ha, albatta, uning ishi qoyil,— dedi Marvel.

— Innay keyin...

— To'g'ri,— dedi matros,— ishi juda zo'r.

Shu suhbat asnosida Marvel payqab bo'lmaydigan harakatni sezib olishga urinib elas-elas kelayotgan oyoq tovushiga quloq solarkan, bezovta bo'lib chor-atrofga alanglashdan to'xtamadi. U, aftidan, allaqanday bir muhim ishga jazm qilmoqchi bo'lardi.

U og'zini qo'li bilan yashirib yo'taldi-da, yana tevarak-atrofga qaradi, quloq soldi, keyin matros tomonga engashib, past ovoz bilan dedi:

— Gap shundaki, men ana shu Ko'rinmas odam haqida ba'zi bir narsalarni bilaman.

Xususiy manbalardan xabardor bo'lganman.

— Uho' — deb xitob qildi matros,— siz-a?

— Ha,— dedi Marvel.— Men.

— Shundaymi!—dedi matros.

— Lutfan menga aytingchi...

— Hayratda qolasiz,— dedi Marvel, qo'li bilan og'zini yashirib.

— Bu juda ham antiqa voqea.

— Bo'lmasam-chi!— dedi matros.

— Gap shundaki...— deb so'z boshladi Marvel. Lekin uning yuz ifodasi xuddi sehr-jodu qilinganday, birdaniga o'zgarib ketdi. Voy!— deb baybaylab yubordi u, skameykada og'ir burilar ekan; so'ng og'riqdan basharasi bujmayib ketdi.

— Voy-voy-voy!— deb nola qildi u yana.

— Sizga nima bo'ldi?—deb ko'ngilchanlik bilan so'radi matros.

— Tishimga og'riq turdi,— dedi Marvel va kaftini lunjiga qo'ydi. Keyin shoshilinch ravishda kitoblarni oldi.— Endi men ketishim kerak,— shunday deb u g'alati harakat qilib suhbatdoshidan nari surila boshladi.

— Lekin siz menga Ko'rinmas odam to'g'risida gapirib bermoqchi edingiz-ku,— dedi matros norozi bo'lib.

Marvel ikkilanib to'xtadi.

— Uydirma gap,— dedi Ovoz.

— Bu uydirma gap,— deb takrorladi Marvel.

— Axir, gazetada yozilgan-ku...— deb e'tiroz bildirdi matros.

— Uydirma gap, vassalom,— dedi Marvel.

Bularning hammasini kim o'ylab chiqarganini men yaxshi bilaman. Hech qanaqangi Ko'rinmas odam yo'q. Hammasi yolg'on.

— Qanaqasiga endi? Axir, gazetada...

— Boshdan oxirigacha g'irt yolg'on,— dedi qat'iy ravishda Marvel.

Matros gazetani qo'lida tutganicha o'rnidan turdi-da, baqrayib qoldi. Marvel olazarak bo'lib chor-atrofga alanglardi.

— To'xtang,— dedi matros ohista va salmoqlanib.

— Siz aytmoqchi bo'lasizki...

— Ha,— dedi Marvel.

— Bo'lmasa, nega men valdillayotganimda, indamay o'tirib quloq soldingiz? Oldingizda ahmoq bo'lib og'iz ko'pirtiriyotganimda, nima uchu« miq etmadingiz? A?

Marvel lunjlarini shishirdi. Matros birdaniga qizarib ketib, mushtlarini tugdi.

— Men, bu yerda o'n minutchadan beri o'tirib o'sha voqeani barcha ikir-chikirlari bilan hikoya qilib o'tiribmanu, sen badbashara to'nka, miyasi suyilgan ahmoq aytmabsan..

— Marhamat qilib, so'kinishni bas qiling,— dedi Marvel.

— So'kinishmish-a! Hali sen qarab tur...

— Ketdik,— dedi Ovoz.

Qo'qqisdan Marvelni bir narsa azot ko'tardi-da, gir- gir aylantirdi, keyin u g'alati qadam tashlab, lo'killab yo'lga tushdi.

— Joning borida jo'nab qol,— dedi matros.

— Men jo'nab qolaymi, hali?—dedi Marvel. U qandaydir shoshilinch egri-bugri qadam tashlab sakrab-sakrab chekinardi. Keyin ayb qilib qo'ygan odamday, shu bilan birga, ranjigan bir ohangda allanimalar deb g'udurandi.

— Miyasi aynigan chol,— dedi matros; u oyog'ini kerib, qo'llarini biqiniga tiragan holda, uzoqlashib borayotgan Marvelning orqasidan qarab turardi,— mana gazeta, bunda hammasi yozilgan. Men senga ko'rsatib qo'yaman hali, surbet!

Meni laqillatib bo'psan!

Marvel qandaydir uzuq-yuluq javob berdi; keyin u muyulishda ko'zdan g'oyib bo'ldi, matros bo'lsa, to qassob aravasi kelib chetlanishga majbur etmagunicha, ko'chaning o'rtasida qaqqayib turaverdi. Shundan so'ng u Port-Stouga burildi.

— Olamda ahmoqlaram juda ko'payib ketdi-da!— do'ng'illadi u.

— Mendan kulmoqchi bo'ldi chog'i.

Voy eshshag- ey!

Axir, bu gazetada bosilgan gap-ku.

Oradan sal o'tgach, u yaqingina joyda sodir bo'lgan yana bir ajoyib voqeani eshitdi. Bu «bir hovuch pul»ning (ha, ha, xuddi shunday), shunday, o'zicha, Senti-Maykels-Leyn burchagidagi devor oldida sayr qilib yurish voqeasi edi.

Boshqa bir matros o'sha kuni ertalab ana shu g'oyatda hayratomuz manzaraning guvohi bo'lganmish. U, pulni tutib olishga uringanmish, albatta, biroq jag'iga musht yeb to'ntarilib tushganmish, o'rnidan turganida esa, pul kapalak singari uchib g'oyib bo'lganmish. O'zining aytishicha, u matros ko'p narsalarga ishonishga moyil ekan, lekin bunga o'zining ham aqli bovar qilmagani sababli, keyinchalik fijrini o'zgartirganmish.

Uchar pullar voqeasining sodir bo'lganiga shubha yo'q edi. Usha kuni butun okrugdan, hatto London bankining hashamatli filialidan, qovoqxona-yu do'konlarning kassalaridan (havo issiq bo'lgani sababli hamma erda eshiklar lang ochiq edi) pullar epcillik bilan hovuchlanib, pachkasi bilan sakrab chiqar hamda devorlaru tor ko'chalar bo'ylab uchib borib, yaqinlashib kelayotgan odamlar nigohidan pinhon bo'lardi. Pullar bu sirli sayrlarini, (buni hech kimsa ko'rmagan bo'lsa-da), titig'i o'ynab ketgan silindrshlyapa kiyib Port-Stou qasabasidagi qovoqxona eshigi oldida o'tirgan jonsarak odamning cho'ntagiga kelib tushgach, tugatishardi.

## XV Bob

### Yuguruvchi odam

Kechga tomon doktor Kemp Berdok manzarasi ko'rinib turadigan tepalik ustidagi binoning minorachasiga joylashgan o'z kabinetida o'tirardi. Bu biri shimol, biri g'arb va biri janubga ochiladigan uch derazali chog'roq va shinam xona bo'lib, unda kitoblar, ilmiy jurnallar, qalashtirib tashlangan jovonlar qator turardi. Xonaga katta yozuv stoli ham qo'yilgan edi; shimol tomondagi deraza oldida ustiga mikroskop, oynachalar, turli-tuman mayda asboblar, basilla va reaktivlar solig'liq shishachalar qo'yilgan stolcha turardi. Botib borayotgan quyosh nuri hali hamma yoqni yoritib turgan bo'lsa-da, xonada chirog yoqilgan edi; darpardalar ko'tarib qo'yilgandi, chunki birov derazadan qaraydi, deb xavfsirashga o'rin yo'q edi. Doktor Kemp baland bo'yli, malla sochli, mo'ylovi oqish, qaddi-qomati kelishgan yigit edi. U hozirgi qilayotgan ishiga katta e'tibor berardi, chunki shu ish tufayli Qirollik ilmiy jamiyatiga a'zo bo'lib olishni mo'ljallab qo'ygandi.

Doktor ishdan bexos boshini ko'targanida, derazaning ro'parasidagi tepalik ortida quyosh alangalanib borayotganini ko'rdi. U bir minut chamasi parishonlik bilan ruchkasining yog'ochini tishlab, tepalik ustidagi tilla rang shafaqni tomosha qildi; keyin uning diqqatini tepalikdan uyi

tomon kelayotgan kichkinagyna qora sharpa o'ziga jalb etdi. Bu sharpa silindr-shlyapa kiygan pak-pakana odam bo'lib, u oyog'ini qo'lga olib o'qday yugurib kelardi.

«Yana bir ahmoq,— o'yladi doktor Kemp.— Bugun ertalab Ko'rinmas odam kelyapti!»— deb baqirib menga kelib urilgan eshakka o'xshagan ahmoq. Bilmadim, odamlarga nima balo bo'lgan. Xuddi o'n uchinchi asrda yashayapmiz deb o'ylash mumkin.

U o'rnidan turib deraza oldiga bordi-da, g'ira-shira qorong'ilik bilan qoplangan tepalik va yugurib kelayotgan odamning qora sharpasiga qaray boshladi.

— Aftidan, u o'lgiday shoshilayotganga o'xshaydi,— dedi doktor Kemp,— lekin bu hech qanday foyda bermayapti. U shu qadar vazmin yuguryaptiki, go'yo cho'ntagini qo'rg'oshin bilan to'ldirib olgan deysan, kishi. Qadamingizni ildamlashtiring, ser, qadamingizni.

Bir minutdan keyin tepalikning Berdok tarafidagi bag'rida qad ko'targan villalardan biri chopib kelayotgan odamni ko'zdan yashirdi. Ammo oradan bir minutcha o'tgach, u yana villalar oralig'ida ko'rindi, keyin yana yashirilib, yana ko'rindi, to u ko'zdan batamom g'oyib bo'lib ketmagunicha bu holat uch marta qaytarildi.

— Eshaklar! dedi doktor Kemp va o'girilib yozuv stoli eniga keldi.

Lekin shu daqiqada yugurib kelayotgan odamni yaqindan kuzatgan, uning terga botib ketgan basharasidagi dahshatni ko'rgan odamlar doktorning nafratomuz badgumonligiga kushilmasdi. U odam yugurar, yugurganda ham xuddi ichi pulga to'la hamyonni silkitganda chiqqani kabi jiringlagan ovoz chiqarib yugurardi. U o'ngga ham, so'lga ham boqmas, vahima aks etaetgan ko'zlarini ro'parasiga, tepalik yonbag'ridagi birin-ketin fonarlar yoqilib, xalq to'planib turgan joiga tikkan edi. Uning beo'xshov dahani osilib tushib, lablarini oppoq ko'pik qoplagandi. Boyaqish entikib harsillab nafas olardi. Yo'lovchilar to'xtab, yo'lga boqishar va bezovtalik bilan bir-birlaridan, nega bu odam bunchalik shoshilib yuguryapti, deb surishtirishardi.

Birdaniga ancha olisda, tepalik ustidagi yo'lda o'ynoqilab yurgan it angillab, o'zini darvozaga urdi, odamlar hairon bo'lib turganlarida, oldilarida bir narsa— shamolmi, yalang oyoq kishining yugurishimi yoki harsillab nafas olgan tovushmi eshilib qoldi.

Odamlar baqirib yuborishdi. Hamma har tomonga qarab qocha boshladi. Kishilar dod solib pastga tomon yugrishdi. Marvel tepalikning yarim beliga kelmasdanoq ko'chada qiy-chuv ko'tarildi. Odamlar uylariga etib borishlari bilanoq, shoshib-pishib eshiklarini qulflashar va nafaslarini rostlar-rostlamas vahimali yangilikni o'zining yaqin kishilariga xabar qilishardi. Marvel eshiklarning taraq-turuq qilib yopilayotganini eshitib, so'nggi kuchini to'plab yugurdi. Vahima undan o'zib ketdi, uni orqada qoldirib, bir lahzada butun shaharni qamrab oldi.

«Ko'rinmas odam kelyapti! Ko'rinmas odam!..»

«Quvnos kriketchilar» qovokxonasida «Quvnok; kriketchilar» qovoqxonasi tepalikning shundoq etagida, boshlanadigan yerda joylashgan. Qovoqxonachi qip-qizil semiz qo'llari bilan peshtaxtaga suyanib, jikkakkina izvoshchi bilan otlar haqida suhbatlashar, kul rang kiyim kiygan, qora soqol kishi esa, pishloq va qoq nonni yeb, vino ichar va hozirgina navbatchilikdan bo'shagan polisiyachi bilan gaplashib o'tirardi. So'zlarni talaffuz qilishiga qaraganda, u amerikalik edi.

— Bu qanaqa shovqin-suron?— dedi izvoshchi, birdai suhbatni to'xtatarkan, qovoqxonaning pastak derazasidagi irkit sariq parda ustidan tepalikka qarab cho'zilib ketgan yo'lga nazar tashlashga urinib. Allakim ko'cha eshiklar oldidan yugurib o'tdi.

— O't-po't tushmaganmikin?—so'radi qovoqxonachi.

Yaqinlashib kelayotgan qadam tovushi eshitildi; kimdir og'ir qadamlar bilan yugurib kelardi. Eshik taraqlab ochilib, xonaga ho'ngrab yig'laganicha yoqasi yirtilgan, bosh yalang, soch-soqoli paxmaygan Marvel yugurib kirdi. U jon achchig'ida o'girilib eshikni yopmoqchi bo'ldi, biroq eshik yopilmadi, chunki u qayish bilan devorga mahkamlab qo'yilgandi.

— Kelyapti!— deb chinqirdi dahshatga tushgan Marvel,— u kelyapti, Ko'rinmas odam!

Meni quvib kelyapti! Xudo haqi... Meni qutqaringlar! Qutqaringlar! Qutqaringlar!

— Eshikni yoping,— dedi polisiyachi.

— Kim kelyapti? O'zi nima gap?



—U eshik oldiga borib qayishni bo'shatdi- da, uni yopib qo'ydi. Amerikalik esa ikkinchi eshikni berkitdi.

— Meni peshtaxta orqasiga kiritinglar,

— dedi Marvel titrab-qaqshaganicha ho'ng-ho'ng yiglab, lekin kitoblarni bag'riga qattiq bosgani holda.

— Meni u yoqqa kiritinglar. Biror joyga yashirib qo'yinglar. Ketimdan quvib kelyapti deyagtm-an-ku sizlarga. Men uning qo'lidan qochdim. U meni o'ldiraman, dedi. Haqiqatan ham o'ldiradi.

— Qo'rqadigan hech narsa yo'q,— dedi qora soqol kishi.

— Eshiklar qulflog'lik. Xo'sh, o'zi nima gap?

— Meni yashiringlar,— deb takrorladi Marvel va birdaniga qo'rquvdan chinqirib yubordi: qattiq urilgan zarbadan eshik lopillab ketdi, keyin tashqaridan eshikning tez-tez taqillagani va dod-faryod eshitildi.

— Hoy!—qichqirdi polisiyachi.

— Kim u?

Marvel chiqib ketishga eshik axtarib xuddi jinni bo'lgan odamday o'zini u yoqdan bu yoqqa urdi.

— U meni o'ldiradi! — baqirardi Marvel.

— Qo'lida pichog'i bor! Xudo haqi!

— Mana,— dedi qovoqxonachi,— bu yoqqa keling.

— U peshtaxtani ko'tardi.

Marvel o'zini o'sha tomonga urdi...

Eshik yana taqillay boshladi.

— Ochmanglar!— deb qichqirdi Marvel.

— Iltimos qilaman, eshikni ochmanglar! Men qaerga yashirinay?

— Demak, Ko'rinmas odam shu ekan-da?—so'radi qora soqol kishi, bir qo'lini orqasiga qilib.— Uylaymanki, uni bir ko'rib qo'yadigan vaqt keldi.

Birdaniga qovoqxonaning deraza oynasi chil-chil bo'ldi, tashqaridan dod-voy hamda kishilarning u yoqdan bu yoqqa yugurgani eshitildi. Polisiyachi skameykada turib derazadan boshini chiqardi-da, eshik oldida nimalar bo'layotganini bilishga urindi. Keyin skameykadan tushib hayronlik bilan qoshini chimirib dedi:

— Bu o'sha.

Qovoqxonona xo'jayini Marvelni yashirib qo'yishgan qo'shni xona eshigi oldida oynalari singan derazaga qarab bir oz turdi-da, mijozlari yoniga keldi.

To'satdan hamma yoq jimjit bo'lib qoldi.

— Baxtga qarshi, tayog'im yo'q-da,— dedi polisiyachi qat'iyatsizlik bilan eshik oldiga borib.

— Eshikni ochishimiz bilan u kirib oladi. Uni hech narsa to'xtata olmaydi.

— Siz eshikni ochishga juda ham shoshilavermang, — dedi qo'rqa-pisa jikkak izvoshchi.

— Tambani torting,— dedi qora soqol kishi,

— Qani bir kirib ko'rsin-chi...

— U qo'lida ushlab turgan to'ponchasini ko'rsatdi.

— Bu yaramaydi,— dedi polisiyachi,— odam o'lishi mumkin.

Men qanaqa mamlakatdan ekanimni bilaman, — deb e'tiroz bildirdi qora soqol kishi.

— Oyog'ini mo'ljalga olaman. Tambani torting.

— Bordi-yu mening orqamdan otib qo'ysangiz nima bo'ladi?—dedi qovoqxonachi, deraza pardasi ostidan tashqariga mo'ralab.

— Xo'p, mayli,— dedi zarfa bilan qora soqol kishi va to'pponchani shay qilganicha engashib borib o'zi tambani ochdi. Qovoqxonona xo'jayini, izvoshchi hamda polisiyachi eshik tomonga o'girilishdi.

Kiring,— dedi ohista ochiq turgan eshikka tikilganicha; to'pponchani u orqasiga yashirib turardi. Biroq hech kim kirmadi, eshik ham ochilmadi. Oradan besh minutcha o'tgach, boshqa bir

izvoshchi tashqaridan eshikni ochib qovoqxona ichiga ohista mo'ralaganida, ularning hammasi bir narsani poylaganday qiyofada turishardi, qo'shni xonaning qiya ochiq eshigidan esa, rangida qon qolmagan, vahimaga tushgan bir kishining basharasi ko'rinardi.

— Hamma eshiklar qulflanganmi?— so'radi Marvel.

—U shu yasin orada, is olyapti: O'zi o'lgiday ayyor odam.

— Yo tangrim!— xitob qildi qovoqxonachi.

—Orqa eshik-chi! Sizlar bu erni qo'riqlab turinglar. Men hozir...

— U nochor holda atrofga ko'z tashladi. Qo'shni xonaning eshigi yopilib shiq etib qulflandi.

— Hovliga chiqadigan eshik bilan alohida eshik-chi! Hovli eshigi...

U yugurib xonadan chiqib ketdi.

Bir minutchadan keyin u oshpichoq ko'tarib qaytib keldi.

— Hovliga chiqadigan eshik ochiq ekan!—dedi u va do'rdoq pastki labi osilib qoldi.

— Ehtimol, u hozir uyga kirib ham olgandir?— dedi birinchi izvoshchi.

— Oshxonada yo'q,— dedi qovohxonachi.

— U yerda ikki xizmatkor xotin bor ekan, men manovi pichoqni qo'limga olib hamma yoqni tit-pit qilib axtarib chiqdim. Xizmatkor xotinlar, u kirmadi, deyishdi. Ular hech narsa payqashmabdi...

— Eshikni qulfladingizmi?— so'radi birinchi izvoshchi.

— Yosh bola emasman, xudoga shukur,— javob qildi qovoqxonachi.

Qora soqol kishi to'pponchasini yashirdi. Lekin shu lahzada peshtaxtaning yuqori tavaqasi taraq etib ochildi, tamba jaranglab ketdi, qulf qattiq sharaqladi-da, qo'shni xonaning eshigi lang ochildi. Ular Marvelning qo'lga tushgan quyonday chinqirganini eshitishdi-yu, unga yordam berish uchun peshtaxta ortiga yugurishdi. Qora soqol kishi o'q uzdi, qo'shni xonadagi ko'zgu chil-chil bo'lib, oyna parchalari jaranglab polga sochildi.

Xonaga yugurib kirgan qovoqxonachi Marvelning oshxona orqali hovliga chiqiladigan eshik oldida tirishib tipirchilab yotganini ko'rdi. Qovoqxonachi nima qilarini bilmay ikkilanib turgan mahalda, eshik ochilib allakim Marvelni oshxonaga sudrab kirdi. U yerda qiy-chuv ko'tarildi va ag'darilib tushgan idish-tovoqlarning darang-durungi eshitildi. Marvel boshini engashtirib oyog'ini tirab oldi, lekin baribir uni hovli eshigiga qadar sudrab borishdi. Tamba o'z-o'zidan ochildi.

Qovoqxonachi yonidan qisilib o'tgan polisiyachi izvoshchilardan birining hamrohligida oshxonaga yugurib kirdi-da, Marvelning giribonidan tutib turgan ko'rinmas qo'lning panjasiga yopishdi, lekin shu ondayoq qattiq bir musht yeb gandaraklab ketdi va orqaga tisarildi. Eshik ochildi. Marvel joni boricha uning orqasiga yashirib qolishga harakat qildi. Shu vaqt izvoshchi bir nimani ushlab oldi.

— Men uni ushlab turibman,— deb baqirdi izvoshchi. Qovoqxonachining qizil qo'llari ham ko'rinmas narsaga yopishdi.

— Ushladim!—deb qichqirdi qovoqxonachi.

Ko'rinmas qo'llardan xalos bo'lgan Marvel polga yiqildi va olishayotgan odamlarning oyoqlari orasidan emaklab chiqib ketmoqchi bo'ldi. Kurash eshikning oldida davom etmoqda edi. Shu payt birinchi bor Ko'rinmas odamning ovozi eshitildi — polisiyachi oyog'ini bosib olgani sababli u qattiq baqirib yubordi. Keyin quturib bo'kirgan ovoz eshitildi. Ko'rinmas odam mushtini bamisoli gurzi yanglig' ishlata boshladi. Izvoshchi qorniga qattiq zarba eb birdan chinqirib yubordi-da, bukchayib qoldi. Xonaga kiriladigan eshik yopilib qolib, Marvel chekinadigai yo'lni to'sib qo'ydi. Odamlar to bo'm-bo'sh fazo bilan olishib yotganlarini sezishguncha torgina oshxonada ancha vaqt depsinib turishdi.

— U qayoqqa qochdi?— qichqirdi qora soqol kishi.

— Bu yoqqa,— dedi polisiyachi, hovliga chiqib to'xtar ekan.

Bir bo'lak cherepisa uining qulog'i yonidan uchib o'tib, idish-tovoqlar terib qo'yilgan oshxona stoliga tushdi.

— Men unga ko'rsatib qo'yaman,— qichqirdi qora soqol kishi.

Polisiyachining kifti ustida po'lat yaraqladi va qorong'ilikda, cherepisa otilgan tomonga qarab birin-ketin besh marta o'q uzildi. O'q uzar ekan, qora soqol kishi shunday yarim doira chizdiki, o'qlar tor hovlida yonma-yon uchdi.

Oraga jimlik cho'kdi.

— Besh o'q,— dedi qora soqol kishi.

— Bu juda ajoyib! Hozir o'yini shunaqa bo'ladi.

Fonarni beringlar, borib murdani axtaramiz.

## **XVII Bob**

### **Doktor Kempning mexmoni**

Doktor Kemp ketma-ket «paq-paq-paq» etib uzilgan o'q tovushi diqqatini o'ziga jalb etgunga qadar kabinetida yozishini davom ettirdi.

— Uho'!— xitob qildi doktor, yana ruchkasi uchini kemptib, quloq solar ekan,— Berdokda to'pponcha otayotgan kim ekan o'zi? Bu eshaklar yana nima baloni o'ylab topishdi? Doktor janubga qaragan deraza oldiga bordi-da, uni ochib, yorug' derazalar, gaz bilan yonadigan fonarlar va ora- sira tomlar va hovlilar ko'lankasi bilan almashinib turgan vitrinalar shu'lasidan iborat bo'lmish shaharga boqdi.

— Anovi yerda, tepalik ostidagi «Kriketchilar» qovoqxonasi oldida xaloyiq to'planganga o'xshaydi,— dedi u, diqqat bilan qarab. Keyin u chiroqlari yoqilgan kemalar va pristanga nazar tashladi. Pristan chog'roq inshoot bo'lib, hozir u chiroqlarning ko'pligidan sarg'ish olmosday yaraqlab turardi. Tepalikning g'arb tomonidan yangi oy ko'tarilib, yulduzlar deyarli tropikadagiday charaqlardi.

Besh minutdan keyin, ya'ni fikri kelajakdagi ijtimoiy sharoit bilan band bo'lib, nihoyasi yo'q zamonlar bag'rida adashib-uloqib yurgach, doktor Kemp chuqur, derazani yopib, yozuv stoli yoniga keldi.

Oradan qarib bir soatcha o'tgach, ko'cha eshikning qo'ng'irog'i chalindi. O'q tovushini eshitganidan buyon, doktor Kempning ishi uncha yurishmay qolgandi, u hadeganda ishni qo'yib, o'yga cho'mib ketardi. Qo'ng'iroq chalinganda, u ishini to'xtatib quloq solib turdi. Oqsoch xotin eshik ochgani chiqqanini eshitib, doktor hozir meni chaqirsa kerak, deb zinapoyadan uning oyoq tovushi kelishini kutdi. Lekin oqsoch xotin uning yoniga chiqmadi.

— Kim ekan shu mahalda kelgan?—dedi o'ziga-o'zi doktor.

U yana ishlamoqchi bo'ldi-yu, lekin qo'li ishga bormadi. Shunda u o'rnidan turdi-da, kabinetidan chiqib, pastga, zinapoyaning yarmisigacha tushdi. O'sha yerdan turib qo'ng'iroq chalgan edi, zalga oqsoch xotin kirib keldi, shunda doktor zinapoya panjarasi ustiga engashib:

— Xat olib kelishdimi?— deb so'radi.

— Yo'q, tasodifiy qo'ng'iroq ekan, ser,— javob berdi oqsoch xotin.

«Bugun negadir bezovta bo'lyapman»,— deb qo'ydi doktor Kemp.

U kabinetga qaytib, ishga jiddiy kirishdi-yu, oradan bir necha minut o'tgach, butun fikri-xayoli ishiga band bo'ldi qo'ydi. Kabinetdagi sukunatni soatning chiqillashi va chiroqning stol ustiga sochayotgan to'garak yog'dusining o'rta belida yugurayotgan peroning qitirlashigina buzardi.

Doktor Kemp buguncha etar, deb o'rnidan turganida kechasi soat ikki bo'lgan edi. U kerishib esnadi-da, pastga, yotoqxonasiga tushdi. Doktor kostyumi bilan jiletkasini echgan ham ediki, birdan chanqaganini payqab qoldi. Shundan so'ng u viski va sodali suv axtarmoqchi bo'lib, sham ko'targani holda oshxonaga tushdi.

Ilmiy ishlar doktor Kempni anchayin kuzatuvchan qilib qo'ygandi. U oshxonadan qaytayotganida, zinapoya yoniga solingan bo'yra oldidagi qop-qora dog'ni ko'rib qoldi. U yuqoriga chiqib ham bo'lgan edi, birdan miyasida bu dog' qaerdan paydo bo'ldiykin degan savol tug'ilib qoldi. Aftidan, bu g'ayri ravishda paydo bo'lgan fikr edi. Lekin har holda u zalga tushib, sifon bilan viskini stolchaga qo'ydi-da, o'tirib diqqat bilan dog'ga tikildi. Doktor bu dog'ning qota

boshlagan qonga o'xshash yopishqoq to'q qizil rangda ekaniga ishonch hosil qilar ekan, uncha ajablanmadi.

U, sifon bilan viskini olib, bu qon dog'i qayerdan paydo bo'lishi mumkinligini aniqlash uchun atrofiga diqqat bilan qaraganicha yuqoriga ko'tarildi. Yotoqxonasi oldidagi sahnchaga etgach, u hayratdan dong qotib to'xtadi-da, eshikka tikildi: eshikning qabzasi qonga bo'yalgan edi.

Doktor o'z qo'lga qaradi. Qo'li top-toza edi, shunda u kabinetdan chiqqan vaqtida yotoqxonasining eshigi ochiq ekanini, shunday bo'lgach, eshikning qabzasiga o'zi sira qo'l urmaganini esladi. U shaxdam qadamlar bilan yurib yotoqxonasiga kirdi. Odatdagidan ko'ra jiddiyroq ekanini hisobga olinmasa, doktorning chehrasi tamomila xotirjam edi. U yotoqxonani diqqat bilan tekshirar ekan, karavotga ko'zi tushdi. Ko'rpada qon xalqob bo'lib qorayib ko'rinar, choyshab yirtilgan edi. To'g'ri pardoz stolchasi oldiga o'tgani sababli xonaga birinchi kirganida doktorning bu narsalarga ko'zi tushmagandi. Xuddi hozirgina birov o'tirganday to'shakning bir eri g'ijimlangan edi.

Shunda uning qulog'iga allakimning «Yo rabbiy! Axir, bu Kemp-ku!»—degani eshitilganday bo'ldi. Biroq doktor Kemp sirli tovushlarga ishonmasdi.

U gijimlangan o'ringa qaraganicha serrayib turardi. Bu ovoz unga shunchaki eshitilgan bo'lsa kerak? U yana atrofiga alanglab g'ijimlangan va qonga belangan o'rindan bo'lak hech qanday shubhali narsani payqamadi. Shu lahzada u xonaning burchagidagi umival'nik oldida qandaydir harakatni sezdi. Har qanday, hatto o'ta ma'rifatli odamning ham ko'nglining bir chetida xurofot yashiringan bo'ladi. Doktor Kemp qalbini vahima qamrab oldi. U yotoqxonaga eshigini yopdi-da jovon oldiga borib, uning ustiga sifonni qo'ydi. Birdan u qaltirab ketdi: chunki o'zi bilan umival'nik o'rtasida xuddi qo'lga bog'langandek qonga belangan oq mato muallaq turardi. Doktor unga hayrat bilan tikilib qaray boshladi. Mato do'ndirib o'ralgan bo'lsa-da, ammo ichi tamomila bo'm- bo'sh edi. Yaqin borib uni ushlab olmoqchi bo'lganida, nimanidir tegib ketishi uni to'xtatdi va shu vaqt yonida allakimning.

— Kemp!—deganini eshitdi.

— A?—dedi doktor Kemp, angrayib og'zini ochganicha.

— Qo'rqmang,— deb so'zini davom ettirdi Ovoz.

— Men Ko'rinmas odamman.

Kemp bir necha vaqt churq etib og'iz ochmay matoga tikildi.

— Ko'rinmas odam?—dedi u nihoyat.

— Ha, Ko'rinmas odam,— deb takrorladi Ovoz.

Kemp darhol shu bugun ertalab o'zi masxaralab kulgan voqeasini xotirladi. Biroq shu lahzada ham u, aftidan, unchalik vahimaga tushib, hayron bo'lgani yo'q. Faqat keyinchalik u dastlabki vaqtdagi hissiyotini to'g'ri anglay oldi.

Men bularning hammasi uydirma gaplardir deb o'ylagandim,— dedi u, nuqul ertalab keltirgan dalillarini eslatib.— Qo'lingizni bog'lab olganmisiz?

— Ha,— javob berdi Ko'rinmas odam.

— U-o'-o'!— dedi Kemp hayajon bilan.

— Mana bunga qoyil qolsa bo'ladi!

— Lekin shu zahoti xayolini boshiga yigdi.

— Bo'lmagan gap. Birorta fokus bo'lsa kerak.

— U oldinga qarab jadal qadam tashladi-yu, matoni ushlamoq chi bo'ldi, biroq uzatilgan qo'li ko'zga ko'rinmas barmoqlarga tegdi.

Doktor shu zahoti o'zini orqaga tashlab, ranggi o'zgarib ketdi.

— Kemp, xudo haqi, qo'rqmang. Men juda ham yordamga muhtojman! To'xtang!

Ko'rinmas qo'l Kempning tirsagidan tutdi. Kemp u qo'lni siltab tashladi:

— Kemp!— qichqirdi Ovoz.

— Kemp, o'zingizni bosing!

— Ko'rinmas odamning qo'li doktorning tirsagini yanada qattiqroq qisdi.

Kemp jon-jahdi bilan bu qo'llardan chiqishga urindi. Bog'langan qo'l uning kiftiga yopishdi-da, qo'qqisdan allaqanday kuch Kempni qulatib, mukkasi bilan karavotga uloqtirdi. U baqirmoqchi bo'lib og'zini ochdi, lekin shu onda choyshabning bir cheti og'ziga qopqoq bo'ldi. Ko'rinmas odam uni mahkam tutib turardi, ammo Kempning ikkala qo'li erkin bo'lib, duch kelgan tomonga musht solmoqda edi.

— Aqlingizni yig'ib oling,— dedi ketma-ket musht yog'ilib turganiga qaramay, Kempni mahkam ushlab turgan Ko'rinmas odam.

— Xudo haqi, jahlimni chiqarmang. Jim yoting, deyaqman sizga, ahmoq odam!—deb bo'kirdi Ovoz Kempning naq qulog'iga.

Kemp yana bir minutcha tipirchilab turdi-da, keyin tinchlandi.

Agar baqiradigan bo'lsangiz, urib miyangizni po'la qilaman,— dedi Ko'rinmas odam, Kempning og'zidan choyshabni tortib olarkan.

— Men Ko'rinmas odamman. Bu uydirma ham, fokus ham emas. Haqiqatda men Ko'rinmas odamman. Menga sizning yordamingiz kerak. Basharti o'zingizni aqlini eb qo'ygan omi odamday tutmasangiz, men sizga hech qanday ziyon-zahmat etkazmayman. Nahotki siz meni unutgan bo'lsangiz, Kemp? Men Griffinman, axir, biz universitetda birga o'qigan edik-ku.

— Qo'yib yuboring, o'rnimdan turay,— dedi Kemp.

— Hech qayoqqa qochib ketmayman. Bir nafas o'z holimga tinchgina qo'yib bering.

Kemp karavotga o'tirib gardanini ushlab ko'rdi.

— Men Griffinman, universitetda siz bilan birga ta'lim olganman. Men o'zimni ko'rinmaydigan qildim. Usha siz bilgan oddiy odamman, faqat ko'rinmaydigan bo'lib qolganman, xolos.

— Griffin?— qayta so'radi Kemp.

— Ha, Griffin,— deb javob berdi Ovoz.

— Universitetda sizdan bpr kurs pastda edim, sochim malla, deyarli albinos , bo'yim olti fut, keng yagrinli, pushti rang yuzli, qizil ko'zli edim. Kimyo yuzasidan yozgan ishingga mukofot olgandyam.

— Hech baloga tushunmayapman,— dedi Kemp,— miyamdagi butun fikrlar qorishib ketdi. Bunga Griffinning nima daxli bor?

— Griffin men bo'laman.

Kemp o'ylanib qoldi.

— Bu dahshat-ku,— dedi u.— Xo'sh, nima balo odamni ko'rinmaydigan qilarkan?

— Bunda hech qanaqangi balo yo'q. Bu batamom mantiqiy va uncha murakkab bo'lmagan bir proses...

— Juda ham dahshat,— dedi Kemp.

— Qanday qilib?

— Ha, dahshat. Lekin men yaralanganman, a'zoyi badanim og'riyapti, qattiq charchaganman. E xudoyim, Kemp, dadilroq bo'ling. Bu narsaga xotirjamroq boqing. Menga yeyish-ichish uchun biror narsa olib keling, ungacha shu yerda o'tirib turaman. Kemp xonada aylanib yurgan matoga tikilib turardi, keyin u to'qima kreslo o'rnidan surilib kelib karavot yonnda to'xtaganini ko'rdi. Kreslo qisirlab ketdi va o'tirg'ichi chorak dyumcha pastga cho'kdi. Kemp ko'zlarini ishqalab, yana gardanini paypasladi.

— Bu har qanaqangi ins-jinsdan beshbattarroq ekan,— dedi u va tentak odamga o'xshab kulib qo'ydi.

— Ana bu ishingiz durust. Xudoga shukur, aqlingizni ancha yig'ib olyapsiz.

— Endi aqlimdan ozyapman,— dedi Kemp va yana ko'zini uqaladi.

— Menga viski bering. Juda ham mazam qochyapti.

— Menimcha, undayga o'xshamaydi. Qayerdasiz? O'rnimdan tursam, sizga qoqilib ketmaymanmi? Aha, bu yerdamisiz? Mayli, viski deysizmi?.. Marhamat. Qayoqqa uzatay uni? Kreslo qisirlab ketdi, Kemp stakan qo'lidan olinayotganini sezdi. U beixtiyor sinib qolishidan qo'rqib stakanni arang qo'yib yubordi. Stakan kreslodan yigirma dyumcha balandda, havoda muallaq turib qoldi. Kemp hech narsaga tushunolmay hayronlik bilan stakanga termilardi.

— Bu... Ha, albatta, bu gipnoz... Siz ko'zga ko'rinmasligingizga meni ishontirib qo'ygan bo'lsangiz kerak.

— Bema'ni gap!— dedi Ovoz.

— Axir bu — aqlsizlik-ku!

— Gapimga quloq soling.

— Shu bugungina men ko'zga ko'rinmaslikning mumkin emasligi haqida e'tiroz bildirib bo'lmaydigan dalillar keltirgan edim,— deb gap boshladi Kemp.

— Barcha dalillaringizga tupuring,— uning gapini bo'ldi Ovoz,—Men ochimdan o'lay deyapman, yalang'och odam uchun bu er ancha sovuqlik qilarkan.

— Uning qorni ochibdi!—dedi Kemp.

Stakandagi viski sipqarildi.

— Ha,— dedi Ko'rinmas odam, stakanni tas etkazib stol ustiga qo'yarkan.

— Xalatingiz yo'qmi?

Kemp o'zicha bir nimalar deb ming'illadi-da, kiyim shkafi oldiga borib, u erdan to'q qizil xalat oldi.

— To'g'ri keladimi?—so'radi u.

Qo'lidan xalat olindi. U bir lahza havoda osilganicha turdi, keyin g'alati qilib harakatlandi va bor bo'yicha cho'zilib hamma tugmalari solindi-da, kresloga cho'kdi.

— Kalson, paypoq va tufli bo'lsa joyida bo'lardi,— dedi Ko'rinmas odam shartta-shartta gapirib.

— Shuningdek, ovqat ham.

Nimani xohlasangiz, hammasini muhayyo qilaman. Lekin umrim bino bo'lib sira bunaqangi bema'ni voqeani ko'rmagan edim.

Kemp Ko'rinmas odam so'ragan narsalarni jovondan olib ber; keyin yerto'laga tushib ketdi. U sovuq kotlet bilan non ko'tarib chiqdi, stolchani yaqinroq surib, keltirgan narsalarini mehmon oldiga qo'ydi.

— Pichoqsiz ham eyaveraman,— dedi Ko'rinmas odam va kotlet havoda muallaq turib qoldi, shapillab kavshangan ovoz eshitildi.

Men doimo avval kiyinib, keyin ovkatlanishni afzal ko'rardim,—dedi Ko'rinmas odam og'zini ovqatga to'ldirib non bilan kotletni yutaqib kavsharkan.

— Qizik odat-a!

Qo'lingiz ishlayapti chog'i?— dedi Kemp.

— Bundan xotirjam bo'lsinlar,— dedi Ko'rinmas odam.

— Har qalay juda g'alati-da!

— Ha, shunday. Eng taajjubli eri shundaki, qo'limni bog'lash zarur bo'lib qolgan mahalda, xuddi sizning uyingizga kirib qoldim. Birinchi marta shunday omadim kelishi. Lekin baribir men shu uyda tunab qolmoqchi bo'lgandim. Siz meni quvib chiqara olmaysiz endi! Qonimning ko'rinadigan bo'lishi o'lgiday noqulay-a, shunday emasmi? Xalqob bo'lib qoldi-ya. Qon iviganidan keyin ko'rinadigan bo'lib qolsa kerak. Men jonli hujayralarnigina o'zgartira oldim. Tanimda jonim bor ekan, ko'zga ko'rinmayman... Men uch soatdan beri shu yerdaman.

— Lekin buni uddasidan qanday chiqdingiz-a?— gap boshladi Kemp xunobi oshib.

— Bu nima balo o'zi! Bu voqea boshidan oxirigacha behuda bema'ni narsa.

— Bekorga siz shunday deb o'ylayapsiz,— dedi Ko'rinmas odam.

— Bu ishning hammasi tamomila mantiqiy.

U qo'lini uzatib viski shishani oldi. Kemp viski yutayotgan xalatga hayron bo'lib tikildi. Shamning shu'lasi xalatning o'ng elkasidagi teshik orasidan o'tib, yorug' uch burchak hosil qilgandi.

— Boyagi qanaqa otishma edi o'zi?— so'radi Kemp.

— Nima sababdan ota boshlashdi?

— U yerda bir ahmoq odam, mening tasodifiy sherigim bor edi, jin ursin uni. O'sha pullarimni o'g'irlab qochmoqchi bo'ldi. O'g'irlab qochdi ham, ablah.

— U ham Ko'rinmas odammi?

— yo'q.

— Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

— Yana biror narsa yeb olishimning iloji yo'qmi? Keyin hammasini bir boshdan gapirib beraman. Qornim o'lgiday och, bu kamlik qilganday qo'lim ham og'riyapti. Siz bo'lsangiz, bo'lgan gaplarni hikoya qilib berishimni so'rayapsiz?

Kemp o'rnidan turdi.

— Demak, o'q uzgan odam siz emasmidingiz?— so'radi u.

— Yo'q,— javob berdi mehmon.

— Bir kallavaram tusmol bilan o'q uzdi. Men uni ilgari sira ko'rmagandim. Ular qo'rqib vahimaga tushib ketishdi. Mendan hamma qo'rqadi. Jin ursin hammasini! Menga qarang, Kemp, juda qornim ochib ketyapti, axir.

— Tushib bir axtarib ko'ray-chi, zora biror egulik topilsa,— dedi Kemp.

— Bilmadim, ko'proq narsa topa olarmikinman?

Ko'rinmas odam ovqatlanib bo'lgach (u talaygina ovqat edi), sigara so'radi. Kemp pichoqni topgunicha u sigaraning dumini ochko'zlik bilan tishlab uzdi va sirtiga tamaki bargi yopishib qolganini ko'rib, qattiq so'kinib oldi. Uning tamaki chekishi juda galati tuyulardi: og'iz, tomoq, halqum hamda burun kataklari pag'a-pag'a tutunlardan yasalganga o'xshab elas-elas ko'zga chalinganday bo'lardi.

— Tamaki ajoyib narsa-da!—dedi u sigara tutunini ichiga yutib,— omadim yurishib, sizning uyingizga kirib qoldim, Kemp. Siz menga yordam berishingiz kerak. Buni qarang-chi, eng zarur bo'lgan vaqtda sizga duch kelib qoldim! Ahvolim juda ham chatoq edi. Xuddi aqldan ozgan odam singari bo'lib qolgandim. Qanday balolarga giriftor bo'lmadimu, nimalarga bardosh bermadim! Endi ishimiz yurishib ketadi. Menga ishonavering...

U yana soda suvi bilan qo'shib viski ichdi. Kemp o'rnidan turdi, atrofga boqib, yonidagi xonadan o'zi uchun ham stakan olib chiqdi.

— Bu narsalarning bari g'alati... Keling endi men ham icha qolay.

— O'tgan o'n ikki yil mobaynida sira ham o'zgarmabsiz, Kemp. Malla sochli odamlar juda kam o'zgarishadi. Hali ham o'sha vaqtdagi kabi loqayd, rejali, tartiblisiz... Men sizga hamma narsani batafsil tushuntirib berishim kerak. Endi birgalikda ishlaymiz.

— Ammo siz buni qanday uddaladingiz?— so'radi Kemp.

— Qanday qilib siz bunaqasiga ko'rinmas bo'lib qoldingiz?

— Xudo xaqi, chekib bo'lgunimcha meni tinch qo'ying. Keyin hammasini aytib beraman. Biroq bu kecha u hech nimani aytib bermadi. Uning qo'li og'rib qoldi, isitmasi chiqib, a'zoyi badani bo'shshib ketdik. Xayoliga nuqul tepalikdan yugurib Marvelni quvib kelgani va qovoqxona oldidagi mushtlashgani kelaverdi. U hikoya qilishga kirishgan ham edi, biroq yanglishib ketdi. U Marvel to'g'risida chalakam-chatti gapirar, birdan g'ujanak bo'lib tirishib, ovozidan darg'azab bo'layotgani sezilib qolardi. Kemp uning hikoyasidan iloji boricha biror narsa anglashga urindi.

— U mendan qo'rqdi... Men uning qo'rqishini bilardim,—deb qayta-qayta takrorlardi Ko'rinmas odam.

— U mendan qochib qutulish payida yurardi, yakkash shuni o'ylardi. Qanday ahmoqchilik qildim-a! Eh muttaham, muttaham! Uni o'ldirish lozim edi...

— Pulni qayerdan olgandingiz?— birdaniga so'rab qoldi Kemp.

Ko'rinmas odam bir oz sukut saqlab turdi.

— Bugun buni aytib berolmayman,— deb javob berdi u keyin.

U birdan voyvoylab, ko'rinmas qo'llari bilan ko'rinmas kallasini tutib bukchayib qoldi.

— Kemp,— dedi u.— Uch kundan beri uxlaganim yo'q, shu vaqt mobaynida atigi bir-ikki soat mizg'ib olish nasib bo'ldi, xolos. Yaxshilab uxlab olishim kerak.

— Yaxshi,— dedi Kemp.

— Shu yerda, mening xonamda yota qoling.

— Biroq uxlashim mumkinmi? Bordiyu men uxlab qolsam, u qochib ketadi. Eh! Xo'p, mayli, menga baribir!

— Jiddiy yaralanganmisiz?— bo'g'i q tovush bilan so'radi Kemp.  
— Unchayamas, sal timdalangan, xolos! Judayam uyqum kelyapti-da!  
— Unday bo'lsa, yotib uxlang.  
Ko'rinmas odam Kempga tikilayotganday tuyulardi.  
— Qo'lga tushishga zarracha ham xohishim yo'q,— deb qo'ydi Ko'rinmas odam salmoqlanib.  
Kemp seskanib tushdi.  
— Eh, juda ahmoqman-da!— deb xitob qildi Ko'rinmas odam, stolga musht tushirib.  
— Sizda shunday fikrning tug'ilishiga o'zim sababchi bo'ldim.

## **XVIII Bob**

### **Ko'rinmas odam uxlaydi**

Qattiq charchagan va yaralangan bo'lishiga qaramay, Ko'rinmas odam erkinligiga hech qanday tajovuz bo'lmasligi haqidagi Kempning gapiga unchalik ishonmadi. U yotoqxonaning har ikkala derazasini ko'zdan kechirdi, zarur bo'lgan vaqtda shu yerdan qochish mumkinligiga ishonch hosil qilish uchun darpardani ko'tarib deraza tavaqalarini ochib qo'ydi. Deraza ortida sokin tun hukmron edi. Oy bamisoli osib qo'yilganday tepa ustida qimir etmay turardi. So'ngra Ko'rinmas odam qochib ketish mumkinligiga ishonmoq uchun yotosxonaning qulfi, hojatxona va vannaxonalarning eshiklarini tekshirdi. Nihoyat u qanoat hosil qilganini aytdi. U kamin oldida turardi. Kemp esnash ovozi eshitdi.

— Ming afsuski,— dedi Ko'rinmas odam,— qilgan ishlarimning hammasini hozir batafsil hikoya qilib berolmayman. Tinka-madorim qurigan. Buning bema'nilik ekaniga so'z yo'q. Bu dahshat. Ammo menga ishonib, Kemp, bu tamomili mumkin bo'lgan ish. Men yangilik kashf etdim, uni sir saqlamoqchi edim, biroq buning sira iloji yo'q. Menga yordamchi kerak. Basharti siz... Ikkovimiz nimalar qilmas edik-a!.. Xo'p, mayli, bu gaplarning hammasini ertaga qoldiramiz. Men uxlab olishim kerak, Kemp, aks holda o'lib qolaman.

Kemp xonaning o'rtasida boshsiz xalatga qarab turardi.

— Xo'p, men sizni qoldirib chiqib ketaman,— dedi u.

— Biroq bu sira aql bovar qilmaydigan ish. Barcha nazariyalarimni ostin-ustun qilib yuboradigan shunga o'xshash yana ikkita fakt bo'lsa, aqldan ozishim turgan gap. Har qalay, bu shunday ekani shubhasiz! Sizga tag'in biror narsa kerak emasmi?

— Menga «tuning xayrli bo'lsin», desangiz, bas,— dedi Griffin.

— Tuningiz xayrli bo'lsin,— dedi Kemp va ko'rinmas qo'lni siqdi.

U yonlamasiga yurib eshik tomon yo'naldi. Birdaniga xalat tez odim tashlab unga yaqinlashdi.

— Esingizda bo'lsin,— dedi Ko'rinmas odam,— meni ushlab olish yoki tutib berishga urina ko'rmang. Aks holda...

Kempning tusida sezilar-sezilmas o'zgarish ko'rindi.

— Men sizga so'z berdim, chog'i,— dedi u.

Kemp chiqib, eshikni ohista yopdi va shu zahoti eshik sharaq etib qulflandi. Kemp, chehrasida itoatkorona ajablanish ifodasi aks etib, qaqqayib turganida tez-tez tashlangan qadam tovushi eshitildi-yu, vannaxonaning eshigi ham qulflanib qoldi. Kemp peshanasiga bir urdi.

— Uxlayapmanmi o'zi? Butun dunyo aqldan ozdimi yoki men jinni bo'lib qoldimmi-a?— u kuldi-da, qulflog'liq eshikni itarib ko'rdi.

— O'z yotoqxonamdan badarg'a qilindim, yana kim tomonidan deng? Arvoh tomonidan. Aqlga to'g'ri kelmaydigan bema'nilik!

U zinapoyaning yuqori pog'onasi oldiga bordi, atrofga ko'z tashlagach, yana qulflog'liq eshikka qaradi.

— Rad qilib bo'lmaydigan fakt,— dedi u sal sirqirab turgan gardaniga qo'l tekkizib.

— Ha, rad qilib bo'lmaydigan fakt. Biroq...

— Kemp umidsizlik bilan bosh chayqadi-da, shartta burilib pastga tushdi.



U emakxonadagi lampani yoqdi, sigara oldi-da, goh ming'illaganicha poyma-poy gaplar gapirib, goh ovozini barala qo'yib o'z-o'zi bilan bahslashgani holda u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

— Ko'rinmas odam!—dedi u.

— Ko'zga ko'rinmaydigan narsaning bo'lishi mumkinmi? Dengizlarda bo'lsa bordir. U erda bunaqangi jonivorlar minglab, millionlab topiladi! Barcha mayda naupliuslar va tornariyalar, barcha mikroorganizmlar... xo'sh, meduzalar-chi! Dengizlarda ko'rinadiganlarga qaraganda, ko'rinmaydigan maxluqlar ko'proq! Avyallari men shu to'g'rida hech o'ylamasdim...

Hovuzlarda-chi? Hovuzlarda yashaydigan barcha mitti organizmlar — rangsiz, shaffof shilliqlar... Ammo havoda-chi? Yo'q! Bu mumkin emas. Ha, aytganday, nega havoda bo'lmas ekan? Mabodo odam oynadan yasalganida ham ko'zga ko'rinadigan bo'lardi. Kemp chuqur xayolga cho'mdi. To u yana so'zlay boshlaguncha uchta sigara oppoq kulga aylanib gilamga sochildi. To'g'ri- to'g'i, u so'zlay boshladi emas, balki qichqirib yubordi. Keyin u emakxonadan chiqib o'zining qabulxonasiga kirdi-da, u erdagi gaz chiroqni yoqdi. Bu xona uncha katta emasdi. Doktor Kemp praktika bilan shug'ullanmagani sababli bu erga gazetalar yig'ib qo'yilgandi. Gazetaning ertalabki soni stol ustida ochilib yotardi. U gazetani qo'lga oldi-yu, Port-Stouda matros tomonidan Marvelga zo'r hafsala bilan hikoya qilib berilgan «Aypingda favqulodda hodisa» nomli axborotni o'qishga kirishdi.

O'ralib-chirmalib olgan!— xitob qildi u axborotni o'qib bo'lgach.

— Qiyofasini o'zgartgan! Sirini yashirib yuribdi. Aftidan, hech kimsa uning musibatli sarguzashtini bilmasa kerak! Uning boshida qanday xayollar bor?

— U gazetani tashlab, diqqat bilan stol ustiga ko'z yugurtirib chiqdi.

— Aha!—dediyu hali taxi buzilmagan «Sent- Jems» gazetasiga yopishdi.

— Hozir barcha haqiqatni bilib olamiz,— dedi u va gazetaning ichki sahifasini ochdiy «Susseksdagi butun boshli bir qishloq aqldan ozdi!»— deb sarlavha qo'yilgan ikki stunga ko'zi tushdi.

— Yo parvardigori olam!— xitob qildi Kemp.

— Biz yuqorida yozib o'tgan Ayping voqeasi haqida shubha aralash yozilgan axborotni zudlik bilan o'qirkan. Bu maqolaning oldida ertalabki gazetadan ko'chirib bosilgan axborot bor edi.

Kemp hammasini qayta boshdan o'qib chiqdi. «O'ngu chapga musht yog'dirib, ko'cha bo'ylab qochdi. Jeffers behush bo'lib yotibdi. Xaksters qattiq shikastlangan, u ko'rganlaridan hech birini aytib bera olmaydi. Vikariy qattiq tahqir etilgan. Bir xotin o'takasi yorilib kasal bo'lib qolgan. Deraza oynalari chil-chil qilingan. Bu g'ayri tabiiy voqealar uydirma bo'lsa kerak, lekin shunday yaxshi uydirmaki, uni gazetada bosib chiqarmaslikning iloji yo'q».

Kemp gazetani erga tashlab bir nuqtaga tikilib qoldi.

— Uydirma bo'lsa kerak!—deb takrorladi u.

Keyin yana gazetaga yopishib, qaytadan hammasini boshidan-oxirigacha o'qib chiqdi.

— Lekin anovi daydi qayoqdan paydo bo'lib qolibdi? Nima qilib daydining ketidan quvib yuribdi?

Kemp majolsizlanib kresloga o'tirib qoldi.

— U Ko'rinmas odamgina emas, balki telbaga ham o'xshaydi! U qotillik dardiga muhtalo bo'lgan!..

Tong yorishib, quyoshning g'ira-shira shu'lasini yemakxonada yonayotgan gaz chiroq nuri va sigara tutuni bilan qorishib ketgan mahalda ham Kemp bu mavhum jumboqni anglashga urinib xonada u yoqdan-bu yoqqa kezmoqda edi.

U hayajonining zo'ridan uyqu haqida o'ylay ham olmasdi. Uxlab turgan xizmatkorlari ertalab uni bu holda ko'rib, tinimsiz ishlash sog'lig'iga yomon ta'sir etgan bo'lsa kerak, deb o'ylashdi. Kemp g'alati, lekin tamoman aniq buyruq barib: «Yuqoridagi kabinetda ikki kishilik nonushta tayyorlangan-da, keyin qaytib u yerga chiqa ko'rmanglar»— dedi. U to ertalabki gazetalarni keltirib berishmagunicha yemakxonada u yoqdan-bu yoqqa yurishda davom etdi. Gazetada Ko'rinmas odam xususida juda ko'p yozilgan ediyu, lekin undagi yangilik kecha

«Quvnoq kriketchilar» qovoqxonasida bo'lib o'tgan voqea haqidagi uzuq-yuluq axborogdan iborat edi. Ana shunda Kemp birinchi bor Marvelning nomini uchratdi. «U zo'rlik bilan meni bir kechayu bir kunduz o'z yonida olib yurdi»,—deb xabar bergan edi Marvel. Aypingdagi voqealar to'g'risidagi axborot ayrim mayda-chuyda tafsilotlar bilan to'ldirilgan, jumladan, telegraf simi uzilganligi eslab o'tilgandi. Biroq bu axborotlarning birortasida ham Ko'rinmas odam oilan daydining munosabatini aniqlashga yordam beradigan hech gap yo'q edi, chunki mister Marvel uchta qo'l yozma kitob va cho'ntaklariga to'ldirib olgan pullari haqida lom-mim deb og'iz ochmagandi. Shubha-gumonlar bartaraf bo'lib, endi butun boshli reportyorlar galasi bu ishni diqqat bilan tekshirishga kirishgan edilar.

Kemp hamma xabarlarni boshdan-oyoq diqqat bilan o'qib chiqdi va oqsoch xotinga, topilishi mumkin bo'lgan barcha ertalabki gazetalarni keltiring, deb buyurdi. Keyin yanga olib kelingan gazetalarni ham zo'r qiziqish bilan o'qib chiqdi.

— U ko'zga ko'rinmaydi!—dedi Kemp.

—Innaykeyin, gazetalarning xabar qilishiga qaraganda, uning g'azabi aqldan ozish darajasiga borib etgan. U qanday yovuzliklar qilishga qodir emas, deysiz! Nimalar qilmaydi u! Axir, u anovi erda, yuqori qavatda yotibdi va bamisoli shamol singari erkin. Nima qilsam ekan-a? Xoinlik bo'larmikin, agarda men... Yo'q!

U burchakda turgan va ustiga qog'oz qalashtirib tashlan» gan kichkina yozuv stoli yoniga o'tirib xat yoza boshladi. Bir necha satr yozgach, yirtib tashladi-da, yangidan yozishga kirishdi. Yozganini o'qib chiqdi-da, o'ylanib qoldi. Keyin konvert olib: «Port-Berdok, polkovnik Edayga»,— deb adres yozdi.

Ko'rinmas odam Kemp endi konvertni yelimlab yopishtirayotgan chog'da uyg'ondi. U juda kayfi buzilib turdi, shunda har bir tovushga diqqat bilan quloq solayotgan Kemp boloxonadagi yotoqda shiddat bilan tashlangan qadam tovushini eshitdi. Keyin stulning qarsillab ketgani va stakanning jiringlab singani quloqqa chalindi. Kemp yugurib boloxonaga chiqdi-da, toqatsizlik bilan yotoqxona eshigini taqillatdi.

## **XIX Bob**

### **Ba'zi bir asosiy prinsiplar**

Ko'rinmas odam eshikni ochib, xonaga kiritgach:

— O'zi nima gap?— so'radi Kemp.

— Hech gap yo'q,— javob berdi Ko'rinmas odam.

— U holda hamma yoq taraqa-turuq bo'lib ketganining boisi nima?

— Zardam qaynab ketdi,— dedi Ko'rinmas odam.

— Qo'limdan yaralanganimni unutgan ekanman, hozir shu og'riyapti.

— Zardangiz shunaqa tez-tez qaynab tursa kerak-a?

— Ha.

Kemp xonaning narigi tomoniga o'tib, stakan siniqlarini terib oldi.

— Endi siz to'g'ringizda hamma narsa ayon,— dedi Kemp.— Aypingdagi voqealarning bari va pastda —qovoqxonada bo'lgan mashmashalar hammaga ma'lum bo'ldi. Olam o'zining ko'rinmas grajdani bor ekani haqida xabar topdi. Lekin sizning bu erda ekaningizni hech kim bilmaydi.

Ko'rinmas odam so'kindi.

— Sir oshkor bo'ldi,— deb davom etdi Kemp.— bu sir edi, shunday emasmi? Siz nima niyatda ekaningizni bilmayman, lekin sizga yordam berishga tayyorman, albatta.

Ko'rinmas odam karavotga o'tirdi.

— Yuqori xonada nonushta hozirlab qo'yilgan,— dedi Kemp loqayd ohangda gapirishga urinib. Bu so'zni eshitganda, doktor g'alati mehmonni mamnuniyat bilan o'rnidan turganini ko'rib quvondi. Kemp uni torgina zinapoyadan yuqoriga boshlab chiqdi.

— Ikkalamiz biror ish boshlashimizdan burun,— dedi Kemp,— qanday qilib ko'rinmaydigan bo'lib olganingizni batafsil bilmoqni istardim.

Shundan so'ng Kemp sal bezovtalanganday bo'lib derazaga bir nazar tashladi-da, uzoq va mufassal suhbatlashmog'i lozim bo'lgan odam singari kresloga o'tirdi. Uning miyasiga yana bu hodisalarning bari bo'lmag'ur xayollar, alahlashga o'xshash bir narsa degan fikr keldi, lekin Griffinga qarashi bilanoq, bu fikr g'oyib bo'ldi: boshsiz va qo'lsiz xalat stol yonida o'tirib, mo'jiza bilan havoda muallaq turgan sochiq bilan ko'rinmas lablarini artardi.

— Bu juda oddiy va bo'lishi mumkin bo'lgan holat,— dedi Griffin sochiqni bir tomonga qo'yib, ko'rinmas boshini ko'rinmas qo'lga suyar ekan.

— Siz uchun shunday, albatta, lekin...— Kemp kulib yubordi.

Ha, bu avvalida menga joduday bir narsa bo'lib tuyulgandi, albatta, ammo hozir bo'lsa... Yo parvardigori olam! Biz buyuk ishlar qilishimiz mumkin. Menda dastavval bu g'oya Chezilstouda paydo bo'ldi.

— Chezilstouda deysizmi?

— Ha, men Londondan o'sha erga ko'chib borgandim. Men medisinani tashlab, fizika bilan shug'ullanganimdan xabaringiz bormi? Bexabar bo'lsangiz kerak-a? Ha, gap shunday bo'lgandi. Meni nur problemi qiziqtirib qoldi.

— A-a!..

— Nur o'tkazmaslik! Bu masala batamom jumboqlardap iborat, ular orasidan elas-elas javob ko'rinadi, xolos Usha vaqtda endigina yigirma ikki yoshga kirgandim vd shovvoz yigit edim. Shunda o'zimga: «Ana shu masalani hal qilishga hayotimni bag'ishlayman. Bu sohada qilinadigan ish juda ko'p»,— dedim. Yigirma ikki yoshda qanchalik tentak bo'lishimizni o'zingiz bilasiz-ku, axir.

— Bilmadim, ehtimol, hozir yanada tentakroqdimiz,— deb qo'ydi Kemp.

Go'yo bilim odamni qanoatlantira oladigandek! Lekin men ishga kirishib, kunni kun, tunni tun demay ishladim. Og'ir mehnat va o'y-xayollar bilan yarim yil o'tdi — ana shunda tumanli parda ortidan yalt etib nur ko'rindi. Men pigmentlar va nurning sinishi umumiy qonunini — geometrik ifoda, ya'ni to'rt o'lchovni o'zida mujassamlashtirgan formulani tbdim. Ahmoqlar, oddiy kishilar, hattoki oddiy matematiklar ham molekulyar fizikani o'rganuvchi odam uchun umumiy ifodaning qanday muhim ah miyatga ega ekanini anglamaydilar. Anovi daydi o'g'irlab ketgan qo'lyozma kitoblarda mo'jizalar, yashiringan sirli raqamlar bor! Biroq u hali metod emasdi, ular metodga olib borishi mumkin bo'lgan g'oyalar edi, xolos. Ana shu metod ko'magida materiyalarning xossalarini o'zgartirmay — ayrim hollarda rangni mustasno qilganda — ba'zi bir qatitq yoki suyuq moddalarning sinish koeffisientini havoning sinish koeffisientiga tenglashtyrish mumkin bo'lardi.

Kemp hushtak chalib yubordi.

— Bu qiziq narsa. Biroq har qalay hali menga unchalik aniq emas... Tushunaman, bu yo'l bilan siz qimmatbaho toshni ishdan chiqarishingiz mumkin edi, biroq odamni ko'rinmaydigan qilishga hali ancha bor.

— Shubhasiz,— dedi Griffin.— lekin o'ylab qarang: har bir narsaning ko'rinadigan bo'lishi o'sha narsaning nurdan qanday ta'sirlanishiga bog'liq. Keling, yaxshisi, men bu masalani ibtidosidan boshlay, shunda siz keyingilarini yaxshiroq tushunib olasiz. O'zingizga juda yaxshi ayonki, jismlar nurni yo yutadi, yo qaytaradi, yo sindiradk, yoxud shularning hammasini bir yo'la qiladi. Basharti jism yorug'likni qaytarmasa, sindirmasa va yutmasa, u o'z-o'zicha ko'rinadigan bo'lishi mumkin emas. Xo'sh, masalan, xira qizil qutini ko'rishingizning sababi shuki, u nurning bir qismini yutadi va boshqalarining hammasini, chunonchi, barcha qizil nurlarni qaytaradi. Mabodo quti nurning bir qismini yutmay, hammasini qaytarganda edi, ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq bo'lib ko'rinardi. Kumushni eslang! Olmos quti uncha ko'p nurni yutmagan bo'lardi va shu bilan birga, uning sirti nurni kam qaytarardi, lekin qanday tekislikda turganiga qarab ba'zi joylarida nur qaytarilgan va singan bo'lardi va biz yaltiroq simdan to'qilgan o'rgimchak uyasiga o'xshash yorqin aksni va nur skelet yanglig' shaffof yuzani ko'rgan bo'lardik. Oyna quti olmos quti singari yorqin va unchalik aniq ko'rinmaydi, chunki unda nur kam qaytarilib, kam sinadi. Tushunarlimi? Ma'lum bir nuqtadan qaralganda, bunday quti shaffof ko'rinadi; oynaning ayrim xillari boshqa xillaridan ko'ra ko'zga aniqroq tashlanadi; oddiy deraza

oynasidan yasalgan qutiga qaraganda, billur quti ko'proq yaraqlab ko'rinadi. Juda yupqa oynadan yasalgan qutini yaxshi yoritilmagan joyda payqash qiyin bo'ladi, chunki u deyarli hech qanaqa nurni yutmaydi va yorug'liqni juda kam qaytarib, kam sindiradi. Basharti siz bir bo'lak oddiy oynani suvga solsangiz, yoxud yanada yaxshirog'i, suvdan ko'ra ham quyuproq suyuqlikka tashlasangiz, oynani deyarli ko'rmaysiz, chunki nur suvdan oynaga o'tayotganda kam sinadi va juda zaif aks etadi va umuman deyarli hech qanaqangi ta'sirga uchramaydi. Bu holatda oyna xuddi karbonat kislota oqimi yoki havodagi vodorod singari ko'zga ko'rinmaydi. Buning ham sababi o'sha yuqorida aytganimiz.

— Ha,— dedi Kemp,— bularning bari aniq. Hozirgi kunda bunaqangi narsalarni har bir maktab bolasi yaxshi tushunadi.

Mana har bir maktab bola tushunadigan yana bir fakt. Bir bo'lak oynani sindirib, uni yaxshilab yanchilsa, u havoda ko'zga yanada yaqqolroq tashlanib, xiraroq oq kukunga aylanadi.

Bunday bo'lishining sababi shuki, oynaning kukunga aylanishi natijasida nurni sindiradigan va qaytaradigan sirtlar miqdori ortadi. Oyna plastinka bor-yo'g'i ikki sirtga ega, kukunda esa har bitta zarraning nurni sindiradigan va qaytaradigan sirti bor, shu boisdan ham kukun orasidan yorug'lik juda kam miqdorda o'tadi. Bordi-yu, oyna kukunini suvga solsak u deyarli yo'qolib ketadi. Oyna kukuni bilan suvning nurni sindirish koeffisienti bir xil, nur bir sharoitdan ikkinchisiga o'tganida deyarli sinmaydi, qaytarilmaydi. Siz oynani qariyb o'ziga o'xshash nur sindirish koeffisientiga ega bo'lgan suyuqlik bilan aralashtirib, uni ko'zga ko'rinmaydigan qilasiz: o'zi bilan bir xilda nur sindirish koeffisientiga ega bo'lgan jismlar muhitiga qo'yilsa, har qanday shaffof jism ham ko'zga ko'rinmaydigan bo'lib qoladi. Agarda salpal o'ylab ko'rsangiz, shisha kukunining nurni sindirish koeffisientini nurning havoda sinish koeffisienti darajasiga olib borilsa, oyna kukunini havoda ham ko'rinmaydigan qilish mumkin.

Chunki, bu holda nur havodan oyna kukuniga o'tsa, qaytarilmaydi ham, sinmaydi ham.

— Bularning hammasi to'g'ri,— dedi Kemp.

— Lekin odam oyna kukuni emas-ku, axir!

— Yo'q,— dedi Griffin.— Odam yanada shaffofroq.

— Bo'lmagan gap!

— Bu gapni tag'in vrach gapiryapti-ya! Hamma narsa juda oson unutiladi-da! Nahotki o'n yilda fizika sohasida bilgan narsalaringizning barini unutib yuborgan bo'lsangiz? Siz sira shaffofga o'xshab tuyulmaydigan qanchadan- qancha shaffof moddalar borligini bir o'ylab ko'ring-a. Masalan, qog'oz shaffof tolalardan tashkil topgan, u bizga oq va xira bo'lib ko'rinishining sababi shuki, bunda ham bizga ma'lum kukun qilingan oynaning oq va xira ko'rinishidagi holat yuz beradi. Oq qog'ozga yog' surting, nurning sinish va qaytishi, faqat sathidagina yuz beradigan qilib qog'ozning barcha mayda teshikchalarini to'ldiring, shunda qog'oz bamisoli oyna singari shaffof bo'lib qoladi. Yolg'iz qog'ozgina emas, paxta, zig'irpoya, jun tolasi, daraxtdagi tolalar, shuningdek,— manoviga alohida diqqat qiling-a, Kemp!— suyak, mushak, soch, tirnoq, nerv ham shaffof bo'lib qoladi. Xulosa kalom, qizil qon soqqachalari bilan sochning qora pigmentlarini mustasno qilganda, odamning barcha a'zosi shaffof, rangsiz hujayralardan tashkil topgan; biz bir-birimizni ko'ra olishimiz uchun shunchalar kam vosita kerak ekan. Tirik organizmlarning ko'pchilik hujayralari shaffoflikda suvdan qolishmaydi.

— To'g'ri, to'g'ri,— xitob qildi Kemp,— xuddi shu bu« gun kechasi men dengiz qurti va meduzalar haqida o'ylagandim!

Ha, o'lmang! Endi siz mening fikrimga tushundingiz! Bularning barini men Londondan ketganimdan bir yil keyin, ya'ni bundan olti yil muqaddam bilardim va shular haqida chuqur o'ylab qo'ygandim. Biroq men o'z fikr- mulohazalarimni hech kimga aytmadim. Juda ham og'ir sharoitda ishlashga to'g'ri keldi. Mening professorim Oliver ilm-fanda hech baloning fahmiga bormaydigan, boshqalar- ning g'oyasini o'zlashtirib olishga mukkasidan ketgan odam edi — u surunkasiga mening ketimdan josuslik qilardi! Fan olamida kanday firibgarliklar hukmron ekanini o'zingiz yaxshi bilasiz-ku. Men o'zim qilgan ixtironi ma'lum qilib, shuhratni u bilan bo'lashib olishni istamasdim. Men ishimni davom ettirdim va o'zimning nazariy formulamni eksperimentga, real tajribaga aylantirishga yaqinlashib kelaverdim. O'z ishim haqida hech kimga

churq etib og'iz ochmasdim, kashfiyotim bilan jahonni hayratda qoldirmoqchi va birdaniga shuhrat qozonmoqchi edim. Ayrim-ayrim kamchiliklarni bartaraf qilish uchun pigmentlar masalasi bilan shug'ullandim. Shunda, daf'atan, tamomila tasodifiy ravishda fiziologiya sohasida bir yangilik kashf etdim.

— Rostdan-a?

— Qonni bo'yaydigan qizil modda sizga ma'lum, albatta. Ana shu modda o'zining barcha xususiyatini saqlagani holda oq rangga kirishi, rangini yo'qotishi mumkin ekan!

Kemp taajjub bilan qichqirib yubordi.

Ko'rinmas odam o'rnidan turib, tor kabinetda u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Taajjubingizni tushunsa bo'ladi. O'sha kecha xotirimda. Kechasi allamahol edi — kunduzi alifni kaltak demaydigan studentlar ishingga xalal berishardi, shu sababdan goho tong otguncha ishlardim. Bu kashfiyot ko'z o'ngimda daf'atan butun namoyon bo'ldi. Men yolg'iz edim, laboratoriyada sukunat hukm surar, tepada lampalar ravshan nur sochardi. Hayotimning eng muhim daqiqalarida men negadir hamisha yolg'iz bo'laman. «Hayvonning — uning hujairasini — shaffof qilish mumkin! Uni ko'zga ko'rinmaydigan qilish mumkin! Pigmentdan tashqari hamma narsani ko'rinmaydigan qilsa bo'ladi. Men ko'rinmas odam bo'lib olishim mumkin!»— dedim, shunday bilimga ega bo'lga da kishining sochi oq bo'lishi qanday muhim ahamiyatga ega ekanini birdan anglab. Shuni o'yladimu, dovdirab qoldim. shen ishni (shu mahalda filtrlash ishi bilan mashg'ul edim; tuxtatib, katta deraza oldiga bordim. «Ko'rinmas odam bo'lib olishim mumkin!»— deb takrorladim men yulduzlar bilan qoplangan osmonga boqib.

Shunday qilish sehrgarlik va jodugarlikni yo'lda qoldirib ketish degan gap. Men har qanaqa shubha-gumonlardan batamom ozod holda ko'rinmaydigan bo'lish insonga nimalar baxsh etishi mumkinligi haqida muhtasham bir manzarani ko'z oldimga keltirdim. Bu sirlilik, qudrat, erkinlik edi. Biroq o'shanda men buning salbiy tomonlarini ko'rmabman. Uni qarang-a! Men, ya'ni viloyat kollejida ahmoqlarni o'qitadigan, ayanch, faqir assistent, har ishga qurbi yetadigan qudratli odamga aylanaman. O'zingiz ayting-chi, Kemp, mana mabodo siz... Ishoning, har qanday odam bu kashfiyotdan jon deb foydalangan bo'lardi. Yana uch iil ishladim, zo'r mashaqqatlar bilan bartaraf kilingan tusiq orqasidan yana boshqa biri paydo bo'lardi! Son-sanoqsiz ikir-chikirlar, buning ustiga-ustak bir daqiqa ham osuda dam yo'q! Qishloqi professor ketingdan surunkasiga ta'qib etgani etgan. Nuqul: «Hoy, siz qachon ilmiy ishingizni nashr ettirasiz?»—deb g'ing'illaydi, deng Ogudentlar-chi, muhtojlik-chi! Uch yil umrim ana shunday utdi... Men uch yilgacha yashirilib, tinimsiz bezovtalikda ishladim va nihoyat tajribamni tugallash mumkin emasligini angladim... tugallash mumkin emasdi...

— Nega endi?— so'radi Kemp.

— Pul... javob qildi Ko'rinmas odam va derazaga qaray boshladi.

— Birdaniga u shartta o'g'irildi.

— Shunda men cholimning — o'z otamning pulini o'g'irladim... Pul birovlariniki edi, otam o'zini-o'zi otib qo'ydi.

## **XX Bob**

### **Greyt-Portlend-stritdagi uyda**

Kemp bir minut chamasi deraza oldida turgan boshsiz jasadning orqasidan boqib indamay o'tirdi. Keyin qandaydir bir fikrdan cho'chib tushganday qaltirab ketdi-da, o'rnidan turib Ko'rinmas odamning qo'lidan tutdi va deraza oldidan nariga boshladi.

— Charchadingiz,— dedi u.

— Men o'tiribman, siz bo'lsangiz hadeb yuryapsiz. Mening kreslomga o'tiring.

O'zi esa Griffin bilan eng yaqin deraza o'rtasiga o'tirdi.

Griffin kresloga cho'kdi, bir nafas sukut saqlab, keyin yana tez-tez gapira boshladi: Bu voqea sodir bo'lganda men Chezilstoudagi kollej bilan xayr-ma'zur qilib bo'lgandim.

O'tgan yilning dekabr oyi edi. Men Londonning xilvat mahallasi Greyt-Portlendstritdagi qarovsiz qolgan ulkan uydan mebelsiz katta bir xonani ijaraga oldim. Sal kundan keyin xona

otamning pullariga sotib olingan xilma-xil apparatlar bilan to'ldi va men ishimni muvaffaqiyat bilan davom ettirib, maqsadimni amalga oshira boshladim. Men qalin o'rmondan chiqib qo'qqisdan bema'ni bir fojiaga aralashib qolgan odamga o'xshardim. Otamni dafn etish marosimiga bordim. Xayolim batamom tajribam bilan band edi, shu sababdan otamning obro'sini saqlay qolish uchun hech qanday harakat qilmadim. Dafn marosimi, arzon tobut, tepalikka kutarilaetgan g'aribona marosim va kishining suyak-suyagidan o'tib ketadigan izg'irin sovuq esimda... Otamning bir vaqtlar universitetda birga o'qigan o'rtog'i tumov kasaligid muhtalo bo'lgan, munkillab qolgan chol so'nggi rasm-rusumni qildi.

Qabristondan bir mahallarda qishloq bo'lib, endilikda naridan-beri kayta kurilgan va yamalib-yasqalib taaqara shahar shaklini olgan joydagi tashlandiq uyimga qaytib kelayotganim xotirimda. Qaysi yo'ldan yurma, hammasi atrofdagi o'ydim-chuqur qilib tashlangan dalalarga olib chiqardi-da, mayda shag'al va qalin o'sgan yovvoyi o'tlar orasida uzilib qolardi. Yaltirab turgan sirg'anchiq qora ko'laga bo'lib ketayotganim va u riyokor, qurmsoq shaharga o'zimdallaqanday begonalik sezganimni eslayman.

Otamning o'limi meni zarracha xafa qilgani yo'q. Menga u o'zining ahmoqona izzat-nafsining qurboni bo'lganday tuyulardi. Umum riyokorlik mening dafn marosimida ishtirok qilishimni taqozo etardi, aslida esa, bu narsaning menga uncha daxli yo'q edi.

Biroq ko'chada ketar ekanman, bir lahzagina o'tmishimni esladim. Men bundan o'n yil muqaddam menga tanish bo'lgan qizga duch kelib qoldim. Ko'zim ko'ziga tushdi...

Bilmadim, negadir, orqamga qaytib qiz bilan gaplashdim. Shunda uning oddiygina qiz ekani ayon bo'ldi.

Bu ko'hna ko'ltepada o'tkazgan kunlarim bamisoli tushga o'xshardi. O'sha mahalda men yolg'iz ekanim va tiriklar olamidanda o'lik sahroga tushib qolganimni anglamagan edim. Men atrofdagi borliqqa havasim qolmaganini payqardim, lekin buni hayotda umuman hech qanaqangi qiziqtiradigan narsa yo'qligidan deb bilardim. O'z xonamga qaytib borishim men uchun qaytadan haqiqiy hayotga etish degan gap edi. Bu yerda men biladigan va sevadigan hamma narsa, ya'ni apparatlar va tayyorlab qo'ygan tajribalarim bor edi. Deyarli barcha to'siqlar bartaraf etilgan, ayrim detallar ustidagina bosh qotirish qolgan edi, xolos.

Bir kunmas, bir kun bu juda murakkab proseslarni sizga batafsil hikoya qilib beraman, Kemp. Hozir tafsilotlar haqida gapirmay qo'ya qolaylik. Xotirimda saqlashni lozim topganim ayrim ma'lumotlarni mustasno qilganda, bularning ko'pchiligi daydi o'g'irlab ketgan daftarlarga shifr bilan yozilgan. Biz daydini tutishimiz kerak. O'sha kitoblarni qaytarib olmog'imiz lozim.

Asosiy masala sinish koeffisienti pasaytirilishi lozim bo'lgan shaffof predmetni nur sochib efir tebratuvchi ikki markaz (bu haqda men sizga keyinroq hikoya qilib beraman) orasiga qanday qilib joylashtirishdan iborat edi. Yo'q, bu rentgen nuri emas. Men aytayotgan nurlarni birov tavsif etganmi, yo'qmi, bilmayman. Lekin ular mavjud, bunda shak-shubha yo'q. Men arzon gaz dvigatel yordamida harakatga keltiriladigan ikkita chog'roq dinamomashinadan foydalandim.

Dastlabki tajribamni bir parcha oq jun mato ustida o'tkazdim. Bu yumshoq oq materiya bug oqimi singari asta-sekin yo'qolib, keyin tamomila ko'zdan g'oyib bo'lganini ko'rish nihoyatda g'alati edi!

Shu ishni uddalaganimga sira ishongim kelmasdi. Men bo'shliqqa qo'l uzatib, avval qanday bo'lsa, hozir ham shunday qalin bo'lgan materiyaning ushlab ko'rdim-da, uni beixtiyor tushirib yubordim. Materiya polga tushdi. Uni qidirib ancha ovora bo'ldim.

Keyin esa, ikkinchi tajribani qildim. Orqamda miyovlagan ovoz eshitdim. O'girilib qaradim va deraza orqasidagi tarnovda turgan ozg'in, o'lgiday irkit oq mushukka ko'zim tushdi. Miyamga lop etib bir fikr keldi. «Sen uchun hamma narsa tappa-taxt»,— dedim-da, derazani ochib, mushukni erkalab chaqirdim. Mushuk xurillab uyga kirdi. Sho'rlik ochdan o'layozgan ekan, unga sut ichirdim. Mening hamma oziq-ovqatim burchakdagi bufetda saqlanardi. Mushuk sutni ichib bo'lgach, bundan buyon makonim shu yerda bo'lar ekan-da, degan xayol bilan hamma burchaklarni iskab aylanib yurdi. Ko'rinmas mato uni ancha bezovta qildi — qanday pishqirganini bir eshitsangiz edi! Unga o'zimning buklama karavotimda yaxshilab joy qildim.

Cho'miltirishimga monelik qilmasin deb unga sariyog' berdim.

— Shunday qilib, uni tajribadan o'tkazdingizmi?

— Ha, lekin mushukka dori ichirish oson emas ekan, Kemp! Tajribam uncha muvaffaqiyatli chiqmadi.

— Uncha muvaffaqiyatli chiqmadi, deysizmi?

— Ikki punkt bo'yicha. Birinchidan, tirnoqlar, ikkinchidan esa pigment — otini esimdan chiqardim — mushuklar ko'zining orqa tomonida bo'ladi-yu, esingizdami?

— Ha, ha. Shu pigment yo'qolmadi. Men mushukni qonni rangsizlantiradigan dori bilan ukol qilib, boshqa har xil tadbirlarni ko'rganimdan keyin, unga opium berdim-da, yotgan yostig'i bilan birga apparat oldiga joylashtirdim. So'ngra mushukning butun a'zoyi badani g'oyib bo'lgach, ikkita kichkina-kichkina qora dog' — uning ko'zlari qoldi.

— Qiziq!

— Men buni tushuntirib berishdan ojizman. Albatta mushuk bint bilan o'rab-chirmab tashlangan bo'lib, uning qochib ketishidan qo'rqmasdim. Lekin u tajriba batamom bitmasdan uyg'onib ketib, zorlanib miyovlashga boshladi. Shundan so'ng oradan bir oz o'tgach, eshik taqillab qoldi.

Taqillatayotgan odam meni viveseksiya bilan shug'ullanadi deb shubhalanib yurgan, shu mushukdan bo'lak bisotida hech vaqosi bo'lmagan, pastki qavatda yashovchi aroqxo'r kampir edi. Men xloroformdan foydalanishga majbur bo'ldim. Mushukning ovozi o'chdi, men eshikni qiya ochdim. «Sizing uyingizda mushuk miyovlayaptimi?— so'radi kampir.

— Mabodo mening mushugim emasmi u?» «Yanglishibsiz, bu yerda hech qanaqa mushuk yo'q»,— deb javob berdim men muloyimlik bilan. Kampir gapimga uncha ishoninqiramadi va xonani ko'zdan kechirishga urindi. Mening xonam unga ancha ajib ko'ringan bo'lsa kerak, chunki unda sidirga devor, darpardasiz derazalar, buklama karavot, ishlab turgan gaz dvigatel, nur sochayotgan apparat va xloroformning miyaning gangitadigan nimtatir hididan bo'lak hech nima yo'q edi.

Shularni ko'rib qanoat hosil qilgan kampir qaytib ketdi.

— Bu tajriba uchun kancha vaqt kerak?— so'radi Kemp.

— Mushuk ustida qilingan tajribaga uch-to'rt soat sarf bo'ldi. Eng oxirida suyaklar, paylar, yog'lar va shuningdek, junlarning uchidagi ranglar g'oyib bo'ldi. Lekin, avval aytib o'tganimdek, ko'zlarining orqa tomonidagi rangdor modda yo'qolmadi.

Tajribani tugatgan mahalimda qosh qoraygan edi, ko'zlar va tirnoqlar o'rnida ko'zga chalinayotgan tumansimon dog'dan bo'lak hech nima ko'rinmasdi. Dvigatelni to'xtatib, hali uyqudan uyg'onmagan mushukni paypaslab siladim-da, bintlarni yechib, ko'rinmas yostiqa yotqizib qo'ydim, o'zim bo'lsam, qattiq horg'inlik sezib o'ringa cho'zildim. Biroq uxlay olmadim. Miyamda g'ira-shira poyma-poy fikrlar aylanardi. Men hozirgina o'tkazgan tajribamni barcha tafsilotlari bilan qayta-qayta xayolimdan kechirar yoki isitma bo'lgan kishiday bezovta uyquga ketardim, shunda menga tevarak-atrofimdagi narsalar g'ira-shira bo'lib ko'rinar, chaplashib ketardi, nihoyat, oyog'im ostidagi zamin ham yo'qolardi-da, alahlagan chog'da bo'lgani sing'ari allaqanday jarlikka qulab ketayotgandek bo'lardim... Kechasi soat ikkilar chamasida mushuk uyg'onib, zorlanib miyovlaganicha xonada zir yugura boshladi. Men shirin so'zlar bilan erkalab uni tinchitmoqqa urindim, keyin haydab yubormoqchi bo'ldim. Gugurt yoqib bo'shliqda, faqat bir juft ko'z chaq nab turganini ko'rganimda qanday esankirab qolganim sira esimdan chiqmaydi.

Jonivorga sut bermoqchi bo'ldim, biroq, uyda sut qolmagan ekan. Mushuk esa hali ham tinchimas, eshikning oldida o'tirib olib miyovlashda davom etardi. Men derazadan chiqarib yuborish uchun uni ushlab olishga urindim, lekin u tutqich bermay ko'zdan g'oyib bo'lardi. Uni miyovlashi xonaning goh u burchagida, goh bu burchagida eshitalardi. Oxirida derazani ochib, xonada u yoqdan-bu yoqqa yugura boshladim. Mushuk qo'rqqan bo'lsa kerak, sakrab derazaga chiqdi, shundan keyin uni ko'rganim ham, ovozini eshitganim ham yo'q.

So'ngra nima uchundir otamning dafn etilish marosimi, tepalik yonbag'rida esgan izg'irin shamolni esladim... Tong yorishguncha shunday holat davom etdi. Uxlay olmasligimga ko'zim

etgach, o'rnimdan turdim-da, eshikni qulflab, sokin tonggi ko'chalarda sayr qilgani chiqib ketdim.

— Nahotki siz hali ham olamda ko'rinmas mushuk aylanib yuribdi deb o'ylasangiz?— so'radi Kemp.

— Basharti uni o'ldirishmagan bo'lsa,— deb javob berdi Ko'rinmas odam.

— Xo'sh, nega yurmasin?

— Xo'sh, nega yurmasin?—takrorladi Kemp va uzr so'radi.

— Kechiring, gapingizni bo'ldim.

Uni o'ldirishgan bo'lsa kerak,— dedi Ko'rinmas odam.

— O'sha voqeadan to'rt kun keyin u tirik edi —buni men aniq bilaman: u Greyt-Tichfild-stritdagi devor ostida o'tirgan bo'lsa kerak, o'sha yerda bir to'da hangomatalab bekorchilar miyovlagan ovoz qayoqdan kelayotganini bilish uchun to'planib turishgan edi.

Ko'rinmas odam bir lahza jim bo'ldi, keyin yana tez-tez gapira boshladi:

— O'sha kuni ertalab ro'y bergan voqealar aniq esimda. Men Greyt-Portlent-stritni boshdan-oyoq kezib chiqdim chog'i. Nihoyat men Primrouz-Xill tepaligi ustiga chiqib qoldim; o'shanda o'zimni juda betob his qilardim. Yanvar oyi bo'lib, quyosh charaqlab nur sochardi; o'sha yili hali qor yogmagan bo'lsa-da, havo ancha ayozli edi. Men vaziyatni aniqlab olish va bundan keyingi ishlarim rejasini tuzish haqida horg'in bosh qotirardim.

Orzumga yetay degan mahalimda bu narsa meni sira quvontirmayotganiga ishonch hosil qilib ajablandim. Tinkamadorim qurigan edi, deyarli to'rt yil davomida dam olish nimaligini bilmay qattiq ishlash natijasida barcha sezgilarim zaiflashib qolgandi. Men juda loqayd bo'lib qoldim, dastlabki kunlardagi jo'shqin g'ayratim sovuqqonlik bilan almashindi, hatto otamni ham halok etishimda menga kuch bag'ishlagan ixtirochilikka bo'lgan zo'r intilishlarimni qaytarishga urinishlarim behuda ketdi. Hech narsaga qiziqmay qo'ydim. Lekin men buning qattiq ruhiy horg'inlik va uyqusizlik natijasida yuzaga kelgan vaqtincha holat ekani, dori-darmon yordam bermaganida ham, dam olish avvalgi gayratimni qaytarajagini anglardim.

Men faqat bir narsani bilardim: u ham bo'lsa, boshlangan ishni anjomiga yetkazish edi. Miyani band qilib olgan bir fikr menga sira tinchlik bermasdi. Bu fikrni iloji boricha tezroq amalga oshirmoq lozim edi, chunki deyarli hamma pulni sarflab qo'ygandim. Men chor-atrofimga alangladim, o'ynab yurgan bolalar va ularni kuzatib turgan enagalariga boqib, ko'rinmaslikning aql bovar qilmas darajada afzal ekanligini o'ylay boshladim. Uyga qaytdim-u, bir oz ovqat yeb, strixninning kattagina dozasini ichdim-da, yechinmay yig'ishtirilmagan o'ringa yotdim. Men sizga aytsam, Kemp, strixnin juda ajoyib, bardam qiladigan dori, u ruhan tushkunlikka yo'l qo'ymaydi.

— Nihoyatda o'tkir narsa,— dedi Kemp.

— U kishini ibtidoiy odamga aylantirib qo'yadi.

— Men kuchimga kuch qo'shilganini, shu bilan birga zardam qaynab ketayotganini sezib uyg'ondim. Shunday holatni bilasizmi?

— Ha, bilaman.

Birov eshikni taqillatdi. Bu do'q-po'pisa hamda so'rg'i-savol bilan kelgan uy egasi — egniga uzun kul rang syurtuk diyib, oyog'iga yirtiq-yamoq tufli ilib olgan polshalik kekxa yahudiy edi. Siz nega kechasi mushukni azobladingiz, deb so'radi u mendan; aftidan, kampir hamma gapni oqizmay-tomizmay unga yetkazgan bo'lsa kerak. U hamma ishni batafsil gapirib berishimni talab qildi. Viviseksiyani qonun qat'iy man etgan, sizning qatoringizda men ham javobgar bo'lib qolishim mumkin, derdi u nuqul. Men uyimda hech qanaqangi mushuk yo'q edi deb ta'kidladim. Shunda u dvigateldan chiqqan gazning hidi butun uyni tutib ketibdi dedi. Bu fikriga qo'shildim, albatta. U atrofimda girdikapalak bo'lib ichkariga kirishga urinar, ko'mush gardishli ko'zoynagi ortidan hadeb xonaga mo'ralardi, shunda sirimdan voqif bo'lib qolmasa go'rga edi, deb meni vahima bosib ketdi. Men u bilan apparat o'rtasida turib olishga shoshildim, lekin bu hol uning qiziqishini yanada kuchaytirib yubordi. Siz qanday ish bilan shug'ullanasiz? Nega hamisha yolg'izsiz va odamlardan yashirinib yurasiz? Mabodo birorta jinoiy ish bilan shug'ullanmaysizmi? Bu ishingiz xavfli emasmi ishqilib? Axir, siz oddiy ijara pulidan bo'lak



hech nima to'lamaysiz-ku. Mening uyim sha'niga sira dog' tushmagan, lekin qo'shnilarim o'z uylari haqida shunday deb aytisha olmaydi va hokazo deb vaysayverdi u nuqul. Nihoyat toqatim toq bo'ldi. Unga qani jo'nab qoling-chi, dedim. U e'tiroz bildirdi va xohlagan mahalida mening xonamga kirishga haqi bir ekani haqida allanimalar deb po'ng'illadi. Bir lahzadan keyin men uning giribonidan xippa bo'g'dim... Bir nima «parr» etib yirtildi-yu, u yo'lakka o'qday otilib chiqdi. Men uning ketidan eshikni taraqlatib yopib, qulfladim-da, a'zoi badanim qaltirab stulga o'tirdim.

Xo'jayin eshikning nariyog'ida yana bir oz shovqin-suron qildi, lekin men uning baqiriq-chaqirig'iga e'tibor bermadim.

Bu voqea meni qat'iy harakat etishga majbur qildi. Men uning nima qilmoqchi ekanini ham, nimalar qilish huquqiga ega ekanini ham bilmasdim. Boshqa kvartiraga ko'chib o'tish ishimni to'xtatib qo'yish degan gap edi, bankada esa, yigirma funtgina pulim qolgandi, xolos. Paysalga solish sira mumkin emasdi. G'oyib bo'lmoq kerak edi. O'zim ham shunday qilishni istardim. Biroq u mahalda tekshiruv-tergov boshlanar, xonamni talon-toroj qilgan bo'lardilar.

Kashfiyotimdan hammani xabardor qilishlari, bitay deb turgan ishimni to'xtatib qo'yishlari haqidagi fikrning o'zi g'azabimni qaynatib yubordi va g'ayratimga g'ayrat qo'shdi. Men o'z mushohadalarim yozilgan uch qo'l yozma kitobim bilan chek daftarchamni shoshilinch ravishda uydan olib chiqdim — hozir ularning hammasi anovi daydining qo'lida — va eng yaqin pochta bo'limidan Greyt-Portlend- stritdagi xatlar va posilkalarni saqlash kontorasiga yubordim. Men uydan iloji boricha sezdirmasdan chiqishga harakat qildim. Qaytib kelib, uy egasining zinapoyadan salmoqlanib chiqib borayotganini ko'rdim,— aftidan, u eshikni qulflaganimni eshitgan bo'lsa kerak. Uni zinapoya sahnchasida quvib etganimda, cholning qanday cho'chib tushganini ko'rsangiz, xaxolab kulib yuborardingiz. U menga deb qo'yguday bo'lib tikildi, lekin men parvo qilmay yonidan yugurib o'tdim-da, naridan-beri xonamga kirib, eshikni shunaqangi taraqlatib yopdimki, butun uy zilzila bo'lib ketdi. Men uning tuflisini shapillatib eshigim tagiga sudralib kelganini, u yerda bir nafas turib, so'ng yana pastga tushib ketganini eshitdimu, darhol tajribani o'tkazish harakatiga tushdim.

Tajribani o'sha kuni kechasi amalga oshirdim. Qonni rangsizlantirish uchun ichgan doridan miyam gangib yotgan mahalda, birov eshikni taqillatib qoldi. Keyin u odam nari ketdi-da, bir ozdan so'ng qaytib kelib, yana eshikni taqillata boshladi. U eshik ostidan nimanidir — allaqanday ko'k qog'ozni suqib kiritishga urinib ko'rdi. Sabr kosam to'lib toshdi, irg'ib o'rnimdan turdim-da, yugurib borib eshikni lang ochib yubordim, «Xo'sh, yana nima gap o'zi?»—deb so'radim undan.

Taqillatayotgan odam uyning egasi bo'lib, u meni uydan ko'chirish haqidami yoki boshqa shunga o'xshash narsa to'g'risidami povestka olib kelgan ekan. U menga qog'ozni uzatdi, lekin, nima sababdandir qo'llarim uni hayratga soldi chog'i, basharamga tikildi.

U bir minut chamasi og'zini ochganicha angrayib turdi, keyin allanima balolar deb qichqirib, qo'lidagi sham bilan qog'ozni tashlab yubordi-da, qoqilib-suqilib qorong'i koridordan zinapoyaga qarab ura qochdi. Men eshikni berkitib qulflagach, ko'zgu oldiga bordim, shunda uning o'takasi yorilgani sababini angladim. Rangim devorday oqarib ketgandi.

Lekin men shunchalik azob chekarman deb o'ylamagandim. Og'riqqa sira toqat qilib bo'lmasdi. Kechani nihoyatda zo'r azob chekib, goh ko'nghim aynib, goh hushdan ketib o'tkazdim. A'zoyi badanim o'tda kuyganday alanga otash bo'lib yonsa ham, tishimni tishimga qo'yib murdaday harakatsiz yotdim. Ana shundagina to xloroform iskatmagunimcha, mushuk sho'rlik nima uchun zorlanib miyovlaganini angladim. Baxtinga, xizmatkorim yo'q edi, bir o'zim yolg'iz yashardim. O'shanda yig'lagan, faryod chekkan, o'zim bilan o'zim so'zlashgan paytlarim ham bo'ldi. Lekin hamma azobga bardosh berdim... Hushdan ketdim va yarim kechaga borib o'lgiday zaiflashgan holda ko'zimni ochdim.

Endi ortiq og'riqni sezmasdim. O'layotibman deb o'yladim, lekin bunga juda loqayd qaradim. O'sha kungi tongni va shaffof qovoqlarimni yumib yotgan bo'lishimga qaramay, go'yo xira oynadan yasalib, kun yorishgan sari asta-sekin yanada xiralashib, ingichka tortib ketayotgan qo'llarim orasidan boqqanimda xonada sochilib yotgan narsalarning hammasini bemalol ko'rib

qanday dahshatga tushganimni umrbod unutmayman. Badanim oynadan yasalganga o'xshardi, suyaklarim va tomirlarim tobora rangsizlashib, yo'qolib borardi: eng oxirida ingichka nerv tolalari yo'qoldi. Men tishimni tishimga qo'yib oxirigacha toqat qildim... Endi, faqat rangsiz tirnoqlarimning uchi-yu, barmog'imdagi allaqanday kislotaning qo'ng'ir rangli dog'i qolgan edi, xolos.

Men zo'r-bazo'r o'rnimdan turdim. Avvaliga ko'zga ko'rinmas oyoqlarimni bosar ekanman, o'zimni atakchekchak bo'lgan bola singari nochor his etdim. Nihoyatda zaif va och edim. Odatda oldida o'tirib soqol-mo'ylovimni oladigai oyna yoniga bordimu, unda ko'zning to'r pardasidagi pigmentlarnigina ko'rdim. Men stolning chekkasidan ushlab, peshonamni oynaga qattiq tiradim.

Shundan so'ng butun irodamni ishga solibgina o'zimni apparat yoniga borishga va tajribani oxiriga etkazishga majbur qildim.

Ko'zimni yorug'likdan pana qilish uchun yuzimni choyshab bilan yopib kun yoyilib ketguncha uxladim; peshinga yaqin meni yana eshikning taqillashi uyg'otdi. Shunda ancha o'zimga kelganimni sezdim. Karavotga o'tirib quloq soldim va kimlarningdir pichirlab gaplashayotganini eshitib qoldim.

Irg'ib o'rnimdan turdim-da, ovoz chiqarmasdan apparatni qismlarga ajratib, tuzilishidan xabardor bo'lmasinlar uchun, ularni uyning burchak-burchagiga tiqishtira boshladim. Eshikning taqillashi yana takrorlandi, g'o'ng'illagan ovozlari eshitildi — avval uy egasining, keyin yana ikki notanish kishining tovushi keldi. Vaqtdan foydalanib qolmoq uchun javob berdim. Ko'zga ko'rinmas latta bilan, ko'zga ko'rinmas yostiq qo'limga ilindi, ularni derazadan qo'shni uyning tomiga tashladim. Derazani ochayotganimda eshik qattiq qarsillay boshladi. Aftidan, kimdir qulfni sindirmoqchi bo'lib, eshikni elkasi bilan itarmoqda edi. Lekin bundan bir necha kun burun qoqqan mustahkam tambalarim qilt etmay turardi. Biroq bu hol meni bezovta qilib, g'azabimni qo'zg'atdi. A'zoyi badanim qalt-qalt titragani holda jadallik bilan tayyorgarligimni tugata boshladim.

Polda sochilib yotgan xomaki yozuvlarim, ozroq poxol, narsa o'raydigan qog'oz va shunga o'xshash lash-lushlarni bir joyga yig'dim-da, gazni ochdim. Eshikka ketma-ket zarba tushaverdi. Shoshganda labbay topilmas, deganlaridek, gugurtning qayerdaligini unutibman. Achchig'im qistab devorni gursillatib mushtlay boshladim. Keyin gazni yopib qo'ydim-da, derazadan qo'shni uyning tomiga tushdim va romni ohista yopib, ko'zga ko'rinmasligim boisidan tamoman bexavotir, lekin g'azabga to'lgan, toqati toq bo'lgan holda o'tirdim. Men eshik taxtalari ko'chib tushgani, keyin tambaning kashaklarini chiqarib olishganini hamda xonaga uy egasi va uning ikki o'gay o'g'li — yigirma uch-yigirma to'rt yoshlardagi barzangi yigitlar kirganini ko'rdim. Ularning ortidan pastki qavatda yashaydigan shallaqi kampir pildillab kelardi. Ular xonadan hech kimni topolmay hayron bo'lishganini bir tasavvur qiling-a! Yigitlardan biri yugurib deraza oldiga keldi-da, uni ochib chor atrofga alanglay boshladi.

Ko'zlari chaqchaygan bu yigitning do'rdoq labli, sersoqol basharasi mendan ikki qarich narida turardi. Ahmoqning tumshug'iga yaxshilab bir musht tushirgim keldi-yu, lekin o'zimni tiydim. U yoniga kelgan boshqa sheriklariga o'xshab mening ko'rinmas gavdam orqali qarardi.

Chol xona o'rtasiga qaytib, karavotning ostiga qaradi, keyin ularning hammasi bufetga yopirilishdi. Shundan so'ng ular yahudiy lahchasi bilan London qasabalari shevasini aralash-quralash qilib sodir bo'lgan voqeani qizg'in muhokama qila boshlashdi. Ular bizning taqillatganimizga u javob bergani yo'q, balki bizga shunday tuyuldi chog'i, degan qarorga kelishdi. G'azabim o'rnini zo'r tantana egalladi: men derazaning orqasida o'tirar va u to'rt kishining harakatini beparvo kuzatar edim, kampir ham mening ishlarim haqidagi o'z gumoni to'g'ri ekanini aniqlamoq uchun go'sht o'g'irlagan mushuk singari olazarak bo'lib xonaga kirgandi.

Bu qo'sh tilli lahchadan anglashimcha, chol anovi shum kampirning viveseksiya bilan shug'ullanishim xususidagi fikriga qo'shilardi. O'gay o'g'illar esa, buzuq, ingliz tilida e'tiroz bildirishib, u elektrotexnik bo'lsa kerak, deb ta'kidlashar va fikrlarining isboti uchun dinamomashina va nur tarqatuvchi apparatni dalil qilib keltirishardi. Keyinchalik bilishimcha, ular tashqari eshikni qulflashgan bo'lishsa-da, hammasi mening qaytib kelishimdan qo'rqishgan

ekan. Kampir bufetning ichi va karavot ostini titkilab qarardi. Shu payt kvartirada birga yashaydigan qo'shnilarimizdan biri, ro'paramdagi xonada qassob bilan birga istiqomat qiladigan sayyor baqqol zinapoyada paydo bo'ldi. Uni ham xonaga chaqirishib, mening to'g'rimda kurakda turmaydigan gaplarni gapirishdi.

Miyamga, basharti apparatlarim farosatli va bilimdon mutaxassisning qo'liga tushguday bo'lsa, uni ko'p sirlardan ogoh qilishi mumkin, degan fikr keldi; shu sababli payt poylab turib, derazadan oshib tushdim-da, dinamo mashinalarni bir-biridan ajratdim va har ikki apparatni buzib tashladim. Qo'rquvdan xonadagilarning kapalagi uchib ketdi! Keyin to ular nima voqea yuz berganini tushunib yetgunlaricha xonadan sekingina chiqib, ohista pastga tusha boshladim. Mehmonxonaga kirib ularning qaytib kelishlarini kutib turdim; tez orada ular ham yuz bergan hodisa haqida bahslashishganicha pastga tushishdi. Hech qanaqangi «dahshat» topolmaganlari uchun boyaqishlarning hafsalasi ancha pir bo'lgandi, shu bilan birga qonun doirasida qanchalik to'g'ri harakat qilishganini bilolmay o'lgiday xijolatda edilar. Ular mehmonxonaga tushishlari bilanoq men bir quticha gugurt olib yana xonamga qaytib chiqdim-da, qog'oz va supurindilarni yoqib karavot va stullarni olov tomonga surdim, keyin egiluvchan trubka yordamida alangaga gazni to'g'rilab, xonam bilan vidolashdim.

— Uyga o't qo'yib yubordingizmi?—xitob qildi Kemp.

— Ha. Izni yashirmoqning birdan-bir vositasi shugina edi, uy esa shak-shubhasiz straxovanie qilingan... Men sekingina ko'cha eshikning tambasini ochib ko'chaga chiqdim. Men ko'zga ko'rinmasdim va bu holat menga qanday afzalliklar baxsh etishini endi-endi anglamoqda edim. Miyamda yuzlab dalil va aql bovar qilmaydigan rejalar paydo bo'lar va hech qanday javobgarlikka tortilmasligimni o'ylaganimda, quvonchdan boshim aylanib ketardi.

## **XXI Bob** **Oksford-stritda**

Birinchi daf'a zinapoyadan tushar ekanman, kutilmagan mushkullikka duch keldim: o'z oyog'ini ko'rmay yurish oson emas ekan, men hatto bir necha marta qoqilib ham ketdim. Bundan tashqari, eshikning tambasini ochmoqchi bo'lganimda, o'zimda g'alati bir uquvsizlik sezdim. Lekin yerga qaramay qadam qo'yganimdan keyin, tez orada tekis joyda bir qadar durust yura boshladim.

Avval aytib o'tganimday, dimog'im juda chog' edi. Men o'zimni ko'rlar mamlakatida yumshoq tufli va mayin kiyim kiyib yurgan ko'zi ochiq kishiday his qilardim. Nuqul odamlarga hazillashgim, ularni qo'rqitgim, kifllariga urib-urib qo'ygim, boshlaridan shlyapalarini uchirib yuborgim kelar, umuman g'ayri tabiiy fazilatimdan foydalannb lazzatlanishni istardim. Biroq Portlend-stritga chiqishim bilanoq (men katta gazlama magazini yonida yashardim) «jingir» etgan ovoz eshitdimu, orqamga bir narsa qattiq urilganini sezdim. O'girilib qaragam, yonimda qo'lidagi sodali suv solingan sifonlar to'la savatiga hayron bo'lib qaraganicha bir kishi turibdi. Elkam qattiq og'ridi, lekin haligi odamning qiyofasi shu qadar kulgili ediki, xaxolab kulib yubordim. «Savatda shayton bor»,— dedimu qo'qqisdan uning qo'lidan korzinani tortib oldim. U ham savatni hech qanday qarshiliksiz qo'yib yubordi, shunda men uni baland ko'tardim. Ammo shu mahal pivoxonaning oldida turgan bir kaltafahm izvoshchi yugurib kelib savatni tutib qolmoqchi bo'ldi va uning uzatilgan qo'li zarb bilan qulog'im ostiga kelib tegdi. Savatni tashlab yubordim. U sharaqa-shuruq qilib izvoshchining oyog'i ostiga tushdi. Do'konlardan odamlar yugurib chiqib, shovqin-suron ko'tarildi, izvoshlar to'xtab qoldi. Ana shundan keyingina nima qilib qo'yganimni angladim. Ahmoqona xatti-harakatimni la'natlab, bir do'konning derzasiga suyandimda, g'ovur-g'uvur qilayotgan olomon orasidan astagina chiqib ketish uchun qulay fursat kelishini kutib turdim, Agar sal kechikkanimda olomon orasiga tushib qolardim, ana shunda kishilar meni sezib qolishlari turgan gap edi. Men go'sht do'konidan chiqqan bolani chetga surib, yengilgina izvosh orqasiga o'tib bekindim. Baxtinga, bola kim turtib yuborganini sezmay qoldi.

Ular bu hodisaning chigalini qanday yechganlaridan bexabarman. Omadim kelib, ot-aravalar yurmayotgan ko'chani kesib o'tdim-da, hozirgina bo'lib o'tgan janjal-surondan yurak

oldirib qo'yganim uchun kechqurunlari xalq ko'p to'planadigan Oksfordstritga chiqqunimcha yo'l tanlamay jadallik bilan ketdim.

Bir ko'nglim olomonga qo'shilib ketmoqchi bo'ldim, lekin xalq juda tig'iz edi, oradan sal vaqt o'tgach, yo'lovchilar oyog'imni bosa boshladilar. Shunda yo'l chetidagi ariqqa tushdim. Oyoq yalang yurishga qiynalardim, bir minutchadan keyin yonimdan o'tib borayotgan karetaning shotisi ikki kuragim o'rtasiga — boya savat zarb bilan tekkan joyga urildi. Bir amallab o'zimni karetdan chetga oldim, jon achchig'ida harakat qilib bolalar aravachasini chetlab o'tdim-da, allaqanday yengil aravaning orqasiga bekinib oldim. Yaxshi bir fikr meni navbatdagi ko'ngilsiz to'qnashuvlardan saqlab qoldi: men sekin yurayotgan ana shu aravaning ketidan bir qadam ham orqada qolmay, izma-iz boraverdim. Sarguzashtlarimning bunday kutilmagan tus olishi meni vahimaga soldi. O'shanda men faqat vahimadangina emas, balki sovuqdan ham qaltirar edim, havo ochiq bo'lgan bu yanvar oqshomida men shir-yalang'och edim, tosh ko'chadagi yupqa loy qatlami deyarli yaxlab qolgandi. Naqadar ahmoqona bo'lsa-da, ko'rinamanmi yoki yo'qmi — lekin men har qalay ob-havo ta'sir etadigan va shamollashi mumkin bo'lgan tirik jon ekanimni unutgan ekanman.

Shu payt miyamga ajoyib bir fikr keldi. Men oldinga yugurib o'tdim-da, aravaga chiqib oldim. Sovuqdan dag'- dag' qaltirab tumovning dastlabki belgilaridan vahimaga tushganimcha, kuragim ostidagi shilingan joylarning alami tobora kuchayib borayotganini his etib, Oksfort-strit va undan naridagi Totenxem Kort-roud degan kuchalardan aravada sekin borardim.. Endi mening ko'rinmas bo'lib olgandagi ahvolim! Miyamda faqat bir fikr bor edi: nuqul tushib qolgan bu rasvo ahvolimdan qanday qilib qutulsam ekan deb o'ylardim.

Biz imillab kitob magazini oldidan o'tardik; shu payt bir dasta sariq muqovali kitob ko'targan baland bo'yli bir xotin aravakashni chaqirib qoldi, men aravadan tushib olishga arang ulgurdim, o'shanda konka vagani ostiga kirib ketishimga sal qoldi. Men kam qatnov kvartallarga chiqib olish uchun muzeyning orqasidan shimol tomonga burilmoqchi bo'lib, Blumsberi-skverga qarab jo'nadim. Qattiq sovqotgandim, ahvolimning bema'niligi shu qadar siqardiki, yo'l-yo'lakay piqillab yig'lardim. Blumsberi-skver muyulishida Farmasevtika jamiyati idorasidan bir oq kuchuk yug'urib chiqdi-yu, darhol yerni iskab orqamdan quva boshladi.

Ilgarilari itning burni odamning ko'ziday gapligi sira xayolimga kelmagan ekan. Inson harakatni ko'zi bilan ko'rsa, it uni iskab topar ekan. Razil maxluq mening borligimdan xabardor ekanini yaqqol namoyish qilib atrofimda irg'ishlab akillay boshladi. Men hadeganda o'girilib qarab, Greyt-Rassel-stritni kesib o'tdim-da, Montegyustritning ichkarisiga kirganimdan keyingina ro'paramdan nima kelayotganini payqab qoldim.

Qulog'imga gumburlagan muzika sadosi eshitildi, men Rassel-skver tomonidan kelayotgan katta olomoni — qizil kurtka kiygan odamlar va oldinda hilpirayotgan Xaloskorlar armiyasi bayrog'ini ko'rdim. Ko'chani tutib ketgan shunday tig'iz olomon orasidan o'ta olishimga ko'zim etmasdi, orqaga qaytib, shaharning yanada chekkarog'iga chiqib ketishga esa, yuragim dov bermasdi. Shuning uchun o'sha yerning o'zidayoq bir qarorga keldim: darhol muzey panjarasining ro'parasidagi oq uyning kiraverishidagi zinapoyasiga yugurib chiqdim-da, olomon o'tib ketishini kutib turdim. Baxtinga, kuchuk muzikani eshitib akillashdan to'xtadi-da, bir nafas taraddudlanib turdi, keyin dumini qisib orqaga, Blumsberi-skverga qarab yugurib ketdi.

Olomon ovozini barala qo'yib menga kesatq qilayotganday «Qachon musharraf bo'lgaymiz yuzin ko'rishga?»—degan gimini kuylaganicha yaqinlashib kelardi. Kishilar nihoyatda ko'p bo'lib, hadeganda olomonning keti uzilmasdi. Barabanning tinmay gumburlashiga mahliyo bo'lib yonimga ikki bola kelib to'xtaganini payqamay qolibman. «Qaragin»,— dedi ulardan biri. «Nimaga qaray?» so'radi ikkinchisi. «Oyoq izi. Xuddi birov yalang oyoq loy kechib yurganga o'xshaydi».

Men yerga boqib bolalar ko'zlarini baqraytirganlaricha yangigina oqlangan zinapoyada oyog'imdan qolgan irkit izlarni ko'zdan kechirishayotganini ko'rdim. O'tkinchilar bolalarni ayamadan turtib o'tishar, biroq ular bunga parvo ham qilmay, o'z kashfiyotlariga mahliyo bo'lib, mening yonimda turishardi. «Gum, gum, gum, «Qachon, gum, musharraf bo'lgaymiz, gum,

uning yuzini ko'rishga, gum, gum...» «Rostdan aytyapman, allakim oyoq yalang shu zinapoyaga chiqibdi,— dedi bolalarning biri.— Lekin pastga qaytib tushmabdi, oyog'idan qon ham oqibdi».

Marosim ko'zdan olislashib borardi. «Anovini qara, Ted, anovini qara!» deb qichqirdi, o'tkir ko'zli izquvarlarning kichkinasi, nihoyatda ajablanib, mening oyog'imni ko'rsatarkan. Men pastga qaradimu, loy hoshiyaga o'ralib, zo'rba-zar ko'zga chalinayotgan oyog'im shaklini ko'rdim. Bir daqiqa tirrakday qotib qoldim.

«Voy-bo'!— xitob qildi bolalarning kattasi.— Bu jula ajoyib-ku! Xudo haqi, bamisoli ajinaning o'zi-ya!» Bir oz ikkilanib turganidan keyin u menga yaqinroq kelib, qo'lini uzatdi. Bu bola nimani ushlab olmoqchi bo'lyapti, deb bir o'tkinchi ularning yonida to'xtadi, keyin ularga yana bir qiz kelib qo'shildi. Bir sekunddan keyin bola oyog'imni ushlagan bo'lardi. Shunda men endi nima qilishim kerak ekanini payqadim. Oldinga bir qadam qo'ydimu, bola chinqirib o'zini bir chetga oldi, jadallik bilan panjara ustidan oshib qo'shni uy oldidagi zinapoyaga o'tdim. Biroq bolalarning kichigi mening harakatimni payqab qoldi, men yo'lkaga tushishga ulgurmasimdan! U bir daqiqalik esankirashdan o'zini o'nglab «oyoqlar panjaradan oshib tushdi», deb baqira boshladi.

Hamma bola ko'rsatgan tomonga yugurdi-yu, zinapoyaning pog'onalari va pirtoval bo'ylab yashin tezligida yangidan- yangi izlar paydo bo'layotganini ko'rdi.

«Nima gap?» so'radi kimdir: «Oyoqlar! Qaranglar, oyoqlar yugurib ketyapti!» Meni ta'qib yetayotgan uch kishidan tashqari butun xalq Xaloskorlar armiyasi ketidan shoshilardi, bu odamlar oqimi menigina emas, balki ta'qib etayotganlarni ham yugurishga qo'ymasdi. Chor atrofdan savollar yog'ilar va qayrat nidolari eshitalardi. Men bir o'spirin bolani yiqitib yubordim-da, so'ng Rassel-skver atrofini aylanib qochdim, ajablangan o'tkinchilardan olti yoki yetti kishi izimdan tushdi. Baxtinga, nima gap ekanini bir-biriga tushuntirishga ularning vaqtlari yo'q edi, aks holda butun xaloyiq meni ta'qib etgan bo'lardi.

Ikki marotaba boshqa yoqqa burildim, uch marotaba ko'chani kesib o'tib, yana o'sha yo'l bilan orqamga qaytdim. Oyoqlarim isib, loylari quridi va endi ortiq ho'l iz qoldirmaydigan bo'ldi. Nihoyat, qulay fursat topib, oyoqlarimni qo'llarim bilan tozalab artdim va shu yo'l bilan tamomila ko'zdan yashirindim. Ta'qib etuvchilarni so'nggi daf'a ko'rganimda, ulardan o'n chog'li kishi bir erga g'uj bo'lishib Tevistok-skverda ko'lmakka botgan oyoqlarimdan qolgan izni — Robinzon Kruzo ko'rib qolgan izga o'xshash sirli izni hayratdan dong qotib ko'zdan kechirishardi.

Yuguraverib badanim bir qadar isidi va men kayfim sal joyiga tushgan holda kam qatnov qing'ir-qiyshiq ko'chalardan keta boshladim. Elkam og'rirdi, izvoshchi qulochkashlab tushirgan qulog'imning osti bezillardi, uning tirnog'i terimni shilib yuborgandi, oyoqlarim qattiq og'rir va tovonimning nimadir kesib yuborgani sababli oqsoqlanardim. Ro'paramdan bir so'qir kishi kela boshladi, lekin men o'z vaqtida uni payqab qolib, uning qulog'i sal narsani eshitishidan vahimaga tushdim-da, darhol o'zimni chetga oldi! Men bir necha bor tasodifan o'tkinchilarga urilib ketdim, ular qayoqdan eshitilayotgani ma'lum bo'lmagan so'kinishdan dovdirashib to'xtab qolishardi. Keyin esa, basharamga allaqanday yumshoq narsa qo'nganini payqadimu, pag'a-pag'a qor yog'ayotganini ko'rdim. Shamollab qolgan bo'lsam kerak, tez-tez aksira boshladim. Yo'lda duch kelgan har bir it tumshug'ini cho'zganicha oyog'imni iskab, o'takamni yorardi.

Keyin yonimdan bir odam yugurib o'tdi, uning ortidan ikkinchisi, uchinchisi yugurdi, bir daqiqadan keyin esa, kattalar va bolalardan tashkil topgan butun boshli bir olomon meni quvib o'ta boshladi. Ular o't tushgan yerga — yaqinginada men yashagan uy tomon yugurishardi. Tor ko'chaga mo'ralab, tomlar va telefon simlari ustidan ko'kka ko'tarilayotgan quyuk tutunga ko'zim tushdi. Kvartiram yonayotganiga shubha qilmasdim; meni Greyt-Portlend-stritda kutayotgan chek daftarcham va ilmiy mulohazalarim yozilgan uch qo'l yozma kitobdan tashqari barcha kiyim-kechaklarim, apparatlarim va boshqa buyumlarim o'sha yerda edi. Endi sirayam orqaga qaytolmasdim. Butun uy alangalanib yonmoqda edi.

Ko'rinmas odam jim bo'lib o'ylanib qoldi. Kemp bezovtalanib derazaga boqdi.

— Xo'sh, keyin nima bo'ldi?—dedi u.

— Davom eting.

## XXII Bob

### Universal magazinda

Shunday qilib, yanvar oyidagi qor va bo'ronda - meni qor qoplaguday bo'lsa, darhol kurinib qolardim \_ xoogin tumovga duchor bo'lgan, a'zoyi badanim qaqshab og'riyotgan, tasvirlab bo'lmaydigan darajada baxti qora .. .ko'zga ko'rinmasligimning afzalligiga hali ishongan holda o'z boshimga balo qilib olgandim. Menda na boshpana, na tirikchilik uchun mablag' va na e'timod qilishim mumkin bo'lgan bironta do'st bor edi. Sirni ochish - kelajak uchun tuzgan katta rejalarimdan voz kechish degan gap edi: unda meni antiqa bir narsa sifatida xalqqa ko'z-ko'z qilishgan bo'lardi, xolos. Shundan bo'lishiga qaramay, o'tkinchilardan birining oldiga borib, marhamatiga sig'inishimga sal qoldi. Lekin bundai xatti- harakatim qanday dahshat va qanday ko'z ko'rib, quloq eshitmagan beshafqatlik uyg'otishini juda yaxshi tushunardim. Hozircha yangi rejalar qurishga majolim ham yo'q edi. Fakat qordan yashirinish, kiyim-kechak topish va isinishni o'ylardim, ana o'shanda kelajak haqida uylash ham mumkin bo'lardi. Biroq hatto men, Ko'rinmas odam ham London uylarining berk eshiklariga yaqin yo'lamoqdan ojiz edim.

O'sha mahalda qarshimda faqat bir narsani aniq ko'rdim: u ham bo'lsa, sovuq, boshpanasizlik, kechasi qor bo'ronda chekajak azobim edi. Shunda daf'atan miyamga ajoyib bir fikr keldi. Men Gauer-stritdan Totenxem Kort-roudga olib boradigan ko'chaga burilib, «Otpsht» degan ulkan magazin oldidan chiqdim, bilasiz-ku, u yerda hamma narsa: go'sht-yog', baqqollik mollari, ich kiyimlar, mebel, kiyim- kechak, hatto suratlar bilan ham savdo qilishadi. U magazindan ko'ra ko'proq har turli do'konlardan tashkil topgan bahaybat rastaga o'xshab ketadi.

Magazikning eshiklari ochiq bo'lsa kerak deb umid qilgandim, lekin ular yopiq ekan. Nima qilarimni bilmay turgan vaqtimda u yerga bir foytun kelib to'xtadi, shunda «Omnium» deb yozilgan furajka va livreya kiygan darvozabon darvozani lang ochdi. Men sekingina ichkariga kirib oldim, birinchi xonadan o'tib (bu lentalar, qo'lqoplar, paypoqlar va shunga o'xshash maydachuydalar bo'limi edi), korzinkalar va to'qima mebellar sotiladigan yanada kengroq xonaga kirdim.

Biroq men o'zimni tamomila xavf-xatardan xoli, deb his etmasdim, chunki bu yerda ham xaridorlar g'ujg'on o'ynashardi. Yuqori qavatdagi hamma yog'iga karavotlar taxlab tashlangan katta zalni topib olgunimcha, magazinda aylanib yurdim. Bu yerda men nihoyat, baland qilib qalashtirib tashlashgan to'shaklar uyumidan o'zimga boshpana topdim. Magazinning chiroqlarini yoqishgan bo'lib, bu yer anchagina issiq edi, men shu topgan boshpanamda qolmoqqa jazm qilib, mebel bo'limida yurgan gumashtalar va xaridorlarni diqqat bilan kuzatganimcha, magazinni yopadigan paytni kuta boshladim. «Hamma ketganidan keyin,— o'ylardim men,— o'zimga ovqat, kiyim-kechak topaman, magazinni aylanib, tekshiraman, hatto karavotlardan birida miriqib uxlab olsam ham bo'ladi». Bu planim amalga oshishi mumkinday ko'rinardi.

Kiyim-bosh olib, unga o'ralib olgan, lekin har qalay unchalik shubha uyg'otmaydigan bir odamga aylanishni, pul topib chek daftarim va qo'l yozma kitoblarimni pochtaxonadan olishni hamda biror yerdan ijara joy topib, ko'zga ko'rinmasligimdan qanday foydalanish rejasini tuzib chiqmoqchi bo'ldim.

Oradan ko'p o'tmay magazin bekiladigan vaqt ham bo'ldi; to'shaklar uyumi orasiga kirib olganimdan so'ng bir soat o'tmasdanoq darpardalarini tushirib, xaridorlarni chiqarib yuborisha boshlashdi. Keyin bir talay epchil yigitchalar peshtaxtalar ustida tartibsiz ravishda qalashib yotgan mollarni tezlik bilan yig'ishtirishga kirishdilar, Olomon bir oz siyraklashgach, boshpanamni tashlab, ehtiyotkorlik bilan magazinning markaziy qismlariga yo'l oldim. Bir gala yigit va qizlar kunduzi sotish uchun qo'yilgan barcha mollarni naqadar tezlik yig'ishtirib olayotganlarini ko'rib hayron bo'lib qoldim. Barcha faner qutilar, gazlamalar, turli-tuman to'rlar, qandolaturushlik bo'limidagi shirinliklar solingan yashiklar, peshtaxtaga yoyib tashlangan har turli buyumlarning barini yig'ishtirib, o'rab-chirmab saqlash xonasiga olib kirishar, yig'ishtirish va yashirish mumkin bo'lmagan narsalarni esa, allakanday dagal matodan tikilgan jild bilan quyishardi. Nihoyat barcha stullar peshtaxta ustiga terib qo'yilgach, polda hech nima qolmadi, ishlarini tugatib magazindan chiqib ketayotganlarida shunday quvondilarki, gumashtalarning

bunaqangi quvonganini sira ko'rmagan edim. Keyin bir to'da o'smirlar qipiq, chelak va supurgi ko'tarib kirishdi.

Men o'zimni ulardan olib qochishga qanchalik urinmay, baribir qipiqlar oyog'imga kelib tegardi. Bo'shab qolgan qorong'i xonalarda kezib yurar ekanman, ancha mahalgacha cho'tkalarining polga urilib shaqirlaganini eshitib turdim. Nihoyat, magazin yopilgandan keyin bir soatdan mo'lroq vaqt o'tgach, qulog'imga eshiklarni qulflashayotgani eshitildi. Jimlik cho'kdi va hayhotday magazinning xona va yo'laklarida yolg'iz o'zim qoldim. Hammayoq suv quyganday jimjit edi: magazinning Totenxem Kort-roud tomondagi eshigi oldidan o'tarkanman yo'lovchilarning oyoq tovushlarini eshitganim esimda.

Hammadan burun men paypoq va qulqoplar bo'limiga bordim. Qorong'ida kichkina yozuv stolining tortmasini axtarib zo'r-bazo'r gugurt topdim. Endi sham ham topish lozim edi. Yashiklar va korobkalarining qopqog'ini ko'chirib, ularning ichini titkilashga to'g'ri keldi, nihoyat shamni topdim: u ustiga «Shimlar va fufaykalar» deb yozib qo'yilgan qutining ichida yotgan ekan. Keyin paypoq, jundan to'qilgan qalin sharf oldim, so'ng tayyor kiyimlar bo'limiga chiqdim-da, u yerdan shim, mayin kalta kameul, palto va ruhoniylar kiyadiganga o'xshash keng soyabonlik shlyapa oldim. Shundan keyin o'zimni yana odamdek his qildimu, darhol qornim ochligini esladim.

Yuqori qavatda tamaddixonada bor ekan, o'sha yerdan yaxshi go'sht topdim. Choynakda jinday kofe qolgan ekan, gazni yoqib uni isitdim. Qisqasi, ancha o'zimga keldim. Keyin odeyal axtarib (oxirida bir necha par to'shak bilan qanoatlanishga to'g'ri keldi), qandolatifurushlik bo'limiga kirib qoldim, bu yerda bir talay shokolad va shakar-qiyomga solingan mevalar (ulardan ko'p yeb qo'yib, naq bo'kib qolayozdim) va bir necha shisha burgund vinosi topdim.

Qandolaxona yonida o'yinchoqlar bo'limi joylashgan ekan, ana o'sha yerda xayolimga ajoyib bir fikr keldi: men bir nechta sun'iy burun topdim (bilasizmi, pape-mashedan yasalgan burunlar) va shu zahoti qora ko'zoynak haqida o'ylab qoldim. Baxtga qarshi, bu magazinda optik bo'lim yo'q ekan. Lekin burun men uchun juda muhim edi-da; avvaliga hatto grim to'g'risida ham o'ylab ko'rdim. Sun'iy burun topganimdan so'ng parik, maska va boshqa narsalar haqida xayol surib ketdim. Nihoyat, issiqqina va mayin par to'shaklar ustida uxlab qoldim.

Shu g'ayri tabiiy o'zgarishga uchraganimdan beri o'zimni hali biror martaba ham shu kuni kechqurun uyquga ketayotganimdagiday yaxshi his qilmagan edim. Men tamomila xotirjam edim va endi ishlarimning yurishib ketishiga ishonardim. Ertalab kiyingan va yuzimni oq sharf bilan yashirgan holda hech kimga sezdirmay chiqib ketaman, keyin o'g'irlagan pulimga qora ko'zoynak olaman va shunday qilib barcha anjomim taxt bo'ladi deb o'ylardim. Kechasi keyingi bir necha kun ichida boshimdan o'tgan barcha ajoyib hodisalar aralash-quralash bo'lib tushimga kirdi. Tushimda uyimning egasi bo'lmish yahudiyni, uning dovdirab qolgan o'gay o'g'illarini, mushugini so'rab kelgan kampirning bujmaygan basharasini ko'rdim. Keyin tug'ilib o'sgan shaharcham va otamning qabri ustida «tuproqdan yaratilgan eding, yana tuproqqa kirasan»... deb tumov bo'lib qolganidan ming'illab oyat o'qiyotgan keksa vikariyni ko'rdim.

«Sen ham»,— dedi allakimning tovushi va birdaniga meni qabrga sudrab qolishdi. Men o'zimni qutqarishga urinar, baqirar, go'rkovlarga yalinib-yolvorardim, lekin ular churq etmay janozaga quloq solishardi; keksa vikariy ham to'xtalmasdan bir maromda janoza o'qir, faqat aksirgan mahalidagina o'qishdan to'xtardi. Meni ko'rmasliklarini ham, ovozimni eshitmasliklarini ham bilar va batamom meni mag'lub etgan kuchlar hukmida ekanimni anglardim. Jon-jahdim bilan qarshilik ko'rsatishimga qaramay, meni gurs etib qabrga, tobut ustiga tashladilar-da, keyin ustimdan tuproq torta boshladilar. Hech kim meni payqamas, hech kimsa mening mavjud ekanimni xayoliga keltirmasdi. Jon holatda tipirchilab, uyg'onib ketdim.

Londonda bo'ladigandek, osmon xiralashib tong otmoqda edi, deraza pardalari orasidagi tirqishlardan ichkariga sovuq kul rang yorug'lik kirardi. O'rnimdan turib o'tirdim-da, peshtaxta va temir ustunlar qatorlashib ketgan, to'p-to'p gazmol va to'da-to'da ko'rpa-yostiqlar uyulib yotgan bu ulkan imoratning qanaqa joy ekanini ancha mahalgacha tushunolmay turdim. Keyin hammasi esimga tushdi. Shu payt kimlarningdir ovozini eshitdim.

Olisdan darpardalarni ko'tarishgani sababli yorishib ketgan xona tomondan ikki kishi menga yaqinlashib kelardi. Men qayoqqa yashirinsam ekan, deb irg'ib o'rnimdan turdim, ana shu harakatim meni ularga sezdirib qo'ydi. Ular faqat jadal uzoqlashib borayotgan ko'lagani sezib qolishda deb o'yladim. «Kim bor bu yerda?»—deb baqirdi ulardan biri. «To'xta!»—deb qichqirdi ikkinchisi. Muyulishda burilib, o'n beshlarga kirgan ozgin o'spirin bolaga duch kelib qoldim.

Yigitcha chinqirib yubordi, axir, men boshsiz jasad edim-da. Men uni urib ag'dardimu, oldinga tashlanib yana muyulishga burildim, shunda miyamga bir yaxshi fikr keldi: peshtaxta orqasiga uzala tushib yotib oldim. Oradan bir minut chamasi vaqt o'tgach, yugurib kelayotgan odamlarning oyoq tovushlarini eshitdim, har tomondan: «Eshiklarni qulflanglar!» «O'zi nima gap?»—degan ovozlari eshitalardi va meni qanday qilib qo'lga tushirish haqida maslahatlar yog'ila boshladi.

Men qo'rqqanimdan jonim halqumimga kelib, polda cho'zilib yotardim. Qizig'i shundaki, o'sha mahalda kiyimlarni yechib tashlash sira esimga kelmabdi, aslida shunday qilish oppa-oston edi. Men kiyinib chiqib ketmoqchi bo'lgandim, ana shu fikr miyamga qattiq o'rnashib qolgan bo'lsa kerak. Keyin peshtaxtalar orasidagi uzun yo'lakdan «Ana u!» degan hayqiriq eshitildi.

O'rnimdan sakrab turdimu, peshtaxta ustidan bir stulni olib «Ana u» deb qichqirgan o'sha ahmoqqa qarab otdim, keyin yugurib ketdim. Muyulishda boshqa bir kishiga duch keldim-da, uni ham uloqtirib yuborib zinapoyadan yuqori qavatga tashlandim. Zinapoyaning tepasiga rang-barang qilib naqshlangan sopol idishlar qalashtirib qo'yilgan ekan, oti bir balo edi-ya, esingizda yo'qmi?

— Gultuvaklar,— eslatdi Kemp.

— Ha, ha, gultuvaklar. Yuqori pog'onada to'xtadim-da, orqamga o'girilib, o'sha gultuvaklardan birini oldimu, orqamdan quvib kelayotgan ahmoqning kallasiga qarab otdim.

— Hamma gultuvaklar ag'darilib ketdi, qiy-chuv ko'tarildi, har tomondan magazin xodimlari yugurib kela boshladilar. Men oyog'imni qo'limga olib tamaddixonaga qarab yugurdim. Lekin u yerda oq xalat kiygan, oshpazga o'xshash bir odam bor ekan, u ham mening ketimdan quva ketdi. So'nggi kuchimni to'plab shartta o'girildim-da, lampa va temir-tersaklar bo'limiga kirib oldim. Peshtaxta orqasiga o'tib, uni kutib turdim. Oshpaz olomon oldida ko'rinishi bilan, unga lampa otdim. U ag'darilib tushdi, men bo'lsam peshtaxta orqasida engashib turib, shosha-pisha kiyimlarimni yecha boshladim. Kalta kamzul, shim va boshqa hammasi osongina yechildi, lekin qurib ketgur fufayka bamisoli teringga yopishib qolganday bo'ladi. Oshpaz zarbadan gangib qolibmi yoki qo'rqqanidan hushini yo'qotibmi peshtaxtaning narigi tomonida harakatsiz yotardi, lekin men yana oyoqlarning tapir-tupurini eshitdim, ta'qib etuvchilar yaqinlashib kelmoqda edi, shunda bamisoli butalar orasidan quyvon singari yana oyog'imni qo'limga olib qochishga majbur bo'ldim.

— «Polisiyachi, bu yoqqa yuguring!» qichqirdi kimdir. Men yana mebel bo'limiga kirib qolgandim, uning narigi boshida qator bo'lib kiyim shkaflari turardi. Men ana shu shkaflarning qoq o'rtasiga kirib polga yotdim-da, ilonbaliqday to'lg'anib, nihoyat fufaykani yechib tashladim.

Muyulishdan polisiyachi bilan magazinning uch xodimi ko'ringan mahalda, men qip-yalang'och bo'lib, nafasim og'zimga tiqilganicha, qo'rqqanimdan dag'-dag titrab turardim. Ular jiletka va kalsonga tashlanishdi, shimga yopishishdi. U o'ljasini tashlabdi,— dedi gumashtalardan biri.

— O'zi shu yaqin o'rtada bo'lishi kerak».

— Biroq ular meni topisha olmadi.

Ular meni qanday axtarayotganlarini ko'rib, ishim yurishmagani uchun taqdirni la'natlab turardim, chunki kiyim-kechakdan mahrum bo'lgandim-da, axir. Xonaga borib ozroq sut ichdim va kamin oldida o'tirib ahvolim haqida o'ylay boshladim.

Tez orada bu yerga ikki gumashta kelib, bo'lib o'tgan hodisani qizg'in muhokama qila boshladi. Ular o'rni tagida yo'q, g'irt yolg'on gaplarni gapirishdi! Men yetkazgan zararlar haqida zo'r mubolag'a bilan so'zlashib, qayerga yashiringanim to'g'risida turli-tuman gumonlar qilishdi.

Keyin yana bundan buyon qiladigan ishlarim rejasi haqida bosh qotira boshladim. Hozirgina bo'lib o'tgan to's-to'polonlardan so'ng magazindan biror narsani olib ketish amri mahol



edi. Buyumlarni o'rab-chirmab, keyin jo'natishning iloji yo'qmikin, deb pastdagi skladga tushdim, lekin ularning kontrol sistemasini tushuna olmadim. Ertalab soat o'n birlarda magazinda ortiq qolishga hech qanday ma'no yo'q degan fikrga keldim-da, qor yerib havo kechagidan iliqroq bo'lgani uchun ko'chaga chiqdim. Ishim yurishmaganidan qattiq umidsizlikka tushdim.

### **XXIII B O B**

#### **Drurn-Leynda**

— Ana endi siz mening vaziyatim qanchalik mushkul ekanini tasavvur eta olasiz,— deb so'zida davom etdi Ko'rinmas odam.

— Na boshpanam, na kiyim-boshim bor edi. Hech narsa yemasdim, chunki ovqatlanish, ya'ni qornimni shaffof bo'lmagan narsalar bilan to'ldirish juda tasqara ravishda ko'zga ko'rinadigan bo'lib qolish degan gap edi.

— Bu xususda o'ylamagan ekanman,— dedi Kemp.

Ha, o'shanda men ham o'ylamagandim. Qor esa menga boshqa bir xavf-xatar ham bor ekanini anglatdi. Qor yog'ib turgan mahalda uydan eshikka chiqa olmasdim, chunki u ustimni qoplab ko'zga ko'rinadigan qilib qo'yardi. Yomg'ir ham odamning yaltiroq tarxini chizib, mavjud ekanimni oshkor qilardi. Tuman-chi? Tumanda ham xira ko'pik ho'l odam qiyofasiga kirgan bo'lardim. Bundan tashqari London havosida ko'chalarda sanqib yurgan mahalimda oyog'imga loy yopishar, badanimga chang-to'zon va qurumlar qo'nardi. Loy meni qachon qo'lga tushirib berishini bilmasdim. Lekin gap London haqida borayotgani sababli, shunday vaqtning yaqinlashib qolganini anglardim. Men Greyt-Portlend-strit rayonidagi xaroba joylar tomon yurib o'zim yashagan ko'chani oxiridan chiqib qoldim. U ko'chadan yurmadim, chunki men o't qo'yib ketgan uyning tutab yotgan vayronalari oldida katta olomon to'plangandi. O'zimga yengil-bosh topishim kerak edi. Yuzimni nima bilan yashirishni bilmasdim.

Shunda dunyoda bor narsalarning hammasi bilan: gazetalar, qandolat, o'yinchoqlar, yozuv asboblari, archa bezaklari va hokazolar bilan savdo qiladigan bir do'konga ko'zim tushdi; vitrinada maskalar va burunlardai butun boshli bir vistavka yasab qo'yilganini ko'rdim. Bu «Otplish» magazinidagi qo'g'irchoqlarni ko'rganimda miyamga kelgan fikrlarni eslatdi. Men aniq bir maqsad bilan orqaga qaytdim va serqatnov ko'chalarni chetlab o'tib, Strendning shimol tomonidagi xilvat kvartallarga qarab jo'nadim, chunki shu yerlarning allaqaysi bir joyida teatr buyumlarini sotadigan bir qancha do'konlar bor, deb eshitgan edim.

Kun sovuq bo'lib, shimoldan izg'irin shamol esardi. Orqamdan kelib oyog'imni bosib olishmasin deb jadal yurdim. Har bir chorraha men uchun xatarli joy bo'lib, har bir yo'lovchini hushyorlik bilan kuzatmog'im lozim edi. Bed-ford-stritning oxirida yonimdan o'tib ketayotgan bir odam qo'qqisdan burildi-da, meni tosh yo'lga ag'darib yubordi, shunda ko'chadan ketib borayotgan aravaning ostiga kirib ketishimga sal qoldi. Yaqin orada bo'lgan izvoshchilar menga urilgan odamning tutqanog'i tutib qoldi shekilli, deb o'ylashdi. Bu to'qnashuv menga yomon ta'sir qildi, Kovent-Garden bozoriga kirib nafasim og'zimga tiqilgan va qo'rquvdan qaltiragan holda gunafsha sotadigan do'koncha yonidagi burchakda o'tirdim. Aftidan, qattiq tumov bo'lgandim, shu sababdan aksirib, kishilar diqqatini o'zimga jalb etmaslik uchun tezda bu yerdan ham jo'nab qolishga majbur bo'ldim.

Nihoyat axtarib yurgan joyimni topdim,— bu Druri-Leyn yaqinidagi tor ko'chaga joylashgan, hamma yog'iga pashshalar o'tirib tashlagan irkit do'koncha edi. Uning derazalariga sahnada kiyiladigan yengil-boshlar, qalbaki qimmatbaho buyumlar, pariklar, tuflilar, domino hamda aktyorlarning fotosuratlari osib qo'yilgandi. Do'kon qadimiy, pastak va qorong'i edi, uning tepasida ko'rimsiz, diqqinafas binoning yana to'rt qavati qad ko'tarib turardi. Men derazadan mo'ralab, do'konda hech kimni ko'rmay ichkariga kirdim. Qo'ng'iroqcha jaranglab ketdi. Eshikni ochiq qoldirib, maneken yonidan lip etib o'tdim-da, katta toshoyna orqasidagi burchakka yashirindim. Bir minutcha hech kimdan darak bo'lmadi. Keyin do'konda allakimning og'ir-og'ir qadam tashlab kelayotganini eshitdim.

Bundan keyin qiladigan ishlarim rejasini tuzib olgandim. Uyga kirib olib yuqori qavatning biror joyida yashirinmoqchi va qulay fursatni kutmoqchi bo'ldim. Hammayoq tinchigandan keyin o'zimga mos keladigan parik, maska, ko'zoynak va kiyim-kechak tanlashni, so'ngra ko'zni shamg'alat qilib, juda beo'xshov bo'lsa-da, har qalay odamshavanda holda chiqib ketishni mo'ljalladim. Shu bilan birga, qanchaki pul topa olsam, hammasini olib ketishga ham umid bog'ladim.

Do'kondor beso'naqay, qo'llari uzun, oyoqlari juda kalta va maymoq, peshanasi tirishgan jikkakkina bukri kishi edi. Aftidan, mening kelishim uni ovqatlanishiga xalal bergan bo'lsa kerak. U do'konni ko'zdan kechirdi-da, ajablendi, keyin bu yerda hech kim yo'qligini ko'rgach, g'azabi qaynadi. «Ha, jin urgur, shumtakalar!» deb po'ng'illadi u. So'ng ko'chaga chiqib, atrofga alangladi. Bir minutdan keyin do'konga qaytdi-da, zarda qilib oyog'i bilan eshikni yopdi va o'zicha allanimalar deb pichirlab ming'illaganicha ichkariga kirib ketdi.

U bilan qorama-qora bormoqchi bo'lib, yashiringan joyimdan chiqdim, lekin u mening harakatimni sezib qoqqan qoziqday to'xtab qoldi. Qulog'ining nozikligiga hayron bo'lib men ham to'xtadim. Keyin u ichkariga kirdi-yu, taraqlatib eshikni yopdi.

Taraddudlanib qoldim. Birdan uning tez yurib kelayotganini eshitdim, eshik qaytadan ochildi. U do'konini ko'zdan kechira boshladi: chamasi, uning shubhasi hali batamom tarqalib ketmagan edi. Keyin u avvalgi safargidek ming'illab peshtaxta va mebellarning tagiga qaradi. Shundan keyin hadiksirab olazarak bo'lganicha to'xtab qoldi. U eshikni ochiq qoldirgani boisidan lip etib yondagi xonaga kirib oldim.

Bu bir chetiga talaygina maskalar qalashtirib tashlangan faqir va g'alati bir katalak edi. Stolda sovib qolgan nonushta turardi. Ishonasizmi, Kemp, u yerda kofe hidi dimog'imga urib, do'kondorning qaytadan ovqatlana boshlaganini ko'rib turish men uchun nihoyatda og'ir edi. U bo'lsa, o'lgiday ishtahasizlik bilan ovqatlanardi. Xonaning uchta eshigi bor bo'lib, ulardan biri yuqoriga olib chiqar, qolgan ikkitasi esa, pastga olib tushardi, biroq ularning hammasi ham berk edi. Uy egasi shu yerda ekan men bu yerdan chiqib keta olmasdim, uning nihoyatda sezgirligi sababli o'rnimdan qimirlashga ham ojiz edim, kiftimdan esa, g'o'rillab shamol urardi. Ikki marta aksirib yubora yozdim.

Mening tuyg'ularim aqlga to'g'ri kelmaydigan darajada ajoyib edi, lekin shu bilan birga, a'zoyi badanimda toqat qilib bo'lmaydigan horg'inlik sezardim, shuning uchun ham u nonushtasini tugatgunicha zo'r-bazo'r toqat qildim. Nihoyat u qornini to'yg'izib, ko'rimsiz idish-tovog'ini choynak turgan qora tunuka patnisga qo'ydi va gorchisa to'kilib dog' bo'lgan dasturxondagi ushoqlarni terib olgach, patnisni ko'tarib, eshikka tomon yo'naldi.

Ikki qo'li band bo'lgani uchun eshikni yopa olmadi, biroq uning eshikni, albatta yopib ketmoqchi bo'lgani sezilib turardi. Umrin bino bo'lib eshik yopishga bunaqangi ishqiboz odamni ko'rmagan edim! Uning orqasidan yerto'laga, iflos va qorong'i oshxoga tushdim. U yerda cholning idish-tovoqlarni qanday yuvayotganini ko'rib turdim.

Keyin esa, muzdek polda yalang oyoqlarim shamday qotayotgandan hech qanday foyda yo'q ekanini anglab yuqoriga chiqdim-da, kaminning oldidagi kresloda o'tirdim. Olov o'chib qolayozgani uchun orqa-o'ngini o'ylamay, kaminga ko'mir qaladim.

Bu tovush uy egasining diqqatini darhol o'ziga tortdi, u hayajon bilan yugurib kelib, xonaning hamma yog'ini tintiy boshladi, shunda bir marotaba menga qo'li tegib ketishiga sal qoldi. Hamma yoqni sinchiklab tekshirib chiqsa-da, bukrining ko'ngli o'rniga tushmadi.

U pastga tushishdan avval eshik oldida turib xonani yana bir bor diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqdi.

Men mo'jaz mehmonxonada juda ham uzoq o'tirganday bo'ldim. Nihoyat u qaytib chiqib, yuqoriga chiqiladigan yo'lakning eshigini ochdi. Men sekingina uning ortidan chiqib olishga muvaffaq bo'ldim.

Zinapoyada u birdaniga to'xtagandi, naq borib unga urilib ketayozdim. U boshini o'girib basharamga tik boqib turar va diqqat bilan quloq solardi. «Qasamyod etishga tayyormanki...»—dedi u, keyin jun bosgan uzun qo'li bilan pastki labini ushladi. So'ngra u zinapoyani ko'zdan kechidi-da, allanimalar deb ming'illaganicha yuqoriga chiqa boshladi.

Eshikni tutgan mahalida u yana zardasi qaynagan va ajablangan holda to'xtab qoldi. U mening harakatim sharpasini yaqqol sezayotganiga shubha yo'q edi. Aftidan, bu odam favqulodda eshituv quvvatiga ega bo'lsa kerak. Birdaniga uning gazabi qaynab ketdi. «Bordi-yu, birov uyga kirib olgan bo'lsa!..» deb qichqirdi u so'kinib va gapini oxirigacha etkazmay, qo'lini cho'ntagiga suqdi.

U qidirgan narsasini cho'ntagidan topmay, yonimdan o'tib yugurganicha pastga tushib ketdi. Lekin men uning ketidan tushmadim, balki zinapoyaning yuqori pog'onasida o'tirib olib uning qaytishini kuta boshladim.

Saldan keyin u yana avvaldagiday ming'illaganicha qaytib keldi. U eshikni ochdi, biroq men kirishga ulgurmasimdanoq uni taraqlatib yopib qo'ydi.

Men uyni ko'zdan kechirmoqchi bo'ldim va iloji boricha tovush chiqarmasdan yurishga urinib, anchagacha u yerda aylanib yurdim. Uyning sharti ketib, parti qolgandi, uni shu qadar zax bosgan ediki, devordagi gulqog'ozlar ko'chib tushib, hamma yoqni kalamush bosib ketgandi.

Eshik ochqichlari juda qiyinchilik bilan buralardi, shuning uchun ularga qo'l tegizishga qo'rqdim. Ayrim xonalarda hech qanaqa jihoz yo'q edi, boshqalari esa ko'rinishiga qaraganda, chayqovchilardan sotib olingan teatr lash-lushlari bilan to'la edi. Yotoqxonada yonidagi uydan bir talay eski kiyimlar topdim. Sabrsizlik bilan ularni titar ekanman, uy egasining sezgirligini unutib qo'yibman.

Men uning oyoq uchida yurib kelayotganini eshitdim va ayni vaqtda boshimni ko'tardim, uy egasi qo'lida eski to'pponcha tutgan holda ostonada paydo bo'ldi va aralash-quralash qilib tashlangan kiyim-kechaklarga baqrayganicha tikilib qoldi. U og'zini ochib, shubha bilan xonani ko'zdan kechirib chiqqunicha men qimir etmay g'o'dayib turdim. «Bu o'sha bo'lsa kerak!— deb to'ng'illadi u.

— Jin urgur bu xotin juda jonimga tegdi-da!»

— Eshikni ohista yopdi-da, darhol qulflab qo'ydi. Men uning olislashib ketayotgan qadam tovushini eshitdim. Shunda birdan qamalib qolganimni tushundim. Dastlabki minutlarda dovdirab qoldim.

Avvaliga eshik bilan deraza orasida u yoqdan-bu yoqqa yurdim, keyin nima qilarimni bilmay to'xtab qoldim. G'azabim qaynab ketdi. Lekin hammadan burun kiyim-kechaklarni ko'zdan kechirmoqchi bo'ldim, biroq yuqori polkadan tugunni olish uchun birinchi urinishim yana uy egasining diqqatini jalb etdi. U qovog'ini avvalgidan ham battarroq solgan holda keldi. Bu safar u menga tegib ketdi-yu, sapchib o'zini orqaga tashladi va og'zini ochganicha xonaning o'rtasida serrayib turib qoldi.

Tez orada u o'zini birmuncha bosib oldi-da, ko'rsatgich barmogini lablariga qo'yib: «Kalamushlar!»—deb shivirladi. Uning juda qo'rqib ketgani aniq sezilib turardi. Men sekingina yurib xonadan chiqdim, biroq poldagi bir taxta baribir g'ijirlab ketdi. Shunda u iblis to'pponchasini qo'lida tutganicha butun uyni kezib hamma eshiklarni ketma-ket qulflab, kalitlarni cho'ntagiga yashira boshladi.

Uning niyatini tushunib shu qadar quturib ketdimki, qulay fursatni qo'ldan berib qo'yishimga sal qoldi. Endi men uning butun uyda yakka-yolg'iz ekanini bilardim.

Shuning uchun men hech qanday takallufsiz kallasiga tushirdim.

— Kallasiga tushirdim, deysizmi?!—xitob qildi. Kemp.

— Ha, pastga tushib ketayotganida hushidan ketkazdim. Zinapoya sahnchasida turgan stul bilan qoq miyasiga soldim; u eski poyafzal solingan qopday dumalab ketdi.

— Ammo eng oddiy insonparvarlik...

Oddiy insonparvarlik oddiy odamlarga yarashadi. Tushunsangiz-chi, Kemp, men unga ko'rinmay bir iloj qilib uydan kiyinib chiqib ketishim kerak edi.

Boshqa yo'lini esa topa olmadim. Keyin uning og'ziga Lyudovik o'n to'rtinchi zamonasidan qolgan kamzulni tiqib, o'zini choyshab bilan bog'lab qo'ydim.

— Choyshab bilan bog'lab qo'ydim deysizmi?

— Uni bo'xchaga o'xshatib tugib qo'ydim. U tentakni qo'rqitib, baqirish va qimirlash imkonidan mahrum etmoq uchun bu birdan-bir chora edi, tugundan xalos bo'lish esa, unchalik oson emasdi. Azizim Kemp, menga bamisoli qotilga qaraganday tikilishingizning hojati yo'q.

Axir uning qo'lida to'pponcha bor edi-da. Bordi-yu, u meni ko'rganida tashqi qiyofamni odamlarga gapirib berishi mumkin edi...

— Biroq har nima bo'lganda ham,— dedi Kemp,— Angliyada, bizning zamonamizda... Shu bilan birga u odam o'z uyida edi, siz bo'lsangiz... talonchilik qilgansiz!

— Talonchilik? Bu nima deganingiz! Hali siz meni o'g'ri ham dersiz. O'ylaymanki, Kemp, siz eski zamon nog'orasiga o'ynaydigan ahmoqlardan emassiz. Nahotki, o'sha vaqtdagi ahvolimni tushunmasangiz?

— Tushunaman. Lekin uning qay ahvolda qolganini ham o'ylash kerak-da!— dedi Kemp. Ko'rinmas odam shartta o'rnidan turib ketdi.

— Nima dedingiz?—so'radi u.

Kemp qovog'ini soldi. U bir nima demoqchi bo'ldi-yu, lekin o'zini tiydi.

— Aytganday,— dedi u birdaniga gap ohangini o'zgartirib,— haqiqatan ham sizda boshqa iloj qolmagan ekan. Siz juda ham mushkul ahvolga tushib qolgan ekansiz. Shunday bo'lsa-da...

— Albatta, men mushkul ahvolga, juda ham yomon ahvolga tushib qolgandim! Ha, buning ustiga, bukri meni quturtirib yubordi: ahmoqona to'pponchasini qo'lidan qo'ymay butun uy bo'ylab meni quvib yurdi, eshiklarni hali ochib, hali qulflayverib jonimga tegdi...

Bunga sira toqat qilib bo'lmasdi! Siz meni ayblamaysiz-a, to'g'rimi? Ayblamaysiz-a?

— Men hech mahal hech kimni ayblamayman,— javob berdi Kemp.

— Bu odatni tamoman tashlab yuborganman. Xo'sh, keyin nimalar qildingiz?

— Qornim juda och edi. Pastda katta dumaloq bulka bilan sal taxirroq pishloq topdim, nafsimni sal qondirmoq uchun shuning o'zi yetarli edi.

Keyin suv aralashtirib ozroq konyak ichdim-da, choyshabga o'ralib, indamay yotgan bukri yonidan o'tib, eski kiyimlar xonasiga kirdim. Bu xonaning irkit parda tutilgan derazasi ko'chaga qaragan edi.

Men sekin ko'chaga mo'raladim. Quyosh charaqlab nur sochardi, men turgan bu nim qorong'i mudhish uyga taqqoslaganda tashqari juda yorug' edi. Ko'cha gavjum bo'lib, ketma- ket aravalar o'tib borardi. Ko'zim qamashib ketib, g'ira- shira polkalar oldiga qaytdim.

O'zimni bosib oldim-da, vaziyatga hushyorlik bilan baho berdim. Xonadan, chamasi kiyimlarni tozalashga ishlatiladigan benzinning elas- elas hidi kelardi.

]Men birin-ketin hamma xonalarni diqqat bilan ko'zdan kechira boshladim. Aftidan, bukri ko'p vaqtlardan beri bu uyda yolg'iz yashardi.

G'alati tabiatli odam ekan o'ziyam... Korimga yarashi mumkin bo'lgan hamma narsalarni kiyim- kechaklar turgan uyga to'pladim, keyin ular orasidan keraklilarini ajratdim. Men uchun foydasi tegishi mumkin bo'lgan sakvoyaj, upa, elik va yopishqoq malham topdim.

Avvaliga basharamni ko'rinadigan qilish uchun bo'yamoqchi va upa surmoqchi bo'lib ko'rdim: lekin bu ish keyin katta o'ng'aysizlik tug'dirishini anglab qoldim, chunki yana ko'zdan g'oyib bo'lmoq uchun, ko'p vaqt talab etilishini hisob qilmaganda, skipidar va bo'lak dorilar lozim bo'lardi. Nihoyat sal kulgiiroq bo'lsa-da, ayrim kishilarning basharasidan xunuk bo'lmagan, maska, qora ko'zoynak, oq oralagan bakenbard va parik tanladim.

Ichki kiyim topmadim, lekin uni keyinroq sotib olish mumkin edi, hozircha, sidirg'a plash va oq kashmiri sharfga o'ralib oldim. Paypoq yo'q edi, lekin bukrining boshmog'i menga loppa-loliq keldi G'alladonda uch soveren va o'ttiz shilling kumush pul bor ekan, shkafni buzib sakkiz funt oltin pul topdim. Ana shu pullar bilan o'sha qiyofada qaytadan odamlar orasiga chikishim mumkin edi.

Shunda men shubhaga tushib qoldim: haqiqatan ham afti-angorim odamga o'xsharmikin! Biror kamchilikka yo'l qo'ymadimmikan deb goh u yoqqa-goh bu yoqqa o'girilib kichkina oyna oldida o'zimni diqqat bilan tekshirdim.

Hammasi joyida bo'lganga o'xshardi: gavdam bamisoli teatrda ko'rsatiladigan gadoylarga o'xshash tasqara, lekin umumiy kiyofam qanoatlanarli, axir, olamda shunaqangi odamlar ham bo'ladi-ku. Bir oz xotirjam bo'lgan holda, do'konga tushdim, deraza pardalarini yopib, har tomonlama tryumoga solib ko'rdim.

Bir necha minut o'zimga dalda berib turdimu, oxiri kichkina bukrini choyshabdan o'zini-o'zi qutqarsin deb, eshikni ochib ko'chaga chiqdim. Avvaliga har bir chorrahada burilaverdim. Meni qiyofam hech kimning diqqatini o'ziga tortmadi. Men so'nggi g'ovni bosib o'tganda, barcha mushkulotni bartaraf etganga o'xshardim.

Ko'rinmas odam jim bo'ldi.

— Bukrini shu holda taqdirga havola qilib ketdingizmi?—so'radi Kemp.

— Ha,—dedi Ko'rinmas odam,— Uning nima bo'lganidan xabarim yo'q. Chunki uni juda qattiq qilib bog'lagandim.

U yana jim bo'ldi, o'rnidan turib derazaga qaray boshladi.

— Xo'sh, keyin siz Strendga chiqdingiz, undan so'ng nima bo'ldi?

O, yana umidim puchga chiqdi! Sargardonligim tugadi deb o'ylagan edim. Endi xohlagan vaqtimda ko'nglim tusagan ishni qilamanu hech qanday jazo tortmayman, faqat sirimni oshkor qilmasam bo'lgani, deb o'ylagandim. Menga ana shunday tuyulardi. Oqibati qayday bo'lishi haqida o'ylab o'tirmay, xohlaganimni qila olardim: g'oyib bo'lmos uchun kiyimimni yechib tashlasam kifoya edi.

Meni hech kim tuta olmasdi. Pulni qancha xohlasam, shuncha olishim mumkin. O'zimni yaxshilab ziyofat qilmoqchi bo'ldim, yaxshi mehmonxonaga joylashib, yangi buyumlar sotib olishga ahd qildim. G'ururimning chegarasi yo'q edi, o'sha vaqtda qanday ahmoq ekanimni hatto eslashga ham uyaladi odam. Restoranga kirib taom buyura boshladim, biroq lop etib aftimni ochmay ovqat eya olmasligim esimga tushib qoldi.

Taomni buyurishga buyurib qo'ydimu, lekin g'azabim qaynab ofisiantga o'n minutdan keyin qaytib kelaman deb chiqib ketdim. Bilmayman, Kemp, bo'riday och qolgan paytingizda tayyor ovqatdan bebahra bo'lib chiqib ketishga majbur bo'lganmisiz?

Hech qachon bunaqa bo'lgan emasman,— dedi Kemp, lekin qanday bo'lishini tasavvur eta olaman.

— O'sha yerdagi befarosat to'nkalarni bo'g'ib tashlagim keldi. Oxirida, ochlikdan sillam qurib, boshqa bir restoranga kirdim-da, o'zim uchun alohida xona talab qildim. «Majruhman,— dedim,— Qattiq yarador bo'lganman». Ofisiantlar menga qiziqishib qarashdi-yu, lekin surishtirishga botinishmadi, albatta. Nihoyat ovqatlanib oldim.

Taomlarning sifati unchalik durust emasdi, lekin qornim to'iydi va sigara chekib o'tirib bundan keyin nimalar qilishim haqida o'ylab ketdim. Tashqarida qor bo'roni boshlangan edi.

Qancha ko'p o'ylasam, Kemp, zamonaviy ulkan shaharning nam va sovuq iqlimida Ko'rinmas odam naqadar bema'ni va ojiz ekanini ko'proq anglardim. To ana shu ahmoqona tajribamni o'tkazgunimga qadar ko'z o'ngimda faqat turli- tuman afzalliklargina namoyon edi. Endi bo'lsa, ko'rinmasligimning hech qanaqangi ijobiy tomonini ko'rmasdim.

Men insonning ko'ngli tusashi mumkin bo'lgan hamma narsani birma-bir xayolimdan o'tkazdim. To'g'ri, ko'zga ko'rinmaslik ko'p narsani qo'lga kiritishimga yo'l ochib berardi, lekin ulardan foydalanishning imkoni yo'q edi.

Shuhratmi? Unga erishgan odam yashirib yurishga majbur bo'lgach, yuksak unvondan nima foyda, kelajakda Dalila bo'lib chiqadigan xotinning muhabbatining nima hojati bor? Meni siyosat ham, shubhali shuhrat ham, insonparvarlik ham, sport ham qiziqitirmasdi. Xo'sh, menga yana nima qoldi? Qanday maqsad bilan yo'rgaklangan sirga, o'ralib-chirmalgan va bint bilan tang'ib tashlangan kulgili odam sharpasiga aylandim.

U jim bo'ldi va chamasi derazaga qarab qo'ydi.

— Aypingga qanday qilib borib qoldingiz?— so'radi Kemp, suhbatni uzib qo'ymaslik uchun.

— Men u yerga ishlagani borgandim. O'sha mahalda menda sal-pal umid paydo bo'lgandi. Endi o'sha fikr pishdi.

Men asli holimga qaytmoqchiman. Ko'rinmaydigan mahalimda istagan narsamga erishgach, zarur bo'lganda yana aslimga qaytishim kerak. Siz bilan avvalo ana shu haqda gaplashib olmoqchiman.

— Siz to'g'ri Aypingga bordingizmi?

— Ha. Qo'l yozma kitoblarim bilan chek daftarimni oldim, ichki kiyim va boshqa kerakli narsalarni xarid qildim-da, orzumni ro'yobga chiqarishda yordam beradigan reaktivlar zakaz qildim (kitoblarimni olgan zahoti sizga hamma raschyotlarimni ko'rsataman), keyin yo'lga chiqdim. Bafarmoni xudo, shu qadar qorbo'ron ko'tarildiki, asti qo'yaverasiz, la'nati karton burunni qorda ho'l bo'lishdan saqlash ham o'lgiday mushkul bo'ldi!

Gazetalar bergan xabariga qaraganda,— dedi Kemp,— bundan uch kun burun, sizni qo'lga olishmoqchi bo'lganda, siz andak...

— Ha, andak... Anavi polisiyachini bir yoqlik qilibmanmi?— yo'q,— dedi Kemp,— aytishlariga qaraganda, tuzalayotganmish.

— Demak, omadi bor ekan. Men juda quturib ketgandim. Voy ahmoqlar-ey! Nega menga tirg'ilishadi? Anovi ovsar do'konchini aytmaysizmi?

— Hech kim o'lish darajasida shikastlanmabdi,— dedi Kemp.

— Anovi daydim masalasiga kelganda,— dedi Ko'rinmas odam zaharxanda qilib,— uning tirik qolishi gumon. Xudo haqi, Kemp, siz bu xarakteringiz bilan quturib ketishning nimaligini tushunishingiz qiyin! Uzoq yillar davomida ishlaysan, bosh qotirib o'ylaysan, rejalar tuzasan-da, keyin allaqanday miyasi yo'q ahmoq kelib yo'lingga g'ov bo'ladi-qo'yadi!

Olamda mavjud bo'lgan hamma turdagi ahmoqlar menga xalal berishga urindilar. Mabodo yana shunday davom etaversa, chinakamiga quturib ketamanu, o'ngu so'lda duch kelganini o'ldira boshlayman.

O'shalarning kasriga hamma ishim ming chandon og'irlashib ketadi.

— Haqiqatan ham ahvolingiz chatoq,— dedi Kemp quruqqina Kemp quruqqina kilib.

## **XXIV Bob**

### **Ro'yobga chiklagan reja**

— Xo'sh,— dedi Kemp, deraza tomonga ko'z qirini tashlab,— endi nima qilamiz? O'zim nihoyatda imillab tepalikka ko'tarilayotganday tuyulayotgan uch kishini pana qilish uchun Kemp Ko'rinmas odamning yaqiniga surildi

— Port-Berdokda nima qilmoqchi edingiz? O'ylab qo'ygan birorta rejangiz bormi?

— Chet elga qochib ketmoqchi edim. Ammo sizni ko'rgach, niyatimni o'zgartdim.

Havo isib, ko'rinmay yurishim oson bo'lib qolgani sababli, janubga jo'nashim durustroq bo'lar deb o'ylagandim. Axir, sirim oshkor bo'ldi, bu yerda hamma maska kiyib, o'ranib-chirmanib yurgan odamni axtarishga boshlaydi.

Bu yerdan esa Fransiyaga paroxod qatnaydi. Biror paroxodda o'sha tomonga o'tib olish uchun urinib ko'rish mumkin deb o'ylayman. Fransiyadan bo'lsa, poezdda Ispaniyaga, hatto Jazoirga ham jo'nab ketsam bo'ladi. Bu unchalik qiyin emas.

U yerda yil bo'yi ko'rinmasdan yuraverish mumkin. To pulim va kitoblarimni pochta orqali jo'natgunimcha anovi daydini, o'sha buyumlarimni ko'tarib yuradigan sayyor skladga aylantirmoqchi edim.

— Tushunarli.

— Birdaniga u maxluq mening buyumlarimni o'zlashtirib olish xayoliga tushib qolsa-ya!

U mening kitoblarimni o'g'irlab ketdi-ya, Kemp! Mening kitoblarim! Ha, bir qo'limga tushsaydi!!!

— Hammadan oldin uning qo'lidan kitoblarni olish lozim.

— To'g'ri, lekin uning o'zi qayerda? Siz uning qayerdaligini bilasizmi?

— U shahar tyurmasining eng xilvat kameralaridan biriga qamab qo'yilgan: shunday qilishlarini uning o'zi iltimos qilibdi.

— Muttaham!— deb yubordi beixtiyor Ko'rinmas odam.

— Bu holat sizning rejalarinigizni bir qadar buzib qo'yadi.

— Kitoblarimni topish kerak, ular juda ham zarur.

Albatta,— uning fikrini tasdiqladi Kemp, hovlidan kelayotgan oyoq tovushlariga quloq solib,— Albatta kitoblarni topib olish zarur. Basharti anovi daydi ularni siz uchun talab qilinayotganini bilmasa, topish unchalik qiyin bo'lmaydi.

— To'g'ri,— dedi Ko'rinmas odam va o'ylanib qoldi.

Kempning suhbatni davom ettirishga urinishi behuda ketmoqda edi, biroq shu mahal Ko'rinmas odamning o'zi gap boshladi.

— Endi, Kemp, sizning uyingizga kirib qolganimdan keyin barcha rejalarim o'zgardi. Siz mening fikrimni anglashga qodir kishisiz. Kitoblar yo'qolgani, sir ochilganiga qaramay, bo'lib o'tgan barcha voqealar va boshimga tushgan musibatlariga qaramay, hali juda ko'p ishlar qilish mumkin... Siz men haqimda hech kimga gapirmaganmidingiz?—so'radi u birdan.

Kemp bir lahza taraddudlandi.

— Axir, men va'da bergan edim-ku,— dedi u.

— Rostdan ham shundaymi?—takror so'radi Griffin.

— Hech kimga aytganim yo'q...

— Xo'p, u holda...— Ko'rinmas odam o'rnidan turdi-da, qo'llarini cho'ntaklariga tiqib xonada keza boshladi.— Ha, bu xato edi, Kemp, bu ishga yolg'iz kirishganim juda katta xato edi.

Kuch-quvvat, vaqt va imkoniyatlar zoya ketdi. Yolg'iz... Yolg'iz odamning qo'lidan hech ish kelmas ekan, yolg'iz odam tamomila ojiz ekan! Mayda o'g'irligi mushtlashishdan nariga o'tolmas ekan u.

Menga boshpana kerak, Kemp, meni yashiradigan odamim bo'lishi lozim, menga hech kimda shubha uyg'otmasdan xotirjam yeb-ichib, uxlab dam olishim mumkin bo'lgan manzil darkor.

Gapning qisqasi, menga sherik kerak. Ana o'shanda xohlagan ishni qilish mumkin. Shu kungacha men tasmol bilan ish ko'rib keldim. Endi biz ko'zga ko'rinmaslikning barcha foydasiyu barcha qiyinchiliklarini muhokama qilamiz. Boshqalarning gapiga yashirincha qulok solish va shunga o'xshashlarning nafi kam: o'zingning ham ovozingni eshitishadi.

O'g'irlik qilish foydaligu, lekin unchalikmas. Meni qo'lga tushirish oson bo'lmasa-da, lekin tutib olgach, qamoqqa solishlari oppa-oson. Ko'rinmaslik qochgan mahalda yoxud o'g'rincha bostirib borishda foydali.

Demak, u birovni o'ldirishdagina qulay. Kishi qanday qurollangan bo'lmasin, men uning eng zaif joyini topib zarba berishim va istagan tomonimga qarab qochishim mumkin.

Kemp mo'ylovini siladi. Pastda kimdir kelayotganga o'xshardi.

— Biz qotillik bilan shug'ullanishimiz kerak, Kemp.

— Qotillik bilan shug'ullanish,—takrorladi Kemp.

— Eshityapman, Griffin, lekin bu sizning fikringizga qo'shildim deganim emas. Nega qotillik qilishimiz kerak?

— Bema'ni qotillik qilish kerak emas, aql ishlatib odam o'ldirish lozim. Gap bunday: ular Ko'rinmas odam mavjud ekanini juda yaxshi bilishadi.

Ana shu Ko'rinmas odam terror hokimiyatini o'rnatmog'i lozim.

Siz hayron bo'lyapsiz, albatta. Lekin men hazillashayotganim yo'q. Hokimiyatini joriy qilishimiz kerak. Ko'rinmas odam biror shaharni, masalan, mana shu sizning shahringiz Berdokni zabt etib, aholiga qirgin solmog'i darkor va hammani o'z irodasiga bo'ysundirishi lozim. U o'z farmonlarini e'lon qiladi.

Buni amalga oshirishning minglarcha yo'li bor, masalan, eshiklar ostiga qog'oz qistirib ketish mumkin. Kimda-kim itoat etmasa o'ldiriladi, shuningdek unga yonbosgan odamlar ham omon qolmaydi.

— Hm,— deb qo'ydi Kemp, Griffinning so'zlaridan ko'ra ko'proq pastdagi ochilgan eshikning g'ijirlashiga quloq solarkan.

— Men o'ylaymanki, Griffin,— dedi u, o'zini uning gapiga diqqat bilan quloq solayotganday ko'rsatishga urinib,— sherigingizning ahvoli yanada mushkulroq bo'lgan bo'lardi.

— U mening sherigim ekanini xech kim bilmaydi,  
— Ko'rinmas odam va birdaniga jim bo'lib qoldi. To'xtang-chi, u yerda nima gap?  
— Hech gap yo'q,— dedi Kemp va birdaniga ovozini barala qo'yib tez-tez gapira boshladi:—Men fikringizga qo'shila olmayman, Griffin.

Tushunsangiz-chi, qo'shila olmayman. Avval boshdan boy berib qo'yilgan o'yinni davom ettirishning nima hojati bor? Shu sizni baxtiyor qila oladimi, axir? O'zingizni yakka-yolg'iz bo'riga o'xshatmang. Kashfiyotingizni nashr eting; bordi-yu, uni butun dunyoga bildirishni istamasangiz, uni aqalli o'z mamlakatingizga ishonang.

Million-million yordamchilar ko'ngida qanday muvaffaqiyatlarga erishuvingizni bir o'ylab ko'ring...

Ko'rinmas odam Kempning so'zini bo'ldi.

— Zinapoyada oyoq tovungi eshitilyapti,— deb pichirladi u, qo'lini ko'tarib.

— Bo'lmagan gap,— dedi Kemp.

—Hozir ko'ramiz.

Shu so'z bilan Ko'rinmas odam eshikka tomon yurdi. Bir daqiqa ikkilanib turgandan keyin Kemp uning yo'lini to'sdi. Ko'rinmas odam cho'chib tushdi-da, to'xtab qoldi.

— Sotqin!— deb qichqirdi ovoz va xalatning tugmalari yechila boshladi. Ko'rinmas odam o'zini kresloga tashlab echinishga kirishdi.

Kemp shoshilinch ravishda eshikka tomon bir necha oldim tashladi, shu zahoti Ko'rinmas odam — uning oyoqlari ortiq ko'rinmasdi — hayqirib o'rnidan turdi. Kemp eshikni lang ochib yubordi.

Pastdan ovozlari va yugurib kelayotgan, odamlarning dupur-dupuri yaqqol eshitalardi. Kemp Ko'rinmas odamni itarib yuborib, koridorga chiqdi-yu, eshikni yopib oldi.

Kalit avvaldan tashqi tomondan qulfning burniga solib qo'yilgandi. Bir daqiqadan so'ng Griffin kabinetda qamalib qolgan bo'lardi. Lekin tasodif xalal berdi.

Ertalab shoshilinch ravishda qulfning burniga solib qo'yilgan kalit eshik ochilganda gilam ustiga otilib tushdi.

Kemp qo'rqqanidan o'likday qotib qoldi. U qabzani ikki qo'llab tutganicha bor kuchi bilan eshikni yopib turishga urindi. Bir necha daqiqa u bu ishni uddalab turdi ham. Keyin eshik olti dyuym chamasi qiya ochildi, lekin Kemp uni darhol qaytadan yopib oldi.

Ikkinchi safar eshik shiddat bilan bir fut chamasi ochilib, o'sha ochilgan yerdan xalat tiqilib o'tmoqqa urindi. Ko'zga ko'rinmas qo'llar Kempning hiqildog'idan bo'g'ib oldi, u o'zini himoya qilish uchun qabzani qo'yib yuborishga majbur bo'ldi.

Griffin uni qulatdi-da, keyin zinapoyaga uloqtirib yubordi.

Yechilib shalvirab qolgan xalat ustiga tushdi.

Zinapoyada Kemp xat yozib yuborgan odam, Berdak polisiyasining boshlig'i polkovnik turardi. U bexosdan paydo bo'lib qolgan Kempga va havoda o'zi harakat qilayotgan kiyim-kechaklarga dahshat bilan boqardi. U Kempning qanday ag'darib yuborilgani va zo'r-bazo'r o'rnidan turib, bir qadam yurgach, yana polga qulab tushganini ko'rdi.

Birdaniga uning o'ziga ham bir narsa kelib urildi. Bo'shliqdan birov musht tushirganday bo'ldi! Xuddi ustiga og'ir bir narsa o'zini tashlaganday tuyuldi.

Allakimning panjalari hiqildog'idan oldi, kimningdir tizzasi kindigiga teshdi va u zinapoyadan o'mbaloq oshib tushdi. Ko'zga ko'rinmas oyoq uning kaftini bosdi, allakim zinapoyada yalang oyoq holda shipillab yurdi; pastdagi yo'lakda turgan ikkita polisiyachi baqirib yuborishdi-da, yugura ketishdi, ko'cha eshigi taraqlab yopildi.

Polkovnik atrofga ma'nosiz alanglaganicha o'rnidan turib o'tirdi. Yuqoridan sochlari paxmayib, kiyimlari iflos bo'lib ketgan Kemp gandraklab tusha boshladi, basharasi dokaday oqarib ketgan, yorilgan labidan qon oqayotgan doktor qo'lida xalat va boshqa yengil- boshlarini ko'tarib olgandi.

— Qochib ketdi!—deb qichqirdi Kemp.

— Ish pachava Qochib ketdi!



## XXV Bob

### Ko'rinmas odamni ta'qib etish

Avvaliga Kempning poyma-poy hikoyasidan hech nima tushuna olmadi. Ularning har ikkalasi zinapoyada turishardi. Kemp hali ham Griffindan qolgan kiyim-kechaklarni qo'lida tutib turardi. Nihoyat bo'lib o'tgan voqeaning mohiyatiga tushuna boshladi.

— U telba bo'lib qolgan,— shosha-pisha gapirardi Kemp,— u odam siyoqini yo'qotib, hayvonga aylangan. Faqat o'zi to'g'risida o'ylaydi. U o'z foydasi va xavfsizligidan bo'lak hech nima bilan ishi yo'q.

Men bugun uning hikoyasini eshitdim — u, o'lguday xudbin odam... Shu kungacha u odamlarni mayib qilib yurardi.

Basharti biz uni tutmasak, endi u odam o'ldirishga boshlaydi. U el o'rtasida vahima tarqatadi. U har qanday yovuzlikdan toymaydi.

Hozir u g'azabdan quturgan holda erkinlikda yuribdi.

— Gapning qisqasi, uni qo'lga tushirmoq kerak.

Lekin qanday qilib?— xitob qildi Kemp va daf'atan, tez-tez gapira ketdi:

— Hozirning o'zidayoq tadbir ko'rmoq kerak.

Griffin bu yerlardan ketmasin uchun hammani oyoqqa turg'izish lozim. Aks holda u mamlakatni kezib yurib odamlarni mayib qilish va o'ldirish bilan shug'ullanadi. U terror hokimiyati orzusida! Tushunyapsizmi? U terror o'rnatmoqchi!

Siz poezdlar, tosh yo'llar va kemalarda nazorat o'rnatmog'ingiz kerak. Qo'shin chaqiring. Birdan-bir umid shuki, u juda qadrlaydigan kitoblarini topib olmaguncha bu yerdan olisga ketmaydi. Buni sizga keyin tushuntirib beraman.

Sizning polisiya idorangizda Marvel degan odam o'tiribdi...

— Bilaman,— dedi Eday.

— Kitoblarni aytyapsiz-da. Biroq u daydi...

— O'sha kitoblar o'zida ekanini bo'yniga olmayapti. Lekin Marvel ularni yashirganiga Ko'rinmas odamning imoni komil.

Eng asosiy masala shundaki, Ko'rinmas odamning ovqatlanish va uxlashiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Odamlar kechayu-kunduz bedor bo'lib, hech qanday ovqat topa olmasligi uchun qorovullik qilishlari lozim. Hammayoq qulflanishi kerak. Hamma uylar qulflansin! Iloyim havo sovib, yomg'ir quysin-da! Yoshu-qari — hamma odamlar uni tutishda ishtirok etishlari kerak! Tushunyapsizmi, Eday, qanday qilib bo'lmasin uni qo'lga tushirish lozim!

Aks holda boshimizga mudhish falokat keladiki, bu haqda o'ylashning o'zi kishini vahimaga soladi.

— Biz xuddi siz aytganingizday harakat qilamiz,— dedi Eday.

— Hozir men bora solib ishga kirishaman. Balki siz ham biz bilan birga borarsiz? Qani ketdik! Harbiy kengash chaqiramiz, Xolsni, temir yo'l ma'muriyatini taklif etamiz.

Xudo, haqi, biror minut vaqtni bekor ketkazish mumkin emas... Yo'l-yo'lakay menga bo'lgan voqeani batafsil gapirib berasiz. Yana qanday tadbir ko'rsak ekan-a? Manovi xalatni tashlasangiz-chi, axir!

Bir nafasdan keyin Eday bilan Kemp pastga tushishdi. Eshik lang ochiq edi va ikki polisiyachi hali ham angrayishganicha bo'shliqqa tikilib turishardi.

— Qochib ketdi, ser,— dedi polisiyachilarning biri.

— Biz hozir Markaziy idoraga boramiz,— dedi Eday.

— Biringiz izvoshchi topib, ketimizdan etib borishini buyursin.

Xo'sh, Kemp, bu yog'iga nima qilamiz?

— It kerak,— dedi Kemp.

— It toping. It uni ko'rmaydi-yu, lekin sezadi. It toping.

— Yaxshi,— deb uning fikriga qo'shildi. Eday.

— Sir bo'lsa ham aytay: Xolsteddagi turma ma'muriyati orasida bir kishi bor, o'sha izquvar itlar saqlaydi. Shunday qilib, it topish lozim.

Xo'sh, u yog'i nima bo'ladi?

— Esingizdan chiqmasin,— dedi Kemp,— uning egan ovqati to hazm bo'lib ketmaguncha badanidan ko'rinib turadi. Demak, u ovqatlangandan so'ng yashirinishi lozim.

Xamma yoqni, har bir burchak, har bir butaning ostini axtarish kerak bo'ladi. Uning uchun qurol xizmatini o'tashi mumkin bo'lgan hamma narsalarni ko'zdan yo'qotish kerak. U hech narsani uzoq vaqt olib yura olmaydi. Odamlarga hamla qilish uchun nimadan foydalanish mumkin bo'lsa, hammasini bekitib tashlash lozim.

— Buni ham qilamiz,— dedi Eday.

— U qo'limizdan qochib qutulmaydi, bizga muddat bering.

— Yo'llarga esa,— gap boshladi Kemp, lekin shu zahoti tili tutilib qoldi.

— Nima?—so'radi Eday.

— Maydalangan oyna sepish kerak. Bu shafqatsizlik, albatta, lekin uning qanday kulfatlar keltirishi mumkinligini nazarga olganda...

Eday hushtak chalib yubordi.

— Juda oshirib yubormadingizmi? Bu g'irromlik bo'ladi axir. Hay mayli, basharti u haddidan oshib ketadigan bo'lsa, ishlatish uchun u narsani ham tayyorlatib qo'yaman.

Men sizga aytdim-ku, u odam emas, balki yirtqich hayvon,— dedi Kemp.

Shu qochganidan keyin o'zini o'nglab olsa bas. Qanday bo'lmasin, biz undan oldinroq harakatimizni qilib qolishimiz kerak. Uning o'zi insoniyatga qarshi chiqdi.

Shunday ekan, insoniyat xuni uning gardaniga tushsing.

## **XVI Bob** **Uikstidning o'ldirilishi**

Barcha belgi Ko'rinmas odam Kempning uyidan yugurib chiqqanda juda darg'azab ekanini ko'rsatardi. Ko'cha eshigi oldida o'ynab yurgan bola yerdan ko'tarib olinib shu qadar qattiq uloqtirib yuborildiki, natijada boyaqishning oyog'i sindi.

Shundan so'ng bir necha soat davomida Ko'rinmas odamdan darak bo'lmadi. Uning qayoqqa ketib, nima ishlar qilganini hech kim bilmasdi. Biroq uning bu jazirama iyun kunida, o'z taqdirini la'natlagani, toqqa qarab yugurgani, undan Port-Berdokning ortidagi ohak tepaliklaridan qochib borib horg'in va tinka-madori qurigan holda Xintondin yaqinidagi butazordan o'ziga boshpaga topganini osongina tasavvur etish mumkin...

Shu joyda u aql-hushini boshiga yig'ib, o'zi kabi kishilarga qarshi kurashish uchun plan tuzgan, lekin hozir barbod bo'lgan planini pishiqlab yangitdan o'ylab olishga qaror qilgan bo'lsa kerak.

Griffinning xuddi ana shu yerga borib yashiringani tayin, chunki kunduzi soat ikkilar chamasida o'zining o'sha yerda ekanini u yovuzlarcha va fojiali bir tarzda oshkor qildi.

O'sha vaqtda uning kayfiyati qanaqaligi va qanday niyatda ekanini tusvirlab bilish mumkin, xolos. Kempning xiyonatidan uning g'oyatda quturib ketgani shubhasiz, Kemp qanday maqsadda shunday qilgani hammaga tushunarli bo'lsa-da, har qalay bunday kutilmagan xiyonat qanday g'azab qo'zg'atishi va hatto bu g'azabni qisman oqlashi ham mumkinligini tasavvur etish uncha qiyin emas.

Ehtimol, Ko'rinmas odam yana Oksford-strit voqeasi vaqtida bo'lgani singari sarosimaga tushib qolgandir: axir, u Kemp mening insoniyatni terror qilish haqidagi shafqatsiz planimni ro'yobga chiqarishda yordam beradi deb aniq ishongan edi-da.

Har qalay peshinga yaqin u g'oyib bo'ldi va kunduzi soat ikki yarimgacha nimalar qilganini hech kim bilmaydi. Insoniyat uchun uning g'oyib bo'lgani bir hisobda, balki yaxshi hamdir, lekin bunday faoliyatsizlik Griffinning o'zi uchun fojiali bo'lib chiqdi.

Ana shu ikki yarim soat mobaynida butun okrug bo'ylab tarqalgan ko'plab odamlar ishga kirishdilar. Ertalab Ko'rinmas odam el nazarida faqat bir ermak, oddiy qo'riqchi edi, choshgohga

borib esa, Kempning quruq, lekin ma'nodor xitobnomasi tufayli u yarador qilinishi, tirik yoxud o'lik holda qo'lga tushirilishi lozim bo'lgan, mavjudligi muqarrar dushmanga aylandi va barcha aholi g'oyatda tezlik bilan kurashga tayyorlana boshladi.

Hatto kunduzi soat ikkida ham Ko'rinmas odam poezdga minib qochib qutulishi mumkin edi, lekin soat ikkidandan so'ng buning ham iloji bo'lmay qoldi. Sautgempton, Manchester, Brayton va Xorshem oraligida bo'lgan keng masofadagi temir yo'llarning hammasida passajir poezdlar eshiklarini qulflab ketishar, yuk poezdlar harakati esa, deyarli to'xtatilgan edi. Port-Berdok atrofidagi yigirma mil radiusli katta doirada yo'llar va dalalarda qurollangan, qo'llarida cho'qmor tutgan va it etaklagan odamlar uch-to'rt kishi bo'lib izg'ib yurishardi.

Otliq polisiyachilar tevarak-atrofdagi qishloqlarni aylanib, har bir uy oldida to'xtab, aholiga eshiklarini qulflab o'tirish va qurolsiz ko'chaga chiqmaslik kerakligini o'qtirishardi. Soat uchda maktablar yopildi va qo'rqib ketgan bolalar g'uj-g'uj bo'lishib uylariga yugurishdi. Soat to'rtlarga yaqin Kemp tomonidan yozilgan va Eday tomonidan imzolangan xitobnoma butun okrugga yopishtirib chiqilgan edi.

Xitobnomada Ko'rinmas odamga qarshi kurashishning barcha tadbirlari qisqa, lekin aniq qilib ko'rsatilgandi: uning ovqatlanishi va uxlashiga yo'l bermaslik, biror joyda uni sezib qolishgan zahoti qat'iy choralar ko'rish uchun har mahal hushyor bo'lib turish lozimligi aytilgan edi. Okrug ma'muriyatining harakatlari shu qadar jadal va keskin, xavf oldidagi qo'rquv shu qadar kuchli ediki, to qosh qorayguncha butun okrugdagi bir necha yuz kvadrat mil masofada qamal holati e'lon qilindi.

Xuddi shu kun kechqurun qo'rqib ketgan va sergak bo'lib turgan o'lka dahshatdan seskanib tushdi: mister Uikstidning o'ldirilishi haqidagi aniq ovoza og'izdan og'izga ko'chib yashin tezligida tarqaldi.

Basharti Xintondin yaqinidagi butazorda yashiringan bo'lsa kerak, to'g'ri chiqsa, u holda Ko'rinmas odam peshindan keyin, qurol ishlatmasdan bajarib bo'lmaydigan bir ish uchun yashiringan joyidan chiqqani aniq. Maqsadi nima ekanini aniqlashning iloji yo'q, lekin shunday bir maqsadi bo'lgani turgan gap. Mening nazarimda, bu maqsad borligini rad etib bo'lmaydi; axir Uikstid bilan to'qnashuvidan burun Ko'rinmas odam allaqayerdan topgan temir chiviqni bekordan-bekorga ko'tarib yurmaganidir, axir.

Bu to'qnashuvning tafsiloti haqida hech narsa bilmaymiz. Bu voqea lord Berdokning villasi darvozasidan ikki yuz yardcha naridagi qum qazib olinadigan chuqur yoqasida yuz berdi.

Hamma narsa: yerdagi izlar, Uikstidning badanidagi son-sanoqsiz jarohatlar va uning sinib yotgan hassasi qattiq olishuv bo'lganidan dalolat beradi, lekin qotillik vasvasasidan bo'lak qanday sabab uning Uikstidga hujum qilishga majbur etganini tasavvur etish qiyin. Xayolga, balki miyasi aynib qolgandir, degan fikr o'z-o'zidan keladi. Lord Berdokning ish boshqaruvchisi bo'lmish qirq besh yoshli mister Uikstid dunyoda eng yuvosh odamlardan biri edi va u bunday dahshatli dushmanga birinchi bo'lib hujum qilmagan bo'lardi, albatta. Mister Uikstid, chamasi, buzilgan panjaradan sug'urib olingan temir chiviq bilan jarohatlangan bo'lsa kerak. Ko'rinmas odam uyiga tinchgina nonushta qilgani kelayotgan bu beozor kishini to'xtatib unga hujum qilgan, bir nafasda uning zaif qarshiligini yengib, urib qo'lini sindirgan, keyin bechorani yerga ag'darib miyasini po'la qilgandi.

Aftidan, Ko'rinmas odam o'z qurboni bilan uchrashmasidan burun panjaradan sug'urib olgan bo'lsa kerak. Yana ikki tafsilot bu voqeani bir qadar oydinlashtirishga yordam beradi. Birinchidan, qum qaziladigan joy mister Uikstidning uyiga boriladigan yo'l ustida bo'lmay, balki ikki yuz yardcha narida edi. Ikkinchidan, maktabdan kelayotgan qizaloqning bergan guvohligiga qaraganda, marhum g'alati «lo'killab» yugurganicha dala orqali qum olinadigan joy tomonga ketayotgan ekan.

Qizchani taqlid qilib ko'rsatishicha, go'yo mister Uikstid goho hassasini o'qtalib, yerda sudralib ketayotgan bir narsani ta'qib etayotgan ekan, degan fikrga kelish mumkin. Sho'rlik mister Uikstidning tirik chog'ida so'nggi marta ko'rgan odam ana shu qizaloq edi. O'shanda mister Uistidni ajal haydab ketgan ekan; u pastga tushgan, o'sha joydagi daraxtlar so'nggi olishuvni qizaloqning ko'zidan yashirgan.

Bu tafsilotlar shu satrlarning muallifiga, Uikstidning o'limi bejiz emasligini ko'rsatdi. Griffin temir chiviqni birovni o'ldirish niyatda emas, balki oddiy qurol sifatida olib kelayotgandir, deb faraz qilish mumkin.

Shunda unga Uikstid ro'para kelib, o'zidan-o'zi xavoda uchib ketayotgan temir chiviqni ko'rib qolgan bo'lishi mumkin. Mister Uikstid Ko'rinmas odam haqida hech narsa o'ylamay, (axir bu joylar bilan Port-Berdokning o'n mil keladi) temir chiviqning ketidan ergashgan bo'lishi mumkin. Ehtimol, u Ko'rinmas odam haqida hech nima eshitmagandir ham.

Bundan bu yog'iga Ko'rinmas odam o'zining shu yerdaligini oshkor qilishni istamay asta-sekin uzoqlasha boshlagan, qiziqishi ortib, mahliyo bo'lib qolgan Uikstid esa, bamisoli jonli narsadan harakat qilayotgan g'alati temir chiviqning ketidan qolmay boravergan va oxirida uni hassasi bilan urgandir deb o'ylamoq mumkin.

Oddiy vaziyatda Ko'rinmas odam o'zini ta'qib etayotgan va yoshi bir yerga etib qolgan bu odamdan osongina qochib qutulgan bo'lardi, albatta, lekin marhum Uikstid jasadining holati dushmanini qalin o'sgan qichitqi o't bilan qum olinadigan chuqur orasiga qamab o'zini falokatga giriftor qilgay deb o'ylashga asos beradi.

Ko'rinmas odamning haddan ziyoda serzardaligini eslaganda, keyingi bo'lgan voqealarni tasavvur etish unchalik qiyin emas.

Lekin bularning hammasi shunchaki faraz. Yakkayu-yagona fakt (chunki bolalarning aytgan gaplariga har vaqt ham ishonaverib bo'lmaydi) — o'ldirilgan Uikstidning qonga belangan jasadi-yu, qichitqi o't orasida yotgan temir chiviqdir. Chamasi, temir chiviqni tashlab yuborishiga qattiq hayajonga tushib, nima maqsadda qurollanganini unutib qo'ygan (agar shunday maqsadi bo'lgan bo'lsa) sabab bo'lishi mumkin.

Albatta, u ashaddiy xudbin va shafqat nimaligini bilmaydigan odam edi, lekin oyog'i ostida qonga belanib uzala tushib yotgan dastlabki qurbonining ko'rinishi uning qalbida unutilmish pushaymonlarni uyg'otgan va bir muddat uni yovuz niyatlardan kechishga undagan bo'lishi mumkin.

Mister Uikstidni o'ldirganidan so'ng Ko'rinmas odam tepaliklar tomon qochgan bo'lsa kerak. Aytishlaricha, Fern Bottom yaqinidagi dalada ishlayotgan ikki kishi kechqurun allaqanday sirli tovush eshitganlar. Birov ho'ngrab yig'labdi, xaxolab kulibdi, voy-voylab faryod chekibdi, goho esa ovozi barala qo'yib hayqiribdi. Buni eshitish juda ham dahshat bo'lsa kerak.

Tovush bedazor ustidan eshilib borib, olisda, tepaliklar bag'rida g'oyib bo'libdi. Ko'rinmas odam o'zi ko'ngil yorib aytib bergan gaplardan Kemp qanday tez foydalanganiga o'sha kuni kechqurunoq ishonch hosil qilgan bo'lsa kerak.

Chamasi u barcha eshiklarni qulf ko'rgan, temir yo'l stansiyalarida daydib yurgan, musofirxonalarga kirmoqchi bo'lgan, shubhasizki, hamma yerga yopishtirilgan xitobnomalarni o'qib, o'ziga qarshi qanday tadbirlar ko'rilganini anglagan. Kech kirishi bilan dalalarga qurollangan guruh-guruh odamlar tarqalib, itlarning akillashi eshitila boshladi.

Ular dushman bilan olishgan mahalda bir-birovlariga qanday yordam berish haqida maxsus ko'rsatma olgan edilar. Lekin Ko'rinmas odam ularga duch kelmaslikka muvaffaq bo'ldi. Hozir shafqatsizlik bilan unga qarshi ishlatilayotgan barcha ma'lumotlarni o'zi aytib berganini eslasak, uning quturishi sababini qisman tushunsak bo'ladi. Har qalay shu kuni uning ruhi tushib ketdi. Uikstid bilan to'qnashuvni hisobga olmaganda, deyarli bir kechayu bir kunduz davomida u o'zini qopqonga tushgan hayvon singari his etdi.

Kechasi u ovqatlangan va uxlab tiniqqan bo'lsa kerak, chunki ertalab yana u tetik va bardam bo'lib qolgandi: u qaytadan baquvvat, serg'ayrat, makkor va serzarda bo'lib, butun olamga qarshi o'zining so'nggi jangiga hozir edi.

## **XXVII Bob**

### **Qamal qilingan uyda**

Kemp bir parcha iflos qog'ozga yozilgan g'alati maktub oldi. «Menga qarshi kurashga o'tlanish bilan nimaga erishmoqchi ekaningizni tasavvur eta olmasam-da, siz ajoyib gayrat va fahm-farosatingizni namoyish qildingiz,— deb yozilgan edi maktubda.

— Kun bo'yi meni ta'qib etdingiz va kechasi ham uyqudan mahrum etmoqchi bo'ldingiz. Lekin shunga qaramay, to'yib ovqatlandim, xohishingizga qarshi o'laroq uxlab oldim. O'yin mana endi boshlanadi. Ha, o'yin mana endi boshlanadi!

Uning terrorga murojaat qilishdan bo'lak choram qolmayapti. Shu xatim bilan Terrorning dastlabki kunini e'lon qilaman. Bugundan boshlab Port-Berdok qirolichaning tasarrufida emas, shu gapni polisiyangiz boshlig'i va uning shaykasiga etkazing: bu yer mening tasarrufimdadir. Bu yerda endi Terror hokim. Bugungi kun yangi davr — Ko'rinmas odam davri birinchi yilining birinchi kunidir. Men — Ko'rinmas odam Birinchi bo'laman.

Avvaliga mening hukmronligim shafqatli bo'ladi. Bugun faqat birgina kishi qatl etiladi, boshqalarga ibrat bo'lsin uchun Kemp familiyasi odam o'ldiriladi. Bugun shu kishining ajali yetadi. Xoh uyning ichidan qulflab o'tirsin, xoh yashirinsin, xoh atrofni soqchilar bilan o'rasin, xohlasa zirhli kiyim kiysin — baribir ajal, ko'zga ko'rinmas ajal uni o'z domiga tortadi. Mayli, ehtiyot choralarini ko'rsin, qaytaga uning o'limi mening xalqimga yanada ko'proq ta'sir baxsh etadi. Ajal bugun peshin mahalida pochta qutisidan yo'lga chiqadi.

Xat pochtaga kelish oldidan qutiga tashlanadi-yu, shu zahoti ajal ham o'z ishini boshlaydi! O'yin boshlandi. Ajal unga yaqinlashmoqda. Ey xalqim, men ham shunday o'limga duchor bo'lmay desang, unga yordam berma. Bugun Kemp o'lmog'i kerak».

Kemp xatni ikki qayta o'qib chiqdi.

— Bu hazil emas,— dedi u.— Bu uning ovozi! U endi ishga kirishdi.

U qog'ozni ag'darib, adresida «Xintondin» shtempelini va «Ikki pens to'lab olinsin» degan oddiy yozuvni ko'rdi.

Kemp nonushtasini oxirigacha yemay o'rnidan turdi-da, (xat kunduzi soat ikkida kelgandi), yuqoriga, o'z kabinetiga chiqdi. U ish boshqaruvchi ayolni chaqirib, unga darhol uyining hamma yog'ini aylanib chiqishni, deraza ilgaklarini ko'zdan kechirishni va qopqalarini yopishni buyurdi. Yotog'idagi stolning qulflog'lik tortmasidan ixcham to'pponcha olib, uni diqqat bilan ko'zdan kechirdi-da, kurtkasining cho'ntagiga solib qo'ydi.

Keyin u bir nechta xat yozdi, jumladan, polkovnik Edayga ham xat yozib, ularni eltib berish uchun oqsochga topshirarkan, uydan qanday chiqish xususida unga aniq ko'rsatma berdi.

— Hech qanday xavf-xatar yo'q,— dedi u va dilida «siz uchun» deb qo'shib qo'ydi. Shundan so'ng bir oz xayolga cho'mib o'tirdi, keyin o'rnidan turib, sovib qolgan nonushtasi yoniga bordi.

U fikrga tolгани holda parishonlik bilan tamaddi qilardi. Keyin stolga qattiq bir musht urdi.

— Biz uni qo'lga tushiramiz,— xitob qildi u.

— Albatta mening payimga tushib keladi.

Ana shunda qo'lga tushadi qo'yadi.

Kemp hamma eshiklarni taqa-taq qilib qulflab, yuqori qavatga ko'tarildi.

— Bu o'yin,— dedi u.— Lekin o'yin bo'lganda ham, g'ayri tabiiy o'yin. Siz ko'zga ko'rinmas va dovyurak bo'lsangiz ham, mister Griffin, mening yutishim aniqroq.

U deraza oldida turib quyosh yog'dusi ostida yastanib yotgan tepalikka boqardi.

— U har kuni o'ziga rizqi ro'z topishi kerak-ku, axir. Uning ahvolini orzu qilmayman.

Kechasi uxlab olishga muvaffaq bo'lgani rostmikan-a? Tepasiga birov kelib qolmasligi uchun biror yerda, ochiq havoda uxlagandir-da... Koshki edi, shu issiq havo o'rniga sovuq tushib, yerlar loy bo'lsa... Lekin shu daqiqada u meni kuzatib turgan bo'lishi ham mumkin-ku.

Kemp derazaga yaqin bordi-yu, birdan cho'chib o'zini orqaga tashladi. Allanima rom tepasidagi devorga kelib qattiq urilgan edi.

— Asabimning juda mazasi qochib qolibdi,— dedi u o'zicha, ammo besh minutlar chamasi derazaga yaqin yo'lashga yuragi dov bermay turdi.

— Boyagi narsa chumchuq bo'lsa kerak,— dedi u.

Shu mahal u ko'cha eshikning qo'ng'irogi chalinganini eshitib, yugurib pastga tushdi. Kemp tambani tortib, kalitni buradi-da, zanjirni ko'zdan kechirdi, so'ng uni mahkamlagach, ehtiyotkorlik bilan o'zini panada tutib, eshikni qiya ochdi. Tanish ovoz eshitildi. Bu polkovnik Eday edi.

— Sizning oqsochingizga hujum qilishibdi,— dedi Eday eshikning naryog'idan.

— Nima?!—xitob qildi Kemp.

— Uning qo'lidan xatingizni tortib olishibdi. Ko'rinmas odam shu yaqin orada. Meni uyga kiriting.

Kemp zanjirni ochdi, shunda Eday sal qiya ochilgan eshikdan bir amallab ichkari kirdi.

Kemp qaytadan eshikni tambalagach, polkovnik sal erkin nafas oldi.

— Xatni oqsochingiz qo'lidan tortib olishibdi. Bechora ayol juda qo'rqib ketibdi. Hozir u mening idoramda. O'takasi yorilay deganidan hali ham o'ziga kelolmaydi. Ko'rinmas odam shu yaqin orada. Xatda nima yozgan edingiz?

Kemp so'kindi.

— Qip-qizil ahmoqman-da!—dedi u.

— Shuni o'ylamabman: Xintondin bilan bu yerning orasi bor-yo'g'i bir soatga yetar-yetmas yo'l-ku, axir! Tamom!

— Nima gap?— so'radi Eday.

— Mana buni ko'ring,— dedi Kemp va Edayni o'z kabinetiga boshladi. U polkovnikka Ko'rinmas odamning maktubini uzatdi. Eday uni o'qib chiqqach, sekin hushtak chalib qo'ydi.

— Xo'sh, siz-chi?—so'radi u.

— Tuzoq qo'ydim,— dedi Kemp,— lekin, ahmoq bo'lmasam, planni oqsochdan berib yuboramanmi! To'g'ridan-to'g'ri Ko'rinmas odamning qo'lga topshiribman uni.

Eday Kemp yog'dirayotgan la'natlarini bardosh bilan eshitdi.

— U qochib ketadi,— dedi Eday.

— Yo'q, qochmaydi,— e'tiroz bildirdi Kemp.

Yuqoridan oynaning charsillab singani eshitildi. Edayning ko'zi Kempning cho'ntagida do'ppayib turgan to'pponchaga tushdi.

— Kabinetning oynasi sindi!— dedi Kemi va birinchi bo'lib yuqoriga ko'tarila boshladi. Yuqori pog'onaga yetmay turib ular yana oyna singanini eshitishdi.

Kabinetda ular uchta derazadan ikkitasining oynasi singani, oyna siniqlari pol bilan bitta bo'lgani va yozuv stoli ustida katta tosh yotganini ko'rishdi. Har ikkalalari ag'dar-to'ntar qilingan kabinetga boqqanlaricha ostonada to'xtab qolishdi. Kemp yana so'kindi va shu daqiqada go'yo to'pponchadan o'q uzilgandek, bir narsa qarsilladi va uchinchi derazaning oynasi ham chil-chil bo'lib polga to'kildi.

— Buning nima keragi bor?— dedi Eday.

— Bu ishning boshlanishi,— javob qildi Kemp.

— Tashqaridan bu yerga chiqishning iloji yo'qmi?

— Hatto mushuk ham chiqa olmaydi,— dedi Kemp.

— Deraza qopqalari ham yo'q shekilli?

— Bu yerda yo'q. Lekin barcha pastki xonalarda... Oho! Pastda oynaning singani va qattiq zarbadan taxtalarning taraqlagani eshitildi.

— Bunisi, chamamda... yotoqda bo'lsa kerak. U butun uyni ostin-ustun qilmoqchi. O'ziyam qip-qizil ahmoq ekan. Deraza qopqalari berk, singan oynalar ko'chaga to'kiladi. Qaytaga o'zining oyog'i kesiladi.

Yana bir deraza chilparchin bo'ldi. Kemp bilan Eday nima qilishlarini bilmay zinapoyada turishar edi.

— Bilasizmi, nima qilamiz,— dedi Eday,— menga tayoqmi yoki shunga o'xshagan bir narsa bering, men idoraga borib, it yuborishlarini buyuraman. Shunda uni qo'lga tushiramiz! Itlar o'n minutlardan keyin shu yerda bo'ladi...

Yana bir derazaning ham bo'lari bo'ldi.

— To'pponchangiz yo'qmi mabodo?— so'radi Eday. Kemp cho'ntagiga qo'l soldi-yu, keyin ikkilanib qoldi.

— Yo'q,— javob berdi u,— har qalay ortiqchasi yo'q.

— Men uni qaytarib olib kelaman,— dedi Eday.

— Axir, siz xavf-xatarsiz joydasiz-ku.

Kemp mulzam bo'lib to'pponchasini berdi.

— Endi eshikni ochgani boraylik,— dedi Eday. Eshikka yaqinlashishga yuraklari betlamay, yo'lakda turishgan mahalda birinchi qavatdagi yotoqxonaning derazalaridan biri qarsillab qoldi. Kemp eshik oldiga borib, iloji boricha ehtiyotkorlik bilan tambani ocha boshladi. Uning bir oz rangi o'chgan edi.

— Chiqing,— dedi Kemp.

Bir lahzadan keyin Eday tashqariga chiqdi-yu, Kemp eshikni qaytadan tambalab oldi. Eday sal to'xtadi, chunki eshikka suyanib turish har holda xavfsizroq edi. Keyin qaddini tik tutib shahdam qadamlar bilan zinapoyadan pastga tushdi.

U o'tloqdan o'tib ko'cha eshikka yaqinlashdi. Ko'katlarni shabada silkitganday bo'ldi. Edayning yonida qandaydir harakat sezilardi.

— Bir minut sabr eting,— dedi Ovoz.

Eday taqqa to'xtab, cho'ntagidagi to'pponchani mahkam ushladi.

— Nima gap o'zi?— dedi rangi o'chib, qovog'i solingan Eday, uning asabi nihoyatda qo'zg'ab ketgandi.

— Basharti uyga qaytib kirsangiz, meni behad xursand qilgan bo'lardingiz,— dedi Ovoz, xuddi Edayning o'zi singari zarda bilan.

— Baxtga qarshi, qaytib kira olmayman,— dedi Eday bo'g'iq tovush bilan va quruqshagan lablarini yaladi. Uning payqashicha, Ovoz so'l tomonida edi, baxt, deb o'q uzsa nima bo'larkin-a?

— Qayoqqa ketyapsiz?— so'radi Ovoz.

Har ikkalalari jadal harakat qildilar, shu choq Edayning qo'lida to'pponcha yaltiradi. Lekin u o'z niyatidan qaytib, o'ylanib qoldi.

— Qayoqqa borish — bu mening ishim,— dedi u salmoqlanib.

U gapni aytib tugatmasidanoq ko'rinmas qo'l uning hiqildog'iga yopishdi, yelkasiga Griffinning tizzasi tiraldi-yu, polkovnik yuz tuban yiqildi. Shundan so'ng Eday bir amallab to'pponchani oldi-da, tasmollab o'q uzdi; shu lahzada uning og'zi-burni aralash qattiq bir musht tushirib, to'pponcha qo'lidan yulqib olindi.

Edayning nari ketayotgan ko'rinmas oyoqdan tutib qolaman deb qilgan harakati zoye ketdi. Polkovnik turishga urindi-yu, lekin qaytadan yiqildi.

— E, la'nati!—xitob qildi u.

Ovoz kulib yubordi.

— Men sizni o'ldirgan bo'lardimu, o'q hayf ketadi- da,— dedi u.

Eday olti fut chamasi narida muallaq turib o'ziga o'qtalaltgan to'nponchani ko'rdi.

— Xo'sh?— dedi polkovnik, yerga o'tirib,

— Turing o'rningizdan!— deb buyurdi Ovoz.

Eday o'rnidan turdi.

— Tik turing!— dedi qat'iyat bilan Ovoz.

— Nayrangni yig'ishtiring. Esingizda bo'lsin, men basharangizni aniq ko'rib turibman, siz bo'lsangiz meni ko'rmaysiz. Endi uyga qayting.

— U meni ichkariga kiritmaydi,— dedi Eday.

— Ming afsus,— dedi Ko'rinmas odam.

— Men siz bilan janjallashgan emasman.

Eday yana lablarini yaladi. U ko'zini to'pponchadan oldi. Olisdan quyosh nurida zangori bo'lib tovlanayotgan dengiz, yashil maysa bilan qoplangan tepaliklar, qoyalardan iborat oppoq burun va gavjum shahar ko'rinib turardi.

Shunda Eday birdaniga hayotning naqadar shirinligini his etdi. So'ngra u o'zidan olti fut chamasi narida yer bilan osmon o'rtasida muallaq turgan metalli buyumga boqdi.

— Men nima qilishim kerak?— so'radi u qovog'ini solib.

— Xo'sh, men-chi, men nima qilishim kerak—suradi Ko'rinmas odam.

— Mabodo qo'yib yuborsam yordam bashlab kelasiz. Yo'q, siz orqangizga qaytishingiz kerak bo'ladi.

— Urinib ko'raman. Basharti u meni uyga kiritsa, ketimdan bostirib kirmaslikka so'z berasizmi?

— Men siz bilan janjallashgan emasman,— javob berdi Ovoz.

Kemp Edayni chiqarib yuborgach, shoshilib yuqoridagi kabinetiga chiqdi-da, oyna siniqlari ustidan ehtiyot bilan o'tib ohista deraza yoniga borib, pastga qaradi. U Edayni Ko'rinmas odam bilan suhbatlashib turganini ko'rdi.

— Nega u otmayayati?— mingilladi o'zicha Kemp.

Shunda to'pponcha boshqa qo'lga o'tib, quyosh nurida yaltiradi. Kemp ko'zini pana qilib, to'pponchaning harakatini kuzatishga urindi.

— Ha, xuddi o'zim aytganimday!— deb xitob qildi u.

Eday to'pponchani unga berdi.

— Ketimdan bostirib kirmaslikka so'z bering,— derdi shu mahalda Eday.

— Omadingiz kelganiga haddingizdan oshmang. Biror narsada siz ham yon bosing.

— Uyga qayting. To'g'risini aytib turibman: men hech nimani va'da qilmayman.

Eday, chamasi, qo'qqisidan bir qarorga keldi. U Kempning uyi tomon o'girilib qo'lini orqasiga qilgani holda sekin yura boshladi. Kemp hayron bo'lib uning harakatini kuzatardi. To'pponcha goh g'oyib bo'lib, goh qaytadan yaltirab ko'ringanicha Edayning ortidan qolmay kelardi. Keyingi voqealar yashin tezligida sodir bo'ldi:

Eday sharta o'girildi-da, to'pponchaga chang solmoqchi bo'lib hamla qildi, biroq to'pponcha qo'lga ilinmadi va polkovnik qo'lini yuqori ko'targanicha yuz tuban yiqildi, uning ustida esa, yengilgina zangori tutun ko'rindi. Kemp o'q ovozi eshitmadi. Eday bir necha bor tipirchiladi, o'rnidan turmoqchi ham bo'ldi, keyin gurs etib yiqildi-yu, jimib qoldi.

Kemp Edayning xotirjam odamdek qimir etmay yotishiga bir qancha vaqt qarab turdi. Kun issiq va dim bo'lib, bamisoli butun olam harakatdan to'xtaganga o'xshardi, faqat uy bilan ko'cha eshik o'rtasidagi butalar ustida ikkita sariq kapalak bir-birini quvib uchib yurishardi. Eday ko'cha eshik oldidagi kichkinagina maysazorda yotardi.

Tepalik ustidagi barcha villalarning derazalaridagi pardalar tushirib qo'yilgandi, lekin muo'jazgina yashil shiyponchada chamasi mudrab o'tirgan chol bo'lsa kerak, oq kiyim kiygan kishi ko'zga chalinardi. Kemp havoda muallaq turgan to'pponchani axtarib topish uchun atrofga diqqat bilan tikildi, biroq to'pponcha ko'zdan g'oyib bo'lgandi. Kemp yana Edayning jasadiga nazar tashladi. Keyin chinakamiga boshlanmoqda edi.

Allakim qo'ng'iroq chalib, tashqari eshikni tobora qattiqroq va qat'iyat bilan taqillata boshladi, lekin xizmatkorlar Kempning buyrug'iga amal qilib, o'z xonalarida bekinishib o'tirishardi. Nihoyat hammayoq tinchidi. Kemp bir nafas quloq solib o'tirdi, keyin ehtiyotkorlik bilan navbatma-navbat uchala derazadan mo'raladi. Shundan so'ng zinapoyaga chiqdi-da, yana diqqat bilan quloq soldi.

Keyin yotoqxonaga kirdi, u yerda kosov bilan qurollanib, barcha deraza ilgaklarini yana bir bor ko'zdan kechirib chiqish uchun pastga tushdi. Hammasi mustahkamlab berkitilgan edi. U qaytib yuqoriga chiqdi. Eday hali ham shag'al to'kilgan yo'lka yonida qimir etmay yotardi. Villalar yonidagi yo'lda Kempning oqsochi bilan ikkita polisiyachi ko'rindi.

Hamma yoq suv quyganday jimjit edi. Kempga anovi uch kishi nihoyatda imillab kelayotganga o'xshab tuyuldi. U nuqul dushmanim hozir nima qilayotganikin, deb o'ylardi. Birdan u cho'chib tushdi. Pastdan taraqlagan ovoz eshitildi. Kemp bir nafas taraddudlanib turgach, pastga tushdi. Daf'atan uy qattiq urilayotgan zarbalar va yorilayotgan yog'ochlarning qarsillagan ovozi bilan to'lib ketdi.



Deraza qopqalarining temir tambalari quloqni batang keltirib, jarang-jurung qilardi; Kemp kalitni burab oshxona eshigini ochdi. Xuddi shu mahal parchalab tashlangan qopqa xonaga qulab tushdi. Kemp dahshatdan tirrakday qotib to'xtab qoldi.

Deraza romining bir yondoridan bo'lak yog'ochlari butun edi, lekin oynadan arraning tishiga o'xshash hoshiyalargina qolgandi. Qopqa hozir derazani saqlab turgan rom va temir panjaraga zarb bilan urilayotgan bolta bilan chopib parchalab tashlangan edi. Lekin bolta qo'qqisidan bir tomonga qapchib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Kemp uy oldidagi yo'lda yotgan to'pponchani ko'rди, shu zahoti to'pponcha sakrab tepaga ko'tarildi. Bir sekunddan keyin o'q uzildi, Kemp eshikni yopdi, oshxona eshigidan qo'porilgan payraha uning boshi ustidan uchib o'tdi. U eshikni qulflashi bilan Griffinning hayqiriq va kulgisini eshitdi. Keyin boltaning og'ir zarbalari ostida deraza qopqalari yana qarsillay boshladi.

Kemp gangib kolidorda turardi. Bir daqiqadan keyin Ko'rinmas odam oshxonaga kiradi. Bu eshik uni uzoq vaqt to'xtatib tura olmaydi, ana o'shanda...

Tashqari eshikning qo'ng'irog'i chalindi. Polisiyachilar bo'lsa kerak. Kemp yo'lakka yugurdi, eshikning zanjirini solib, tambani bir chetga surdi. Oqsochining ovozi eshitgach, zanjirni ochdi. Har uchalalari uyga kirishdi, Kemp eshikni qaytadan yopib oldi.

— Ko'rinmas odam! — dedi Kemp. — Qo'lida to'pponcha bor. Unda ikkita o'q qolgan. U Edayni otib o'ldirdi. Yoki og'ir yarador qildi. Sizlar uni o'tloqda ; ko'rmadinglarmi? U o'sha yerda yotibdi:

— Kim? — so'radi polisiyachilardan biri.

— Eday, — dedi Kemp.

— Biz hovlining orqa tomonidan keldik, — dedi oqsoch xotin.

— Bu nima taraqa- turuq? — so'radi ikkinchi polisiyachi.

— U oshxonada... yoki hozir u yerga kiradi. Qo'lida boltasi bor...

Birdaniga oshxonani! Eshigiga zarb bilan urila boshlagan boltaning taraqlashi butun uyni tutib ketdi. Oqsoch xotin eshikka qaradi-yu, a'zoyi badaniga titroq turib, yemakxonaga tomon boshladi. Kemp bilganini gapirib berdi. Ular oshxona eshigi g'ijillaganini eshitdilar.

— Bu yoqqa yuringlar! — deb qichqirdi Kemp polisiyachilarni shosha-pisha yemakxonaga itarib kiritarkan.

— Kosovlarni keltirish kerak! — deb qichqirganicha kaminning oldiga yugurdi Kemp. U yotoqdan olib chiqqan kosovni birinchi polisiyachiga berdi, oshxonadagi kosovni esa ikkinchi polisiyachiga olib keldi. Birdan u orqaga sapchidi.

Polisiyachilardan biri boltani kosovning ilmog'i bilan tutdi... To'pponchadan o'q uzilib Sidney Kuper ishlagan qimmatbaho suratni teshib o'tdi. Ikkinchi polisiyachi go'yo ari o'ldirmoqchi bo'lganday qo'lidagi kosov bilan ajal qurolini bir urdi, to'pponcha taraqlab polga tushdi.

Ur-yiqit boshlanishi bilanoq oqsoch xotin chinqirib yubordi, bir lag'za chamasi kamin oldida turdi-da, chiqib qochishni mo'ljallab deraza ochgani yugurdi.

Bolta kolidorga chiqib, poldan ikki futcha yuqorida to'xtadi. Ko'rinmas odamning halloslab nafas olishi eshitalardi.

— Siz ikkovingiz chetga chiqib turing, — dedi Ko'rinmas odam, — Menga Kemp kerak.

— Bizga siz keraksiz, — dedi birinchi polisiyachi va oldinga tashlanib, ovoz eshitilgan tomonga kosov bilan hamla qildi. Lekin Ko'rinmas odam chap berishga ulgurdi, kosov zontik qilib qo'yadigan ustunga borib urildi.

Polisiyachi qulab ketayozdi, shu mahal bolta uning boshiga urilib, kaskasini g'ijimlangan qog'ozday majaqlab yubordi. Polisiyachi oshxona zinapoyasiga dumalab tushdi.

Lekin ikkinchisi boltaning orqasidan kelib hamla qilgandi, kosov yumshoq bir narsaga borib tegdi. Og'riqqa chidamay qichqirib yuborgan ovoz eshilib, bolta yerga tushdi. Polisiyachi yana kosov bilan tushirdi, lekin bu zarbasi xato ketdi; keyin u boltani oyog'i bilan bosib oldi-da, yana bir hamla qildi. U kosovni shaylab turib harakat sharpasini sezish uchun diqqat bilan quloq sola boshladi.

Polisiyachi yemakxonaning derazasi ochilgani va tez-tez tashlangan qadam tovushini eshitdi. Shu payt yaralangan sherigi o'rnidan turib o'tirdi; uning yuzidan qon oqardi.

— U qayerda?— so'radi yarador.

— Bilmayman. Uning ta'zirini berdim. Basharti yoningdan o'tib ketmagan bo'lsa, yo'lakda turgandir. Doktor Kemp! Ser!..

Hech qanday javob bo'lmadi.

— Doktor Kemp!— takror chaqirdi polisiyachi.

Yarador bo'lgan polisiyachi sekin o'rnidan tura boshladi. Nihoyat bir amallab o'rnidan turdi. Birdaniga oshxona zinapoyasidan yalang oyoq shipillab yurgan tovush eshitildi.

— Xop!—qichqirdi birinchi polisiyachi va kosovni otdi; kosov uchib borib gaz chiroqni pachaqlab yubordi.

U Ko'rinmas odamni ta'qib etmoqchi bo'ldi-yu, biroq bu fikridan qaytib, yemakxonaga kirdi.

— Doktor Kemp...— dedi u va darhol jim bo'lib qoldi.

— Judayam dovyurak odam ekan-ku bu doktor Kemp,— dedi u yelkasi o'sha qarab turgan sherigiga murojaat qilib.

Yemakxonaning derazasi lang ochiq bo'lib, u yerda na Kemp va na oqsoch xotin ko'rinardi.

Ikkinchi polisiyachi doktor Kemp to'g'risida o'z fikrini aytarkan, boplab so'kindi.

## **XXVIII Bob** **Ovchi ta'qib ostida**

Kempning uyini qamal qilish boshlangan mahalda qo'shni villaning egasi mister Xilas shiyponida uxlab yotgan edi. Mister Xilas «Ko'rinmas odam haqidagi bema'ni oldi-qochdi gaplarga» ishonishni aslo istamaydigan kamchilik o'jarlar toifasiga mansub kishilardan edi.

Lekin uning xotini mish-mishlarga ishonadigan bo'lib, bu haqda eriga bir necha marta gapirgan edi. Mister Xilas parvo qilmay bog'iga sayr qilgani chiqdi. Tushki ovqatdan keyin esa, eski odati bo'yicha, shiyponda yonboshladi. Ko'rinmas odam Kempning uyi oynalarini urib chil-chil qilayotgan mahalda mister Xilas tinchgina uxlab yotgan edi, ammo birdaniga uyg'onib ketib, ish pachava ekanini payqab qoldi.

U Kempning uyiga nazar tashladi, ko'zini ishqalab yana qaradi. So'ngra oyog'ini osiltirib o'tirib oldi-da, quloq soldi. U duo o'qib qaradi, lekin g'alati manzara ko'z oldidan ketmadi.

Kempning uyi huvillab, talon-toroj qilingan tashlandiq joyga o'xshab qolgandi. Derazalarning hamma oynalari urib sindirilgandi, yuqori qavatdagi kabinetdan tashqari barcha xonalarning deraza qopqalari ichkaridan berkitib qo'yilgan edi.

— O'lay agar,— dedi mister Xilas va soatiga qaradi,— yigirma minut ilgari hamma oynalar but-butun edi.

Olisda ketma-ket urilayotgan zarba va oynalarning jaranglab sinishi eshiltildi. Keyin, u anqayganicha og'zini ochib o'tirgan mahalda yanada qiziqroq bir voqea yuz berdi.

Yemakxonaning darchasi ochilib, deraza oldida boshiga shlyapa va egniga palto kiygan oqsoch xotin paydo bo'ldi, u kuchining boricha derazani ochishga urinardi. Qo'qqisdan uning yonida ikkinchi bir odam paydo bo'lib, unga yordamlasha boshladi. Doktor Kemp!

Bir daqiqadan keyin deraza ochilib, oqsoch xotin undan oshib tushdi; u g'izillab yugurganicha bir zumda butazor ichiga kirib ko'zdan yo'qoldi. Mister Xilas shunday g'alati voqealarning guvohi bo'lganidan qattiq hayajonlanib, allanima deb ming'illaganicha o'rnidan turdi. U qanday qilib Kempning deraza tokchasiga chiqqani va u yerdan tashkariga sakrab tushgani, so'ng shu zahotiy oq butalar ekilgan yo'lkada paydo bo'lganini ko'rdi.

U go'yo birovdan yashirinayotganday engashib yugurardi. U butalar orqasida g'oyib bo'ldi, keyin yana ochiq maydon tomondagi ihota oldida ko'rindi. Kemp ko'z ochib yumguncha ihotadan bir hatlab o'tdi-da, qiyamalikdan Xilasning shiyponchasiga qarab yugurdi.

— Yo rabbiy!—xitob qildi mister Xilas, dahshatli fikrdan hangu mang bo'lib.

— Bu o'sha ablah Ko'rinmas odam-ku! Demak, hammasi bor gap ekan-da!

Mister Xilas uchun bu fikr jadal harakat boshlamas kerak degan ma'noni anglatardi. Yuqori qavatning derazasidan qarab uni kuzatib turgan oshpaz xotin xo'jayinining uy tomon soatiga to'qqiz mildan ortiq tezlik bilan yugurib kelayotganini ko'rib hayron bo'ldi.

— Nimadan bunchalik qo'rqdikin-a!—pichirladi oshpaz xotin.

— Oyog'i kuygan tovuqday yugurishini qarang uning.

Eshiklarning taraqlab yopilgani, qo'ng'iroqchanning jiringlagani eshitildi va mister Xilas:

— Eshiklarni yopinglar! Derazalarni yopinglar! Hamma yoqni berkitinglar! Ko'rinmas odam kelyapti!— deb baqira boshladi.

Shu zahoti butun uy shovqin-suron va tapir-tupurga to'lib ketdi. Ayvon eshiklarini yopgani mister Xilasning o'zi yugurdi, shu mahal devor orqasidan Kempning boshi, yelkasi va tizzalari ko'rindi. Bir minut o'tgach, Kemp sarsabil jo'yagi ustidan bir sakrab o'tdi-da, sersoya maydoncha orqali uyga tomon yugurdi.

— Yo'q, mumkin emas,— dedi mister Xilas, eshikni tambalar ekan.

— Ming afsus, lekin orqangizdan quvib kelayotgan bo'lsa, bu yoqqa kirishi mumkin.

Kempning dahshatdan burishib ketgan basharasi derazaga yopishdi. U ayvon eshigini taqillatib, shiddat bilan qabzani torta boshladi. Harakatlari behuda ketayotganini ko'rib, ayvondan yugurib borib boqqa sakradi-da, yon tomondagi eshikni taqillatishga kirishdi. Keyin yonboshdagi eshikdan yugurib tashqariga chiqdi-da, imoratni aylanib o'tib, ko'cha bo'ylab chopa ketdi.

Kemp deraza oynasidan vahima bilan qarab turgan mister Xilasning ko'zidan yashirinishga ulgurmasdanoq, ko'zga ko'rinmas oyoqlar shafqatsizlik bilan sarsabil jo'yagini payhon qilib o'tdi. Shunda mister Xilas qushday uchib zinapoyadan yuqori qavatga chiqdi va keyingi voqealarni ko'rolmay qoldi. Lekin deraza oldidan yugurib o'tayotganida qulog'iga yonboshdagi ko'cha eshik taraqlagani chalindi.

Kemp sakrab yo'lga tushgach, tepalik etagiga qarab yugurdi. Bundan to'rt kungina burun uning o'zi kabinet derazasidan mister Marvelning yugurishini ko'rib, ensasi qotgan edi. Mana endi shu hol uning o'z boshiga tushdi. Ko'pdan beri mashq qilmagan odamga taqqoslanganda, Kemp ancha yaxshi yugurmoqda edi.

Garchi rangi o'chib, a'zoyi badani qora terga botib ketgan bo'lsada uning miyasi xotirjam va aniq ishlardi. U lo'killab chopar, o'ng'aysiz joylar, notekis toshloqlar yoki quyoshda yaraqlab ko'rinayotgan oyna parchalari duch kelganda, ta'qib etuvchisining oyoqlariga qaysi yo'lni xohlasa, o'sha yo'lni tanlash ixtiyorini berib o'zi to'g'ri boyagi noqulay yo'ldan yugurardi.

Kemp umrida birinchi marta tepalikdagi yo'l haddan ziyoda uzoq va xilvat, shahargacha bo'lgan masofa esa nihoyatda olis ekanini payqadi. Olamdagi harakatlar orasida yugurishday mushkul va imillaydigan harakat usuli bo'lmasa kerak. Choshtgoh quyoshi ostida mudrayotgan villalarning eshik va derazalari taqa-taq berk edi. To'g'ri, bu uning o'z ko'rsatmasiga binoan qilingandi.

Lekin biror odamning fahmi yetib har ehtimolga qarshi bo'layotgan voqealarni kuzatib turgan bo'lsa koshki edi! Olisda shaharning qorasi ko'rindi, dengiz ko'zdan yashirindi, pastda odamlar bor edi. Xuddi shu mahalda tepalik etagiga konka yaqinlashib kelmoqda edi. U yerda esa, polisiya idorasi bor. Lekin orqadan nima eshityapti, oyoq sharpasimi? Jadalroq yugurish kerak!

Pastdagi odamlar unga tikilib turishardi, bir necha kishi ura qochdi. Kempning o'pkasi og'ziga tiqilib qoldi. Endi konka juda yaqin kelib qolgandi, «Quvnoq kriketchilar» qovoqxonasida taraqturuq qilib eshiklarni berkita boshladilar. Konkani orqasida xodalar va zaxob yerni quritishda ishlatish uchun to'kib qo'yilgan bir uyum shag'al bor edi.

Kemp bir zum, irg'ib konkaga chiqsamu, eshikni yopib olsammikin, deb o'yladi, lekin darhol bu fikridan qaytib, to'g'ri polisiya idorasiga borganim durust deb jazm qildi. Bir minutdan keyin u «Quvnoq kriketchilar» qovoqxonasi yonidan o'tib, ko'chaning oxiriga, odamlar orasiga chiqdi. Konkachi bilan uning yordamchisi otlarni chiqarishni ham unutilib, og'izlarini ochgancha

Kempga anqayib turardilar. Shag'al uyumi ortidan hayron bo'lib qolgan yer qazuvchilar qarab turishardi.

Kemp yugurishini sal sekinlatdi, lekin orqasidan ta'qibchisining tez yaqinlashib kelayotganini eshitib, yanada qattiqroq yugurdi.

— Ko'rinmas odam!—qichqirdi u yer qazuvchilarga orqa tomonga qo'l siltab. Keyin birdan baxti yurishib chuqurning narigi betiga sakrab o'tdi. Natijada u bilan Ko'rinmas odam o'rtasida bir necha zabardast yer qazuvchilar paydo bo'lib qoldi. Kemp polisiya idorasiga borish fikridan kechib, tor ko'chaga burildi, so'ngra ko'kchining aravasi yonidan gizillab o'tib, allaqanday do'kon eshigi oldida bir lahzagina qadamini sekinlatdi-da, katta ko'chaga chiqadigan xiyobondan yugurib ketdi.

U paydo bo'lgan mahalda daraxtlar ostida o'ynab yurgan bolalar chinqirishib, har tarafga qochishdi, bir necha derazalar ochilib, achchig'i qaynagan onalar uning orqasidan allanimalar deb baqirib qolishdi. U yana konka to'xtaydigan joydan uch yuz yardcha naridagi Xillstritga chiqdi va ayyuhannos solib, yugurib kelayotgan odamlarni ko'rdi.

Kemp tepalik tomonga cho'zilib ketgan ko'chaga qaradi. O'zidan yigirma yard chamasi narida qattiq so'kinib va belkuragini silkitib barvasta yer qazuvchi yugurib kelardi; uning orqasidan esa, mushtini o'qtalib konka konduktori chopardi. Ularning ketidan baqirishib-chaqirishib, allakimga o'dag'aylashganicha bir to'da odamlar yugurishardi. Boshqa tarafdin ham shahar tomonga qarab erkak va ayollar shoshib-pishib kelishardi. Shu payt Kemp do'konlarning biridan tayoq ko'targan bir kishi yugurib chiqqanini ko'rdi.

— Atrofini o'rab olinglar! Atrofini!— deb qichqirdi allakim.

Kemp birdaniga vaziyat tubdan o'zgarganini payqab qoldi. U nafasini rostlagani to'xtab, atrofga alangladi.

— U shu orada,— dedi Kemp.

— O'rab olinglar...

— Aha!— degan Ovoz eshitildi.

Kempning quloq-chakkasi aralash qattiq bir musht tushdi-yu, u gindiraklab ketdi. Yiqilishiga sal qolgan Kemp ko'rinmas dushmani tomon o'girilib, hamla qilishga urindi, lekin solgan mushti xato ketdi. Keyin o'zi jag'iga qattiq bir musht yeb yerga ag'darilib tushdi. Bir lahzadan keyin qorniga tizza qadaldi va ikki qo'l jon achchig'ida uning hiqildog'idan bo'g'di, lekin bir qo'lning ikkinchisiga nisbatan zaifroh ekani sezilib turardi.

Kemp Ko'rinmas odamning panjasini siqdi, qattiq ingrangan ovoz eshitildi, shu payt birdan Kempning boshi uzra yer qazuvchining belkuragi ko'tarildi-da, gursillab allanimaga tegdi. Kempning yuziga bir nima tomidi. Uni bo'g'ayotgan qo'llar birdaniga zaiflashdi; Kemp bir zo'r berib o'zini xalos etdi-da, dushmanining bo'shashib qolgan kiftidan tutib, ko'zga ko'rinmas tirsaklarini qayirganicha, uni bosib tusha boshladi.

— Men uni tutdim,— chinqirdi Kemp,— Yordam beringlar, yordam! Oyog'idan ushlanglar.

Bir lahzada butun olomon Ko'rinmas odamning ustiga yopirildi. Bexabar tomoshabin bu yerda qizgin futbol o'yini bo'lyapti deb o'ylashi mumkin edi. Kempning chinqirig'idan so'ng hech kimsa lom-mim deb og'iz ochmadi, urilayotgan musht, tepki va halloslab olingan nafas tovushigina eshitalardi, xolos.

Ko'rinmas odam jon achchig'ida bir necha muxolifini ustidan irg'itib tashlab, o'rnidan turishga muvaffaq bo'ldi. Kemp bamisoli bug'uning tomog'idan olgan tozi itday Ko'rinmas odamga yopishdi, shu choq o'nlarcha qo'llar ko'rinmas jasadga hamla qilishdi, uni mushtlashdi, tortqilashdi.

Konka konduktori uning bo'ynidan xippa bo'g'ib yana yerga ag'dardi

Tag'in Ko'rinmas odamni olomon qilib urish boshlandi. Rostini aytganda, kishilar bechorani shafqatsizlik bilan urishardi. Qo'qqisidan: «Rahm qilinglar! Rahm qilinglar!»—degan faryod eshitildi va darhol bo'g'iq ingroqqa aylanib jim bo'lib qoldi.

— Bo'ldi qilinglar, ahmoqlar!— qichqirdi Kemp bo'g'iq tovush bilan, olomon darhol orqaga tislandi.

— U yarador, yarador deya pman-ku, sizlarga. Keyinroq surilinglar!

Nihoyat, qizishib g'uj bo'lib olgan olomon Kempning bamisoli yerdan o'n besh dyuymcha yuqorida muallaq turganday tiz cho'kkanini ko'rди; u ko'rinmas qo'llarni yerga bosmoqda edi; polisiyachi ko'rinmas oyoqlarni ushlab turardi.

— Uni bo'shatmanglar!— qichqirdi yer qazuvchi, qonga belangan belkuragini bosh ustida o'ynatib.— Mug'ambirlik qilyapti!

Mug'ambirlik qilayotgani yo'q,— dedi Kemp, ko'zga ko'rinmas jasad oldida tizzasi bilan o'tirib,— undan tashqari, men uni mahkam ushlab turibman,— Kempning basharasi yorilgan bo'lib, endi shisha boshlagan edi; u arang gapirar, labidan esa qon oqardi. U qo'lini ko'tardi va chamasi yerda yotgan Ko'rinmas odamning yuzini paypaslab ko'ra boshladi. Og'zining hamma yog'i xo'l,— dedi u va birdan qichqirib yubordi:—E rabbiy!

Kemp irg'ib o'rnidan turди va yana ko'zga ko'rinmas jasad oldida tiz cho'kib o'tirdi. Tag'in turtinish, tiqilish boshlandi. Hamma uylardan odamlar yugurib chiqishardi. «Quvnoq kriketchilar» qovoqxonasiining eshigi lang ochildi.

Kemp go'yo bo'shliqni paypaslaganday, qo'lini u yoqdan- bu yoqa olib borardi.

— Nafas olmayapti,— dedi u.

— Yuragi ham urmayapti. Uning biqini... Oh!

Barvasta yer qazuvchining tirsagi ostidan mo'ralab turgan bir kampir qo'qqisdan qichqirib yubordi:

— Qaranglar!— dedi u, burishgan barmog'ini cho'zib.

Hamma odamlar kampir ko'rsatgan tomonga qarab yerda behol yotgan qo'l tarxini ko'rди, qo'l go'yo shishadan yasalganga o'xshardi, uning hamma qon tomirlari, hamma suyak va nervlarini ko'rish mumkin edi. Qo'l shaffofligini yo'qotib, kishilar ko'zi o'ngida xiralashmoqda edi.

— Uho',— deb xitob qildi konstabl.

— Mana oyoqlar ham ko'rina boshladi.

Shunday qilib ohistalik bilan qo'llar va oyoqlardan boshlangan bu g'alati, ko'zga ko'rinadigan mavjudotga aylanish jarayoni sekin-asta hayotiy markazning barcha a'zolariga tarqala boshladi. Bu, zaharning badanga tarqalishini eslatardi.

Dastavval badanning xiraroq tarxini hosil etib ingichka oq nervlar paydo bo'lardi, keyin avval yupqa tuman shaklida, lekin oradan sal o'tmay, xiralashib, tig'izlanib muskullar va terilar paydo bo'lardi. Tez orada pachaqlangan ko'krak, yelkalar va dabdala bo'lgan yuzning g'ira-shira shakli namoyon bo'ldi.

Nihoyat olomon orqaga chekinib, Kemp oyoqqa turishga muvaffaq bo'lgach, hamma o'ttiz yoshlarga kirgan, urib abjag'i chiqarilgan yigitning yalang'och va nochor murdasi yerparchin bo'lib cho'zilib yotganini ko'rди. Uning soch va soqoli oq edi, lekin keksalarning soch-soqoli singari emas, balki albinoslarnikiga o'xshash oppoq bo'lib, ko'zlari bamisoli anor donalari singari qip-qizil edi. Uning qo'llari changak bo'lib, ko'zlari baqraygan, basharasida esa g'azab va umidsizlik ifodasi qotib qolgan edi.

— Basharasini yopinglar!—qichqirdi birov.

— Xudo haqi, basharasini yopinglar!

Murdani «Quvnoq kriketchilar» qovoqxonasidan olingan choyshab bilan o'rashib, uyga olib kirishdi. Ana shu yerda, chala qorong'i xonadagi ayanch o'rindiqda, johil, jazavasi tutgan olomon o'rtasida kaltaklanib dabdalasi chiqqan, xiyonatga duchor bo'lgan va shafqatsizlarcha ta'qib ostiga olingan, odamzod orasida birinchi bo'lib ko'zga ko'rinmas bo'lishning uddasidan chiqqan kishi — olamda tengsiz iste'dodli fizik Griffin o'zining g'alati va dahshatli hayot yo'lini tugatdi.

## Xotima

Ko'rinmas odamning ajoyib halokatli tajribasining qissasi ana shunday tugaydi. Mabodo u haqda batafsilroq ma'lumot olishni istasangiz, Port-Stou yaqinidagi mo'jazzgina mayxonaga

kirib, mayxonachi bilan suhbatlashing. Bu mayxonaning viveskasi bir burchagiga shlyapa, ikkinchi burchagiga esa boshmoqning surati ishlangan quruq taxtadan iborat. Mayxona ham ushbu kitobning nomi bilan atalgan.

Basharasi qip-qizil mayxonachi pak-pakana, burni uzun, semiz va paxmoq soch odam. Ko'proq iching, shunda u, albatta yuqorida yozib o'tilgan voqealardan, keyin o'zining boshidan o'tgan gaplarni hamda qanday qilib sud uning yonidan topilgan pullarni tortib olmoqchi bo'lganini sizga batafsil gapirib beradi.

— Bu pullar kimniki ekanini aniqlash mumkin emasligiga ishonch hosil qilishgandan keyin, ular bu odamga bir xazina sifatida qarash kerak, deyishsa bo'ladimi. Qani, o'zingiz ayting-chi, xazina bilan mening qanday o'xshashligim bor? Keyin esa, bir janob shu qissani hikoya qilib berganim uchun har kechaga bir gineydan to'ladi.

Basharti siz uning shaloladay quyilayotgan xotiralarini darhol to'xtatmoqchi bo'lsangiz, undan, bu voqeada qandaydir qo'l yozma kitoblar ishtirok etmaganmide, deb so'rasangiz bas.

U kitoblar haqiqatan ham bo'lganini tan oladi, keyin qasamyod etib, hamma odamlar o'sha kitoblar menda deb hisoblasalar-da, bu gap g'irt yolg'on, ular menda emas, deb e'tiroz bildiradi.

— Ko'rinmas odam ularni mendan olgan va men undan qochib Port-Stouda yashiringan mahalimdayoq allaqayerga berkitgan. Kitoblar menda degan uydirma gaplarni mister Kemp tarqatib yuribdi.

Shundan so'ng u har safar xayolga cho'madi, sizni o'g'rincha kuzatadi, asabiylashib stakanlarni artadi va nihoyat xonadan chiqib ketadi.

U keksa bo'ydoq, shuning uchun ham uyida birorta ham xotin zoti yo'q. Uning hamma ustki kiyimlarini tugma bilan qadaydi — uning tutgan mavqei shuni talab qiladi — lekin podtyajka va boshqa, ko'zdan naribroq kiyimlari uchun hali ham kanop va chizimchalar ishlatadi. Ishda unchalik uddaburo emas, lekin o'z mayxonasining obro'si uchun jon kuydiradi. Uning harakatlari sust, o'zi esa xayolchanlikka moyilroq. Yashab turgan joyida uni aqlli odam deb bilishadi, reja bilan ish tutgani uchun hamma uni hurmat qiladi.

Janubiy Angliya yo'llari haqida esa u sizga har qanaqangi yo'l ko'rsatkichdan mukammalroq ma'lumot beradi.

Yakshanba kuni ertalab yilning barcha fasllaridagi har yakshanbada va har kecha soat o'ndan keyin ozroq suv qo'shilgan djindan bir stakanini olib, yemakxonaga kiradi, shundan so'ng eshikni qulflaydi, darpardalarni ko'zdan kechiradi, hatto stolning ostigacha qaraydi. O'zining tamomila yolg'iz qolganiga ishonch hosil qilgach, shkafni ochadi, u yerdan uchta rang charm muqovali kitobni oladi- da, ularni tantana bilan stolning o'rtasiga qo'yadi.

Kitoblarning muqovasi titilgan va ustini yashil po'panak bosgan (chunki bu kitoblar bir kechani zovurda o'tkazganlar), bir necha sahifalari esa, iflos suvda tamomila yuvilib ketgan. Mayxonachi kresloga o'tiradi, kitoblarga mahliyo bo'lib tikilganicha salmoqlanib sopol trubkasiga tamaki bosadi. Shundan keyin u kitoblardan birini oldiga suradi-da, sahifalarini goh boshidan oxiriga qarab, goh oxiridan boshiga qarab ochganicha uni o'rganishga kirishadi. Qoshlari chimiriladi, lablari pichirlaydi.

— Olti, yuqorida kichkina ikki, krestcha va ilmoq. E rabbiy, rosa miyasi butun odam ekan-da!

Saldan keyin uning ishtiyoqi susayadi, u o'zini kresloning suyanchig'iga tashlaydi-da, tutun orasidan bamisoli oddiy odamlarning ko'ziga ko'rinmaydigan narsani ko'rayotganday xonaning ichkarisiga qaraydi.

— Bunda qancha sirlar bor,— deydi u,— aql hayron qoladigan sirlar bor...

Eh, koshki edi shu sirlarning tagiga etilsa!

Men undaqa qilmagan bo'lardim.

Qani endi men... eh!

— U chuqur nafas olib, tutunni puflaydi.

Shunda u orzuga — o'z hayotining o'lmas va ajib orzusiga cho'mib ketadi.

Kempning tinimsiz olib borayotgan axtaruvlarga qaramay, Ko'rinmas odam siri va boshqa ko'pdan-ko'p ajoyib sirlarni o'zida saqlaydigan kitoblar qayerda ekanini olamda mayxonachining o'zidan bo'lak xech kim bilmaydi. Ha, mayxonachi tirik ekan, buni hech kimsa bilmaydi.

1897 yil.